

O'ZBEKISTON FUTBOLI VA JCh-2010-2014



Foto 1. JCh-2010 g'olibi – Ispaniya futbol terma jamoasi oltin kubokni qo'lga kiritdi. [1]

Davlat arboblarning xatolari uchun jazoni millat tortadi. [2, 113-b.]
BERDYAYEV N. (1874-1948)

MUNDARIJA

Kirish so'zi (2012 yil 3 oktyabr).

Kitobning ikkinchi nashriga so'zboshi (2010 yil 17 iyul).

Muqaddima

1. Jahon futboli tarixidan ma'lumotlar.
2. Futbol bo'yicha Jahon chempionati tarixi.
3. FIFAning Jahon kubogi tarixi.
4. Barcha Jahon chempionati natijalari.
5. Futbolning buyuk qiroli Pele.
 - 5.1. Bolalik davri.
 - 5.2. Professional mahoratining o'sishi.
 - 5.3. Braziliya terma jamoasidagi o'yini.
 - 5.4. "Kosmos" klubidagi o'yini.
 - 5.5. Mahorati sirlari.
 - 5.6. Ayrim hayratlanarli muvaffaqiyatlari.

5.7. “Pele” so’zining ma’nosi.

5.8. Mashhurligi.

5.9. Futboldan ketgach amalga oshirgan ishlari.

6. Jahonning 125 nafar mashhur futbolchisi.

7. O’zbekiston futboli haqida ma’lumotlar.

8. Ichki ishlar vaziri, general-polkovnik Zokirjon Almatovning 1995 yilda O’zbekiston Futbol Federatsiyasi prezidenti etib tayinlanish sabablari va u haqda ayrim ma’lumotlar.

9. 1997 yilda Prezident I.Karimovga, Futbol federatsiyasi prezidenti, general-polkovnik Z.Almatovga va yana bir nechta rahbarlarga Vatanimizda futbolni rivojlantirishga doir yozgan xatim va uning keyingi taqdiri.

9.1. Professional futbolimizning 1995-1996 yillardagi ahvoli va uning rahbariyati haqida ayrim ma’lumotlar.

9.2. 1995-1997 yillarda O’zR Prezidenti va boshqa rahbarlarga jo’natgan o’nta, jumladan futbolga doir taklifni yozishim sabablari.

9.3. 1997 yilda futbolga doir yozgan 15 betlik xatim mazmuni va uning keyingi taqdiri.

10. 1997 yilda Sobirjon Ro’ziyev bilan uchrashishim, Braziliyadan Veyga da Silvaning taklif etilishi va natijalar.

10.1. Futbol terma jamoamizning 1997 yildagi ayrim o’yinlari natijalari.

10.2. 1997 yilda Sobirjon Ro’ziyev bilan uchrashishim va futbol haqidagi suhbatim.

10.3. Braziliyadan Veyga da Silvaning taklif etilishi, uning murabbiylik uslubi va dastlabki natijalar.

10.4. Futbol terma jamoamizning 1998 yil dekabrda 13-Osiyo o’yinlaridagi natijalari.

11. Futbol terma jamoamizning 1999-2005 yillardagi ahvoliga doir ma’lumotlar.

12. Madaniyat va sport ishlari vazirligi oldida 2005 yildagi piket.

12.1. Bir guruh inson huquqlari himoyachilarining O’zbekiston madaniyati va sporti muammolariga doir talabnomasi.

12.2. Madaniyat va sport ishlari vazirligi oldida 2005 yildagi piket tafsilotlari.

12.3. Meni Mirobod tuman Ichki ishlar boshqarmasi rahbarlari va Toshkent shahar bosh psixiatri X.Husanxo’jayev 2005 yil 31 may kuni so’roq qilishi tafsilotlari.

13. O’zbekiston – Quvayt terma jamoalarining 2005 yilda Toshkentdagi o’yini va shoir B.Ro’zimurodovning futbol haqidagi she’ri.

14. O’zbekiston – Bahrayn uchrashuvidagi g’alaba, O’FF rahbariyati FIFAgaga raddiyanoma yozishi va terma jamoamiz 2006 yilgi Jahon chempionati final bosqichida qatnashishdan mahrum bo’lishi.

15. Futbol terma jamoamiz bosh murabbiyi V. Nepomnyashiy haqida ma'lumot va jamoaning 2006 yildagi ahvoli.

16. Prezident I.Karimovning 2006 yilgi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va unga nisbatan tanqidiy fikrlarim.

17. Oliy liga futbol klublaridagi vaziyat.

18. Birinchi liga futbol klublaridagi vaziyat.

19. Kuchishlatar organ xodimlari muxlislarni ayovsiz kaltaklashdi.

20. Ayrim hakamlar futbolni maynavozchilikka aylantirmoqda.

21. Referi R.Ermatov – 19-Jahon chempionatida.

22. Futbolchilar transferlari oshkoraligi.

23. Lotin Amerikasi hamda Afrikadan legionerlarni futbol klublarimizga taklif etish qay ahvolda?

24. 2007-2011 yillarda Osiyo terma jamoalari va klublari ishtirokida o'tkaziladigan xalqaro musobaqalar.

24.1. Olimpiada saralash musobaqasi.

24.2. Terma jamoalar miqyosidagi musobaqalar.

24.3. Klublar o'rtasidagi musobaqalar.

24.4. O'smirlar o'rtasidagi musobaqalar.

24.5. Futzal.

25. Professional futbolimizni rivojlantirish uchun mablag'ni qayerdan olsak bo'ladi?

26. Futbol demokratik sport o'yinidir: xulosalar.

27. Ispaniya milliy terma jamoasi 2010 yildagi 19-Jahon va 2012 yildagi Yevropa chempionati g'olibi bo'lish siri.

27.1. Ispaniya milliy terma jamoasi muvaffaqiyatlari.

27.2. Ispaniya futbol chempionatining 2009-2010 yil natijasi.

27.3. Real (Madrid) jamoasi.

27.4. Tenerife (Tenerife) jamoasi.

Ilova. X.Hamidovning "O'zbeklarga nima bo'layapti?" she'ri.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH SO'ZI (2012 yil 3 oktyabr)

Ma'lumki, 2012 yilda o'zbek futboli yuz yoshga to'ldi. O'zbekiston Futbol Federatsiyasi rahbarlari bir necha marta "O'zbek futbolining 100 yillik yubileyi" va yangi qurib bitkazilgan "Bunyodkor" stadionining ochilish marosimi tantanalari birgalikda 2012 yil 28 sentyabr kuni o'tkazilishi haqida aytishgandi. 28 sentyabr kuni tantanalar faqat ushbu stadionning ochilish marosimi bilan chegaralandi.

Lekin O'zbekiston futbol terma jamoalari xalqaro musobaqalardagi natijasi pastligicha qolmoqda. Buning sababi nimada?

Har bir futbol muxlisida O'zbekiston futbol terma jamoasi qachon jahon chempionati final bosqichiga, ya'ni mundialga chiqadi, degan savoli bor.

Men bu savolga javob izlab 2007 yilda kitob yozgandim. 2010 yilda uning 2-nashrini tayyorlash jarayonida bir necha yangi paragraflar yozib qo'shgandim.

Kitobning 2010 yilgi variantiga ayrim qo'shimchalar qo'shib, futbol muxlislari e'tiboriga havola qilmoqdaman.

KITOBNING IKKINCHI NASHRIGA SO'ZBOSHI (2010 yil 17 iyul)

Futbolga doir tahliliy kitobim yozilish tarixi haqida ikki og'iz so'z. Men uni 2005 yil 16 oktyabrda «Нужен ли узбекскому футболу свадебный генерал-полковник?» ("O'zbek futboliga to'y general-polkovnigi kerakmi?") nomli maqola ko'rinishda yoza boshlagan edim. Lekin o'sha paytlar boshqa ishlar, tazyiqlar ko'payib ketib, boshqa maqolalar yozishim zarur bo'lganligi sababli bu maqolani oxiriga yetkazish imkoni bo'lmagan edi.

Maqola qilib yozaman deb boshlagan ishim hajmi kengaya borib, kitobga aylandi. Kitobimning lotin alifbosidagi variantini 2006 yil bahorida boshlab, oxirgi tuzatish va qo'shimchalarni 2007 yil 6 yanvar kuni kiritgandim. U www.turonzamin.org saytida 2006 yil 15 noyabridan 2007 yil 7 yanvariga qadar bandma-band chop etilgandi.

O'zbekistonda futbol o'yinining millionlab muxlislari bor. Ayniqsa yosh avlod orasida ularning soni ko'pchilikni tashkil etadi. Savodini kiril alifbosida chiqargan vatandoshlarimiz kitob va maqolalarni kiril alifbosida o'qishni xohlashadi. Bu haqda menga iltimos qilganlar ham bo'ldi. Hatto toshkentlik 20 yoshlardagi yigit futbol haqidagi kitobimni kiril alifbosida saytdan olib chop etib tayyorlab berishimni iltimos qildi va buning uchun 2008 yil boshida menga bunak (avans) puli ham bergan edi. Lekin uni oxirgi 3,5 yil davomida kiril alifbosiga o'tkazish iloji bo'lmadi. Buning sabablari haqida qisqacha yozib o'tsam.

O'zbekistondagi politsiyaviy rejimning asosiy tayanchi bo'lmish Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi xodimlari prokuratura va sud tizimi orqali hur fikrli inson huquqlari himoyachilari, jurnalistlar, muxolif partiyalar faollarini tinimsiz tazyiq qilish, hibsga olish va ular ustidan nohaq sud mahkamasini o'tkazishardi. Men piket va norozilik aksiyalari o'tkazish, nohaq sud mahkamalarida qatnashish, dolzarb voqealar haqida maqola, ulardan aksari tahliliy maqolalar, va kitoblar yozish bilan band bo'lardim. Bu – birinchi sabab.

O'zimning kompyuterim yo'qligi sababli Toshkentdagi internet-kafelarda soatbay pul to'lab kompyuterda maqola va kitoblarimni yozardim. Kuchishlalar organlarining doimiy tazyiqi sharoitida orttirgan ozroq pulimga olgan kompyuter vaqtimni dolzarb voqealarga doir yangi maqolalar va kitoblar yozishga harakat qilardim. Bu – ikkinchi sabab.

O'zim ham kuchishlalar organlarining turli xil tazyiqlariga duchor bo'lardim, hatto 2001 yil 30 oktyabridan 4 dekabrgacha 36 kun hibsdan saqlashdi. Ushbu tazyiqlar haqida O'zR Prezidenti I.Karimov, O'zR Senati raisi, Qonunchilik palatasi raisi, O'zR Bosh prokurori, sud organlariga shikoyat arizalari, xalqaro tashkilotlarga murojaatnoma, saytlarga maqolalar yozib o'zimni himoya qilishimga to'g'ri kelgandi. Bu – uchinchi sabab.

Ko'pgina tazyiqlardan keyin 2008 yil 12 oktyabrga o'tar kechasi soat 2.00 da Toshkentdan Andijonga, O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasidagi "Do'stlik" posti orqali O'shga, u yerdan Bishkekka bordim. Bishkekdan 2008 yil 4 noyabr kuni Almatiga borib, BMT Qochqinlar ishi bo'yicha Oliy komissarligining Almatidagi vakolatxonasida avvaliga "boshpana izlovchi" sifatida, 2009 yil 23 fevralida qochqin sifatida ro'yxatdan o'tdim.

AQSh rahbariyati siyosiy boshpana berishga roziligi sababli men 2010 yil 21 yanvar kuni Almati shahridan Aydaho shtati markazi bo'lmish Boysi shahriga keldim. Ish stoli masalasi 2010 yil aprelda hal bo'ldi. Yangi kompyuterni 2010 yil 4 may kuni Boysidagi "Best Buy" ("Eng yaxshi xarid") nomli katta elektronika magazinidan 689 dollarga sotib oldim. Endi ushbu kitobimni futbol bo'yicha 19-Jahon chempionati boshlanganiga qadar kiril alifbosiga o'tkazib, futbol muxlislariga havola qilaman, deb o'ylagan edim. Lekin menga qarshi muammolar yaratildi.

2010 yil 4 maydan boshlab Boysi kutubxonasidagi kompyuterda internet-saytlarda chop etilgan lotin alifbosidagi [3]-[5]- maqolalarimni fleshkaga ko'chirib olib, uydagi kompyuterimda kiril alifbosiga o'tkazdim va saytda chop ettirdim.

9 kun o'tgach - 2010 yil 13 may kuni kechqurun uyga kelib, kompyuterimni ochsam, birorta harf terilmadi. Qarasam, Microsoft Office dasturi o'chirilgan.

Kompyuter ishlashiga Windows-7 dasturi javob beradi. Kompyuterda matnlar terish, grafik va jadvallar tuzish, chiziqlar tortish va shunga o'xshash vazifalar Maykrosoft Offis (Microsoft Office) dasturi yordamida amalga oshiriladi. 15 may kuni kechasi soat 1.30 gacha ingliz tilidagi kompyuterim hujjatlari bilan tanishdim. Viruslarga qarshi NORTON nomli pullik dastur 60 kungacha bepul ishlatishga ruxsat berilgani haqida yozilgandi.

Kompyuterda "Microsoft Office aktivatsiya" ("Maykrosoft Offisni faollashtirish (ishga tushirish)") bo'limida quyidagi yozuv bor ekan (avval ingliz tilida, keyin o'zbek tilida keltiraman, uni o'zbek tiliga men o'girdim):

"The 2007 Microsoft Office release is preinstalled on your personal computer. You can try it free for 60 days, activate it with a purchased product key, or buy it at anytime".

("2007 yil ishlab chiqarilgan Maykrosoft Offisni sizning kompyuteringizga o'rnatadi. Siz uni 60 kun davomida erkin sinashingiz mumkin, xarid kalitini sotib olish yoki xohlagan vaqtda sotib olish orqali faollashtirishingiz (ishlatishingiz) mumkin").

Kompyuter magazinida 14 kun kafolat borligi, agar norozi bo'lsam 14 kun ichida kompyuterni almashtirish yoki qaytarib berish mumkinligi haqida aytishgandi. Shu ikki hafta ichida Microsoft Office dasturi ishlashi ta'minlanmadi. 2005 yil 13-14 may kuni Andijon fojiasi va ikki o'zbek qochqinining Boysidagi sirli o'limi haqida yozgan maqolalarim O'zbekiston maxsus xizmat organlari g'ashiga tekkan bo'lsa kerak.

AQShda sotib olingan tovarni cheki bilan belgilangan muddatda almashtirish yoki o'z pulingizni qaytarib olish imkoniyati doimo bor. Natijada 2010 yil 16 may kuni kompyuterni almashtirib kelib, qaytadan uladim va ishga tushirdim.

2010 yil 24 may kechqurun uyga kelib qaragam, kompyuterimdan yana Microsoft Office dasturini o'chirib ketishibdi. 26 may kuni "Best Buy" magaziniga bordim. Avval sotuvchi qiz bilan, keyin magazin menedjeri

bilan gaplashdim. Uning iltimosi bilan kompyuterim kodini terib, monitor ochilganda Microsoft Office dasturi to'xtagani va harflar terish imkoniyati yo'qolganini ko'rsatdim. Menedjer: "Microsoft Office dasturi 30 kun ishlaydi. Keyin pul to'lash kerak" dedi ingliz tilida (qo'lidagi telefon orqali internetdagi inglizcha-ruscha tarjimani yo'lga qo'yib, menga ko'rsatib gaplashdi). Men unga: "Kompyuter olganimga 8 kun bo'ldi, o'chdi. 30 kunga ham bormadi-ku. Nega uchdi?" dedim. U tushuntirib bera olmadi, ya'ni savolimga aniq-tiniq javob bera olmadi.

Men menedjerga: "Kompyuterimda harflar tera oladigan qilib tiklab beringlar, iltimos" dedim. U: "Microsoft Office dasturi uchun pul to'lashingiz kerak" dedi. Men: "30 kun ham ishlamadiku. Tiklamasalaringiz, kompyuterni berib pulimni qaytarib olaman" dedim.

Shunday qilib, pulimni qaytarib oladigan bo'ldim. Ular monitor uchun 147 dollarni naqd qaytarib berishdi. "Kompyuter (protessor) uchun 541 dollar chek ko'rinishida fermamiz boshqarmasidan uyingizga 7-14 kun ichida jo'natiladi" deyishdi va shunga doir chekni yozib berishdi.

2010 yil 5 iyun kuni kompyuter pulim cheki pochta orqali keldi. 7 iyun (dushanba) kuni chek asosida bankda 541 dollarni qaytarib oldim. "Xuddi o'shanday kompyuterni boshqa magazindan olaman" deb 8 iyun kuni Boysidagi Fairview va Milwaukee ko'chalari chorrahasi burchagida joylashgan kompyuter magaziniga borsam, 689 dollarlik kompyuter va monitor sotib tugatilibdi.

"Best Buy" magaziniga bordim. Kompyuter sotib oladigan bo'ldim. Bu kompyuter narxini yana 50 dollarga qimmatlashtirib qo'yishgan ekan. Men avvalgi chekimni ko'rsatib: "Shu narxda bersalaringiz, kompyuter sotib olaman" dedim. Sotuvchi chekni olib, ichkariga kirdi va magazin rahbariyati bilan gaplashib chiqdi. Ular roziligi bilan menga kompyuterni 689 dollarga sotishdi.

8 iyun kechqurun uyga kelib, kabellarni ulab, ochish komandasini bersam, kompyuter ochilmadi. 9 iyun (chorshanba) kuni ertalab kompyuterni "Best Buy" magaziniga olib borib, yangisiga almashtrib keldim.

9 iyun kuni ingliz tili darsiga borib, keyin kutubxonada kompyuterda ishlab kechqurun uyga qaytdim. Ovqatlanib, nomozimni o'qib, kompyuterda ishlashga o'tirdim. Soat 24.20 da Microsoft Office dasturi o'chdi, aniqrog'i masofadan turib o'chirishdi. (Hozirgi zamonda kosmosda uchib yurgan yer yo'ldoshi orqali o'rmonda yurgan alohida odamni ko'rish va aniqlash darajasidagi texnik imkoniyatlar bor. Masofadan turib birorta texnik apparaturani, jumladan kompyuterdagi dasturni o'chirish – bu oddiy texnik masaladir.)

"Microsoft Office dasturini sotib olmasam baribir tinch qo'yishmaydi" dedimda, 2010 yil 10 iyun ertalab "Best Buy"ga bordim. Microsoft Office dasturi bahosi 140 dollar, 6 foizlik shtat solig'i bilan qo'shib hisoblaganda 149 dollarga yaqin bo'ladi. Bank hisobimda 2 dollar, hamyonimda 5 dollar qolganligi sababli 6 oy muddatga kreditga rasmiylashtirishni iltimos qildim (bu masalada 9 iyun kuni Jahongir Mamatovga telefon qilib maslahatlashgan edim). Sotuvchi qiz rasmiylashtirdi: u bergan blanka savollariga javob yozib to'ldirib berdim. "Endi dasturni berishar" deb tursam, sotuvchi qiz ichkarida maslahatlashib chiqib, kredit berilmasligi haqida aytdi. Kredit masalasiga ham kimdir aralashib, bermaydigan qildi.

Endi qarzga pul qidira boshladim. 10 iyun kuni kechqurun andijonlik qochqin Azizjon 100 dollar qarz keltirib berdi. Yana 40 dollar qarz topa olmadim. 11 iyun kuni "Best Buy"ga borib, 100 dollar topganim, qolgan 40 dollarni ikki oy muddatga kreditga rasmiylashtirishni iltimos qildim. "Bu bilan o'zinning kredit tariximni ochgan bo'lardim" deb qo'shimcha aytdim. (AQShda kredit tarixingizni kompyuter orqali ochib tanishadi va shunga qarab kichik yoki kattaroq miqdordagi kreditni beradi). Sotuvchi qiz bu iltimosimni ham rad etdi.

Noiloj 1 iyul kunini kutdim. 1 iyul kuni IRC dan menga navbatdagi oy uchun ozroq pul berishdi. Shundan qo'shib, 1 iyul kuni 149 dollarga Microsoft Office dasturini sotib oldim va kompyuterimga o'rnatdim.

Ma'lumki, 2010 yil 10-13 iyun kunlari Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlarida katta provokatsiya yo'li bilan o'zbeklarga qarshi qirg'in uyushtirildi. Bunga doir tahliliy maqolamning birinchi qismini 2010 yil 29 va 30 iyun kunlari lotin hamda kiril alifbosida ikkita saytda chop ettirdim (uning bir oz kechikish sababi maqolamda yozilgan). Bu maqolaning 2-qismini 2010 yil 3 iyul kuni lotin va kiril alifbosida ikkita saytda chop ettirdim ([6]-ga qarang).

20 iyun – Xalqaro qochqinlar kuni sanasi bilan bog'liq holda bir oy tayyorlanib, Boysi markazida 19 iyun kuni tadbir o'tkazdim. Bunga doir maqolamning kiril hamda lotin alifbosidagi matnlarini 2010 yil 9 iyul kuni ikkita saytda chop ettirdim ([7]-[8]-ga qarang).

Yuqorida yozgan sabablarga ko'ra ushbu kitobimni lotin alifbosidan kiril alifbosiga o'girish, bu jarayonda ayrim tuzatish hamda qo'shimchalar kiritishni 5 iyul kuni boshladim. Katta hajmdagi bu ishni Janubiy Afrika Respublikasida futbol bo'yicha 19-Jahon chempionatining final o'yini o'tkazilgan 2010 yil 11 iyul kunga qadar tugata olmadim. Kitobning ikkinchi nashri ustidagi ishni 11 iyuldan keyin ham davom ettirdim.

2010 yil 31 iyul kechqurun kompyuterimda quyidagi yozuv paydo bo'ldi va Maykrosoft Offis (Microsoft Office) dasturi yana uchdi, ya'ni harflar terib bo'lmay qoldi (o'zbek tiliga men o'girdim).

“Microsoft Office Home and Student 2010 cannot verify the license for this product. You should repair the Office program by using Control Panel” (Tarjimasi: Microsoft Office Home and Student (Uy va Talaba Maykrosoft Offisi) dasturining bu mahsuloti litsenziyasi tasdiqlangan emas. Siz Control Panel (Nazorat Paneli) yordamida Offis dasturini tuzatsangiz bo'ladi”)

1 avgustga o'tar kechasi soat 2.00 gacha Microsoft Office Home and Student 2010 dasturini besh marta qayta yuklab, ishlatishga harakat qilib ko'rdim. Ishlamadi, ya'ni harflarni terib bo'lmadi.

Yakshanba kuni Boysida avtobuslar yurmaydi. Shu sababli 1 avgust (yakshanba) kuni uydan “Best Buy” magazinigacha 5-6 chaqirim masofani bir soat piyoda yurib bordim. Sotuvchiga kompyuterimda paydo bo'lgan yozuvni ko'rsatib, sababini so'radim. U: “Kompyuter protsessorini (qora qutini) magazinga olib keling” dedi. Uyga piyoda qaytib borib, protsessorni ko'tarib magazinga bordim. 45-yoshlardagi o'sha sotuvchi 40 daqiqalar urindi. Ikki marta Microsoft Office Home and Student 2010 dasturini qaytadan yuklab (zagruzka) qilib ko'rdi. Dastur ishlamadi. U: “Microsoft Office Home and Student 2010 dasturini yangisiga almashtiring” dedi.

2 avgust kuni Microsoft Office Home and Student 2010 dasturini (diskini) “Best Buy” magaziniga olib borib yangisiga almashtirib keldim va kechqurun kompyuterimga qo'ydim. Baribir o'sha yozuv paydo bo'laverdi. 3 avgust kuni magazinga borib aytсам, boshqa sotuvchi protsessorni olib kelishim kerakligini aytdi.

Men Vashingtonga, Jahongir aka Mamatovga xat yozib, firma mutaxassislariga telefon qilib dastur to'xtash sababini aniq bilib berishni iltimos qildim. Firmadagi mutaxassis: “Windows dasturini qaytadan yuklab ko'rish kerak, buning uchun kompyuter egasi o'zi murojaat qilsin” degan mazmunda javob beribdi.

6 avgust (shanba) kuni protsessorni olib yana “Best Buy” magaziniga bordim. Boshqa sotuvchi Microsoft Office Home and Student 2010 dasturini (diskini) olib kompyuterimga kiritdi. Yana o'sha yozuv paydo bo'ldi. Keyin u yana bir simni protsessorga uladi va Enter tugmasini bosdi. Shundan keyin Microsoft Office Home and Student 2010 dasturi ishlay boshladi, ya'ni harflarni terish imkoni paydo bo'ldi.

Men sotuvchidan: “Nima sababdan dastur to'xtagan edi?” deb so'radim. U: “Dastur litsenziyasi Internetda ro'yxatdan o'tishi kerak edi” dedi. Ya'ni men sotib olgan Microsoft Office Home and Student 2010 dasturi, ya'ni kodi haqida Internet-saytga xabar berishim kerak ekan. Shu yo'l bilan firma ushbu koddagi diski sotilgani haqidagi axborotni sayt orqali olar ekan, men shunday tushundim. Mana shunday sabab bilan kompyuterim yana bir hafta ishlamadi.

Endi kitobimning 2-nashriga kiritilgan tuzatish va qo'shimcha paragraflar haqida aytsam. Birinchidan, kitobim nomini va ayrim paragraflar sarlavhasini qisqartiribroq yozdim, ba'zi bir kichik xatolarni tuzatdim, ayrim joylarida 2010 yilgi ma'lumotlarni keltirdim.

Ikkinchidan, yangi 2-6-paragraflar kiritib, unda futbol bo'yicha Jahon chempionati hamda FIFAning Jahon kubogi tarixi, barcha Jahon chempionati natijalari, 2010 yil 23 oktyabr kuni 70 yoshga to'ladigan Futbol qiroli Pele haqida batafsilroq ma'lumot, shuningdek jahonning 125 nafar mashhur futbolchilari ro'yxatini keltirdim.

Uchinchidan, O'zbekistonda 2010 yilda eng taniqli ikki futbol klubi – “Paxtakor” hamda “Bunyodkor” haqida, ular muxlislari o'rtasida o'zaro urush-janjali chiqarish ehtimoli borligi, bugungi kunda – 2010 yilda bu ikki klub rahbarlari kuchishlalar organlar tomonidan nohaq tazyiq ostiga olingani haqida yangi 18-paragrafni yozdim.

To'rtinchidan, 2008 yilda kuchishlalar organlari Toshkentda futbol matchi paytida muxlislarni ayovsiz kaltaklagani va bunga qarshi men yozgan maqolam fotosurat bilan birga 20-paragrafda bayon etilgan.

Beshinchidan, o'zbek referisi Ravshan Ermatov 19-Jahon chempionatida yaxshi hakamlik qilgani va futbolimizda adolatli hakamlik haqida yangi 22-paragrafni yozdim.

Oltinchidan, 2010 yil 11 iyul kuni final o'yin bilan tugagan 19-Jahon chempionatida Ispaniya milliy terma jamoasi Hollandiya milliy terma jamoasini 1:0 hisobi bilan yengib, o'z tarixida birinchi marta Jahon chempioni bo'ldi. Buning siri nimada, degan savolga javob berish uchun 28-paragrafni qo'shdim.

Yettinchidan, 20-Jahon chempionati 2014 yil Braziliyada bo'ladi. Shu chempionat final bosqichiga O'zbekiston futbol terma jamoasi bora olishi uchun nima qilmoq kerak, degan savolga qisqacha javob berish maqsadida kitobimda 29-paragrafni yozdim.

Sakkizinchidan, ajoyib futbol sharhlovchisi, jurnalist, shoir Xayrulla Hamidovni O'zbekistondagi politsiyaviy rejim sudi 2010 yil 27 may kuni “Jihodchilar” diniy-ekstremistik guruhiga aloqadorlikda aybdor deb topdi va uni nohaq 6 yilga ozodlikdan mahrum qildi. U yozgan “O'zbeklarga nima bo'layapti?” nomli ajoyib she'rini va uning fotosuratini kitobim ilovasida keltirdim.

Futbol sohasida juda ko'p qiziqarli faktlar bor. Barchasini qamrab olish iloji yo'q.

Kitobimda kamchiliklar ham borligi turgan gap. Agar o'quvchi kitobim haqida o'z tanqidiy fikr-mulohazalarini yozib yuborsa, keyingi nashrida ularni hisobga olib tuzatish va qo'shimchalar kiritishga harakat qilaman, Alloh xohlasa.

M U Q A D D I M A

“F u t b o l (ingl. fut – oyoq, ball – to'p) – sport o'yini. 2 darvoza (7,32X2,44 m) li maxsus maydon (90-120X45-90) da to'p bilan jamoa bo'lib o'ynaladi. Futbol to'pining og'irligi 410-450 g, aylana diametrining uzunligi 68-70 sm, o'yinning asosiy vaqti 90 minut (45 minutdan 2 bo'lim, 12-15 minut tanaffus). Maydonda ikkala jamoada 11 kishidan bo'ladi. O'yindan maqsad raqib darvozasiga to'pni oyoq yoki gavda qismlari bilan (qo'ldan tashqari) kiritishdan iborat. Faqat darvozabonlarga qo'l bilan o'ynashi mumkin (jarima maydonchasida).” [9, 9-j., 345-b.]

Inson, insoniyat va uning ishlari, kechmishlari - bu katta olamdir, olam-olam axborotlar manbaidir. Mana shu katta olam ichida bir necha olamlar bor. Shulardan biri millionlar o'yini bo'lgan, milliardlab kishilar muxlislik, ishqibozlik qiladigan FUTBOL OLAMIDIR!

2006 yil 9 iyunidan 9 iyuligacha Germaniyada bo'lib o'tgan 18-Jahon chempionatini bir paytning o'zida Yer yuzida 1,5 milliardgacha kishi stadionlarda va oynai jahon ekranlari orqali tomosha qildilar. O'sha olamshumul musobaqaning 64 o'yinini tomosha qilgan odamlarning umumiy soni 30 milliarddan (!) oshib ketdi. Ular orasida deyarli 64 o'yinni ko'rishga harakat qilgan men ham, shu kitobni o'qiyotgan va bir necha o'yinlarni zavq bilan ko'rgan o'quvchimiz ham bor edi.

Futbol olamida voqealar, axborotlar, yutuqlar va muammolar shunchalik ko'pki, uni bitta kitobda qamrab olishning imkoniyati yo'q. Axir futbolning o'zi bolalar, o'smirlar, yoshlar, havaskorlar (olimpiyachilar), faxriylar, shuningdek erkaklar va ayollar professional futboliga bo'lingan.

Men ushbu kitobimda jahon va O'zbekiston futboli tarixidan ayrim ma'lumotlar keltirib, asosan O'zbekiston erkaklar futbol terma jamoasi o'yinlari haqida yozdim va bir oz tahlil etdim, terma jamoa murabbiylari masalasini imkon darajasida yoritdim. Kitobda, shuningdek, O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidentini tayinlashdagi ayrim xatolar va uning oqibatlarini, O'zbekiston futbolini rivojlantirishga doir 1997 yilda yozgan 15 betlik xatim, 2005 yil 31 maydagi piket va uning natijalari haqida bayon etdim hamda ba'zi bir xulosalarni yozdim.

Futbol deb atalmish ajoyib o'yinning O'zbekistonda ham millionlab muxlislari borligi ko'pchilikka ma'lum. Bu muxlislar orasida futbolni jonu dilidan ham yaxshi ko'radiganlar borki, ularga jahondagi boshqa mamlakat muhlislari ham, futbolchilari-yu mutaxassislari ham tan bermoqda. Shunday ikki nafar vatandoshimiz 2006 yil yozida Germaniyada bo'lib o'tgan 18-Jahon chempionatiga velosipedda 6500 chaqirim yo'l bosib, yetib bordilar va chempionatni o'sha yerda tomosha qildilar, o'zlari hurmat qiladigan Germaniya terma jamoasining mashhur darvozaboni Oliver Kan bilan uchrashib suhbatlashdilar, uning dastxatini ham oldilar. Kitobim muqaddimasida shu ikki futbol muxlisining safari haqida ma'lumot berib o'tsam.

“Ikki marg'ilonlik muxlis Germaniyaning mashhur darvozaboni Oliver Kandan dastxat olish uchun Marg'ilondan Berlingacha bo'lgan 6500 kilometr masofani velosipedda bosib o'tishdi. Marg'ilonlik Akrom Ma'rufjonov va Musajon Homidovlar mart oyi boshida yo'lga chiqib, uch oy deganda velosipedda Berlinga yetib borishdi. Qanchalik murakkab va muammo bo'lmasin, mashhur darvozabon bilan yuzma-yuz ko'rishishga mavaffaq bo'ldilar ham. Futbolsevar, shu bilan birga sayohatparvar muxlislarning bunday matonatidan yoqa ushlaganini aytgan mashhur darvozabon Oliver Kan juda band bo'lishiga qaramay, o'zbekistonlik futbol fanatlariga o'z dastxatini berishga bajonu dil rozi bo'ldi. “Men bunday ishqibozlarni ko'rmaganman. Bu hayratlanarlidir”, deb hayratini yashirmadi Oliver Kan.

Xo'sh, hamyurtlarimizning Germaniya safari bilan bog'liq sarguzashtlari qanday amalga oshdi, safar davomida yuz bergan voqea-hodisalar nimalardan iborat? Bu to'g'rida hikoyamiz qahramonlarining o'zlari gapirib berishgani ma'qul deb topdim.

Akrom Ma'rufjonov: – Jahon chempionatini stadionlardan bevosita kuzatishni ancha oldindan maqsad qilgandim. O'zim va do'stim Musajon bilan uzoq muddat rejalarimizni pishirdik. Bizning maqsadimizni qo'llab-quvvatlagan ham, unga ishonmaganlar ham bo'ldi. Hattoki, ustimizdan kulganlarni aytmayizmi. Shunda ikkilanmay Germaniya konsulligiga bordim. Konsullikda ishlaydigan xodimlardan biri suhbatlashib o'tirib, Yevropaga ketayapsiz, sizga ko'mak beradigan odam bo'lmaydi-ku, deb qoldi. Men esa, yo'q, Alloh menga yordam beradi, deb javob berdim. Shunda u qo'limdan pasportimni olib viza qo'yib berdi.

Biz Qozog'istonga kirganimizda havo juda sovuq edi. 14 mart kuni (2006 yil, A.Sh.) Qizil O'rdadagi poyezd vokzaliga kirdik, bir choy ichib olamiz deb. U yerda bizni militsiya xodimlari ushlashdi. Pasportlarimizni tekshirishdi, pasportning ichida deklaratsiyamiz bor edi. Deklaratsiyada pulimiz qanchaligi yozilgandi. 1200

dollaru 36000 so'm pul bor edi. Shunda haligi militsionerlardan biri deklaratsiyani ko'rib dedi: "Ikkoving yuz dolardan berasan!" Men, nima aybimiz bor desam, "O'zbekistonga xabar beramiz: bular futbolga emas, boshqa ishlar bilan ketyapti", – deb ancha yo'limizga to'g'anoq bo'lishdi. Xullas, ish shu darajaga borib yetdiki, biz cho'lda qolib ketdik." [10]

"Bi-bi-si" jahon xizmati (radiosi) o'zbek shu'basi jurnalistlariga A.Ma'rufjonov 2006 yil 21 iyun kuni bergan intervyusida Qizil O'rda shahridagi nohaq tazyiq haqida bunday degan edi. Ularni tutgan Qozog'istonning Qizil O'rda shahridagi militsiya xodimlari ularda 1200 dollar va 36 ming so'm pul borligini bilgach, 100 dollardan berishni talab qilishgan. Aks holda, sizlarning yoningizdan narkotik modda chiqdi, deb rasmiylashtiramiz va qamatib yuboramiz, deyishgan. Ular noiloj 100 dollardan militsiyonerlarga berishgan. Bunday razil usulni O'zbekistondagi ba'zi bir militsiya xodimlari fuqarolarga qarshi qo'llab, odamlarni talayotganligi ko'pchilikka sir emas. Qozog'istonda ikkala sayohatchining chodirini, qoplarini olib qo'yishgandi. Ular Qozog'istonda kuniga 70 chaqirimdan, Belorussiya va Polshada 100 chaqirimdan yo'l bosishgan. [11]

“- Cho'ning o'rtasida qolib ketibsizlar, keyin nima qildingizlar?

- Sovuqda junjikib o'tirgan paytimizda bir "KAMAZ" mashina oldimizga kelib to'xtadi. O'shlik o'zbek yigit ekan. Bizni poyezdga o'tqazib jo'natib yubordi Rossiyaning chegarasigacha. Yo'lda Voronej, Kursk, Oryol, Bryansk kabi shaharlardan o'tdik.

- Germaniyaga alal-oqibat qanday yetib bordingiz?

- Brestda qolib ishlashimizga to'g'ri keldi. Nimagaki, bizga Polshaning besh kunlik tranzit vizasini beramiz, deyishdi. Buning ustiga piyodalar yo'li yo'q, velosipedda emas, velosipedni yo mashina, yo poyezdga ortib Polsha hududidan o'tish kerak, deyishdi. Avtobus yoki poyezdga bilet olish uchun ishlab pul topishimizga to'g'ri keldi. Varshavada velosipedlarimizni yo'qotib qo'ydik. Menikini politsiya topib berdi, biroq sherigim uchun 35 dollarga velosiped sotib olishimizga to'g'ri keldi. 7 iyun kuni kechasi 12 dan 15 daqiqa o'tganda Germaniya chegarasidan o'tdik.

- Til masalasi qanday bo'ldi, misol uchun Rossiyadan chiqqandan keyin mana u yog'i Polsha, undan keyin Germaniya? Qiynalmadinglarmi muloqot qilishga odamlar bilan?

- Qo'limizga nemis tilida "Biz 2006 yil Germaniya xalqini futbol bayrami bilan tabriklagani va bu yilgi chempionatda g'olib chiqish uchun qo'llab-quvvatlagani O'zbekistondan keldik" – degan mazmundagi yozuv bor edi.

- Jami qancha kilometr yo'l bosdilaringiz?

- 6500 kilometr. Uning ichida poyezdda yurganimiz 700 kilometr bo'ldi, lekin men niyatimga yetdim.

- Dunyoning eng mashhur darvozabonlaridan biri Oliver Kann bilan uchrashibsiz. Uning oldiga borib, nimalarni gapirdingiz, nima dedingiz unga?

- Katta nevaram Oliver Kanning yo bir to'pini olib kelasiz, yo qo'l qo'yilgan bir dastxatini degandi. Xudoga shukr, nevaramning niyatini bajardim!

- Futbol uchrashuvlariga kirishga qiynalmadinglarmi, chiptalar qimmat bo'lsa?

- O'yinlar bo'ladigan kuni nemislarning o'zlari kelib, bizni o'yinni tomosha qilishga olib kirishdi.

- Akrom aka, bu Marg'ilon do'ppilariniyam kiyib olganmisiz?

- Hozir boshimda Marg'ilon do'ppisi, atlas chorsi, yaktakda futboldan chiqib kelayapman. Har bir gol urganda mustaqil O'zbekistonimiz bayrog'ini hilpiratib turdim.

- O'zbekiston bayrog'ini tanishayaptimi olmoniyaliklar?

- Ayrimlari kelib qayerdanligimizni so'rab, bizni qo'llab-quvvatlaganingizga rahmat, deb quchoqlab o'pib ketishdi." [10]

“- Berlin haqidagi tasavvurlaringiz.

- Berlin o'zining keng ko'chalari va ulkan binolari bilan bizni hayratga soldi. Shaharda bo'lmaganligim pand berdi. Sherigimni yo'qotib qo'yganim yetmagandek o'zim ham adashib qoldim. Yaxshiyamki bir ukrain qizi mendan yordamini ayamadi. U meni germaniyalik jurnalist bilan tanishtirdi. Nemis jurnalisti George Truse bizga nima uchun olmon yurtiga kelganimizni so'radi. Men va do'stim 6500 km masofani bosib o'tib Oliver Kandan katta nabiramning buyurtmasiga binoan dastxat olgani kelganimizni aytdik. Bizning so'zlarimiz “Berlin” gazetasida 10 iyun kuni bosib chiqarildi.

Gazetani o'qigan “Bavariya” darvozaboni, uning menejeri va qarindoshlari bizni axtarishga tushishibdi. Darvozabon bilan uchrashdik va u bizning hurmatimizni joyiga qo'yib, xizmatimizda bo'ldi. To'rt mahal issiq ovqat bilan ta'minladi. Qachonki germaniyaliklar yarim finalda mag'lubiyatga uchraganida biz ham izzatimiz bitganligini bilib, ortimizga qaytmoqchi edik. Lekin Kan bunga ruxsat bermadi, finalni ham ko'rib ketishimizni aytib, menejeri orqali final o'yiniga chipta oldirib berdi. Bundan tashqari avvalgi to'rt uchrashuvga ham aynan Kanning menejeri chiptalar bilan ta'minlagandi.

Final uchrashuviga chiptamiz borligidan voqif bo'lgan ayrim germaniyaliklar bizdan chiptamizni sotishimizni so'rashdi. Chiptamizning bahosini 3000 yevro deb baholashdi ham. Rozi bo'lmadik. Sababi, final bahsida aynan men istagan jamoalar to'p surishini juda ham istar edim. O'zim bilan birga nevaramning ismi yozilgan “Moviy gvardiya”ning futboldasini ham o'zim bilan birga olib olgandim. Hatto shu futboldani ham 4000 yevro evaziga sotib oladiganlar chiqdi. Tabiiyki, sotmadim va ko'rib turganingizdek uni o'zim bilan qaytarib olib keldim. Safar bahona Oliver Kan bilan do'stlashib oldim. U menga nevaralarimdan birini Germaniyada o'qitishga va'da berdi. Qolaversa, o'zining futboldalaridan biriga dastxatini qo'yib, ustimga kiydirib ham qo'ydi.

- Toshkentga qachon va qanday yetib keldingizlar?

- Diyorimizga bir hafta burun yetib keldik. Avval poyezd, so'ngra samoletda uchdik. Poyezdda kelmaganligimiz sababi safarga ketish chog'ida Qozog'istonda qiyinchiliklarga duch kelgandik.

- Yana safarga chiqish niyatingiz bormi?

- Nasib qilsa, 2010 yil 60 yoshga to'laman va yubileyimni JAR (Janubiy Afrika Respublikasi, A.Sh.)da Jahon chempionati bahslarida nishonlash niyatim bor.” [12]

Umid qilamanki, bu ikki hamyurtimiz va yana bir necha vatandoshlarimiz 2010 yilda Janubiy Afrika Respublikasida bo'ladigan 19-Jahon chempionatiga ham velosipedda borishadi va u yerda O'zbekiston futbol terma jamoasiga muxlislik qiladilar, Xudo xohlasa. Bu haqda kitobimning xulosa qismida – 26-bandda yana to'xtalib o'tarman. Endi kitobning asosiy qismiga o'tsam.

1. JAHON FUTBOLI TARIXIDAN MA'LUMOTLAR

“Jahondagi eng ommaviy o‘yin bo‘lmish futbolga “ota-onalik huquqi”ga da‘vogarlik qiluvchi mamlakatlar soni behisobdir: Misr, Xitoy, Yaponiya, Gretsiya, Rim, Italiya, Angliya ... Bunda har bir tomon ashyoviy, yozma va boshqa dalillarni ishga solmoqdalar. Ha, Samofrakiya orolida eramizdan 2500 yil oldin chizilgan koptok tasvirini topishgan. Bunday tasvirlar Misr maqbaralarida ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Uning ustiga, Misr faraonlari go‘rlarini qazish chog‘ida eramizdan 2-3 ming yil avvalga doir to‘plarni topishgan. Taxminan o‘sha davrda Xitoyda “dzu-nyu” nomli to‘p o‘yini (qatnashchilar uni oyoq bilan tepganlar) tarqalgan edi. Bir oz keyinroq xitoyliklarga yana “chju-chu” va “su-szyuy” nomli to‘pli o‘yin xillari ma‘lum bo‘ldi.

6-asrda yaponlarda ham to‘p bilan o‘yin ommalashdi. U “kemari” deb atalardi.

Qadimgi davrda Yevropa hududida – Gretsiya va Rimda ham to‘p bilan musobaqalashardilar. Gretsiyada “episkiros”, “feninda”, “garpanon” nomli bir necha o‘yinlar tilga olinadi. Noming hamohangligiga ko‘ra (“garpas-to‘p”), greklarning to‘p o‘yinlaridan bir turini rimliklar olishgan. Qadimgi greklar va rimliklar foydalangan to‘p asosan teridan tayyorlangan. Ularni qiyqimlar, ot qillari, ba‘zan patlar yoki qum bilan to‘ldirishgan. Ularni havo bilan ham to‘ldirishgan. Mayya indeetslari esa og‘ir kauchukli to‘plardan foydalanishgan. Uning og‘irligi 4 kilogacha bo‘lgan. Rim legionerlari uzluksiz harbiy urushlarda qatnashib, to‘pli o‘yinni hozirgi Germaniya, Fransiya, Angliya ... hududlariga tarqatishdi (lot. legio – qadimgi Rim armiyasidagi asosiy tashkiliy va taktik birlik (4,5-10 ming kishi) [9, 5-j., 243-b.]; legioner – legion askari, A.Sh.).

To‘pli o‘yin qadimgi asrlarda avvalambor harbiy-amaliy xususiyatga (xarakterga) ega edi. Ular tezkorlik, ephillik, kuch, mardlikni, ya‘ni harbiy harakatlar olib borish vaqtida kerakli bo‘lgan sifatlarni kuchaytirardi. Biroq, o‘yin qatnashchilariga mardlik tinch hayotda ham zarur edi, chunki mag‘lubiyatga uchraganlarni turli xil jazolar kutardi. Masalan, Xitoyda yutqizganlarni bambuk tayoqlari bilan shafqatsiz ekzekutsiyalarga (lot. executio – ijro etish, A.Sh.) duchor qilishgan, mayya indeetslarini esa muvaffaqiyatsizlikka uchraganlarida hatto o‘ldirganlar.

O‘rta asr Yevropasida to‘pli o‘yin keng tarqaldi. Ular nomlari bilangina emas, mazmuni bilan ham farq qilardilar. Normandiyada “lya sul” yoki “shul”, Italiyada – “djivo del kalchio”, Ispaniyada – “tlachtili” (bu o‘yinni Meksikadan olib kelishgan edi) o‘yinini o‘ynar edilar.

Hokimiyat bu o‘yinlarga turlicha munosabatda bo‘lgan. Masalan, Angliyada 14-asrdan boshlab ularni bir necha bor taqiqlashgan. Dastlab 1314 yil 13 aprelda qirol Eduard-2 “katta to‘p bilan jinnilik”ni taqiqlagan. Keyingi ikki asr davomida ko‘pgina angliyalik monarxlar (grekcha monarxiya – yakka hokimlik; monarx – davlatning yakka hukmdori [9, 6-j., 67-68-b.], A.Sh.) to‘pli o‘yin va uning ishtirokchilarini ta‘qib qilganlar. “Amnistiya” (grekcha amnestia – kechirish, gunohidan o‘tish [9, 1-j., 288-b.], A.Sh.) 1603 yilda malika Yelizaveta-2 tomonidan amalga oshirildi.

Yuqorida tilga olingan birorta o‘yin biror marta futbol deb atalmagan edi. Bu tasodifiy emas. Agar mayya indeetslariga to‘pga oyoq bilan tegish ruxsat berilmagan bo‘lsa, u holda bu o‘yinni va mayya indeetslarining ishqivozligi o‘rtasida qanday umumiylik bor? Axir uzunligi ikki chaqirim bo‘lgan maydonda bir necha yuz odam ishtirok etgan o‘yinni futbol deb atash mumkinmi?

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha to‘pli o‘yinlar bugungi kundagi mavjud futbolga hech qanday aloqasi yo‘q. Aslida, bugungi kunda ham yerda, maysada, muzda, suvda, parketda ... o‘tkaziladigan ko‘pgina to‘pli o‘yinlar bor. Ammo ulardan faqat bittasinigina futbol deb ataymiz. Shuning uchun ko‘pgina mamlakatlar va qit‘alarning futbol asoschisi ro‘lida da‘vogarligi ishonarli emas. Shu darajada qat‘iy ravishda biz isbot qilib tasdiqlaymizki, zamonaviy futbol vatani Angliyadir.

Aynan Angliyada 19-asr o‘rtasida to‘p bilan ko‘chada tartibsiz ommaviy kimo‘zarlikdan futbol jamoalarini tuzishga o‘tdilar va maxsus jihozlangan maydonlarda o‘zaro musobaqalasha boshladilar. Haqiqatan, alohida qoidalarni talqin qilishda fikrlar xilma-xilligi anchagina keng edi, bu esa har bir uchrashuv oldidan ko‘pgina

murakkabchiliklar yaratardi. Jamoa maydonlari davomli qizg'in tortishuvlardan so'ng murosaga erisha olmaganliklaridangina ko'pincha match barbod bo'lardi (ingl. match musobaqalashmoq – shaxmat yoki sportning biror turi bo'yicha ikki raqib yoki ikki jamoa o'rtasidagi musobaqa [13, 1-j., 452-b.], A.Sh.).

Qoidalarini unifikatsiyalashga urinishlar bir necha bor qilingandi, ulardan biri tarixiy bo'ldi (lot. unio birlik + facere qilmoq – biror narsani umumiy bir normaga keltirish, bir xil qilish [14, 659-b.], A.Sh.). 1863 yil 26 oktyabr kuni Londondagi “Frimen tavern” taverniyasida bir necha kollejlari jamoalari kapitanlari va rahbarlari yig'ildilar (ital. taverna < lot. taverna kulba – Italiyada qovoqxona, mayxona, traktir [14, 621-b.], A.Sh.). Shu uchrashuvda “Angliya futbol assotsiatsiyasi”ga asos solindi va futbol o'yinining umumiy qoidalarini ishlab chiqishga harakat qildilar. Ish tafsilotlargacha yetib bormadi, chunki uchrashuv qatnashchilari to'pni qo'llar va oyoqlar bilanmi yoki faqat qo'l bilan o'ynash kerakmi, degan eng muhim masalada kelisha olmadilar. Ovozga qo'yilganda E.Morli degan odam rahbarligidagi oyoq bilan o'ynash tarafdorlari uzil-kesil g'alaba qozondilar.

Muxolifat ko'pchilik qaroriga bo'ysunmadilar va norozilik tariqasida tavernani tark etdilar. Ular bir necha yildan so'ng “Regbi uyushmasi”ni tashkil etdilar (Regbi – Angliyaning Regbi shaharchasi nomidan, sport turi. Uzunligi 27-29 sm bo'lgan tuxumsimon shakldagi to'p bilan futbol maydonida o'ynaladi. Har ikkala jamoada 15 nafardan asosiy (himoyachi va hujumchilardan iborat) va 3 zahiradagi o'yinchi ishtirok etib, 2 taym (har taymi 40 daqiqadan) davomida o'ynaydilar. Jamoalarning vazifasi to'pni raqib maydoni tomonidagi chiziq orqasiga o'tkazib qo'yish yoki raqib darvozasiga kiritishdan iborat. To'pni qo'l va oyoq bilan uzatish yoki olib borish mumkin. O'yin qoidasi buzilganda “olishuv” – to'p talashish belgilanadi.” [15, 9-j., 225-b.], A.Sh.)

Regbi va futbol o'rtasidagi ajralish mana shunday bo'lgandi.

Morli tarafdorlari asosiy, global muammoni hal etgach, o'yin qoidalarini tuzishga kirishdilar. Uning ustidagi ishlar 8 noyabrda (1863 yil, A.Sh.) tugallandi. Yana bir oy o'tgach “Futbol assotsiatsiyasi” a'zolaridan biri – D.Fring “Futbol o'yini tavsifi” nomli kichkina kitobchani chop etdi. Unda 13 ta asosiy qoidalar bayon qilingan, ular hozirgi zamon futboliga asos bo'ldi.

Demak, zamonaviy futbolning tug'ilgan joyi va vaqti: Angliya, 1863 yil. Aniq tug'ilgan kuni masalasiga kelganda, futbol tarixshunoslari bugungi kunlargacha umumiy bir fikrga kela olganlari yo'q. Ba'zilar futbol regbidan ajralgan kun – 26 oktyabr, boshqalari esa dastlabki futbol qoidalari chop etilgan kun – 8 dekabr deb hisoblashadi.

Bir oz vaqt o'tgach ham ichki, ham xalqaro musobaqalar o'tkazila boshlandi.

1871 yilda Angliya Kubogi deb atalmish birinchi futbol turniri boshlandi, unda “Uonderers” klubi g'alaba qozondi.

1872 yil 30 noyabrda Glazgoda (Angliyada, A.Sh.) jahon futbol tarixida birinchi xalqaro match bo'ldi. Angliya va Shotlandiya terma jamoalarining uchrashuvi durang – 0:0 bilan tugadi.

1885 yilda Angliyada futbol professionallik maqomi (statusi)ni oldi (lot. profiteri – bildirmoq, e'lon qilmoq – biror kasb va faoliyatga ixtisoslashganligini (mas., professional revolyutsionerlar), kasb hunarga aloqadorlikni anglatuvchi so'z (mas., professional kasalliklar) [15, 9-j., 82-b.] A.Sh.). Futbolchilarga pul to'lay boshladilar.

1888 yilda Angliyada professional futbol ligasi tuzildi, va o'sha yildan boshlab mamlakat chempionati o'tkazila boshlandi. Angliyaning birinchi chempioni – “Preston Nord End” klubidir.

1880-yillar boshida futbol uyushmalari shuningdek Shotlandiya, Uells (Wales) va Shimoliy Irlandiyada tashkil bo'ldi. 1882 yilda Buyuk Britaniya futbol assotsiatsiyalarining birlashishi sodir bo'ldi, va bir yildan so'ng birinchi xalqaro futbol turniri – Angliya, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Uells terma jamoalari ishtirokida

Buyuk Britaniyaning chempionati bo'lib o'tdi. Buyuk Britaniyaning birinchi chempioni Shotlandiya terma jamoasi bo'ldi. Qizig'i shundaki, futbol asoschilari birinchi urinishda jahon va Yevropa birinchiligidagina emas, hatto Buyuk Britaniya chempionatida g'olib bo'la olmadilar.

19-asrning ikkinchi yarmida futbol Yevropada tarqala boshladi, tez orada osonlik bilan butun sayyorani zabt etdi.

Barcha qit'alarda millionlab kishilar "bosqinchi"ni quvonch bilan kutib oldilar. U jahon va odamlar ruhi ustidan bir asrdan ortiq hukmronlik qilishda davom etmoqda, va biror kishida "manfur istibdod"dan xalos bo'lish haqida hatto fikr ham paydo bo'lgan emas.

Shunday qilib, inglizlar futbol bilan "kasallanib", ular 20-asr boshida uni butun Yevropada va hatto Amerikada "yuqtirishdi". Ko'p o'tmay xalqaro futbol tashkilotini tuzish uchun kuchlarni birlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Qit'aviy (kontenital) Yevropa vakillarining Britan orollari bilan aloqa o'rnatish urinishlari hech bir natija bermadi. G'ururli, izzattalab inglizlar, dastlabki jur'atsiz qadamlar qilayotgan kalta ishtonli go'dakka nazari ilmay takabburona qarab, La-Mansh (bo'g'ozi, A.Sh.)ning narigi tomonidan yangragan zaif "chirqillash"ni eshitmadilar, aniqrog'i, eshitishni xohlamadilar.

O'shanda fransuzlar tashabbusi bilan Belgiya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya, Frantsiya, Shvetsiya va Shveytsariya Parijda Ta'sis kongressiga to'plandilar va 1904 yil 21 mayda Futbol assotsiatsiyalarining xalqaro federatsiyasini tuzdilar (hozir u Futbol assotsiatsiyalarining internatsional federatsiyasi – FIFA deb ataladi). Yig'ilganlar yangi tashkilot Ustavini qabul qildilar va uning prezidentini sayladilar. Kongressni tashkillashtirishda fransuzlarning xizmatlarini tan olish belgisi sifatida uning qatnashchilari FIFA prezidenti etib Frantsiya vakili Rober Gerenni sayladilar." [16]

Jahon futboli tarixiga doir ayrim ma'lumotlar O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida sal boshqacharoq yozilgan. Taqqoslash uchun uni ham keltirib o'tay.

"Futbolga o'xshash o'yinlar miloddan avvalgi Misr va Sharq mamlakatlarida ma'lum bo'lgan, keyin Yevropaga o'tgan. 1848 yilda Buyuk Britaniyadagi Kembridj universiteti o'qituvchilari futbolning dastlabki zamonaviy qoidalarini ishlab chiqishgan. 1857 yilda shu mamlakatdagi Sheffild shahrida ilk futbol klubi tashkil etilgan. 1863 yilda Angliya futbol uyushmasi tuzilib, futbol qoidalari tasdiqlangan. 19-asrning oxiri – 20-asrning boshlarida Yevropa va Janubiy Amerika davlatlarida ham futbol uyushmalari tashkil qilindi. 1896 yilda futbol Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. 1904 yilda xalqaro futbol federatsiyasi – FIFA tuzildi." [9, 9-j., 345-b.]

"FIFA (frans. Federation international de Football Association so'zlari bosh harfidan) – xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi. 1904 yilda Fransiyada ta'sis etilgan. 204 ta (2003 yilda) milliy futbol uyushmasini birlashtiradi (2010 yilda 208 ta, A.Sh.). O'zbekiston 1994 yildan a'zo. Turli miqyosdagi xalqaro musobaqalar: milliy jamoalar o'rtasida jahon chempionati (1930 yildan), mini futbol bo'yicha, ayollar jahon chempionatini, qit'alararo turnir va futbolchilarning jahon chempionatini, qit'alararo turnir va kubok musobaqlarini tashkil qiladi va o'tkazadi. "FIFA magazin" bezakli jurnal, "FIFA Nyus" oylik byulletenini nashr etadi." [9, 9-j., 265-b.]

"FIFAning asosiy maqsadlari uning Ustavida bayon etilgan: "har qanday maqbul va maqsadga muvofiq vositalar hamda usullar bilan jahonda futbol rivojlanishiga barcha choralar bilan yordam berish, hamma yoshdagi toifalarning o'rtoqlik va rasmiy musobaqalarini tashkil etish yo'li bilan milliy federatsiyalar rahbarlari va futbolchilari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini rivojlantirish, Ustav yoki O'yin qoidalarining buzilish oldini olish bo'yicha hamma zarur va tegishli choralarni qabul etish orqali futbolni nazorat qilish, o'yinchilar havaskorlar yoki professional ekanliklaridan qat'iy nazar irqiy, diniy yoki siyosiy diskriminatsiya qilinishiga yo'l qo'ymaslik (lot. diskriminatio farqlash – davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan cheklanishi [9, 3-j., 317-b.], A.Sh.)".

FIFAning oliy organi kongressdir. U ikki yilda bir marta chaqiriladi: Olimpia o'yinlari arafasida va jahon chempionati o'tkazilayotgan vaqtda. Kongress FIFAgaga yangi a'zolari qabul qilish yoki milliy federatsiyalarni chiqarish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi, Ustavga o'zgartirishlar kiritadi, to'rt yil muddatga prezidentni saylaydi.

Kongress yig'ilishlari orasidagi davrda odatdagi ishlar bilan FIFAning ishchi organi – ijroiya qo'mitasi shug'ullanadi. U prezident, 8 vitse-prezident, 12 qo'mita a'zosi va bosh kotibdan iborat.

FIFAda bir necha qo'mitalar faoliyat olib boradi:

Favquloddagi qo'mita, u 7 a'zodan iborat (qo'mita nomining o'zi aytib turibdiki, u oshig'ich, kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni hal etish uchun chaqiriladi);

Jahon chempionatini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita;

Olimpiya futbol turnirini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita yoki "Havaskorlar qo'mitasi";

Hakamlar qo'mitasi (uni ijroiya qo'mitasi shakllantiradi).

Hakamlar qo'mitasiga 8 a'zo kiradi, uni rais boshqaradi. Qo'mita yirik xalqaro musobaqalarga xizmat ko'rsatish uchun FIFAning xalqaro hakamlari ro'yxatini har yili tuzadi, shuningdek futbol qoidalarini o'zgartirish bo'yicha takliflarni Qoidalar bo'yicha xalqaro kengashga kiritadi.

FIFA "poytaxti", aniqrog'i, uning shtab-qarorgohi Shweytsariyaning Syurix shahrida joylashgan. 90 yil davomida (hozir – 2010 yilda 106 yildan oshdi, A.Sh.) FIFAni 8 prezident boshqardi. Ularning hammasi o'z kuchlari va qobiliyatlari me'yorida jahon futboli taraqqiyotiga ma'lum bir hissa qo'shdilar va shu sababli eslashga arziydilar. Mana ularning ismi shariflari.

1. Rober Geren (Fransiya) – 1904.22.05 – 1906.04.06.
2. Daniel Vulfooll (Angliya) – 1906.04.06 – 1918.24.10.
3. Jyul Rime (Frantsiya) – 1921.01.03 – 1954.21.06.
4. Rudolf-Vilyam Sildreyers (Belgiya) – 1954.21.06 – 1955.07.10.
5. Artur Dryuri (Angliya) – 1956.09.06 – 1961.25.03.
6. Stenli Rouz (Angliya) – 1961.28.09 – 1974.11.06.
7. Joao Avelanj (Braziliya) – 1974.11.06 – 1998.08.06.
8. Yozeff (Zepp) Blatter (Shweytsariya) – 1998.08.06." [16]

Yozeff Blatter hozir – 2006 yil noyabr oyida ham (2010 yil iyul oyida ham, A.Sh.) FIFAning prezidentidir. FIFA prezidentligiga navbatdagi saylovlar 2007 (2011) yilda bo'ladi.

"1946 yili Yevropa futbol assotsiatsiyalari uyushmasi – UYeFA tuzildi. Futbol 1900 yili Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. 1930 yildan Futbol bo'yicha jahon chempionati, 1955 yildan Yevropa chempionlari kubogi, 1960 yildan Yevropa chempionati va Yevropa mamlakatlari kubok egalari kubogi, 1971 yildan UYeFA kubogi musobaqalari o'tkazilmoqda." [15, 12-j., 217-b.]

Millionlar o'yini bo'lmish futbolning dunyoga kelishi va rivojlanishiga doir ma'lumotlarning qisqacha ruyxatini [17]-maqoladan keltirib o'tsam, unda muhim qo'shimcha faktlar bor.

"1848 yil. Kembridjda ilk qoidalar ishlab chiqildi.

1855 yil. Tarixda eng qadimiy klub – "Sheffild" tashkil etildi.

1863 yil. Angliya futbol assotsiasiyasiga asos solindi.

1872 yil. To'pning aniq razmerlari tasdiqlandi.

Milliy terma jamoalarning ilk xalqaro uchrashuvi o'tkazildi. Angliya – Shotlandiya – 0:0.

1875 yil. Darvoza to'sini ixtiro qilindi. Shu paytgacha ustunlarni oddiy tasmalar tutashtirib turardi.

1878 yil. “Nottingen Forest” o'yingohida hakam ilk bora hushtakdan foydalandi.

Ilk marta uchrashuv sun'iy yoritish vositalari yordamida o'tkazildi. Sheffild grafligi klublari o'yinini 27 metr balandlikdagi proyektor yoritib turdi.

1883 yil. To'pni yon chiziqdan ikki qo'llab o'yinga kiritish amalga kiritildi.

1885 yil. Professionalizm qonunlashtirildi.

1891 yil. Penalti va darvoza to'ri paydo bo'ldi.

1893 yil. Italiyaning eng qadimiy klubi – “Jenao” tashkil etildi.

1901 yil. Ilk bora uchrashuvga 100 mingdan ortiq tomoshabin tashrif buyurdi: “Kristal Palas” o'yingohidagi Angliya Kubogi finali, 110802 tomoshabin.

1904 yil. Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiasiyasi (FIFA) tashkil etildi.

1905 yil. Penalti tepilayotgan paytda, darvozabonlarning darvoza chizig'ida turishlari qat'iy belgilandi.

Ilk bora transfer qiymati 1000 funtga yetdi: Elf Kommon “Sanderlend”dan “Midsbro”ga o'tdi.

1908 yil. “Sheferd Bush” o'yingohida Daniyani mag'lub etgan Buyuk Britaniya terma jamoasi Olimpiadaning ilk g'olibiga aylandi.” [17]

FIFA rahbariyati va uning 2006 yil 7-8-iyun kunlari bo'lib o'tgan 56-kongressi haqidagi oxirgi ma'lumotlar.

“JCh-2006 bahslariga start berilishi oldidan, aniqrog'i 7 va 8 iyun kunlari (2006 yil, A.Sh.) Myunxenda FIFAning navbatdagi –56-kongressi bo'lib o'tdi. Ko'pchilik yaxshi bilsa kerak, odatda jahon birinchiligi oldidan o'tkaziladigan bunday yig'ilishda FIFA prezidentligi uchun ham saylov o'tkazilardi. Lekin oldingilardan farqli ravishda bu safar bunday saylov o'tkazilmadi. Chunki uni o'tkazish kelasi yilga mo'ljallab qo'yilgan. Kongressning kun tartibidagi asosiy masalalar futboldagi korrupsiyaga barham berish, milliy birinchilik bahslarida ishtirok etuvchi klublarning sonini 18 taga qisqartirish hamda FIFA olgan daromad va yaqin kelajakda pul operatsiyalarini qaysi valyutada o'tqazishga bag'ishlandi. Ushbu masalalar bo'yicha bosh uyushma rahbari Zepp Blatter ma'ruza qildi.

Ta'kidlash kerakki, kongressda FIFAg a'zo bo'lgan 205 ta milliy federatsiyaning vakillari ishtirok etdilar. Yig'ilish yakunlanganidan keyin mundialda qatnashish sharafini qo'lga kiritgan 32 milliy federatsiya a'zolari Germaniyada qolishdi, qolganlari esa ochilish marosimidan so'ng uylariga qaytib ketdilar.

Zepp Blatter o'z ma'ruzasida bosh uyushmaning kelajakdagi rejaları va kelasi yili o'tkaziladigan prezidentlik saylovida nomzodini ilgari surishini ta'kidladi. Bundan tashqari 70 yoshli shveysariyalik ushbu taniqli mutaxassis FIFA yaqin yillar ichida korrupsiyadan butunlay holi bo'lishini bayon qildi...

... Prezidentning ta'kidlashiga qaraganda, FIFA 2005 yil mobaynida 555 million yevro ishlab topgan. Shu pullarning 136 million yevrosi sof foydadan iborat. Eslatib o'tamiz, 2004 yili FIFA 470 million yevro foyda ko'rgandi. Bosh kotib uyushmaning yaqin yillardagi umumiy byudjeti 850 million yevroga yetishini e'lon qildi. Bundan tashqari u FIFA 2007 yildan boshlab pul operatsiyalarini avvalgidek Shveytsariya franklarida emas, balki AQSh dollari yordamida amalga oshirishini ta'kidlab o'tdi.

... Aytmoqchi, navbatdagi kongressni Germaniya kansleri Angela Merkel xonim ochib berdi. Yig'ilishda turli yillarda jahon chempioni degan sharaflı unvonni qo'lga kiritgan yuzdan ortiq sobiq futbolchilar qatnashdilar. Ularning 12 nafariga jahon futboli rivojiga salmoqli hissaları uchun FIFAning ordenlari topshirildi. Butun jahon futbol uyushmasining faxriy prezidenti hisoblanadigan Joao Avelanj ham mukofotdan quruq qolmadi. Eslatish kerakki, Avelanj yaqında o'zining 90 yoshga to'lganini nishonladi." [18]

2. FUTBOL BO'YICHA JAHON CHEMPIONATI TARIXI

FIFA 1904 yilda tashkil etilgani haqida 1-paragrafda yozgandim. Havaskorlik futboli Olimpiya o'yinlari tarkibiga 1908 yilda kiritilgandi. Bu 1930 yilgacha turli mamlakatlar futbolchilari qatnashadigan yagona rasmiy futbol musobaqasi edi.

1926 yilda FIFA ijroiya qo'mitasi Jahon kubogi musobaqasini o'tkazish imkoniyatlarini o'rganish uchun maxsus komissiya tuzdi. FIFA kongressi Amsterdam shahrida 1928 yil 28 may kuni futbol bo'yicha jahon chempionatini o'tkazish haqida qaror qabul qildi: bu qarorni 25 delegat yoqlab, 5 delegat esa qarshi ovoz bergandi.

Urugvay 1924 va 1928 yildagi Olimpiya o'yinlarida futbol bo'yicha g'olib bo'lganligi sababli birinchi Jahon chempionati 1930 yilda Urugvayda o'tkazildi. 13 mamlakat futbolchilari qatnashdi. Final o'yinida Urugvay terma jamoasi Argentina terma jamoasini 4:2 hisobida yengib, 1-Jahon chempioni bo'lgandi.

Ikkinchi Jahon urushi tufayli 1942 va 1946 yillarda futbol bo'yicha Jahon chempionati o'tkazilmadi.

Musobaqaning final bosqichida 1934 yildan 1978 yilgacha 16 mamlakat jamoasi qatnashdi. 1982-1994 yillarda 24, 1998 yildan boshlab 32 mamlakat futbol jamoasi final bosqichida qatnashmoqda. Jahon chempionati saralash musobaqalarida 2006 yilda 197, 2010 yilda esa 204 mamlakat terma jamoalari qatnashdi.

1982 yildan boshlab futbol bo'yicha jahon chempionatini ba'zan "mundial" deb ham atashadi. Buning sababi: 1982 yilgi 12-Jahon chempionati Ispaniyada bo'lgandi. Ispan tilida "mundial" so'zi "jahon miqyosida" degan ma'noni bildiradi.

80 yil davomida Jahon chempionati final bosqichida jami 78 mamlakat futbolchilari qatnashdi. Ulardan faqat Braziliya terma jamoasi barcha 19 ta Jahon chempionati final bosqichida ishtirok etdi. [19]

Bu 78 mamlakat safida O'zbekiston terma jamoasi qatnasha olish huquqini biror marta qo'lga kirita olmadi. Buning sabablari kitobimda tahlil etilgan.

2010 yilgi saralash musobaqasida FIFAgaga a'zo 208 mamlakatdan 205 tasi qatnashdi, ya'ni Brunyey, Laos va Filippin qatnashish uchun FIFAgaga ariza bermadi.

2014 yilgi 20-Jahon chempionati saralash musobaqalari ham deyarli shu tartibda o'tkazilishini hisobga olib, terma jamoalar 6 ta geografik mintaqaga bo'linish tartibini keltiraman.

1. Yevropa (UYeFA) – 53 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 13 tasi chiqadi.

2. Osiyo (OFK) – 43 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 4 tasi chiqadi, beshinchi o‘rin olgani Okeaniya mintaqasining eng yaxshi jamoasi bilan match o‘tkazadi.
3. Afrika (AFK) – 51 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 5 tasi chiqadi, yana tashkilotchi mamlakat sifatida Janubiy Afrika Respyublikasi.
4. Shimoliy Amerika (KONKAKAF) – 35 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 3 tasi chiqadi, to‘rtinchi o‘rin olgani Janubiy Amerika mintaqasida beshinchi o‘rin olgan jamoa bilan match o‘tkazadi.
5. Janubiy Amerika (KONMEBOL) – 10 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 4 tasi chiqadi, beshinchi o‘rin olgani Shimoliy Amerika mintaqasida to‘rtinchi o‘rin olgan jamoa bilan match o‘tkazadi.
6. Okeaniya (OFK) – 10 terma jamoa, ulardan final bosqichiga 1 tasi chiqadi va Osiyo mintaqasida beshinchi o‘rin olgan jamoa bilan match o‘tkazadi. [19]

Futbol bo‘yicha jahon chempioniga beriladigan oliy mukofot – FIFAning Jahon kubogi tarixini navbatdagi paragrafda ko‘ramiz.

3. FIFANING JAHON KUBOGI TARIXI

FIFAning dastlabki Jahon kubogi 1929 yilda frantsuz haykaltaroshi Abel Laflyor eskizi bo‘yicha tayyorlangandi. U 925-probadagi kumushdan (92,5 foizi kumush bo‘lgan qotishmadan) tayyorlanib, ustidan oltin yuritilgandi. Uning asosi lazuritdan qilingan bo‘lib, balandligi 35 santimetr va og‘irligi 3,8 kilogramm edi. Unda o‘z boshi uzra sakkizburchakli lagan ushlab turgan qadimgi greklarning g‘alaba xudosi Nika qanotlari bilan tasvirlangandi (foto 2-ga qarang). Shu sababli dastlabki jahon kubogi chempionatlarida uni “G‘alaba” (ingl. Victory) kubogi deb atashgan. [20]

Ushbu kubok ta‘sis etilishi jarayonida FIFAning rasmiy hujjatlarida qaysi mamlakat terma jamoasi dastlab uch marta jahon chempioni bo‘lsa, o‘sha mamlakatga doimiy beriladi, deb yozilgandi.

1-paragrafda yozganimdek, 1921-1954 yillarda frantsiyalik Jyul Rime FIFA prezidenti bo‘lgan. U 1929 yilda futbol bo‘yicha jahon chempionatini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqandi. Shu sababli 1946 yilda kubok nomi Jyul Rime prizi deb rasman o‘zgartirildi (ingl. prize – mukofot, o‘lja, yutuq).

1966 yil iyul oyida futbol bo‘yicha 8-Jahon chempionati Angliyada bo‘lib o‘tdi. Shundan to‘rt oy oldin, 1966 yil 20 mart kuni Londondagi Westminster Central Hall nomli ko‘rgazmalar zalida Jyul Rime prizi namoyishi chog‘ida uni o‘g‘irlab ketishdi. O‘g‘irlagan kimsalar uni London janubidagi park skameykasi tagiga gazetaga o‘rab qo‘yib ketishgani sababli yetti kun o‘tgach haykalcha Piklz laqabli it tomonidan topildi.

Ushbu nohush voqeadan keyin Angliya futbol assotsiatsiyasi uning aniq nusxasini yashirin tayyorladi. [20]

Angliyaning Preston shahrida Futbol milliy muzeyi bor. Shu muzeyda Jyul Rime prizi nusxasi saqlanmoqda.



Foto 2. Jyul Rime prizi nusxasi. [20]

Braziliya terma jamoasi 1970 yildagi 9-Jahon chempionatida uchinchi marta g'alaba qozonib, Prizni o'z vataniga olib ketdi. Oltin haykalcha Rio-de-Janeyrodagi Braziliya futbol konfederatsiyasi qarorgohida namoyish etilayotganida jinoyatchilar 1983 yil 19 dekabr kuni o'g'irlab ketishdi. Jinoyatchilar eritib sotgan bo'lsalar kerakki, uni topish iloji bo'lmadi.

Braziliya futbol konfederatsiyasi buyurtmasi bilan Eastman Kodak kompaniyasi 1,8 kg oltin ishlatib kubok nusxasini tayyorladi. Haykalchani ushbu oltin nusxasi 1984 yildan beri Braziliyada saqlanmoqda. [20]

FIFA 1974 yilgi 10-Jahon chempionatiga yangi kubokni tayyorlattirdi. Kubok eskizini italiyalik haykaltarosh Silvio Gazzanidja (ingl. Silvio Gazzaniga) tayyorladi va uni Bertoni kompaniyasi yasadi. Kubokda qo'llarini baland ko'tarib turgan ikki kishi Yer sharini tutib turgan holda tasvirlangan (foto 3-ga qarang). Uning balandligi 36,5 sm. Unga 18-karatli (750-proba, ya'ni 75 foizi oltin bo'lgan qotishma) oltindan 5 kg ishlatilgan. Uning asosi diametri 13 sm bo'lib, ikki qavat malaxitdan tayyorlangan. Kubokning umumiy og'irligi 6,175 kg. [20]



Foto 3. FIFAning Jahon kubogi.

Kubok asosida oltin harflar bilan FIFA World CUP (FIFA Jahon Kubogi) deb yozilgan. Kubok asosida har bir chempionatda g'olib keladigan mamlakat nomini va yilini yozishga joy bor (masalan, 2010 Spain). Agar jahon chempionati har to'rt yilda o'tkazilishi davom etsa, Kubok asosidagi joy 2038 yilda yozib to'ldiriladi. Menimcha undan keyin kubok FIFA muzeyiga qo'yilib, yangi – uchinchi kubokka buyurtma beriladi. Yanayam, kelajakni Alloh biladi.

Qizig'i shundaki, FIFAning Jahon kubogi g'olibga berilmaydi. G'olib mamlakat terma jamoasiga oltin suvi yuritilgan nusxasi beriladi. [20]

Haqiqiy FIFAning Jahon kubogini jahon mamlakatlaridagi muxlislar 2006 yildan boshlab yaqindan ko'rish imkoniyatiga ega. Buning uchun "Koka-Kola" kompaniyasi maxsus "Trophy Tur" ("O'lja safari") nomli jahon uzra safar uyushtiradi. Navbatdagi safar 2009 yil 29 sentyabrda FIFA qarorgohi joylashgan Tsyurix shahridan boshlanib, 225 kun davomida umumiy masofasi 138 902 chaqirim bo'lgan 86 mamlakat orqali o'tdi va Janubiy Afrika Respublikasiga olib borildi. Masalan, haqiqiy qimmatbaho FIFAning Jahon kubogi 2010 yil 19-20 mart kunlari Rossiyaning Sankt-Peterburg, 21 martda Moskvada, 23-24 martda Ukrainaning Donetsk shahrida namoyish etildi. Safar davomida uni yuz millionlab muxlislar o'z ko'zlari bilan yaqin masofadan ko'rди. [20]






Afsuski, O'zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejim yo'l bermaganligi sababli 86 mamlakat ro'yxatiga vatanimiz nomi kirmadi va millionlab o'zbek futbol muxlislari FIFAning Jahon kubogini yaqindan ko'rish baxtidan mahrum qilindi.

Axir FIFAning ko'pgina rahbarlari, jumladan FIFA prezidenti Yo'zef (Zepp) Blatter Toshkentga bir necha marta kelgan va O'zR Prezidenti I.Karimov bilan uchrashgan. O'zbekiston rahbariyati har yili a'zo mamlakat sifatida FIFAgga kattagina miqdorda valyuta berib turadi. Agar O'zbekiston rahbariyati 86 mamlakat ro'yxatiga O'zbekiston ham kiritilishini so'rganida, FIFA rahbariyati bunga rad javobini bermagan bo'lardi.

Mana shu oddiygina faktdan ko'rinib turibdiki, qarib qolgan O'zR Prezidenti I.Karimovni ham, O'zbekiston Futbol Federatsiyasi rahbari boboy Mirabror Usmonovni ham Vatanimiz futbol muxlislarining orzo'-umidlari umuman qiziqirmaydi.


































4. BARCHA JAHON CHEMPIONATI NATIJALARI



























19 ta Jahon chempionatida birinchi to'rtta o'rinni olgan terma jamoalar haqidagi jadvalni [21]-maqoladan keltirmoqdaman.

Yil	O'tkazilgan joyi	Final o'yini		
		G'olib	Hisob	2-o'rin
1930	 Urugvay	 Urugvay	4:2	 Argentina
1934	 Italiya	 Italiya	2:1 qo'shimcha vaqt	 Chexoslovakiya
1938	 Frantsiya	 Italiya	4:2	 Vengriya
1950	 Braziliya	 Urugvay	(1)	 Braziliya
1954	 Shveysariya	 GFR	3:2	 Vengriya
1958	 Shvetsiya	 Braziliya	5:2	 Shvetsiya
1962	 Chili	 Braziliya	3:1	 Chexoslovakiya
1966	 Angliya	 Angliya	4:2 qo'shimcha vaqt	 GFR
1970	 Meksika	 Braziliya	4:1	 Italiya

1974	 GFR	 GFR	2:1	 Niderlandiya
1978	 Argentina	 Argentina	3:1 qo'shimcha vaqt	 Niderlandiya
1982	 Ispaniya	 Italiya	3:1	 GFR
1986	 Meksika	 Argentina	3:2	 GFR
1990	 Italiya	 GFR	1:0	 Argentina
1994	 AQSh	 Braziliya	0:0 (3:2) penaltilar bo'yicha	 Italiya
1998	 Frantsiya	 Frantsiya	3:0	 Braziliya
2002	 Janubiy Koreya  Yaponiya	 Braziliya	2:0	 Germaniya
2006	 Germaniya	 Italiya	1:1 (5:3) penaltilar bo'yicha	 Frantsiya
2010	 JAR	 Ispaniya	1:0 qo'shimcha vaqt	 Niderlandiya
2014	 Braziliya			

Jadval davomi

Yil	O'tkazilgan joyi	3-o'rin uchun match		
		3-o'rin	Hisob	4-o'rin
1930	 Urugvay	 AQSh	(1)	 Yugoslaviya
1934	 Italiya	 Germaniya	3:2	 Avstriya
1938	 Frantsiya	 Braziliya	4:2	 Shvetsiya
1950	 Braziliya	 Shvetsiya	(2)	 Ispaniya
1954	 Shveytsariya	 Avstriya	3:1	 Urugvay
1958	 Shvetsiya	 Frantsiya	6:3	 GFR
1962	 Chili	 Chili	1:0	 Yugoslaviya
1966	 Angliya	 Portugaliya	2:1	 SSSR
1970	 Meksika	 GFR	1:0	 Urugvay
1974	 GFR	 Polsha	1:0	 Braziliya
1978	 Argentina	 Braziliya	2:1	 Italiya

		Braziliya		Italiya
1982	 Ispaniya	 Polsha	3:2	 Frantsiya
1986	 Meksika	 Frantsiya	4:2 qo'shimcha vaqt	 Belgiya
1990	 Italiya	 Italiya	2:1	 Angliya
1994	 AQSh	 Shvetsiya	4:0	 Bolgariya
1998	 Frantsiya	 Xorvatiya	2:1	 Niderlandiya
2002	 Janubiy Koreya  Yaponiya	 Turkiya	3:2	 Janubiy Koreya
2006	 Germaniya	 Germaniya	3:1	 Portugaliya
2010	 JAR	 Germaniya	3:2	 Urugvay
2014	 Braziliya			

Izoh. “(1) – 1930 yilda uchinchi o‘rin uchun match o‘tkazilmagan edi. AQSh va Yugoslaviya yarim finalda Argentina va Urugvayga yutqazishgandi. Lekin FIFA AQSh terma jamoasi uchinchi, Yugoslaviya terma jamoasi esa to‘rtinchi o‘rinni egallagan, deb topdi.

(2) – 1950 yilda birinchi o‘rinlar taqdiri 4 jamoadan iborat final guruhi turnirida hal qilinganligi sababli uchinchi o‘rin uchun rasmiy final matchi o‘tkazilmagan edi. Lekin Urugvay va Braziliya terma jamoalari o‘rtasida o‘tkazilgan oxirgi tur matchida de-fakto final o‘yini bo‘ldi. Chunki aynan shu o‘yinda 2:1 hisobi bilan g‘olib kelgan Urugvay chempion unvoniga ega bo‘ldi. Xuddi shunday, Shvetsiya-Ispaniya matchida shvedlar 3:1 hisobi bilan yutuqqa erishishi 3-o‘rin matchi uchun de-fakto bo‘ldi” [21]

5. FUTBOLNING BUYUK QIROLI PELE



Foto 4. Pele va Mario Zagallo. Pele bilan birga M.Zagallo 1958 va 1962 yilda Braziliya terma jamoasida to'p surgan, Jahon chempioni bo'lgan. 1970 yilda Braziliya terma jamoasi, jumladan futbolchi Pele uchinchi marta Jahon chempioni unvonini qo'lga kiritganida jamoaga bosh murabbiy M.Zagallo edi. [22]

Kitobimning 1-nashrida Pele haqida ozroq ma'lumot yozgandim. Pele 2010 yil 23 oktyabr kuni 70 yoshga to'ladi. Shu sababli ikkinchi nashrida unga alohida paragraf bag'ishlab, u haqda to'liqroq ma'lumot keltirishni o'rinli deb hisobladim.

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi oldida 2005 yil 31 may kuni o'tkazgan piketdan avval bir guruh inson huquqlari himoyachilari nomidan Talabnoma tayyorlagandim (11-bandga qarang). Shu Talabnomaning 4-bandida buyuk futbol qiroli Peleni O'zbekistonga taklif etish iltimos qilingan. Albatta, Pele to'g'risida yer yuzida eshitmagan, uni tanimaydigan kishi deyarli bo'lmasa kerak. Uning hayotiga, futboldagi muvaffaqiyatlariga oid ko'pgina aniq ma'lumotlarni hamma ham bilavermaydi. Masalan, bitta oddiygina savol: "Pele" so'zining ma'nosi qanday, qachon va nima uchun unga shu laqab qo'yilgan?

Men ham 40 yildan ortiq futbolga qiziqib, ozmi-ko'pmi ishqibozlik qilgan bo'lsamda, ushbu kitobning birinchi va ikkinchi nashrini yozish davomida Pele haqida ko'pgina qo'shimcha faktlarni o'qidim. Keling, shu ajoyib faktlarga sizni ham oshno etay. Agar, mabodo bu faktlardan ayrimlarini bilsangiz, yana bir karra o'qib zavq oling.

5.1. BOLALIK DAVRI

Edson Arantes do Nascimento – Pele 1940 yil 23 oktyabr kuni Braziliyaning Minas-Jerays shtatidagi kichkina Tres-Koranoys shahrida tug'ilgan.

“Uning otasi Dondinyo, San-Paulu shtati jamoalaridan birida to'p surib, oila tebratardi. Ammo uchrashuvlardan birida olingan jiddiy jarohat uning faoliyatiga nuqta qo'ydi” [23] Dondinyo o'z o'g'li Edsonga dastlabki futbol sirlarini o'rgatdi.

Edson 7 yoshida mahalliy bolalar futbol jamoasida to'p surdi. Jamoaga ma'lum bir vaqt davomida Braziliya futbol terma jamoasining sobiq o'yinchisi Valdemar de Brito murabbiylik qildi. Uning bevosita murabbiyligida Pele futbolchi sifatida tarbiyalandi. Aynan V.de Brito tavsiyasi bilan San-Paulu shtatining

“Santos” futbol klubi rahbarlari Pele o‘yinini tomosha qilishdi. Ko‘p vaqt o‘tmay 15 yoshli Pele “Santos” klubi a‘zosi bo‘ldi. [22]

“Valdemar de Brito (San-Paulu, 1913.17.05-1979.21.02) – Braziliya futbolchisi, hujumchi. Braziliya terma jamoasi safida 18 matchda qatnashib 18 ta gol urgan. 1934 yilgi 2-Jahon chempionatida qatnashgan va bitta uchrashuvda o‘ynagan. Paulist jamoasining 1933 yilgi eng yaxshi to‘purari. Futbolchilik faoliyatini tugatgach, “Bauru” jamoasida ishlagan va o‘sha vaqtda Peleni topgan” [23]

5.2. PROFESSIONAL MAHORATINING O‘SISHI

Pele 1953-1955 yillarda “Bauru”, 1955-1956 yillarda Noroeste futbol jamoasi tarkibida to‘p surdi [22].

Pele 1956 yil sentyabrida, ya‘ni 16 yoshga to‘lmasdan avval, San-Paulu shtatining “Santos” klubi tarkibida San-Paulu shahrining “Korintiansa” klubiga qarshi rasmiy uchrashuvda maydonga tushdi va o‘zining dastlabki golini kiritdi.

Braziliyada 1971 yilgacha umumiy futbol chempionati o‘tkazilmagan [24]. Shu sababli asosiy o‘yinlar shtat miqyosida bo‘lgan. Pele 1956-1974 yillarda faqat “Santos” klubida o‘ynadi va 1139 ta golini shu klubning rasmiy o‘yinlarida kiritdi. U “Santos” klubi tarkibida San-Paulu shtati chempionatining 11 marta chempioni, 11 marta eng yaxshi to‘purari bo‘ldi (u 1958 yilgi chempionatda 58 ta gol urgandi), 6 marta Braziliya Kubogi, 2 marta Libertadores kubogi va 2 marta Qit‘alararo Kubokni qo‘lga kiritgan. [22]



Foto 5. Pele qaychi uslubida to‘pni o‘zidan oshirib urayotgan payti. Oldingi sahnada Pele Jahon chempioni bo‘lgan paytidagi futbolkalari. Montevideodagi futbol muzeyida olingan fotosurat. [22]

4.3. BRAZILIYA TERMA JAMOASIDAGI O‘YINI

Pele Braziliya futbol terma jamoasi safida dastlab 1958 yilda - 17 yoshligida Shvetsiyada bo‘lib o‘tgan 6-Jahon chempionatida qatnashdi. U chorak finalda Uels terma jamoasi darvozasiga hal qiluvchi golni kiritdi. Yarim finalda Frantsiya terma jamoasi darvozasiga uchta gol, finalda esa chempionat mezboni – Shvetsiya terma jamoasi darvozasiga ikkita gol urdi. Pele mutaxassislar, tomoshabinlar va raqiblar tomonidan tan olindi va Jahon futbol chempionatlarining eng yosh chempioni bo‘ldi va haligacha shunday. [22]

17 yoshli Pele jahon chempioni va jahonning eng yaxshi futbolchisi deb tan olinishi natijasida u juda mashhur bo'lib ketdi. Braziliyadagi ko'chalarga Pele nomi berila boshlandi. Braziliya hukumati unga yer uchastkasi va avtomashina sovg'a qildi. U braziliyalik va xorijlik minglab go'zal qizlardan sevgi maktublarini olardi. U shu sharoitda tinchroq, boyroq turmush kechirishga o'tib olishi mumkin edi. Lekin Pele futbolga bo'lgan ulkan muhabbati tufayli bu hayotiy mashhurlik "to'sig'i"dan sharaf bilan o'ta bildi.

Yevropaning "Real", "Yuventus", "Inter" kabi mashhur klublari rahbarlari Peleni ov qilishga kirishdilar, u uchun juda kata mablag' to'lashga rozi edi. Balkim, "Santos" sotib kattagina daromad ishlashi ham mumkin edi. Lekin futbolni jonu-dilidan yaxshi ko'ruvchi Braziliya xalqi o'z yulduzini sotishga ko'narmidi? Agar Peleni Yevropa klubiga sotishsa mamlakatda kata ijtimoiy portlash ro'y berishi mumkin edi. Shu sababli Braziliya hukumati Peleni "Braziliy xalqining noyob mulki" deb e'lon qildi, Braziliya futbol federatsiyasi prezidenti Joao Avelanj bunday dedi: "Mona Liza" kabi Pele ham bebahodir" ("Mona Liza" buyuk italyan olimi va rassomi Leonardo da Vinchi 1503-1505 yillarda chizgan 76,8×53 cm kattalikdagi mashhur surat, u hozir Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda, A.Sh.). [25]

1962 va 1966 yilgi 7- hamda 8-Jahon chempionatida Pele jarohat olganligi sababli Braziliya terma jamoasi safida kam o'ynadi.

Pelening sport tarjimai holidagi to'rtinchi jahon chempionati bo'lmish 9-JCh 1970 yil 31 may - 21 iyun kunlari Meksikada bo'lib o'tdi (men 1970 yilda o'rta maktabni bitirish imtihonlarini topshirish va Samarqand davlat universitetiga o'qishga kirish tashvishlari bilan yurganligim bois 9-Jahon chempionatini televideniye orqali ko'ra olmadim, A.Sh.). Mutaxassislar fikricha, 9-JChda qatnashgan Braziliya terma jamoasi o'z tarixidagi eng kuchli terma jamoa edi. Braziliyaliklar uchinchi marta jahon chempioni bo'ldi va Jule Rime prizini doimo saqlash uchun Braziliyaga olib ketishdi. Shu chempionatdan keyin Pele uchinchi marta jahon chempioni bo'ldi. Natijada u maydonda to'p surib, uch marta jahon chempioni bo'lgan yagona shaxsdir. [22]

Pele Braziliya futbol terma jamoasi safida 92 marta maydonga tushib, 77 ta gol urdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ham u rekordsmendir. [22]

5.4. "KOSMOS" KLUBIDAGI O'YINI

Pele 1974 yilda "Santos" va Braziliya terma jamoasi safidagi o'yinlarini tugatgach, 1975 yilda AQShning "Kosmos" nomli professional klubi bilan uch yilga shartnoma imzoladi. Uni futbolga qaytishga majbur qilgan omillardan biri moliyaviy masala bo'lsa, ikkinchisi – AQShda futbol ommaviyligini oshirish edi. "Kosmos" bilan tuzilgan 6 million dollarlik shartnoma sababli Pele o'sha davrda eng katta oylik oladigan sportsmen edi. U to'p surgan davrda "Kosmos" o'tkazgan matchlarga keluvchilar soni to'qqiz marta ortdi. [25]

Pele AQShda "Kosmos" tarkibida 1977 yilda Shimoliy Amerika futbol ligasining chempioni bo'ldi.

Pele 1977 yil 1 oktyabr kuni o'zining oxirgi, xayrlashuv futbol o'yinini o'tkazdi. Shu kuni u AQShning "Kosmos" va Braziliyaning "Santos" klublari safida bir taymdan o'ynadi.

"Har ikkala jamoasi tarkibida ham bir taymdan harakat qilgan qahramonimiz, 43-daqiqada "Kosmos" tarkibida to'p kiritdi va shu jamoa o'yinda g'alaba qozondi – 2:1" [26]

Rossiyada nashr etiladigan "Nedelya" ("Hafta") gazetasi muxbiri 1977 yilda Pelening futbol bilan xayrlashuv onlari haqida bunday yozgandi.

"U futbol maydoni o'rtasida turardi. Sharros yomg'ir yog'ayotgandi, lekin Nyu-Yorkning "Djeynts Stedium" tribunasiga yig'ilgan 75 646 tomoshabin yon-atrofdagilarga e'tibor bermay unga qarab turishardi ... U esa o'z hayotining bir bo'lagidan kechayotganini tushunib, o'z hayollari bilan band parishon xotir holda turardi ...

Keyin u tribunalarga qaradi – bu ummon kabi hayratlangan shaxslar, - mikrofoniga yaqinlashdi. Va tuman tushgan kabi stadionda jimlik boshlandi ...

- Men o'z hayotimning eng muhim lahzasida sizlar bilan birga ekanligimdan baxtiyorman ... Men ishonamanki, muhabbat ... - uning ko'zlarida yosh miltilladi, - muhabbat hayotda mavjud narsalarning eng muhimidir. Agar sizlar mening so'zlarimga qo'shilsalaringiz, mendan keyin ushbu so'zni qaytarib aytinglar ...

Namoyish tablosida “muhabbat” so'zi yondi, va Pele stadiondagi ko'pning kishilik olomon u bilan birgalikda “Muhabbat! Muhabbat! Muhabbat!” deya hayqirayotganini eshitdi.

Buning barchasi shu qadar nooddiy va ta'sirli ediki, Pele kaftlari bilan yuzini berkitdi va yig'lab yubordi” [25]

Bu Futbolning Buyuk Qirolining sevinch ko'z yoshlari edi.

5.5. MAHORATI SIRLARI

Millionlab o'zbek bolalari va yoshlarida mahoratli futbolchi bo'lish orzo'si bor. Shu sababli Pele mahorati sirlari haqida mutaxassislar yozgan ma'lumotlarni qisqacha keltirib o'tsam.

Pele mahoratining siri uning ajoyib jismoniy qobiliyatida va ulkan mehnatsevarligidadir.

Pele jismonan supermen emas: uning bo'yi 173 sm bo'lib, og'irligi 59 kilogrammdir [22]. U shu bo'yi bilan ikki metr balandlikka sakray olardi. U o'z futbol kar'yerasi cho'qqisida 100-metrlik masofani 11 soniyadan kamroq vaqtda yugurib o'ta olardi. Bu yengil atletika professional sprinterlari ko'rsatkichidan ozgina farq qiladi, xolos.

O'z vaqtida maxsus tekshirishlar ko'rsatdiki, Pele ko'zlarining ko'rish burchagi juda kattadir. Bu unga doimo o'zgaradigan maydondagi ahvolni tez baholash va optimal qaror qabul qilishga imkon berardi. [22]

Pele tabiatan juda qobiliyatli bo'lishiga qaramay, futbol texnikasining alohida qismlarini mashq qilishga ko'p vaqt ajratardi. Shu sababli u ikkala oyog'i bilan ham to'pni bir xilda zo'r mahorat bilan tepa olardi.

Uning yana bir afzal tomoni – ajoyib driblingi va to'pni aylantirib olib o'ta bilishidadir (obvodka).

Pelega xos to'pga egalik qilishning filigran (o'ta mahoratli) texnikasi katta tezlik bilan birgalikda, mashqlarda ko'p marta takrorlab o'rganilgan uslublar esa ustamona improvizatsiya bilan amalga oshirilardi (ingl. improve – yaxshilash, takomillashtirish). [22]

Peleni gol hissi, g'ayri oddiy intuitsiya va o'yinni nozik bilish ajratib turardi. Yuqori darajadagi ustaligiga qaramay, Pele doimo jamoa bo'lib o'ynash tarafdori edi. “Umumiy intilishsiz futbolda g'alaba qozonib bo'lmaydi, - derdi u. - Futbol – bu jamoadir, kollektivdir, bir-ikki-uch nafar yulduz o'yinchi emas”.

Pele pas berish “grossmeysteri” sifatida ham taniqlidir. Uning o'z jamoadoshlariga uzatgan to'plari aniq, o'z paytida bo'lib, o'zining nostandart hamda kutilmaganligi bilan raqiblarni ko'pincha sarosimaga solardi. [22]

Maydondagi vaziyatni to'g'ri baholay bilish va o'z jamoadoshlariga to'pni aniq hamda o'z vaqtida oshirib berish borasida o'zbek futbolida Mirjalol Qosimov yuqori o'rindadir (albatta, Pele darajasida emas, lekin yuqori mahorat egasi edi). M.Qosimovning mahoratli o'yinini ko'p marta stadion tribunasida o'tirib ham, televideniye orqali ham ko'rganman.

Ekspertlar fikricha, Pele texnikasida salbiy joylari yo'q edi. Uning alohida o'yin uslubi futbol imkoniyatlari va ma'nosi haqidagi tasavvurlarni ko'p jihatdan o'zgartirdi. U yashil maydonda ko'rsatgan ajoyibotlari afsonaviy darajaga ko'tarildi. U 1961 yilda "Marakana" stadionida "Flumensi"ga qarshi bo'lgan o'yinda to'pni o'z darvozabonidan olib, deyarli barcha raqiblarni, jumladan darvozabonni ham aldab o'tib gol kiritdi. Bu "asr goli" deb tan olindi va bunga bag'ishlab "Marakana"da xotira belgisi qo'yildi.

5.6. AYRIM HAYRATLANARLI MUVAFFAQIYATLARI

Men yuqoridagi bandlarda Pele erishgan ko'pgina hayratlanarli muvaffaqiyatlarni keltirib o'tdim. Ularga qo'shimcha ravishda yana bir necha hayratlanarli faktlar.

"Pele jahon chempionati final bosqichida (14 o'yinda, A.Sh.) 12 ta gol urgan.

U uch marta jahon chempioni bo'lgan yagona shaxsdir. Shu bilan birga u ikkita final matchida qatnashgan (1962 yilda u jarohati tufayli finalda o'ynay olmagan).

1969 yil 19 noyabr kuni Pele "Marakana" stadionida penaltidan o'zining 1000-golini kiritdi.

Pele o'z futbol karyerasida 1363 rasmiy o'yinda 1281 ta gol kiritgan.

Pele 90 uchrashuvda uchtdan, 30 marta – to'rttdan, 4 marta – beshtadan, bir marta esa – 8 ta gol kiritgan (1964 yil 21 sentyabr kuni Ribeyrao-Preto shahrining "Botafogo" jamoasi darvozasiga).

Braziliya milliy terma jamoasining 92 matchida 77 ta gol urgan.

1973 yilgi Janubiy Amerika futbolchisi.

FIFAning 100 mashhur futbolchilari ro'yxatiga kiritilgan.

"World Soccer" ("Jahon Fotboli") jurnali versiyasiga ko'ra 20-asrning buyuk futbolchilari ro'yxatida birinchi o'rinni egallagan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1999 yilda Peleni 20-asrning eng yaxshi sportchisi deb e'lon qildi (Pele biror marta Olimpiada musobaqalarida qatnashmagan, A.Sh.).

FIFA 2000 yilda 20-asr o'yinchisi deb e'lon qildi" [22]

Pele 1959 yilda 103 o'yinda 126 ta gol urgan. [25]

"Pele o'zining yubiley – minginchi golini 1969 yil 19 noyabr kuni "Santos" va "Vasko da Gama" jamoalari uchrashuvida penaltidan kiritdi. Braziliya Aloqa vazirligi shu munosabat bilan maxsus pochta markasini chop etdi. Bu alohida bir futbolchi erishgan muvaffaqiyatiga bag'ishlangan jahondagi yagona markadir. Har yili "Santos" 19 noyabr kunini "Pele kuni" deb nishonlaydi" [22]

[27]-maqolada Pele bilan bog'liq 17 ta qiziqarli fakt yozilgan. Men ulardan uchtasini keltirib o'tishni o'rinli, deb hisobladim.

"3-fakt. Pele o'zining 21 yillik futbol faoliyati davomida 32 chempionatda g'olib chiqdi. Shundan 3 tasi – jahon chempionatidir. 90 marta xet-trek (uchta gol, A.Sh.), 30 marta poker (to'rtta gol, A.Sh.), 4 marta beshtadan gol va bir marta "Botofago" klubiga 8 marta darvozani aniq nishonga olgan.

6-fakt. Ayniqsa, muxlislar “Fluminense” darvozasiga kiritilgan golni hech unutaolmasalar kerak. O’shanda u darvozaabondan qabul qilgan to’pni hech kimga bermasdan, butun jamoani aldab o’tib raqib darvozasiga joylagandi. Braziliyaliklar tomonidan “asr goli” sifatida e’tirof etilgan bu golga “Marakana” stadionida maxsus yodgorlik o’rnatilgan.

17-fakt. Pele haqida yuzdan ziyod qo’shiqlar yaratilgan.” [27]

5.7. “PELE” SO’ZINING MA’NOSI

“Pele deyarli yarim asrdan keyin nemis jurnalistlari oldida uning taxallusi o’lguday joniga tekkanini va uni o’zining haqiqiy ismi Edson Arantes do Nascimento nomi bilan atashlarini xohlashini tan oldi. “Pele – bu mening ismim emas, – deydi u. – Mening ismim Edson va hech qachon meni Pele deb atashlarini yoqtirmaganman”.

Futbol qiroli bu laqabni otasi Joao Ramosa do Nascimento bilan bir jamoada o’ynagan darvozabon Bill tufayli orttirib olgan. Yosh Edson golkiperlikni haddan tashqari yaxshi ko’rardi, lekin “Bile, ur”, – deb baqirishlari hamda “Bile” ismini noto’g’ri talaffuz qilishdan paydo bo’lgan taxallusi uni qiynardi.

“Maktabda bir bola meni Pele deb masxara qildi, lekin, birinchi kuni bu mening jahlimni chiqarmadi va unga e’tiroz bildirmadim” – deya eslaydi Pele.

Aytib o’tish kerakki, Edson o’zining ismini ham otasining xatosi tufayli qo’yilgan deb o’ylaydi. Otasi unga mashhur kashfiyotchi Tomas Alva Edison sharafiga ism qo’yishni xohlagan.” [28]

5.8. MASHHURLIGI




Foto 6. Marakana maydonidagi Pele oyoqlari izi [22]

“Santos” klubi boshqa mamlakatlar futbol klublari bilan xalqaro uchrashuvlar o’tkazib turardi. Match tashkilotchilari kontraktga “Agar uchrashuvda Pele qatnashmasa “Santos” klubiga o’tkaziladigan mablag’ ikki marta kamaytiriladi” deb alohida band kiritishardi. [22]

Afrikadagi mamlakatlar mustaqillik olgach, ko’p yillar davomida o’zaro urush-janjallar to’xtamagani, hatto ayrimlarida hozir – 2010 yilda ham davom etayotgani ma’lum. 1970 yilda Braziliyaning “Santos” klubi Nigeriya poytaxti Lagos shahri klubi bilan o’rtoqlik uchrashuvi o’tkazadigan bo’lishdi. Shunda urushuvchi tomonlar urush harakatlarini ikki kunga to’xtatishga qaror qilishdi [22]. Pele borgan joylarda hatto urush harakatlari to’xtatildirdi.

Kolumbiyada match paytida hakam Peleni maydondan chetlashtirdi. Shunda jahli chiqqan kolumbiyalik futbol muxlisleri hakamni o’zini maydondan haydab chiqarib, Pelega maydonga qaytishni iltimos qilishdi. Pele futbol maydoniga qaytdi va o’yin oxirigacha o’ynadi.

Pele 1958 yilgi 6-Jahon chempionatidan keyin o’z tarjimai holiga bag’ishlangan “Men – Pele” degan kitobni yozib nashr ettirdi. Savodi yo’q ko’pgina braziliyaliklar, ayniqsa bolalar mashhur vatandoshi Pele kitobini o’qish uchungina savod ola boshladi. Braziliya Maorif vazirligi ko’p yillar davomida amalga oshira olmagan

ishni Pele o'z kitobi bilan qisqa vaqtda amalga oshirdi. Buni tan olib, Braziliya Maorif vazirligi Pelega esdalik oltin medalini topshirdi. Pele bu oltin medalni sportda olgan boshqa medallar bilan teng qadrlaydi. [22]

Pele Braziliya davlat ramzlaridan biriga aylandi. Uni Perola Negra (“Qora Marvarid”) deb ham atashadi. Pele birorta Yevropa futbol klubiga transfer qilinishidan saqlash maqsadida Braziliya prezidenti alohida farmon chiqarib, Peleni “millatning noyob mulki” deb e’lon qilgandi. [22]

1970-yillarda jahonning turli mintaqalarida maxsus so’rovnomalar o’tkazilganiga ko’ra, har yuz kishidan 95 nafari Pele kim ekanligini yaxshi bilardi. [22]

Pele nomi har xil yillarda sport buyumlaridan tortib kofe hamda qo’l soatlari reklamalarida ishlatildi va ishlatilmoqda. [22]

Ayrim ma’lumotlarga ko’ra, bergan intervyulari va fotolari soni bo’yicha ham u jahon rekordsmenidir, ya’ni undan ko’proq intervyu bergan va surati chop etilgan kishi jahonda yo’q.

Maceyo shahrida 30 ming kishilik stadion Qirol Pele deb nomlanadi. Bu stadionda dastlabki match 1970 yilda mahalliy Alagoas shtati futbolchilari bilan “Santos” o’rtasida bo’lgandi. Mehmonlar osongina 5:0 hisobi bilan g’alaba qozonishgandi. [22]

5.9. FUTBOLDAN KETGACH AMALGA OSHIRGAN ISHLARI

Pele 1981 yilda “G’alaba sari yugurish” filmida suratga tushdi. [22]

“Pele 1995 yilda Braziliya Sport vaziri etib tayinlangandi.

1998 yilda Britaniya imperiyasi ordeni ritsar-komandori degan nomga sazovor bo’ldi.

1999 yilda Xalqaro olimpiya qo’mitasi Peleni asr sportchisi den tan oldi.

2000 yilda FIFA Peleni 20-asrning eng yaxshi futbolchisi deb tan oldi.

Pelega YUNESKO elchisi degan nom berildi.

Pele o’z tarjimai holiga doir bir nechta kitob nashr ettirgan, bir necha marotaba kinoda suratga tushgan va musiqa bastalagan.” [22]

“Pele bugungi kungacha (2001 yil 9 noyabrgacha, A.Sh.) Braziliya sport vaziri lavozimida ish olib bordi, telekanallarning birida sharhlovchilik qildi. U tomonidan ishlab chiqilgan milliy futbolni isloh qilish haqidagi qonun ham parlament tomonidan tasdiqlandi.” [26]

“Braziliyalik Peleni butun dunyo ahli barcha zamonlarning eng kuchli futbolchisi sifatida yaxshi biladi. Biroq u yaxshigina musiqachi ekanligini hamma ham bilavermaydi. Tez kunlarda uning qo’shiqlaridan tuzilgan albom sotuvga chiqariladi.

Uch karra jahon chempioni sanaladigan 65 yoshli (2005 yilda, A.Sh.) Pele dunyo bo’ylab safar uyushtirganida har doim gitarasini o’zi bilan birga olib yuradi. U ayni paytgacha 500 tadan ziyod qo’shiq yaratdi. Bu qo’shiqlarning eng yaxshilari “Pelejinga” deb nomlangan albomga jamlandi. Pele bossa nova, yumshoq jaz va samba ohanglarida kuylashni yoqtiradi. U musiqachi sifatida yuqori cho’qqilarni zabt etgani yo’q. Lekin u bunga urinib ham ko’rmagan. Uning maqsadlari kamtorona. “Bu albom bilan men orzuimni ruyobga chiqardim”, – deydi Pele.” [29]

Maxsus maorif dasturi doirasida bolalar uchun futbolga doir o'quv filmini yaratishda qatnashgandi. [22]

Pele kinoakter, teleboshlovchi, biznesmen (Café Pele markali kofe jahonga ma'lum), o'z qo'shiqlari muallifi hamda ijrochisi sifatida ham taniqlidir. [22]

Pelening o'g'li Edinyo "Santos" klubida darvozabon bo'lib o'ynamoqda. [22]

Xulosa qilib aytganda, Pelega futbol sohasidagi iqtidor Alloh tomonidan berilgan bo'lib, u o'zining olamshumul muvaffaqiyatlariga kamtarligi hamda juda katta mehnatlari bilan erishdi.

Ushbu paragraf boshida Pele 2010 yil 23 oktyabr kuni 70 yoshga to'lishi haqida yozgandim. Shu sanaga atab o'zbek qo'shiqchilari, hofizlari qo'shiq yaratishsa o'zbek futbol muxlislari uchun ham, qolaversa Futbol qiroli Pele uchun ham yaxshi sovg'a bo'lardi.

6. JAHONNING 125 NAFAR MASHHUR FUTBOLCHISI

2004 yilda FIFAning 100 yillik tantanalari o'tkazildi. Shunda FIFA rahbariyati buyuk futbol qiroli Edson Arantes du Nasimentu – Pelega murojaat qilib, bugungi kunda (2004 yilda) hayot bo'lgan jahonning mashhur 100 nafar futbolchi ro'yxatini tuzib berishni iltimos qildi. Pele ro'yxatni tuza boshlagach, 100 raqami kamlik qildi va ro'yxatga 125 futbolchi ismi-sharifini kiritdi. Ro'yxatdagilardan 2 nafari ayoldir, 75 nafari 2004 yilda futbol maydonidagi o'yin faoliyatini tugatgandi. Ushbu ro'yxatni [30]-dan keltiraman, unda 125 emas, 123 nafar futbolchining ismi sharifi keltirilgan.

“SHARQIY YEVROPA (SOBIQ SOVET ITTIFOQI VA TURKIYA BILAN BIRGALIKDA)

Bonek, Zbignev – Polsha
Dasayev, Rinat Fayzraxmanovich – SSSR
Masopust, Yozef – Chexiya
Nedved, Pavel – Chexiya
Pushkash, Ferents – Vengriya
Rechber, Ryushtyu – Turkiya
Stoichkov, Xristo – Bolgariya
Xadji, Gyeorgye – Ruminiya
Shevchenko, Andrey Nikolayevich – Ukraina

G'ARBIY YEVROPA

Anri, Tyerri – Frantsiya
Badjo, Roberto – Italiya
Ballak, Mixael – Germaniya
Barezi, Franko – Italiya
Bekenbauer, Frants – Germaniya
Bekxem, Devid – Angliya
Bergkamp, Denis – Niderlandi
Bergomi, Djuzeppe – Italiya
Best, Djorj – Shimoliy Irlandiya
Boniperti, Djampero – Italiya
Braytner, Paul – Germaniya
Butrageno, Emilio – Ispaniya
Buffon, Janluidji – Italiya
Benks, Gordon – Angliya
Van Basten, Marko – Niderlandi

Van der Kerkhof, Villi – Niderlandi
Van der Kerkhof, Rene – Niderlandi
Van der Elst, Franki – Belgiya
Van Nistelroy, Rud – Niderlandi
Viyeyra, Patrik – Frantsiya
Vyeri, Kristian – Italiya
Gullit, Ruud – Niderlandi
Davids, Edgar – Niderlandi
Dalglish, Kenni – Shotlandiya
Del Pyero, Alessandro – Italiya
Desayi, Marsel – Frantsiya
Desham, Didye – Frantsiya
Dzoff, Dino – Italiya
Zeedorf, Klarens – Niderlandi
Zeeler, Uve – Germaniya
Zidan, Zinedin – Frantsiya
Kan, Oliver – Germaniya
Kantona, Erik – Frantsiya
Kigan, Kevin – Angliya
Kin, Roy – Irlandiya
Klinsmann, Patrik – Niderlandi
Kopa, Raymon – Frantsiya
Kroyf, Yoxan – Niderlandi
Kulemans, Yan – Belgiya
Laudrup, Brayyan – Daniya
Laudrup, Mixael - Daniya
Lineker, Gari – Angliya
Luis Enrike – Ispaniya
Mayer, Zepp – Germaniya
Maldini, Paolo – Italiya
Matteus, Lotar – Germaniya
Myuller, Gerd - Germaniya
Neskens, Yoxan – Niderlandi
Nesta, Alessandro – Italiya
Ouen, Maykl – Angliya
Papen, Jan-Pyer – Frantsiya
Pires, Rober – Frantsiya
Platini, Mishel – Frantsiya
Pfaff, Jan-Mari – Belgiya
Raykaard, Frank – Niderlandi
Raul – Ispaniya
Rensenbrink, Rob – Niderlandi
Rivera, Janni – Italiya
Rossi, Paolo – Italiya
Koshta, Ruy – Portugaliya
Rummenigge, Karl-Xaynts – Germaniya
Totti, Franchesko – Italiya
Trezege, David – Frantsiya
Trezor, Marius – Frantsiya
Tyuram, Lilian – Frantsiyay
Faketti, Jakinto – Italiya
Figu, Luish – Portugaliya

Fonten, Jyust – Frantsiya
Charlton, Bobbi – Angliya
Shirer, Alan – Angliya
Shmeyxel, Peter – Daniya
Eysebio – Portugaliya

AMERIKA

Batistuta, Gabriel Omar – Argentina
Valderrama, Karlos – Kolumbiya
Veron, Xuan Sebastyan – Argentina
Dzanetti, Xavyer – Argentina
Di Stefano, Alfredo – Argentina
Junior – Braziliya
Ziko – Braziliya
Karlos Alberto Torres – Braziliya
Karlos Roberto – Braziliya
Kafu – Braziliya
Kempes, Mario – Argentina
Krespo, Ernan – Argentina
Kubilyas, Teofilo – Peru
Maradona, Diyego Armando – Argentina
Passarella, Daniel – Argentina
Pele – Braziliya
Rivaldo – Braziliya
Rivelino – Braziliya
Romario – Braziliya
Romerito – Paragvay
Ronaldinyo – Braziliya
Ronaldo – Braziliya
Saviola, Xavyer – Argentina
Chili Samorano, Ivan – Chili
Brazilii Jalma – Braziliya
Brazilii Nilton Santos – Braziliya
Meksiki Sanches, Ugo – Meksika
Argentini Sivori, Omar – Argentina
Brazilii Sokrates – Braziliya
Brazilii Falkao – Braziliya
Chili Figeroa, Elias – Chili
Urugvaya Francheskoli, Entso – Urugvay
Xemm, Mia – AQSh
Ekers, Mishel – AQSh

AFRIKA

Vea, Jorj – Liberiya
Diuf, El-Xadji – Senegal
Milla, Roje – Kamerun
Okocha, Jey-Jey – Nigeriya
Pele, Abedi – Gana

OSIYO

Endi O'zbekiston futboli tarixi va futbol atrofida bo'layotgan voqealar tahliliga o'tsam.

7. O'ZBEKISTON FUTBOLI HAQIDA MA'LUMOTLAR

“O'zbekistonda 20-asr boshlaridan zamonaviy futbol qoidalari asosida o'yinlar o'tkazilgan. 1912 yilda Qo'qonda birinchi futbol jamoasi tuzildi. Keyinroq Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Andijon, Namangan shaharlarida ham futbol jamoalari paydo bo'ldi. 20-asrning 20-yillaridan mamlakatimizda turli toifadagi musobaqalar (1937 yildan O'zbekiston birinchiligi) muntazam ravishda o'tkazila boshlandi.

1956 yilda Toshkentda “Paxtakor” jamoasining tashkil etilishi va shu nomdagi stadion qurilishi respublikada futbolning rivojlanishiga turtki bo'ldi. 20-asrning 80-yillaridan O'zbekistonda futbolchilarning yangi avlodini tarbiyalashga kirishildi. M.Qosimov, I.Shkvirin, A.Abduraimov, M.Shatskix O'zbekistondagina emas, Osiyo va boshqa qit'alarda ham nom qozondilar.

1959 yilda tashkil etilgan O'zbekiston futbol federatsiyasi 1992 yilda (keyin 2001 yilda) qayta ro'yxatdan o'tdi. 1992 yildan futbol bo'yicha O'zbekiston milliy chempionati va kubogi, turli toifadagi musobaqalar o'tkazib kelinyapti, futbol jamoalarining xalqaro uchrashuvlarda ishtirok etishi ta'minlanayapti. Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida” (1993 yil 18 mart) hamda “O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” (1996 yil 17 yanvarda) gi qarorlari futboldagi yutuqlarga zamin yaratdi. Farg'onaning “Neftchi” klubi Osiyo chempionlari finaliga chiqdi (1994), “Paxtakor” klubi Osiyo chempionlari ligasi yarim finalida o'ynadi (2003, 2004), mamlakat yoshlar terma jamoasi jahon chempionati final bosqichida qatnashdi (2003), O'zbekiston milliy terma jamoasi Osiyo o'yinlari (1994) va Afrika-Osiyo o'yinlari (2003) g'olibi bo'ldi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 36 ta (oliy va birinchi ligada) professional klub bor (2004). 2-ligada 196 ta jamoa shunday maqomga erishish uchun mamlakat birinchiligida qatnashayapti. Futbol klublari qoshida 18 ta futbol internat maktablari, kollejlari faoliyat ko'rsatayapti, ularda 2000 dan ziyod o'quvchi shug'ullanadi. Shuningdek, futbolga ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar sport maktablari ishi yaxshilandi. Futbol Universiada, “Barkamol avlod” va “Umid nihollari” musobaqalari dasturlaridan o'rin olgan. Bolalar va o'smirlar o'rtasida respublikada o'tkaziladigan “Futbol g'unchalari” musobaqalarida 692 jamoada 13840, “Futbolimiz kelajagi” musobaqalarida 15035 jamoada 300700 o'yinchi ishtirok etdi (2004).

Ayollar o'rtasida o'tkaziladigan O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida Andijonning “Andijanka”, Namanganning “Gulbahor”, Qarshining “Sevinch” jamoalari yetakchilik qilib keladi. Faxriy futbolchilar o'rtasida ham muntazam ravishda musobaqalar uyushtiriladi. Jismoniy qobiliyati cheklangan futbolchilar o'rtasida Toshkentning “Matonat” jamoasi (hozir “Baynalmilal”) jahon kubogini qo'lga kiritgan (1991). Hozirgi kunda respublikada 362 ta stadion, 7113 ta futbol maydoni mavjud, 460658 kishi (ulardan 4642 nafari ayollar) futbol bilan shug'ullanadi, 1916 nafar murabbiy faoliyat ko'rsatadi (2004). “O'zbekiston futboli” (Toshkent), “Futbol-ekspres” (Andijon), “Asr futboli” (Namangan), “Inter futbol” (Kosonsoy), “Boks plyus futbol” (Toshkent) kabi ixtisoslashgan gazetalar chiqib turibdi.” [9, 9-j., 345-b.]

Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda Mustaqillikka erishdi. 1993 yil 19 dekabr kuni Las-Vegas (AQSh) shahrida FIFAning navbatdagi anjumani bo'ldi. Unda O'zbekiston futbol federatsiyasi (O'FF) FIFAg a'zolikka qabul qilindi [31, 1-j., 112-b.]. 1994 yil may oyida O'FF FIFAning to'la huquqli a'zosi bo'ldi [23, 1-j., 138-b.]. Shu sababli O'zbekiston futbol bo'yicha jahon chempionatining saralash o'yinlarida 1995

yildan boshlab, ya'ni 1994 yilgi 15-Jahon chempionati tugagach qatnasha boshladi.

Shu yerda futbol bo'yicha Osiyo o'yinlari chempionlari ro'yxatini [9, 9-j., 345-b.] dan keltirib o'tsak. Eslatib o'tamiz: "Osiyo o'yinlarining futbol musobaqalari FIFA taqvimiga kiritilmagan. Shu bois Osiyoda ushbu musobaqaga bo'lgan qiziqish pasayib bormoqda". [32]

FUTBOL BO'YICHA OSIYO O'YINLARI CHEMPIONLARI [9, 9-j., 345-b.]

1. 1954 Xitoy
2. 1958 Xitoy
3. 1962 Hindiston
4. 1966 Birma
5. 1970 Birma va Koreya Respublikasi
6. 1974 Eron
7. 1978 KXDR va Koreya Respublikasi
8. 1982 Eron
9. 1986 Koreya Respublikasi
10. 1990 Xitoy
11. 1994 O'zbekiston
12. 1998 Eron
13. 2002 Eron
14. 2007
15. 2011

Boshqa qit'alardagi kabi futbol bo'yicha alohida Osiyo chempionati 1956 yildan beri har to'rt yilda bir martadan o'tkaziladi. O'zbekiston futbol terma jamoasi Osiyo chempionatida 1996 yildan boshlab qatnasha boshladi. Navbatdagi Osiyo chempionati 2007 yilda Malayziya, Indoneziya, Vetnam va Tailandda o'tkaziladi. Ushbu 14-Osiyo chempionatiga qur'a tashlash marosimi 2006 yil 19 dekabr kuni bo'ladi [33]. Ushbu band oxirida Osiyo chempionlari sovrindorlari jadvalini keltiray.

FUTBOL BO'YICHA OSIYO CHEMPIONLARI SOVRINDORLARI [34]

1. 1956 Janubiy Koreya
2. 1960 Janubiy Koreya
3. 1964 Isroil
4. 1968 Eron
5. 1972 Eron
6. 1976 Eron
7. 1980 Quvayt
8. 1984 Saudiya Arabistoni
9. 1988 Saudiya Arabistoni
10. 1992 Yaponiya
11. 1996 Saudiya Arabistoni
12. 2000 Yaponiya
13. 2004 Yaponiya
14. 2008
15. 2012

8. ICHKI ISHLAR VAZIRI, GENERAL-POLKOVNIK ZOKIRJON ALMATOVNING 1995 YILDA O'ZBEKISTON FUTBOL FEDERATSIYASI PREZIDENTI ETIB TAYINLANISH SABABLARI VA U HAQDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Ma'lumki, 1994 yil oktyabr oyida Xirosima (Yaponiya) shahrida 12-Osiyo o'yinlari, jumladan futbol bo'yicha bo'lib o'tdi. O'zbekiston futbol terma jamoasi futbol bo'yicha Osiyo qit'asining chempioni bo'ldi. O'shanda terma jamoamizning bosh murabbiyi Rustam Akramov (u bugungi kunda – 2006 yil iyun oyida Osiyo futbol konfederatsiyasida mutaxassis bo'lib ishlamoqda), uning yordamchisi atoqli futbolchi, murabbiy Birodar Abduraimov edi. 1994 yilda futbolchilarimiz Osiyo qit'asi futboli Kubogini Toshkentga olib kelishdi. Bu Kubokning balandligi 80 santimetrlar bo'lib, u O'zbekiston tarixi muzeyining 3-qavatiga – ko'rgazmaga qo'yilgandi. Muallif uni 1995 yil boshida muzeyda ko'rgan va o'zbek milliy futbolining yutug'i bilan faxrlangan edi.

1995 yil dekabrda qadar o'sha vaqtdagi O'zR Bosh vaziri Abduhoshim Mutalov O'zbekiston futbol federatsiyasining prezidenti edi. 1995 yil dekabrda O'FF prezidenti etib O'zR Ichki ishlar vaziri, ichki ishlar xizmati general-polkovnigi Zokirjon Almatov tayinlandi. O'sha kundan boshlab O'zbekiston professional futboli inqiroz sari yuz tutdi va natijalar yildan yilga yomonlashib bordi. Bu haqda batafsilroq 5-bandda yozaman. Hozir esa Z.Almatov haqida ma'lumot keltirib o'tsam.

“Almatov Zokirjon Almatovich 1949 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. U 1967 yilda o'rta maktabni tugatgach, “Tashavtomash” (hozirgi Toshkent traktor zavodi, A.Sh.) zavodida chilangar-yig'uvchi bo'lib ishladi. Sovet Armiyasi saflarida xizmat qilgan. Ichki ishlar organlarida 1971 yildan beri turli o'rta va yuqori rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1976 yilda Toshkent davlat (hozirgi Milliy, A.Sh.) universitetning yuridik fakultetini tugatdi. Toshkent tuman ijroiya qo'mitasi ichki ishlar boshqarmasi (IIB)ning boshliq o'rinbosari, Toshkent viloyat IIBsi boshlig'ining o'rinbosari, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi jinoiy qidiruv boshqarmasining boshlig'i bo'lib ishlagan. 1990 yildan – Toshkent viloyat ijroqo'mi IIBning boshlig'i. 1991 yil 16 sentyabrda – 2005 yil dekabr – polkovnik bo'lgan vaqtida, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri etib tayinlangan.

V.Ponamarev ma'lumotlariga ko'ra – “Almatov bu ishga tayinlanishiga partiyaning Toshkent viloyat qo'mitasining sobiq kotibi, Karimov maslahatchisi, huquq-tartibot organlarini nazorat qiluvchi Timur Alimovga minnatdor bo'lishi kerak. Almatov oxirgi 30 yilda bu amalga tayinlanganlardan doimiy xizmatdagi militsiya ofitseri bo'lgan birinchi amaldordir. 1992 yilda Almatov tasdiqlagan tadbirlarning keng dasturi tufayli rasman ro'yxatga olinadigan ko'cha jinoyatlari soni kamayish tendensiyasi qayd qilindi. O'zbek matbuoti ma'lumotlariga ko'ra, vazir (sobiq, A.Sh.) ertalab sport bilan shug'ullanadi, kechqurun esa “albatta o'qiydi”.

Oliy Majlisning yangi chaqiruvida 2000 yil 11 fevral kuni ichki ishlar vaziri etib qaytadan tayinlangan. 1998 yil iyundan – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ichki ishlar vazirlari kengashining raisi. “Buyuk xizmatlari uchun” ordenining sohibi (2005.12).” [35]

Z.Almatov O'zR Ichki ishlar vaziri bo'lgan 1992-2005 yillar davomida O'zbekistonda, ayniqsa ichki ishlar organlarida tutqinlarga va mahbuslarga qarshi juda ko'p xil qiynoqlar qo'llanilganligi O'zbekistonda ham, jahonda ham ma'lum. U 2005 yil 13-15 may kunlari Andijonda bo'lib o'tgan qirg'in aybdorlaridan biridir. O'sha kunlari Andijonda 700 dan ziyod, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 187 kishi, begunoh fuqarolar, jumladan xotin-qizlar, bolalar halok bo'lishdi. Shu sababli Yevropadagi 25 mamlakatni birlashtirgan Yevropa Ittifoqi rahbariyati Andijon fojiasi aybdorlari, deb hisoblanmish O'zbekistonning 12 yuqori martabali rahbarlariga, jumladan Zokirjon Almatovga Yevropa Ittifoqi hududiga kirishni taqiqlab qo'ydi.

Z.Almatov orqa miyasi raki bilan kasallangan. Shuncha qilg'ilikni qilib, u 2005 yil dekabrda Germaniyaning Gannover shahridagi neyroxirurgiya klinikasiga davolanish uchun bordi. Bundan xabar topgan jurnalistlar, inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar bu haqda matbuotda maqolalar yozishdi. Human Rights Watch (Inson huquqlarini kuzatish) tashkiloti Z.Almatovga qarshi Germaniya federal prokuraturasiga da'vo arizasini topshirdi: uni O'zbekistonda muntazam qiynoqlar qo'llaganlikda va Andijonda ommaviy qirg'in qilganlikda, ya'ni insoniyatga qarshi jinoyat sodir etganlikda aybladi. Natijada Z.Almatov zudlik bilan

Germaniyadan chiqib, O'zbekistonga qaytishga majbur bo'ldi. U 2005 yil dekabrda sog'ligi tufayli o'z mansabidan iste'fo berdi. 2005 yil 22 dekabr kuni O'zR IIVning kollegiya yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda Z.Almatovning arizasi inobatga olindi hamda uning iste'fosi tasdiqlandi. O'zR Prezidenti I.Karimov farmoniga ko'ra Z.Almatovga o'sha – 2005 yil 22 dekabr kuni “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni topshirildi. [36]

Mana shunday: jahondagi ilmi, nufuzli kishilar Z.Almatovni qonunlarni buzganlikda, insoniyatga qarshi jinoyat qilganlikda ayblamoqda! O'zbekistondagi politsiya rejimi rahbariyati esa unga “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofatlamoqda ...

Kitobimning asosiy mavzusi – FUTBOLga qaytaylik.

Ba'zilar savol tug'ilishi mumkin: nega O'zbekiston Ichki ishlar vaziri Z.Almatov bir paytning o'zida O'FFning prezidenti etib tayinlandi?

Birinchidan, avtoritar siyosiy rejimlar, ayniqsa uning O'zbekistondagidek kuchishlalar organlarga tayanadigan politsiya rejimi fuqarolarning barcha yig'ilishlaridan, jumladan mehmondorchilikka yig'ilgan 5-10 fuqarodan ham, gap-gashtakka to'plangan 15-20 nafar jo'ralardan ham, to'y-ma'rakaga kelgan 100-300 kishidan ham, nomozga to'plangan yuz-yuzlab, ming-ninglab nomozxon qavmdan ham juda qo'rqadi. Chunki oddiy xalqning poraxo'r, yulg'ich, korrupsiyaga botgan siyosiy tizimdan norozi va bezor ekanligidan ular xabardordirlar. Endi tasavvur eting: shunday norozi fuqarolardan, ya'ni futbol ishqibozlaridan ming-minglari stadiona kamida ikki soatga to'planishmoqda (masalan, Toshkentdagi “Paxtakor” stadionida 60 mingga fuqaro futbol matchini tomosha qilishi mumkin; bu stadion 2007 yilda to'liq ta'mirlangach va tribunalarga plastmassa o'rindiqlar o'rnatilgach, bugungi kunda 35 ming tomoshabin sig'adi, A.Sh., 2010 yil 11 avgust).

Ya'ni O'zbekistondagi siyosiy rejim rahbariyati futbol tomoshasiga to'plangan ming-minglab ishqibozlardan qo'rqqanligidan Z.Almatovni O'zR FF prezidenti etib tayinladi, degan fikrim bor.

Ikkinchidan, futbol tomoshasiga yig'ilgan ishqibozlarni kuchishlalar organlar, jumladan militsiya xodimlari tomonidan to'liq nazorat ostiga olishdir.

Uchinchidan, futbolga ozgina bo'lsada e'tibor beriladigan davlatlarda futbolga katta miqdorda mablag'lar ajratiladi (futbol taraqqiy etgan mamlakatlarda esa futbol sohasida yuz millionlab dollar mablag' aylanishi ko'pchilikka sir emas). Mana shu mablag'larni nazorat ostiga olish va undan professional futbolni rivojlantirish yo'lida emas, balki o'zlarining tor doiradagi niyatlari yo'lida ishlatishdir. Unutmaylik: politsiya rejimi fuqarolarni yoki qo'rqitish, yoki moddiy masalada qiziqtirish, jumladan mablag' yordamida boshqarishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, stadionlarga kirish joyida ishqibozlar chiptalarini tekshirish uchun stadion chiptachilarini emas, balki militsiya xodimlarini qo'yishdir. Chunki militsiya xodimlari ayrim chipta olmay qolgan ishqibozlardan naqd pul olish evaziga stadiona kirishga ruxsat berishadi. Bu esa mansabni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, korrupsiyaga yo'l ochib beradi. Ya'ni O'zR Ichki ishlar vaziri Z.Almatov militsiya xodimlarini chiptalarni tekshirishga qo'yish orqali o'z xodimlariga militsiya formasini suiiste'mol etish va poraxo'rlik yordamida qo'shimcha daromad qilishlariga yo'l ochib berdi.

Z.Almatov 2006 yil 22 fevral kuni iste'foga chiqqach, uni O'zR futbol federatsiyasi prezidentligidan ham bo'shatishdi. 2006 yil 6 yanvar kuni senator Mirabror Usmonov O'zR FF prezidenti etib saylandi. Bugungi kunda – 2006 yil iyul oyida Baxtiyor Rahimov – O'FF vitse-prezidenti, Sardor Rahmatullayev – O'FF bosh kotibidir.

Kitobni o'qiyotgan ba'zi o'quvchilarimiz: "Biror rahbar mansabdan ketgach, uni tanqid qiladigan "mardlar" ko'payib qoladi. Shunga o'xshash muallif ham general-polkovnik Zokirjon Almatov rahbarlik lavozimidan olingach tanqidiy kitob yozibdi" deyishlari mumkin. Shu sababli va tariximiz uchun men O'zbekiston futboliga doir 1997 yil 21 yanvarda O'zR Prezidenti I.Karimovga, general-polkovnik Z.Almatovga va yana bir necha rahbarlarga yozgan 15 betlik xatim, 2005 yil 31 may kuni O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldida o'tkazgan piketim hamda ularning natijalari haqida kitobimning 9- va 12-bandlarida yozmoqdaman.

9. 1997 YILDA PREZIDENT I.KARIMOVGA, FUTBOL FEDERATSIYASI PREZIDENTI, GENERAL-POLKOVNIK Z.ALMATOVGA VA YANA BIR NECHA RAHBARLARGA VATANIMIZDA FUTBOLNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YOZGAN XATIM VA UNING KEYINGI TAQDIRI

9.1. PROFESSIONAL FUTBOLIMIZNING 1995-1996 YILLARDAGI AHVOLI VA UNING RAHBARIYATI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

1995 yilda O'zbekiston futbol federatsiyasi va O'zR Davlat jismoniy tarbiya va sport ishlari qo'mitasi rahbariyatining o'zgarishiga o'sha yili 15 avgust kuni Buxoroda o'tkazilgan "Nurafshon" (Buxoro) va "Yangiyer" (Yangiyer) jamoalari o'rtasidagi uchrashuv chog'ida chiqqan ko'ngilsiz voqea sabab bo'ldi.

"... "Nurafshon" – "Yangiyer" matchining 32-daqiqasida Buxoro klubi o'yinchisi Fomin raqibga atayin zarba bergani uchun maydondan chetlatildi. Jamoalar guruh-guruh bo'lib bir-birlari bilan deyarli mushtlashishga borib yetdilar. Futbolchilarni tinchlantirishga erishildi. Ishqibozlarning hayajonlanishi esa kuchayib bordi. Ular hakamlar sha'niga uyatli, haqoratli so'zlarni dona-dona qilib aytishardi. Uchrashuv oxirida o'yinchilarga va hakamlarga toshlar ota boshlashdi. Mahalliy fanatlar o'z jamoasining mag'lubiyatini yana mehmonlar avtobusi oynalarini sindirish bilan ham nishonlashdi (lot. fanaticus ortiq asabiylashib ketgan, hayajonlangan < fanum ibodatxona – 1) ... 2) biror ish yoki mashg'ulotga yoinki g'oyaga butun vujudi bilan berilib ketgan, mukkasidan ketgan, o'ta ishqiboz odam [14, 666-b.], [13, 2-j., 294-b.], A.Sh.).

Murabbiylarning hakamlarga e'tirozi bo'lmadi. Har holda match bayonnomasida mulohaza bildirilmagan. Militsiya to'qqiz bezorini tutib olgan.

Respublika futbol jamoatchiligini hayajonlantirgan Buxorodagi favquloddagi holatning tashqi zamini mana shunday. Shuning uchun Futbol federatsiyasining tartib-intizom qo'mitasi yig'ilishiga oliy liga jamoalarining barcha murabbiylari, yetakchi hakamlar, nazoratchilar, militsiya vakillari taklif etildilar.

- Jamoada ahvol asabiydir, – dedi "Nurafshon" klubining bosh murabbiyi Mustafo Bilyalov. – Mana uch oydirki ishlayapman, shahar hokimi qabuliga kira olmayapman. Usiz bizning muammolarni hech kim hal etmayotir. Ular esa ko'p. Ham moliyaviy, ham tashkiliy. Futbolchilarning kayfiyati – jamoani tark etishdir. Shaxsiy aloqalar tufayligina ularni ushlab turibmiz. Lekin, ulardan biri "Neftchi"da o'ynayapti. U bilan tuzilgan shartnomaning birorta bandi bajarilmagani uchun u ketdi.

- Albatta, men Fomin xulqini oqlamoqchi emasman, – davom etdi Mustafo Bilyalov. – Ammo yangiyerliklar o'zlarining mayda fol taktikasi bilan provokatsiya (ig'vo) orqali (qo'pollik qilishga, A.Sh.) majbur qildilar (ingl. foul play tirriq, g'irrom o'yin – qo'pol o'yinni bildiruvchi atama, masalan, futbolda – qo'pol turtish, chalish, raqibga atayin zarba berish va hokazo [14, 685-b.], A.Sh.). Orqadan bir marta "ilintirdilar (qoqiltirdilar)", ikkinchi marta ... Toshkentdan kelgan hakam Sayfitdin Ermatov esa (qoida) buzilishlarini ham, ikkinchi taymda raqiblar vaqtni atayin cho'zayotganida ham go'yo ko'rmadi. Bu ham tomoshabinlar yurish-turishida o'z aksini topdi. "Spartak" stadionida ro'y bergan voqealarda hakamlar ham aybdordirlar.

Aytmoqchi, muhokama qilish davomida stadion chempionat reglamenti haqidagi nizom talablariga mos emas (javob bermaydi): zaruriy to'r to'siq yo'q, yechinish joylari, dushxona achinarli ahvolda, hakamlar xonasi tegishli uskunalanmagan ... (frants. reglament < lot. regula qoida [14, 547-b.], A.Sh.).

O'shbu barcha masalalar 30 avgustga (1995 yil, A. Sh.) belgilangan Futbol federatsiyasi ijroqo'mining navbatdan tashqari yig'ilishida chuqurroq tahlil mavzusi bo'ladi. Buxorodagi "Spartak" stadionini uch matchga diskvalifikatsiya qilish (mahrum etish) haqidagi favquloddagi holat bo'yicha tartib-intizom qo'mitasining qarori ham tasdiqlanadi. "Nurafshon" Navoiydagi betaraf maydonda o'ynaydi. Agar "Spartak"dagi ahvol uch hafta ichida yaxshi tomonga o'zgarmasa, stadion mavsum oxirigacha yopib qo'yiladi. Shuningdek 15 ming so'm jarima ham solindi. Fomin sakkiz o'yinga chetlashtirildi. Stadion direktori, klub va futbol federatsiyasining viloyat rahbariyatiga nisbatan xususiy ajrim chiqarildi." [37]

Normal davlatlarda, jamiyatlarda hozir yozilgan darajada yoki bundan sal jiddiyroq jazo bilan chegaralangan bo'lardi. Lekin O'zbekistondek avtoritar siyosiy tizim sharoitida O'zR prezidenti I.Karimov rahbarligida o'sha – 1991-1995 yillar va undan so'ng Vatanimizda kuchishlalar organlarga tayanadigan politsiyaviy siyosiy rejim shakllantirilayotganligi sababli O'zbekiston futbol rahbariyatini butunlay o'zgartirishga qaror qilindi. Natijada yurtimizning professional futboliga ichki ishlar xizmatining generali (keyinchalik general-polkovnik bo'lgan) Zokirjon Almatov rahbar etib tayinlandi. Lekin bu birdaniga emas, birin-ketin amalga oshirildi.

"24 avgust (1995 yil, A.Sh.) kuni Respublika futbol federatsiyasi ijroqo'mining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda 15 avgust kuni Buxoroda o'tkazilgan "Nurafshon" va "Yangiyer" jamoalari o'rtasidagi uchrashuv chog'ida sodir bo'lgan tartibbuzarliklar masalasi (bu haqda "Pravda Vostoka" gazetasining 24 avgust sonida yozilgan) muhokama qilindi.

Uchrashuv inspektori, Respublika futbol federatsiyasi bosh kotibi va hakamlar kollegiyasi raisining shu masala yuzasidan axborotlari tinglandi.

Atroflicha muhokama va munozaralardan so'ng Respublika futbol federatsiyasi ijroqo'mi "Nurafshon" jamoasi futbolchisi Fominni va Buxoro shahridagi "Spartak" stadionini mavsum oxirigacha chempionatdan chetlatish haqida qaror qabul qildi. M.Bilolov vazifasidan bo'shatildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasiga Buxoro viloyati va shahar sport qo'mitalari raislarini ishdan bo'shatish vazifasi yuklandi. "Spartak" stadioni direktori ishdan bo'shatildi. "Nurafshon" klubi esa mavsum oxirigacha chempionatdan chetlatildi. Ushbu uchrashuvga inspektorlik qilgan V.Qahhorov futbol uchrashuvlariga inspektorlik qilishdan mahrum etildi. Hakamlar hay'ati tarqatildi, ularning yangi tarkibini malakali hakamlardan tuzish, yangi raisni saylashga qaror qilindi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi bosh kotibi S.Eshmuhamedov o'z vazifasidan ozod etildi.

Stadiondagi tartibbuzarliklarning qatnashchisi bo'lgan sakkiz nafar kishi ustidan jinoiy ish qo'zg'atildi ..." [38]

Sobirjon Ro'ziyev O'zR Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining raisi lavozimida 1995 yil noyabrgacha ishlagan edi. U haqda qisqacha ma'lumot.

"Ro'ziyev Sobirjon Sobitovich (1953.15.6, Qirg'iziston SSR Moskva rayoni) – qilichboz, SSSR sport masteri (1971), xalqaro klassdagi SSSR sport masteri (1974). 1973 yildan VLKSM a'zosi. O'zbekiston Davlat Fizkultura institutini tugatgan (1975). Respublika o'smirlar o'rtasida SSSR, jahon (1972) va jahon studentlari o'yinlarining (1973) chempioni, bir necha xalqaro musobaqalarning g'olibi, Yevropa kubogi musobaqalarida kumush (1975) va bronza (1976), shuningdek SSSR xalqlar 6-spartakiadasining kumush medallarini olgan." [15, 9-j., 410-b.]

1995 yil 10 noyabr kuni O'zR prezidenti I.Karimov quyidagi farmonlarga imzo chekdi.

“Sobirjon Sobitovich Ro’ziyev O’zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo’mitasining prezidenti etib saylanganligi sababli O’zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo’mitasining raisi vazifasidan ozod etilsin. O’zR Prezidenti I.Karimov” [39]

“Bahodir Maxsitov O’zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo’mitasining raisi etib saylansin. O’zR Prezidenti I.Karimov” [39]

Xuddi o’sha noyabr kunlari O’zR Futbol federatsiyasining yig’ilishi bo’ldi. Unda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan murabbiy Zokir Ahmadjonovich Qurbonov (1945 yilda Toshkentda tug’ilgan) O’zR FFsining bosh kotibi etib saylandi [40]. Mening fikrimcha, o’sha noyabr kunlari O’zR FFsining prezidenti lavozimidagi Abdulhoshim Mutalov (u O’zR Bosh vaziri edi) o’rniga boshqa shaxs saylanishi hal bo’lgan edi. Faqat bu masala A.Mutalovni avval Bosh vazir lavozimidan olishgach, so’ngra O’zR FF prezidenti lavozimidan ham olish va uning o’rniga O’zR ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatovni saylash, aniqrog’i tayinlash rejalashtirilgan edi. Shu sababli 1995 yil noyabr-dekabr oylarida Z.Almatov O’zR FFsining prezidenti etib saylanganligi yoki faoliyat olib borganligi haqida hech qanday ma’lumot matbuotda chop etilmagan. Z.Almatovning O’zR FF prezidenti ekanligi to’g’risidagi dastlabki ma’lumot 1996 yil yanvarida gazetada chop etildi. Mana o’sha axborot.

“1996 yil 23 yanvar kuni matbuot konferensiyasi bo’lib, unda O’zbekiston Respublikasi futbol federatsiyasi prezidenti, O’zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatov, O’zR futbol federatsiyasi vitse-prezidenti, Toshkent shahar hokimi K.To’laganov, O’zR Davlat jismoniy tarbiya va sport qo’mitasi raisi B.Maxsitov jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi.” [41]

1995 yil 12 dekabr kuni Parij (Fransiya) shahrida 16-jahon chempionati saralash bahslariga qur’a tashlandi. Unda 171 mamlakat terma jamoalarining dastlabki bosqich o’yinlari aniqlandi. Bu anjumanda O’zR FF Bosh kotibi Z.Qurbonov va milliy terma jamoamizning o’sha paytdagi bosh murabbiyi Aleksandr Ivankov qatnashdi. (Murabbiy Aleksandr Ivankov 2004 yil 6 iyun kuni vafot qildi (“O’zbekiston futboli”, 2004 yil 18 iyun)).

Futbolchilarimiz Osiyo mintaqasining 5-guruhida birinchi bosqich o’yinlarda Indoneziya, Yaman va Kambodja terma jamoalariga qarshi maydonga tushadigan bo’lishdi [42]. Bu o’yinlar 1997 yilda bo’lib o’tdi va O’zbekiston terma jamoasi 2-bosqichga chiqib, 1997 yil sentyabr-noyabr oylaridagi o’yinlarda o’z guruhida oxirgi o’rinni oldi (bu haqda 10-bandda batafsilroq yozamiz).

Osiyo chempioni bo’lmish O’zbekiston va Afrika chempioni Nigeriya terma jamoalari o’rtasida Afrika-Osiyo qit’alararo kubogi uchun uchrashuv 1995 yil oktyabrda Toshkentda va 10 noyabr kuni Lagosda bo’lib o’tdi: O’zbekiston – Nigeriya 2:3 va Nigeriya – O’zbekiston 1:0, ya’ni har ikkala uchrashuvda O’zbekiston terma jamoasi mag’lubiyatga uchradi. [43]

1996 yil aprel-iyun oylarida Osiyo chempionatining saralash o’yinlari bo’lib o’tdi. O’zbekiston terma jamoasi bo’sh o’yin ko’rsatdi.

1996 yil dekabrda Dubay (Birlashgan Arab Amirliklari) shahrida 11-Osiyo chempionati, ya’ni Osiyo kubogi-96 o’yinlari bo’lib o’tdi. Bu chempionatda O’zbekiston terma jamoasi ilk marta ishtirok etdi. O’zbekiston terma jamoasi (bosh murabbiy Bahodir Ibragimov, murabbiylar Yuriy Sarkisyan va Rustam Mirsodiqov) “C” guruhida Yaponiya, Xitoy, Suriya terma jamoalariga qarshi to’p surib, quyidagi natijalarga erishdi [44].

6 dekabr:	Xitoy – O’zbekiston	0:2;	Yaponiya – Suriya	2:1.
9 dekabr:	O’zbekiston – Yaponiya	0:4;	Suriya – Xitoy	0:3.

Jamoa nomi	O'yin-lar	Yutuq-lar	Durang-lar	Mag'lu-biyatlar	To'plar nisbati	Ochko-lar
Yaponiya	3	3	0	0	7 – 1	9
Xitoy	3	1	0	2	3 – 3	3
Suriya	3	1	0	2	3 – 6	3
O'zbekiston	3	1	0	2	3 – 6	3

Ya'ni O'zbekiston terma jamoasi o'shanda ham guruh bosqichidan o'ta olmadi.

1998 yil yozida Parijda o'tadigan 16-jahon chempionati musobaqalari bundan ham qiyinroq bo'lishi, O'zbekiston terma jamoasining bunday past darajadagi o'yini bilan Parijga boradigan terma jamoalar safidan o'rin ola olmasligi ayon edi. Shu sababli men ahvolni o'zgartirish uchun 1996 yil dekabr – 1997 yil yanvar oylarida 15 betlik xat tayyorladim va uni 1997 yil 21 yanvar kuni O'zR Prezidenti I.Karimovga va futbol bilan bog'liq bir necha rahbarlar idoralariga olib borib berdim. Bu xatning yozilish sabablari va natijalari haqida 9.2- va 9.3-bandlarida bayon etaman.

9.2. 1995-1997 YILLARDA O'zR PREZIDENTI VA BOSHQA RAHBARLARGA JO'NATGAN O'NTA, JUMLADAN FUTBOLGA DOIR TAKLIFNI YOZISHIM SABABLARI

Men 1988 yildan boshlab Vatanimiz demokratlari safida faoliyat olib bordim va shu kunlarda ham davom ettirmoqdaman. Ko'pgina demokratlar O'zbekistondagi politsiya rejimi tomonidan tazyiq va quvg'inlarga uchradilar.

Men 1993-1994 yillarda bir guruh hamfikrlar bilan birgalikda asosan yoshlardan iborat O'zbekiston Respublikachilar partiyasini (O'zRP) tuzish uchun faoliyat olib bordim. Toshkent shahar hokimiyatining ruxsati bilan 1994 yil 12 noyabr kuni Toshkentdagi "Gulshan" nomli Madaniyat uyida (Toshkent, Mirza Ulug'bek tumani, Buyuk Ipak yo'li, 248-uy) O'zRPning ta'sis qurultoyini o'tkazdik. O'sha qurultoyda meni O'zRPning raisi etib saylashdi.

Qurultoy o'tkazilishiga qarshi zarba berish uchun qurultoydan 12 kun avval – 1994 yil 31 oktyabr kuni Toshkentdagi V. Chkalov nomidagi metro bekati yaqinida men O'zRP tuzilayotganligi, uning maqsadlari va O'zRPga a'zo bo'lishni tavsiya etuvchi Murojaatnomani fuqarolarga bittadan berayotganimda kuchishlalar organ xodimlari tutib ketishdi. Ular metro militsiya boshqarmasiga olib borib, bayonnoma yozishdi va mening pasportimni hamda barcha qog'ozlarimni olib qolishdi.

Meni 1 noyabr kuni Hamza tuman prokurori kabinetiga olib kirib, prokuror boshchiligidagi yetti kuchishlalar organ xodimlari 40 daqiqa davomida so'roq qilishdi. So'ngra meni O'zR Ma'muriy huquqbuzarlik kodeksining 188-4 moddasi (Fuqarolarning faoliyati taqiqlangan birlashmalar tuzishi va ularda faol ishtirok etishi) va 194-moddasining 3-qismi (Bosma nashrlarni qonunsiz tarqatish) bilan ayblab bayonnoma yozishdi va Hamza tuman sudiga olib borishdi. Sudya menga 1200 so'm (bu o'sha vaqtda taxminan 40 AQSh dollariga teng edi) jarima solish haqida qaror chiqardi. (Hozir tilga olingan O'zR Ma'muriy huquqbuzarlik kodeksi O'zbekistonda 1986 yil 1 martdan 1995 yil 1 apreliga qadar amal qilgandi.)

Men bu jarimani to'lamadim va qonunga zid sud qarori ustidan avvaliga O'zR Prezidenti I.Karimov va boshqa rahbarlar nomiga xat yozdim. So'ngra 1994 yil oxiridan 1996 yil fevraliga qadar shahar va jumhuriyat sudlariga bir necha bor shikoyat yozib kurash olib bordim. 1996 yil boshida sud ijrochilari mening ijaradagi uyimga yana kelishsa, endi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasiga shikoyat

yo'zishimni yozma ravishda ogohlantirganimdan keyin 1200 so'mlik jarimani to'lash masalasida tinch qo'yishdi va sud ijrochilari uyimga boshqa kelmadi.

Mening O'zbekistondagi siyosiy vaziyatga doir 1991 yildan 1997 yil yoz oylariga qadar quyidagi fikrim bor edi: "O'zbekiston 1991 yil sentyabrda Mustaqillikka erishgach, hokimiyatning kolxoz (shirkat xo'jaligi), korxonalar, zavodlar, muassasalar, tumanlar, viloyatlar hamda jumhuriyat miqyosidagi vazirliklar, qo'mitalar, tashkilotlar va hokazolarda Sovet Ittifoqi davrida suyagi qotgan, eskicha fikrlovchi kadrlar (ulardan ko'pchiligi sobiq kommunistlar) ishlamoqda. Asosan ular Mustaqil O'zbekistonning taraqqiy etishiga to'siq bo'lmoqdalar".

Men mana shu fikr asosida va yuqorida yozilgan tazyiqlar sharoitida demokratiya uchun kurashning yana bir usulini qo'llashga qaror qildim: Vatanimizni taraqqiyotga va adolat yo'liga olib chiqishi mumkin bo'lgan alohida-alohida takliflarni yozma ravishda asoslab, O'zR Prezidenti I.Karimovga va taklifda mulohaza etilgan sohaning jumhuriyat rahbariyatiga xat ko'rinishida jo'natish. Agar Prezident va uning atrofidagilar mening takliflarimni amalga oshirsalar, bu xalqimizga va Vatanimizga koni foyda bo'ladi. Agar ular buni amalga oshirmasalar, yillar o'tgach bu takliflarni men Prezidentga yozganligimni, lekin mavjud siyosiy rejim amaliyotga qo'llamaganligini aytishim hamda yozishim mumkin bo'lardi. (Mana o'sha 10 ta taklif yozib jo'natilgandan 9-11 yil o'tgach – 2006 yilda men o'z maqolalarimda bu takliflar haqida yoza boshladim.)

Yuqorida yozilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, men 1995 yil 15 fevraldan 1997 yil 21 fevraliga qadar O'zR Prezidenti I.Karimov va davlatimizning boshqa rahbarlari nomiga 10 ta yozma taklif jo'natdim. 10 ta taklifdan sakkizinchi O'zbekiston futbolini jahon futboli darajasiga olib chiqish va mamlakatimiz futbol terma jamoasi 1998 yil yozida Fransiyada bo'ladigan 16-Jahon chempionatida qatnashishiga erishish maqsadida horijdan, birinchi navbatda Braziliyadan O'zbekistonga futbol murabbiyini va mohir futbolchilarni shartnoma asosida taklif qilish haqida edi.

9.3. 1997 YILDA FUTBOLGA DOIR YOZGAN 15 BETLIK XATIM MAZMUNI VA UNING KEYINGI TAQDIRI

Men 1996 yil dekabr – 1997 yil yanvarida futbolga oid 15 betlik xatni yozdim. Xatning boshida uni yozish sababi, jahon va O'zbekiston futboli tarixidan ayrim muhim ma'lumotlar, so'ngra mamlakatimiz futbolini jahon darajasiga olib chiqish uchun Braziliyadan futbol murabbiyini taklif etib shartnoma tuzish, Oliy liganing har bir klubiga Lotin Amerikasi va Afrikadan, birinchi navbatda Braziliyadan mohir futbolchilarni shartnoma asosida taklif qilish uchun klublarga davlat tomonidan tegishli mablag' ajratish (chunki faqat yaxshi, mohir futbolchilar bilan yonma-yon va qarama-qarshi o'ynabgina o'zbek futbolchilari mohir futbolchi bo'lishlari va jahon darajasida o'ynay boshlashlari mumkin), shuningdek Braziliyadan murabbiyini taklif etayotganda jahon tan olgan futbol qiroli Pele bilan maslahatlashish va uni O'zbekistonga mehmonga taklif etish haqida yozgan edim.

Xatda futbolchilar va murabbiylar bilan shartnomalar tuzish, shartnomada ko'rsatilgan pul miqdori haqida jahon tajribasidan ko'pgina misollar keltirgandim. Men shu xatni yozganimga qadar shartnomalar va ulardagi pul miqdori to'g'risida O'zbekiston gazetalarida, jumladan "O'zbekiston futboli"da deyarli yozilmas edi. (Bugungi kunda futbol gazetalarida bu haqda ko'p yozishmoqda.)

Men futbol haqidagi 15 betlik taklifimni o'zimning yozuv mashinkamda besh nusxada chop etib, 1997 yil 21 yanvar kuni O'zR Prezidenti I.Karimov nomiga Prezident devoniga topshirdim. Shuningdek, xat nusxalarini O'zR Oliy Majlis Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi, shoir Erkin Vohidovga, O'zR MFF prezidenti, O'zR IIV vaziri Z.Almatovga, "O'zbekiston futboli" gazetasi muharririyatiga berdim.

O'quvchimiz e'tibor bergan bo'lsa, xat nusxasi O'zR Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisiga berilmagan. Chunki o'shanda xat nusxasi yetmay qolgan edi. Men 1997 yil 25 yanvar kuni Jizzaxga ko'chib o'tganligim, u yerda dehqon-fermer xo'jaligini tashkil etishga oid hujjatlarni tayyorlash hamda bu boradagi qarshiliklarni yengish bilan ovora bo'ldim va futbolga doir 15 betlik taklifni yana bir marta yozuv

mashinkasida chop etish ilojini topa olmadim. Shu sababli men 1997 yil fevral boshlarida Jizzaxdan Toshkentga kelganimda, “O‘zbekiston fuboli” muharririyatiga kirdim va ahvolni qisqacha tushuntirib, o‘zim bergan futbol haqidagi xat nusxasini qaytarib oldim. So‘ngra shu kunning o‘zida uni O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi raisi B.Maxsitov nomiga devonxonaga topshirdim.

Men 1997 yil 25 yanvar kuni Toshkentdan Jizzaxga ko‘chib o‘tdim. Futbol haqidagi xat nusxasining keyingi taqdiri Jizzaxdagi voqealar bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun Jizzaxga ko‘chib o‘tish sababi haqida ham qisqacha yozishimga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida O‘zR Prezidenti I.Karimov nomiga men 1995-1997 yillarda jo‘natgan 10 ta taklif haqida yozgandim. Ulardan beshinchisi: “O‘zbekistondagi sug‘oriladigan yerlarning asosiy qismi sho‘rlanganligini hisobga olib magnitlangan suv bilan sug‘orish yordamida uning sho‘rini ketkazish va hosildorligini oshirish mumkinligi haqida”gi taklif va oltinchisi: “Magnitlangan suv yordamida sho‘rlangan yer sho‘rini ketkazish va shunga o‘xshash boshqa ilg‘or agrotexnik usullarni qo‘llash orqali paxtadan yuqori hosil yetishtirish mumkinligini isbotlash maqsadida Toshkent yaqinida 20 sotix yerni menga tomorqa qilib berishni so‘rab yozilgan taklif” edi. (Mening pasport propiskam 1997 yil 25 yanvarga qadar Toshkent viloyati, Qibray tumani, Matqobulov nomidagi shirkat xo‘jaligida bo‘lganligi uchun 20 sotix yerni Qibray tumanida berishni so‘rab yozgan edim).

Men ikkala taklifni 1996 yil 23 noyabr kuni O‘zR Prezidenti I.Karimov devonxonasiga topshirdim. Bu taklif nusxalari O‘zR Qishloq va suv xo‘jaligi vaziri, shuningdek Sirdaryo va Jizzax viloyat hokimlari nomiga ham yozilganligim sababli o‘sha kuni uni vazirlik devonxonasiga, so‘ngra Guliston shahriga va Jizzaxga borib, viloyat hokimi devonxonasiga topshirdim.

Ba‘zilarda: “Muallifning dehqonchilik sohasidagi bilimlari va tajribasi qay darajada edi?”, degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu savolga javob.

Men 1979-1983 yillarda Moskvadagi N.Bauman nomidagi Oliy texnika universitetida o‘qib kelgach, 1984-1991 yillar davomida «О новой агротехнике сельхозрастений (на примере хлопчатника) на основе агрозавода и канатных (мостовых) сельхозмашин – Семург и спасение Аральского региона от экологической катастрофы» (“Agrokorxonalar va temir arqonli (ko‘priqli) dehqonchilik mashinalari – Semurg’ asosidagi dehqonchilik o‘simliklarini yetishtirishning yangi agrotexnikasi va Orol mintaqasini ekologik fojeadan qutqarish haqida”) nomli 4 qismdan iborat 1000 betlik Ish yozgan edim. Bu Ishning yozilish uslubi ushbu maqolaga o‘xshash bo‘lib, uning oxirida foydalanilgan 500 ga yaqin adabiyotlar ro‘yxatini keltirgandim. Ishda ko‘pgina chizmalar, sxemalar, jadvallar ham keltirib tahlil etgandim va xulosalar yozgandim.

Qolaversa, men 1983-1988 yillarda Toshkentda yangi paxtachilik mashinalarini loyihalashtirishda ishtirok etib, ilmiy-tekshirish institutlari va Toshkent traktor zavodi loyihalash-konstruktorlik byurosida yetakchi muhandis-konstruktor lavozimigacha ishlagan edim. Men shu bilimlar va tajribalar asosida 20-50 sotixli yerda asosan elektrlashtirilgan mexanizm va kichik mashinalar yordamida paxtachilikdagi qo‘l mehnatini mexanizatsiyalashtirish va jahon dehqonchiligida ishlatilayotgan ilg‘or agrotexnik usullarni qo‘llash orqali 70-80 tsentnergacha va undan ham ortiq paxta hosili olish mumkinligini amalda isbotlab ko‘rsatmoqchi edim. So‘ngra esa shu kichik mexanizm va mashinalarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchi edim.

Lekin men 1997 yil yozigacha Prezident I.Karimov rahbarligidagi politsiyaviy rejim har qanday taraqqiyotga, texnika sohasidagi erkin rivojlanishga qattiq qarshilik ko‘rsatishini, hatto mening Prezident va hokimlar nomiga yozgan xatlarimni yo‘qotib yuborishgacha borib yetishlarini, o‘zimni esa qattiq tazyiq ostiga olishlari mumkinligini bilmagan edim.

Ta‘kidlashim lozimki, men mavjud hokimiyat rahbarlaridan, Prezidentdan bir so‘m pul so‘ramadim. Men 1995-1997 yillar davomida Rossiyaga poyezdda pomidor va meva-cheva olib borib sotib, orttirgan 700-800 dollarlik jamg‘armamga tayanib ish boshlagan edim (u paytlar Toshkentda o‘rtacha ahvoldagi bir xonali

kvartira 1200-1500 dollar turardi, ya'ni 700-800 dollarning xarid quvvatini shunga nisbatan taqqoslashingiz mumkin).

Men prezidentdan va hokimlardan faqat 20-50 sotix yer berishinigina so'ragandim! Lekin politsiya rejimi shu bir parcha yerni menga bermadi, o'zimni esa qattiq tazyiqqa olishdi. Juda qisqacha yozsam, voqealar quyidagicha davom etdi.

Men 1996 yil 23 noyabr kuni kechqurun Jizzaxdagi rahmatli ota-onam uyiga (Jizzax shahri, O'rol Shokirov (sobiq Oktyabr) ko'chasi, 26-uyga) kelib, ukam Rashidjon (1963 yilda tug'ilgan) jigar operatsiyasidan keyin og'ir ahvolda ekanligini ko'rdim. Uning aytishicha, u Samarqand viloyat kasalxonasida jarrohlik operatsiyasida bo'lgan va jigarining yarmidan ortig'ini jarroh kesib tashlagan ekan. Men ertasi kuni Rashidjonni yengil mashinaga o'tqazib, Samarqandga kuzatib qo'ydim. Mashina ruliga uning do'sti o'tirdi.

1996 yil 1 dekabrda o'tar kechasi Rashidjon Samarqand viloyat kasalxonasida vafot etdi.

Ukam Rashidjonning janozasi bilan bog'liq ma'rakalarda mening 4 nafar akam va ikki nafar singlim Jizzaxga – ota-onam uyiga ko'chib kelishimni iltimos qilishdi. Ular men qishloq xo'jaligida qo'llamoqchi bo'lgan yangi mexanizm va mashinalarim masalasida ajdodlarimiz yashab o'tgan Jizzax tumani, A.Navoiy nomidagi shirkat xo'jaligida kerakli 20-50 sotix yer olib amalga oshirishim mumkinligi haqida gapirdilar.

Mavjud avtoritar siyosiy tizim amaldorlari 5- va 6-takliflarimda yozganimdek 20 sotix yerni Toshkent viloyati, Qibray tumanidan bermasliklari mumkinligini tushunardim. Chunki 1992 yilda O'zbekiston fuqarolariga 6-25 sotixdan yer berilgan paytlarda men 1989 yildan beri pasport propiskasi bo'lgan Qibray tumani, Matqobulov nomidagi qishloq fuqarolar yig'ini hududidan 6 sotix yer berilishini iltimos qilgandim. Bu haqda 1992 yilda O'zR Prezidenti I.Karimovga ikki marta xat yozgandim. Hatto Qibray tuman hokimi bilan uchrashgach ham 6 sotix yerni berishmagan edi. Aniqrog'i bu amaldorlar orqasida turgan kuchishlalar organlar, jumladan maxsus xizmat organlari berdirmagan edi.

Shu achchiq tajribani va 4 akam hamda ikki singlimning iltimoslarini hisobga olib, men Toshkentdan Jizzaxga ko'chib o'tishga rozi bo'ldim.

Prezident I.Karimov nomiga yozilgan xat O'zR Vazirlar Mahkamasining 1-o'rinbosari Qobiljon Obidovga topshirilgan ekan. U xatni Qishloq xo'jalik vazirligiga jo'natibdi. Meni 1997 yil 7 yanvar kuni Qishloq xo'jalik vazirligiga taklif qilishdi. U yerda vazirning 1-o'rinbosari Uzoqov rahbarligidagi o'n nafar mutaxassis bilan bir soatga yaqin suhbat bo'ldi. Men magnitlangan suv yordamida yer sho'rini ketkazish mumkinligini ilmiy manbalar asosida gapirib bergach, mutaxassislar rozi bo'lishdi. Uzoqov Jizzaxga ko'chib o'tmoqchi ekanligimni eshitib, Jizzax viloyat hokimiyatidagi mutaxassisga xabar qilishini, u menga tegishli yordam berishini aytdi. Biror muammo bo'lsa, vazir yordamchisiga murojaat qilishimim mumkinligini ham ta'kidladi (u yig'ilishda qatnashgan 30 yoshlardagi yigitni ko'rsatdi) va ushbu xayrli ishimga muvaffaqiyat tiladi.

Men shu sabablarga ko'ra 1997 yil 25 yanvar kuni Jizzaxga, rahmatli ota-onamning uyiga ko'chib o'tdim. Kerakli 20-50 sotix yerni rasmiylashtirib olish osonroq bo'lishligi uchun pasport propiskamni Jizzax tumani, A.Navoiy shirkat xo'jaligi (Qulama qishloq fuqarolar yig'ini hududida), Tinchlik ko'chasi, 25-uyda yashovchi qarindoshim Nishonboy Hoshimov (1956 yilda tug'ilgan) uyiga qo'ydim. So'ngra N.Hoshimov bilan birgalikda Jizzax tuman hokimi va A.Navoiy shirkat xo'jaligi raisi nomiga dehqon-fermer xo'jaligini tuzish uchun 50 sotix yer berishini so'rab ariza yozdik. Lekin ushbu yer berilmadi. Men rahmatli ota-onam uyi manzilida (Jizzax shahri, O'.Shokirov ko'chasi, 26-uyda) "Turon Shuhrati" nomli kichik korxonaga ochishga barcha hujjatlarni rasmiylashtirdim, bankda hisob raqamini ochdim, muhrlar oldim. Bu haqda Jizzax shahar hokimi o'rinbosarining qarori 1997 yil 17 mart kuni chiqdi. (Ammo, lekin, biroq Jizzaxdagi nohaq tazyiqlardan so'ng men 1997 yil iyul oyida Toshkentga ko'chib ketdim.)

Jizzaxga ko'chib o'tganimdan 11 kun keyin – 1997 yil 6 fevral kuni men O'zR Prezidenti I.Karimov nomiga “Jizzax shahrida alkogolli ichimliklar va qurilish sohasida bo'layotgan O'zbekiston qonunlariga zid ayrim ishlar haqida”gi o'zimning 9-taklifimni yozdim. Uni Toshkentga olib kelib, Prezident devonxonasiga va yana bitta nusxasini Oliy Majlis Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi, shoir Erkin Vohidov nomiga berdim.

Jizzaxda menga qarshi tazyiqlar kuchaya boshlagach, ushbu xatning yana bitta nusxasini “Ozodlik” radiosi Toshkent bo'limining o'sha paytdagi rahbari Yakvalxo'jayev Furqatga ham keltirib bergan edim. Xatimni berayotib, bu xat tufayli menga Jizzaxda qattiq tazyiq bo'layotgani, xatni ehtiyot qilishni tayinlab aytgan edim.

Xatimda Jizzax viloyat ichki ishlar boshqarmasi rahbarlaridan biri bo'lmish podpolkovnik Alim (Olim) Qosimovning hovlisida katta bochkalarda vino tayyorlab, kechalari shishalarga quyib, Jizzax shahridagi fuqarolar uyidan sotishni yo'lga qo'yishganligi haqida ham yozgan edim. Toshkentdan kelgan komissiya o'sha militsiya podpolkovnigi Alim Qosimov qurayotgan yangi hovlisida uch katta bochka vino, shishalar, vino shishasini yopish moslamalari borligini aniqlashtirdi. Bu amaldor suvdan quruq chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Alim Qosimov to'rt aka-ukadan kenjasidir. Ulardan to'ng'ichi Qosimov To'lqin Yuldoshevich (1941.12.11) general-polkovnik unvoniga ega bo'lib, u 1997 yil 1 maydan O'zbekiston Mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari etib tayinlangandi.

Alim Qosimovning yana bir tug'ishgan akasi polkovnik Quldosh Qosimov (1952 yilda tug'ilgan) bo'lib, Toshkentda IIV Toshkent shahar “Xorijga chiqish-kirish va fuqarolikni rasmiylashtirish” boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari lavozimida ishlardi. U oilasi bilan Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mag'rur ko'chasi, 21-uyda yashardi. Uning kichik o'g'li 19 yoshli Qosimov Yuldoshevich (1985 yilda tug'ilgan) taralla-bedod hayot kechirib, 2004 yil 26 iyunga o'tar kechasi soat 4:30 da o'z otasi polkovnik Quldosh Qosimovni va onasi Neyla Qosimovani (1954) ИЖ-78 markali to'pponchadan otib tashladi. [45]

Jinoiy ishlar bo'yicha Toshkent shahar sudi 2005 yil 3 mart kuni Yuldoshevichni o'lim jazosiga hukm qildi. Adashmasam, shu fojeadan keyin general-polkovnik To'lqin Qosimov O'zbekiston Mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari lavozimidan olindi. (2012.28.09, A.Sh.)

Aka-ukalar oila sha'niga tushgan qotillik, padarkushlik dog'ini yuvish uchun Yuldoshevichning akasi bo'lmish Mansur nomidan inson huquqlari himoyasi bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarga shikoyat arizasini topshirishdi. Shikoyatda ushbu sud jarayonida Yuldoshevich hibsga olingan birinchi kundanoq advokat berilmaganini sabab qilib, tergov jarayoni buzilganli yozilgandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasi 2005 yil 13 apreldagi murojaatidan keyin O'zR Oliy sudining 2005 yil 22 noyabr hukmi bilan Yuldoshevichga nisbatan o'lim jazosi 20 yillik qamoq jazosi bilan almashtirildi [46]. (2012.28.09, A.Sh.)

Shunday qilib, podpolkovnik Alim (Olim) Qosimov bugungi kunda – 2010 yil 18 avgustda ham Jizzax viloyat Ichki ishlar boshqarmasida yuqori lavozimlardan birida ishlamoqda va Jizzax viloyati hamda shahridagi inson huquqlari himoyachilari, jurnalistlar, hur fikrli insonlarni tazyiq qilish tadbirlarini tashkillashtiruvchi amaldorlardan biri bo'lib qolmoqda. (Menimcha, u 2012 yil 28 sentyabrda polkovnik unvonida Jizzax viloyatida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi tarkibida yuqori lavozimlardan birida “ishlash”da davom etmoqda.)

1997 yil voqealariga qaytsak. Kuchishlalar organlar menga qarshi o'z aka-singillarimni ishlatishga qattiq harakat qilishdi. Maxsus xizmat organlari mendagi muhim 5-, 6-, 8- va 9-takliflar yozilgan nusxalarni olib ketish chora-tadbirlarini izlashdi. Mana shu qiyin sharoitda aka-singillardan ba'zilar mening yetti papka

qog'ozlarimni olib borib maxsus xizmat organlari rahbarlariga berdi. O'sha papkalar ichida 5-, 6-, 8- va 9-takliflarning mendagi nusxalari ham bor edi.

Jizzaxda 1997 yil deyarli olti oy davomida menga qarshi tazyiqlar, tuhmatlar, provokatsiyalar qilindi. Men bu haqda keyinchalik alohida tahliliy maqola yozish maqsadim bor, Alloh xohlasa, agar o'sha kunlarga sog'omon qolsam.

O'sha 7 ta papka ichida futbolga doir 8-taklifim nusxasi ham bor edi. Men 1997 yil iyulida Toshkentga qaytdim va avvaliga o'zimga yashash sharoitini tiklashga harakat qildim.

Maxsus xizmat organlari Jizzaxda olib ketgan 5-, 6-, 8-, 9-takliflarning nusxasini topish va tiklash uchun o'zim bergan idoralarga, shaxslarga 1999 yilda, jumladan shoir Erkin Vohidovga 1999 yil 14 oktyabrda yozma murojaat qildim. Lekin bu takliflardan birortasining nusxasini olish iloji bo'lmadi. (Men o'z xatim, taklifimni birorta idoraga berayotganimda o'zimdagi nusxasiga imzo qo'ydirib olar edim. Mening taklif xatim boshida yozilgan idoralar, rahbar shaxslar nomiga va pastda qo'yilgan imzolarga qarab kuchishlata organ xodimlari takliflarim nusxalarini ulardan olib qo'yish va yo'qotish chora-tadbirlarini ko'rishgan, deb hisoblayman.)

Shaxsiy arxivimdagi boshqa papkamda futbolga doir yozilgan xat qoralama nusxasining 2-3-betlari saqlanib qolgan ekan. Xat 2-betining yarmigacha jahon va O'zbekiston futboli tarixiga doir qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. So'ngra quyidagi gaplar yozilgan.

“Avval Chor Rossiyasi, so'ngra Qizil Imperiyaning 130 yillik mustamlaka tuzumi tufayli jonajon O'zbekistonimiz davlatchilik, texnika, iqtisod kabi eng muhim sohalar bo'yicha Jahon taraqqiyotidan orqada qolish bilan birga, biz jahon futbol taraqqiyotidan ham juda orqada qolganmiz. Bunga yaqqol misol – Xalqaro futbol federatsiyalari uyushmasi – FIFAning tasnif jadvalida 11-Osiyo kubogi musobaqalari arafasida O'zbekiston 119-o'rinni egallab turganligidir [47]. Shu yerda FIFA 1996 yilning yakuniy tasnif jadvalida e'lon qilingan jahondagi kuchli 20 jamoa haqidagi ma'lumotni ham keltirib o'tish o'rinlidir. Braziliya – 68,38, Germaniya – 64,46, Fransiya – 61,37, Kolumbiya – 61,34, Chexiya – 61,11, Daniya – 60,67, Rossiya – 60,51, Ispaniya – 60, 21, Gollandiya – 59,59, Italiya – 58,68, Meksika – 56,92, Angliya – 56,42, Portugaliya – 56,13, Norvegiya – 55,71, Bolgariya – 55,64, Ruminiya – 55,57, Shvetsiya – 55,50, AQSh – 54,78, Janubiy Afrika Respublikasi – 54,32, Zambiya – 53,76. Osiyo jamoalari ichida eng yaxshi ko'rsatkich Yaponiya terma jamoasiga tegishli bo'lib, u 53,35 ochko bilan 21-o'rinni egallab turibdi [48].

130 yillik mustamlaka asoratidan ozod bo'lgan Mustaqil O'zbekiston iqtisodini, texnika taraqqiyotini bugungi kun talablari darajasida rivojlantirish uchun jahondagi rivojlangan davlatlardan yordam olayotganligimiz va o'rganayotganligimiz kabi O'zbekiston futbolini taraqqiy ettirish uchun ham jahonda futbol naqadar taraqqiy etgan davlatlardan futbolni o'rganishimiz zarur. Buning uchun futbolni rivojlantirishda sinovdan o'tgan jahon tajribasi bo'lmish chet eldagi mohir futbolchilarni va tajribali murabbiylarni O'zbekiston futbol klublariga shartnomalar asosida taklif qilishimiz va sharoitlar yaratib bermog'imiz darkor. Bu birinchidan.

Horiждан mohir futbolchilarni O'zbekistonga taklif qilishning ikkinchi sababi quyidagilardan iborat. Ma'lumki, futbol – bu 11 kishidan iborat jamoa bo'lib yuqori texnik mahorat bilan o'ynaladigan sport o'yinidir. Tajribali futbol murabbiyi bugungi kun talablari darajasida yaxshi futbol jamoasini tuzishi uchun eng yaxshi darvozabon, himoyachilar, yarim himoyachilar va hujumchilardan iborat 11 kishini va ...” (Shu yerda 3-bet yozuvlari tugagan.)

Bu Taklifda fikr bunday davom ettirilgan edi. Agar mana shu jamoada birortasi yetarli darajada mohir futbolchi bo'lmasa, jamoa to'liq shakllanmaydi va u ko'pincha mag'lubiyatga uchraydi. Yetishmayotgan bunday futbolchini esa mamlakat futbolchilari orasidan topish ko'pincha imkoniyatsizdir, chunki borlari ham boshqa klub tarkibida to'p surayotgan bo'ladi. Shu sababli mohir murabbiy klubga kerakli darvozabon yo himoyachi yoki yarim himoyachi yoki hujumchini boshqa davlatdan legioner sifatida taklif etadi. Shundan so'ng Taklifda ushbu fikrni tasdiqlovchi faktlar, ya'ni boshqa davlatlardan taklif etilgan legionerlar va ularga

to'lanayotgan pul miqdori to'g'risidagi, o'zga mamlakat murabbiylari rahbarligida klublar va terma jamoalar erishayotgan muvaffaqiyatlar haqida matbuotda chop etilgan maqolalardan misollar va jadvallar keltirgandim, ularning manbalarini ham aniq ko'rsatgan edim.

Ta'kidlashim lozimki, 1997 yil bahor-yozida kuchishlalar organlar meni ruhiy kasal deb ayblashga, bunga mening futbol haqida 1997 yil 21 yanvar kuni yozgan 15 betlik taklifimni ham asos sifatida talqin etishga harakat qilishdi ...

Umuman, Sovet Ittifoqi davrida biror joyda rasman yozilmagan, lekin kommunist amaldorlar amal qiladigan prinsiplardan biri quyidagicha edi: "Men rahbarman, sen ahmoq; sen rahbarsan, men ahmoq!" («Ты – начальник, я – дурак; я – начальник, ты – дурак!») Ya'ni o'sha vaqtlarda ham, hozir ham O'zbekistondagi politsiya rejimi amaldorlari "Aql amalga qarab taqsimlangan" deb hisoblashadi.

Bunga yorqin misol futboldir. O'zR IIV vaziri, general-polkovnik Zokirjon Almatov O'zbekiston futbol federatsiyasiga prezident bo'lib o'n yil rahbarlik qilishi va professional futbolni tushkunlik darajasiga olib kelishi mumkin. Lekin 40 yildan ortiq futbol muhlisi bo'lgan, ikkita oliy ma'lumotli men kabi saylovchi fuqaro futbolga doir o'z taklifini davlat rahbarlariga yozsa, uni jinniga, ruhiy kasalga chiqarishga tayyor turadilar va harakat qiladilar ...

10. 1997 YILDA SOBIRJON RO'ZIYEV BILAN UCHRASHISHIM, BRAZILIYADAN VEYGA DA SILVANING TAKLIF ETILISHI VA NATIJALAR

10.1. FUTBOL TERMA JAMOAMIZNING 1997 YILDAGI AYRIM O'YINLARI NATIJALARI

1997 yil aprel-iyul oylarida 1998 yilgi 16-jahon chempionati saralash o'yinlarining 1-bosqichida Osiyo qit'asining 5-guruhida O'zbekiston terma jamoasi futbol kam taraqqiy etgan Indoneziya, Yaman, Kambodja mamlakatlarning terma jamoalari bilan o'ynab, 2-bosqichga yo'l oldi.

1997 yil sentyabr-noyabr oylarida 16-jahon chempionati saralash musobaqalarining asosiy 2-bosqichi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi Yaponiya, Koreya, BAA va Qozog'iston terma jamoalari bilan kuch sinashdi. Ushbu o'yinlar natijalarini [49]-dan keltirib o'taman.

6 sentyabr:	Yaponiya – O'zbekiston	6:3.
12 sentyabr:	Koreya – O'zbekiston	2:1.
20 sentyabr:	Qozog'iston – O'zbekiston	1:1.
27 sentyabr:	O'zbekiston – BAA	2:3.
11 oktyabr:	O'zbekiston – Yaponiya	1:1.
18 oktyabr:	O'zbekiston – Koreya	1:5.
25 oktyabr:	O'zbekiston – Qozog'iston	4:0.
2 noyabr:	BAA – O'zbekiston	0:0.

"B" va "A" guruhidagi terma jamoalar o'yinlarining natijalar jadvalining ko'rinishi 1997 yil 29 oktyabr kuni quyidagicha edi [50].

"B" GURUHI

Jamoa nomi	O'yin- lar	Yutuq- lar	Durang- lar	Mag'lul- biyatlar	To'plar nisbati	Ochko- lar
Janubiy Koreya	6	5	1	0	16 – 4	16

BAA	6	2	2	2	8 – 9	8
Yaponiya	6	1	4	1	10 – 8	7
Qozog'iston	7	1	3	3	6 – 14	6
O'zbekiston	7	1	2	4	13 – 18	5

“A” GURUHI

Jamoa nomi	O'yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag'lubiyatlar	To'plar nisbati	Ochko-lar
Eron	6	3	2	1	13 – 6	11
Saudiya Arabistoni	6	3	1	2	7 – 5	10
Quvayt	6	2	1	3	6 – 6	7
Xitoy	5	2	1	2	7 – 10	7
Qatar	5	1	1	3	2 – 7	4

Eslatib o'taman, bu paytda O'zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi Yuriy Sarkisyan edi. Shunday qilib, O'zbekiston futbol terma jamoasi 1998 yilgi 16-jahon chempionatining saralash o'yinlaridan o'tolmadi va o'z guruhida oxirgi o'rinni olib, Vatanga qaytdi.

10.2. 1997 YILDA SOBIRJON RO'ZIYEV BILAN UCHRASHISHIM VA FUTBOL HAQIDAGI SUHBATIM

Men 1979-1983 yillarda Moskvadagi N.Bauman nomidagi Oliy texnika universitetida o'qib Toshkentga 1983 yil 6 avgust kuni qaytdim. 1983 yil oxirlarida soch oldirish uchun hozirgi Sharof Rashidov ko'chasi, -uyning 1-qavatida joylashgan sartaroshxonaga kirdim (bu Kosmonavtlar maydoni yaqinida). O'shanda 25 yillardan beri sartaroshlik qilayotgan Bahodir aka bilan tanishdim (familiasini so'ramagan ekanman). U sartaroshxonada rahbar (brigadir) ham edi. 2000 yilgacha, ya'ni o'sha sartaroshxona yopilguniga qadar 17 yil davomida Bahodir akada sochimni oldirib yurdim.

Bahodir aka o'z kasbini yaxshi bilgan mohir sartarosh va muomalali kishi bo'lganligi sababli unda ko'pgina atoqli shaxslar ham soch oldirishardi. Bunga o'zim shaxsan guvoh bo'lganman.

1997 yil sentyabr o'rtalarida soch oldirishga Bahodir aka sartaroshxonasiga kirganimda, u yerda navbat kutib o'tirgan O'zR Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining sobiq raisi, O'zR Milliy Olimpiya qo'mitasining prezidenti Sobirjon Ro'ziyevni ko'rdim. Men salom-alikdan keyin O'zbekiston futbol terma jamoasining hozirgi ahvoli, Yaponiyadagi sharmandali mag'lubiyati haqida qisqacha suhbatlashdim. Shunda men mamlakatimiz terma jamoasining o'yin darajasi pastligi, mahorat darajasini ko'tarish uchun Braziliyadan murabbiy taklif qilish kerakligi, Oliy liga klub jamoalarining o'yin saviyasini oshirish uchun Lotin Amerikasi va Afrikadan legionerlarni chaqirishimiz zarurligi haqida gapirdim. S.Ro'ziyev asosan xorijdan murabbiyni O'zbekistonga taklif etish fikrimni ma'qullovchi gaplarni gapirdi. Bu orada Sobirjon akaning soch oldirish navbati keldi va futbol legionerlari haqidagi suhbatimiz bir oz chala qoldi.

Shu suhbatimizdan ko'p vaqt o'tmay, 1997 yil oktyabr oyida Braziliyadan futbol murabbiyi Veyga da Silva Toshkentga keldi va “Paxtakor” hamda O'zbekiston terma jamoasining bosh murabbiyi etib tayinlandi.

10.3. BRAZILIYADAN VEYGA DA SILVANING TAKLIF ETILISHI, UNING MURABBIYLIK USLUBI VA DASTLABKI NATIJALAR

10.2-bandda ta'kidlaganimdek, 1997 yil oktyabr oyida Braziliyadan Veyga da Silva Toshkentga keldi va u bilan bir yilga shartnoma tuzildi. U "Paxtakor" klubining murabbiyi va O'zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi etib tayinlandi. Veyga da Silva bosh murabbiy sifatida O'zbekiston futbol terma jamoasi bilan 1997 yil 20 oktyabrdan shug'ullana boshladi. Dastlabki ijobiy natijalar ko'zga tashlandi: 1997 yil 25 oktyabr kuni Toshkentda O'zbekiston – Qozog'iston terma jamoalarining o'yini 4:0 bilan yakunlandi [49]. Ushbu o'yindan keyingi matbuot anjumanida Veyga da Silva muxbirlar savollariga quyidagicha javob berdi.

“ – Qisqacha o'zingiz haqingizda.

- Braziliyaning "Internatsional" klubida 20 yil to'p surdim. Shuningdek, o'z vaqtida yoshlar terma jamoasida ham o'ynaganman. "Paxtakor" bilan bir yilga shartnoma tuzdik.

- O'tkazilgan saralash o'yinlariga bahongiz?

- Ulkan g'alabalarga erishish mumkin edi. Chunki yurtigingizda yetuk futbolchilar ko'p ekan. Faqat ularni qovushtira bilish kerak edi.

- Uchrashuv qanday hisobda tugaydi, deb o'ylagandingiz?

- 1:0 bilan chegaralansak kerak, degandim.

- Bugungi g'alaba siz tufayli bo'ldimi yoki ...

- O'yin o'tkazilishidan bor-yo'g'i besh kun avval terma jamoa bilan shug'ullana boshladim. Uchrashuvni esa murabbiy mahorati emas, faqat o'yinchilar bilan yutdik.

- Mamlakatimiz milliy chempionati haqida fikringiz?

- Futbolchilar professional bo'ldimi, demak uchrashuvlar ham shu darajada o'tkazilishi lozim. Professionalizmga ko'nikish kerak.

- Bugungi tarkib kim tomonidan tuzilgandi?

- Har bir o'yinchini qattiq sinovlardan so'ng tanladik. Oz muddat bo'lsa-da, bir haftada mashg'ulotlarni kuchaytirdik. Yigitlar esa o'zlarini ko'rsatishdi.

- Sizningcha O'zbekistonda jahon miqyosida o'ynay oladigan yigitlar bormi?

- Mirjalol Qosimov va Andrey Fyodorovlar jahon talabiga javob bera oladi.

- BAA bilan o'tadigan uchrashuvga bashoratingiz?

- Ochig'i, bashorat qilishni yoqtirmayman." [51]

1997 yil 2 noyabrda Dubay (BAA) shahrida BAA – O'zbekiston o'yini 0:0 bilan yakunlandi [47]. Avvalgi beshta o'yinda bir ochko olgan O'zbekiston terma jamoasi oxirgi ikki o'yinda 4 ochko olishga muvaffaq bo'ldi. Albatta, bu natija kamlik qildi va O'zbekiston "B" guruhida oxirgi o'rinni olib, 16-Jahon chempionati saralash musobaqalarining 2-bosqichidan o'ta olmadi.

"O'zbekiston futboli" gazetasining 1997 yil 26 noyabr sonida Veyga da Silva bergan intervyu chop etilgan. U yerda uning haqida ma'lumot ham keltirilgan.

“Paxtakor” murabbiyi va O‘zbekiston terma jamoasi bosh murabbiyi – Veyga da Silva 1955 yili 2 fevralda tug‘ilgan. “Internasonal”, “Brani” jamoalarida to‘p surib, 1986 yildan boshlab murabbiylik karerasini boshlagan. “Portugal da Santos”, “Brani” va “Batafago” (Garrincha, Tulio o‘ynagan) jamoalarda bosh murabbiy lavozimida ishlagan.

“Paxtakor” – “Do‘stlik” uchrashuvidan so‘ng, biz u bilan suhbatlashishga muvaffaq bo‘ldik.

- Avvalo, terma jamoaga to‘xtalsangiz. Qozog‘iston va BAAga qarshi kechgan so‘nggi saralash uchrashuvidagi muvaffaqiyatni qanday izohlaysiz?

- To‘g‘ri, bu ikki o‘yinda mening kichkina hissam bo‘lsa-da, haqiqiy g‘alabaning eng bosh qahramonlari – yigitlar edi.

- Siz oldinroq, aytaylik, Yaponiya bilan Tokiodagi (3:6) o‘yin payti murabbiy bo‘lganingizda, O‘zbekiston Fransiyaga chiqishi mumkinmidi?

- Hamkasblarim haqida biror fikr bildirmay, shuni aytishim mumkinki saralashdan 4 oy oldin yigitlar bilan jiddiyroq shug‘ullansak, bugun bu o‘lkada bayram bo‘lardi ...

- O‘zbekiston futboli darajasiga ishonasizmi?

- Bu yerda iste‘dodli yigitlar ko‘p, faqat ularni yulduz qilish kerak, xolos. Jamoatchilik ishlarini kuchaytirish lozim.

- Nega endi aynan “Paxtakor”ni tanladingiz?

- Braziliyaliklar tabiatiga mos kelarkan ...” [52]

1997 yil 26 noyabr kuni O‘zbekiston kubogi uchun final o‘yinida “Paxtakor”- “Neftchi” uchrashuvi 3:2 hisobda paxtakorchilar g‘alabasi bilan yakunlandi. [49]

Veyga da Silvaning murabbiylik uslubi haqida atoqli futbolchimiz Mirjalol Qosimov 1998 yil sentyabrda quyidagicha aytgan edi.

“Bundan bir necha yil muqaddam Xans Ferel (Gollandiya) “Paxtakor”ga taklif etilgan edi. U o‘z ishiga professionallarcha yondoshdi, yigitlarga futbolning ko‘plab qirralarini o‘rgatdi, jamoani 8-o‘rindan to‘rtinchi o‘ringa ko‘tara oldi, paxtakorchilar ikkinchi davrani mag‘lubiyatsiz o‘tkazdilar.

Hozirgi kunda Veyga da Silva (Braziliya) rahbarligida chempionatda karvonboshilik qilishimiz ko‘p jihatdan uning bilimi va mahoratiga bog‘liq. Kichik va o‘rta hajmdagi ko‘ptoklar bilan mashq qilish, to‘p bilan “senlab gaplashish”ga o‘rganish, jismoniy tayyorgarlik borasida doimo barcha jamoalarga ibrat bo‘lish, har bir o‘yinchi maydonga yonib tushish kabi fazilatlarini biz aynan undan o‘rgandik. Men maydonda uning o‘rinbosari bo‘lib harakat qilishimdan faxrlanib yuraman, barcha masalalar bo‘yicha maslahatlashib turamiz.” [53]

1998 yil 6 noyabr kuni O‘zbekiston chempionatining muhim uchrashuvi – “Paxtakor” – “Navbahor” o‘yini bo‘ldi. Unda paxtakorchilar 30 ming tomoshabin ko‘z o‘ngida 2:0 hisobi bilan g‘alaba qozondi va olti yillik muddatdan so‘ng O‘zbekiston chempioni bo‘ldi [54]. “Paxtakor” klubining bu muvaffaqiyatida braziliyalik murabbiy Veyga da Silvaning katta hissasi bor.

“Braziliyadan taklif etilgan murabbiy Ubiraja Veyga da Silva “Paxtakor” jamoasi o‘yin uslabiga, mashg‘ulotlariga yangi-yangi dasturlar kiritdiki, natijada ushbu harakatlar ijobiy samara berdi. Demak,

xorijlik murabbiy dastlabki vazifani uddaladi. Endi, uning zimmasida yana bir mas’uliyat bor – O’zbekiston terma jamoamizning Osiyo o’yinlarida g’olib chiqishi.” [55]

Ushbu bandni atoqli futbolchimiz Mirjalol Qosimov haqidagi qisqacha ma’lumot bilan tugatsam.



Foto 7. Mirjalol Qosimov. 2010 yil [56]

“Ma’lumot uchun: Mirjalol Qosimov, 1970 yil 17 sentyabrda Toshkentda tug’ilgan, shahardagi 157-maktabda ta’lim olgan. Moskva sport internati hamda O’zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutini tamomlagan.

Futboldagi birinchi ustoz – Yuriy Gospodarchuk.

“Paxtakor” (Toshkent), “Dinamo” (Minsk) va “Alaniya” (Vladikavkaz) jamoalarida to’p surgan.

1985-1991 yillar mobaynida sobiq ittifoq o’smirlar, olimpiya terma jamoalariga a’zo bo’lgan. 1992 yildan O’zbekiston terma jamoasining yetakchi futbolchisi. Xalqaro o’yinlarning 18 tasida qatnashib, 8 to’p kiritgan. 1987 yil sobiq SSSR o’smirlar terma jamoasi safida jahon chempioni (Kanada), Yevropa chempionatining kumush medal sovrindori (Fransiya), 1988 yilda Yevropa (Chexoslovakiya) chempionligini qo’lga kiritgan.

12-Osiyo o’yinlari (1994 yil, Yaponiya) g’olibi, Rossiya (1995 yil) chempioni, 1992 va 1996 yillar kumush medal sovrindori.

1993 va 1997 yillari O’zbekiston kubogi egasi.

1993 yil O’zbekiston chempionati kumush medal nishondori, mamlakatning eng yaxshi o’yinchisi.

“Toshkent” Xalqaro turniri, “Mustaqillik kubogi”, 12-Osiyo o’yinlarining eng yaxshi futbolchisi, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan sport ustasi.

Otasi – Qo’shoq aka va onasi Rixsixon opa qarilik gashtini surmoqdalar. Rafiqasi – Diloromxon, o’g’illari – Mirkamol (1992 yilda tug’ilgan, A.Sh.), Mirjamol (1996 yil, A.Sh.), qizlari Mohira (1994 yil, A.Sh.)” [53]

Mirjalol Qosimov 2006 yil iyunida “Mash’al” (Muborak) futbol klubining o’ynovchi murabbiyi edi (“Futbol ekspress”, 2006 yil 13 iyun).

Luis Filippe Skolari “Bunyodkor” futbol klubida 2009 yil 9 iyundan 2010 yil 28 maygacha bosh murabbiy bo’lib ishladi. Mirjalol Qosimov 2010 yil 28 maydan bugungi kun – 2010 yil 26 iyulida “Bunyodkor” futbol klubining bosh murabbiyidir.

10.4. FUTBOL TERMA JAMOAMIZNING 1998 YILDA 13-OSIYO O’YINLARIDAGI NATIJALARI

1998 yil 6-22 dekabr kunlari Bangkok (Tailand) shahrida 13-Osiyo o’yinlari bo’lib o’tdi. Jami 23 ta mamlakat futbol terma jamoalari 8 guruhga bo’linib, birinchi bosqich o’yinlari o’tkazildi. O’zbekiston o’z guruhidagi Mug’uliston terma jamoasini 15:0 hisobida yengib, mamlakatimiz futboli tarixida rekord o’rnatdi. 16 jamoa 2-bosqichga chiqishdi va 4 ta guruhga bo’linib bahsni davom ettirdilar [57].

Osiyo oyinlari o’tkazilish sxemasi tushunarli bo’lishi uchun va yaqinda – 2006 yil 28 noyabridan 15 dekabrgacha 15-Osiyo o’yinlari o’tkazilishini hisobga olib, 13-Osiyo o’yinlari 2-bosqichi, chorak, yarim va final o’yinlarini [58]- va [59]-dan keltirib o’tay.

1-GURUH

Turkmaniston – Hindiston 3:2. KXDR – O’zbekiston 0:4.
 KXDR – Turkmaniston 1:1. Hindiston – O’zbekiston 0:2.
 O’zbekiston – Turkmaniston 1:1. Hindiston – KXDR 0:2.

Jamoa nomi	O’yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag’lubiyatlar	To’plar nisbati	Ochko-lar
O’zbekiston	3	2	1	0	7 – 1	7
Turkmaniston	3	1	2	0	5 – 4	5
KXDR	3	1	1	1	3 – 5	4
Hindiston	3	0	0	3	2 – 7	0

2-GURUH

Koreya – Yaponiya 2:0. BAA – Quvayt 0:5.
 BAA – Koreya 1:2. Yaponiya – Quvayt 2:1.
 Quvayt – Koreya 0:1. Yaponiya – BAA 0:1.

Jamoa nomi	O’yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag’lubiyatlar	To’plar nisbati	Ochko-lar
Koreya	3	3	0	0	5 – 1	9
Quvayt	3	1	0	2	6 – 3	3
Yaponiya	3	1	0	2	2 – 4	3
BAA	3	1	0	2	2 – 7	3

3-GURUH

Xitoy – Tojikiston 3:1. Ummon – Eron 4:2.
 Tojikiston – Eron 0:5. Ummon – Xitoy 1:6.
 Eron – Xitoy 2:1. Tojikiston – Ummon 3:3.

Jamoa nomi	O’yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag’lubiyatlar	To’plar nisbati	Ochko-lar
------------	----------	----------	-----------	----------------	-----------------	-----------

Xitoy	3	2	0	1	10 – 4	6
Eron	3	2	0	1	9 – 5	6
Ummon	3	1	0	1	8 – 11	4
Tojikiston	3	0	1	2	4 – 11	1

4-GURUH

Livan – Qatar	0:1.	Tailand – Qozog’iston	1:1.
Qatar – Qozog’iston	0:2.	Tailand – Livan	1:0.
Qozog’iston – Livan	0:3.	Qatar – Tailand	2:1.

Jamoa nomi	O’yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag’lubiyatlar	To’plar nisbati	Ochkoqlar
Qatar	3	2	0	1	3 – 3	6
Tailand	3	1	1	1	3 – 3	4
Qozog’iston	3	1	1	1	3 – 4	4
Livan	3	1	0	2	3 – 2	3

CHORAK FINAL BAHSLARI

O’zbekiston – Eron	0:4.	Koreya – Tailand	1:2.
Xitoy – Turkmaniston	3:0.	Qatar – Quvayt	0:0 (penaltilar bo’yicha 1:3).

YARIM FINAL BAHSLARI

Xitoy – Eron	0:1.	Quvayt – Tailand	3:0.
--------------	------	------------------	------

FINAL BAHSI: Eron – Quvayt 2:0.

Yuqorida yozganimdek, 13-Osiyo o’yinlarining chorak finalida O’zbekiston terma jamoasi Eron terma jamoasidan 0:4 hisobida mag’lubiyatga uchradi. Shu o’yinni bir oz tahlil etay.

Men ushbu matchni televizorda ko’ra olmadim. Buning sababi quyidagichadir. Meni kimsalar, fikrimcha, O’zbekiston maxsus xizmat organi xodimlari 1998 yil iyun oyida qandaydir o’tkir hidli kimyoviy modda yordamida o’pkamni kasallantirgan edi. 1998 yil dekabr oyida ham og’ir ahvolda davolanishga qatnab yurgan edim. Kasallantirish tafsilotlari qisqacha [60]-maqolada yozilgan.

Eron – O’zbekiston uchrashuvi qiziqarli, avvaliga teng kurashda kechgan. Eronliklar dastlabki golni o’yindan tashqari holatda kiritishgan (bu murabbiy Veyga da Silvaning fikridir, bu fikr quyida keltirilgan). Bu hisob o’yinning 2-taym o’rtalarigacha o’zgarmagan. Shunda murabbiy Veyga da Silva 70-daqiqada Aleksandr Xvostunov o’rniga Rashid G’ofurovni, Mirjalol Qosimov o’rniga Shuhrat Rahmonqulovni maydonga tushirdi (bular hammasi yarim himoyachilardir).

O’yin natijasi O’zbekiston foydasiga o’zgarmagach, V.da Silva oxirgi chora sifatida 78-daqiqada himoyachi Aleksey Semyonov o’rniga hujumchi Ne’matullo Quttiboyevni o’yinga tushirdi. Chunki chorak finalda 1:0 hisobida yutqizdingiz nima-yu, 4:0 hisobida yutqizdingiz nima, deyarli farqi yo’q. Axir hokkeyda ham oxirgi daqiqalarda darvozabon o’rniga o’yinchini tushirib, hisobni tenglashtirishga harakat qilgan matchlar ko’p bolgan-ku. Natijada Eron terma jamoasining hujumchisi Ali Dayi erkin harakat qila boshlagan va oxirgi o’n daqiqada O’zbekiston terma jamoasi darvozasiga yana uchta to’p kiritilib, hisob 0:4 bo’ldi. Shunday qilib, Xasanzod bitta va Ali Dayi uchta to’p kiritishgan. [61]

Himoyachi A.Semyonovning almashtirilishi borasida murabbiy Viktor Vasilevich Borisov 1999 yil yanvar oyida bunday degan edi.

“ – Eron terma jamoasiga qarshi kechgan o‘yin mobaynida Veyga da Silvaning uslubidagi hech bo‘lmasa birorta ko‘rsatmani noto‘g‘ri edi, deb baholay olasizmi?

- Murabbiyning mahorati o‘yin taqdirini oldindan ko‘ra bilish, shunga mos ravishda futbolchilarni tayyorlash va to‘g‘ri ko‘rsatma bera olishida. Yana qaytarib aytaman, mening fikrim Da Silvanikidan butunlay farq qilishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, bir vaziyatda xatolikka yo‘l qo‘yildi, deb o‘ylayman – himoyachi Semyonov o‘yin davomida Ali Dayini mahkam ushlab turgandi. U almashtirildi-yu, Ali Dayi erkin qushga aylandi. Bu endi mag‘lubiyat sababining kichkinagina ko‘rinishlaridan biri, xolos. Balki Semyonov almashtirilmaganida ham mag‘lubiyatga uchrashimiz mumkin edi. Chunki terma jamoamiz bu musobaqalarga yana takrorlayman, toliqqan holda tashrif buyurgandi.” [62]

V.da Silva o‘sha o‘yindan keyingi matbuot anjumanida muxbirlar savollariga quyidagicha javob bergan edi.

“- Janob da Silva, nima deb o‘ylaysiz, Eron bilan bo‘lgan uchrashuvda g‘alaba qozonish mumkinmidi?!

- To‘g‘risini aytsam biz hammadan ko‘ra ko‘proq eronliklardan qo‘rqqan edik. Chunki Eron terma jamoasi juda kuchli futbolchilardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Fransiyadagi jahon chempionatida ishtirok etgandi. Biz ular bilan finalda uchrashganimizda yaxshi bo‘lardi. Uchrashuvda tuzukroq natija ko‘rsatishimiz mumkin edi! Biroq himoyachilarimizning xatolari tufayli o‘yinni boy berdik.

- Futbolchilarimizning Osiyo o‘yinlaridagi ishtiroklarini qanday baholaysiz?

- Yigitlarga mening e‘tirozim yo‘q ... Quvaytliklar Osiyo o‘yinlariga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishdi. O‘yinlar boshlanishidan oldin ular Fors kurfazi kubogi sohibi bo‘lishdi. Bu jamoa eronliklar bilan birgalikda chempionlikka da‘vogar edi. Biz Quvayt bilan bo‘lgan o‘yinda yaxshi o‘yin ko‘rsata olmagan bo‘lsak-da, ammo eng kerakli natijaga erishdik.

Statistika natijalarimizga e‘tibor bering-a. Biz hammadan ilgari ikkinchi bosqich yo‘llanmasini qo‘lga kiritib, Osiyo o‘yinlarida hammadan ko‘p to‘p kiritdik.

- Futbolchilardan kimlarning hatti-harakatlarini alohida ta‘kidlashingiz mumkin?

- Hozir bu haqda gapirishni istamayman.

- Sizningcha yana qaysi futbolchi tarkibni kuchaytirishi mumkin edi?

- Men jamoaga Maksim Shatskixni (“Spartak”-Moskva) jalb etolmaganimdan achinaman. Yana Aleksey Pisarev (“Temiryo‘lchi”-Qo‘qon) ham yordam berishi mumkin edi.

- Hakamlarga e‘tirozingiz bormi?

- Deyarli yo‘q. Faqatgina Eron bilan bo‘lgan o‘yindagi birinchi va uchinchi kiritilgan to‘plarga e‘tirozim bo‘ldi. Menimcha gollar o‘yindan tashqari holatlarda kiritildi.

- Osiyo o‘yinlaridagi futbol musobaqasining saviyasiga qanday baho berasiz?

- Eron va Quvayt terma jamoalari boshqalardan ajralib turdi. Qolganlar esa o‘rtamiyona futbol namoyish etishdi. Tashkiliy masalalar yaxshi bo‘ldi. Uchrashuvlar kunduz kuni boshlandi. Bu holga esa futbolchilarimiz ko‘nikishmagan edilar.

- Keyingi rejalarinigiz?

- Hozir Braziliyaga ketayapman. Toshkentga 5 yanvarda (1999 yil,A.Sh.) qaytaman.” [63]

O'zbekiston – Eron terma jamoalarining o'yini ko'p jihatdan hal qiluvchi o'yinlardan biri edi. Chunki bu o'yin g'olibi 13-Osiyo o'yinlarining ham g'olibi bo'lish ehtimoli katta edi. Shunday ham bo'ldi: yuqorida yozganimizdek, Eron yarim finalda Xitoyni 2:1, finalda Quvaytni 2:0 hisobida yutib, 13-Osiyo o'yinlari chempionligini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston – Eron terma jamoalarining bu o'yini xususida mening fikrim quyidagichadir. Bunda deyarli teng kuchli terma jamoalar to'p surishdi. O'yinning asosiy vaqtining katta qismi davomida hisob 1:0 Eron foydasiga bo'lib turgani ham bunga guvohdir. Afsuski, O'zbekiston gazetalarida gollar urilgan daqiqalar aniq yozilmagan. “O'zbekiston futboli” gazetasida esa bu o'yin haqida quyidagi bittagina gap yozilgan: “O'zbekiston-Eron – 0:4. O'yinni televizor orqali kuzatganingiz tabiiy”.

Fikrimcha, braziliyalik murabbiy Veyga da Silva rahbarligida O'zbekiston futbol terma jamoasining 1997 yil oktyabridan 1998 yil dekabrighacha erishgan muvaffaqiyatlarini hisobga olib, u bilan shartnomani yana ikki yilga uzaytirish kerak edi. Ya'ni 2000 yilgi 14-Osiyo o'yinlariga O'zbekiston futbol terma jamoasini tayyorlashga va “Paxtakor” klubini Osiyo qit'asidagi yetakchi klub darajasiga olib chiqishga sharoit yaratib berish zarur edi. Afsuski bunday bo'lmadi.

Endi professional futbol o'yini bilan bog'liq siyosiy “o'yinlar” haqida ham to'xtalib o'tsam. O'zbekistondek avtoritar siyosiy rejim rahbariyatida odatda bir nechta guruh bo'lib, ular davlatning asosiy yo'nalishlarini boshqarish uchun o'zaro zimdan kurash olib boradilar. Bunday sharoitda o'z ishida yangilik qilmay, eskicha uslubda ishlab yurish qulaydir. Chunki biror tashabbus bilan chiqib, yangicha ishlay boshlasangiz, ma'lum bir xatolarga yo'l qo'yishingiz mumkin.

Demokratiya sharoitida bu oshkora, hatto matbuotda muhokama etilib, vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli yangilik hayotga tatbiq qilinadi. Yangilikni amalga oshirgan shaxsga, rahbarga nisbatan ziyolilar va xalq orasida hurmat oshadi.

Avtoritar, ayniqsa O'zbekistondagidek politsiya rejimi bo'lgan sharoitda biror xato yoki kamchilik sodir bo'lgandan, shu paytgacha pistirmada o'tirgan eskicha fikrlovchi guruh yangilik qilayotgan guruh yoki shaxsga qarshi hujumga o'tadi. Natijada ularni ma'lum muddatga mag'lub etib, ishdan olinishiga va quyi mansabga o'tkazilishiga erishadi. Oqibatda ish avvalgi eskicha uslubga, turg'unlik va tushkunlik sharoitiga qaytariladi. Shu hol 1999 yil yanvarida O'zbekiston futbolida ham takrorlandi.

Men keyingi voqealar rivojiga qarab quyidagi xulosaga keldim. 13-Osiyo o'yinlari 1998 yil dekabrda tugagach, 1999 yil boshida O'zbekistonning eng yuqori rahbariyati darajasida natijalar muhokama etilgan. Oqibatda O'zR Prezidenti I.Karimovning Davlat maslahatchisi, Prezident apparatida sport ishlari bo'yicha rahbar bo'lgan Alisher Azizxo'jayev o'z vazifasidan chetlashtirilib, uni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori qilib tayinlandi (bu akademiya 1995 yilda tashkil etilgandi). A.Azizxo'jayev O'zbekiston sportining eng yuqori rahbarlaridan biri bo'lganligiga quyidagi ma'lumotni misol sifatida keltiray.

“1994 yil 17 oktyabr kuni 12-Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston sportchilari Yaponiyaning Xirosima shahridan Vatanimizga qaytib keldi. Ana shu munosabat bilan Toshkent aeroportida tantanali kutib olish marosimi bo'ldi.

Marosimni Toshkent shahar hokimi K.To'laganov ochdi. Respublika Prezidentining Davlat maslahatchisi, sport delegatsiyasi rahbari A.Azizxo'jayev Xirosimada hilpiragan O'zbekiston bayrog'ini Bosh vazir A.Mutalovga topshirib, sportchilarimizning erishgan katta g'alabalari haqida gapirdi.

Marosimda so'zga chiqqan Bosh vazir A.Mutalov, O'zbekiston xalq shoiri E.Vohidov, Respublika davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisi S.Ro'ziyev va boshqalar sportchilarni tabriklab, O'zbekiston sportchilari nufuzli xalqaro musobaqada Vatanimiz sharafini munosib himoya qilganlarini, ayniqsa, futbolchilarimizning Osiyo o'yinlari chempioni unvonini qo'lga kiritishi ajoyib voqea bo'lganini ta'kidladilar.” [64]

A.Azizxo'jayev bugungi kunda – 2006 yil 8 iyuldan boshlab O'zR prezidenti I.Karimov farmoniga asosan Prezidentning Matbuot kotibi bo'lib ishlamoqda (“Xalq so'zi”, 2006 yil 8 iyul).

Xullas kalom, braziliyalik mohir futbol murabbiyi Veyga da Silva Braziliyaga jo'nab ketdi. O'zbekiston futbol terma jamoasiga rahbarlik eski uslubga qaytarildi va O'zbekistonda professional futbolning ahvoli yildan-yilga yomonlashdi, turg'unlik va tushkunlik yuz tutdi.

11. FUTBOL TERMA JAMOAMIZNING 1999-2005 YILLARDAGI AHVOLIGA DOIR MA'LUMOTLAR

Ma'lumki, 2000 yilgi Olimpiya musobaqalari Avstraliya shaharlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Saralash turnirida O'zbekiston futbol terma jamoasi futbol kam taraqqiy etgan Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston terma jamoalari bilan bahs olib bordi va o'z guruhida 1-o'rinni olib, Sidney Olimpiadasida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Rossiyalik futbol murabbiyi Pavel Sadirin O'zbekiston futbol terma jamoasini qabul qilish uchun 2000 yil 21 mart kuni Toshkentga keldi. U 2000 yil 4 iyunda O'zbekistonni tark etdi [65]. 2001 yil iyulidan O'zbekiston futbol terma jamoasiga bosh murabbiy etib Yuriy Sarkisyan tayinlandi.

2000 yil 12-29 oktyabr kunlari Bayrut (Livan) shahrida 12-Osiyo chempionati, ya'ni Osiyo Kubogi-2000 final o'yinlari bo'lib o'tdi. O'yinlar natijalari:

O'zbekiston – Qatar – 1:1; O'zbekiston – Yaponiya – 1:8;
O'zbekiston – Saudiya Arabistoni – 0:5 [66].

O'zbekiston futbol terma jamoasi mana shunday sharmandali hisob bilan yutqazib Toshkentga qaytdi. Tajribali terma jamoamizning bunday yirik hisobdagi mag'lubiyati eng avvalo bosh murabbiy Yu.Sarkisyaning xato taktikasidan darak beradi. Tabiiyki, Yu.Sarkisyan bosh murabbiylik vazifasidan iste'fo berdi.

2000 yil 11 dekabrda rossiyalik Vladimir Salkov O'zbekiston futbol terma jamoasiga bosh murabbiy etib tayinlandi [66]. U terma jamoamizni xalqaro uchrashuvlarga tayyorlash maqsadida 2001 yil mart oyida Germaniyaga olib bordi. U yerda tayyorgarlik doirasida Germaniyaning ba'zi bir futbol klublari bilan uchrashuv o'tkazildi. Ulardan uchtasining natijalarini keltirib o'tsam:

Karlsruhe – O'zbekiston – 5:0 (21 mart);
“SSV Roytlingen” – O'zbekiston – 3:2 (24 mart);
Bayyer (Liverkuzen) – O'zbekiston – 2:0 (27 mart) [67].

Ya'ni O'zbekiston futbol terma jamoasining o'yin darajasi o'sha – 2001 yilda ham, hozir – 2006 yil yozida ham ko'pgina Yevropa klub jamoalari o'yin darajasidan pastroqdir.

Ma'lumki, 2002 yilda 17-jahon chempionati Yaponiya va Janubiy Koreyada o'tkazildi. Shu chempionatning saralash o'yinlari 1-bosqichida 2001 yil bahorida O'zbekiston futbol terma jamoasi Turkmaniston, Iordaniya, Xitoy Taypeyi bilan uchrashdi va 1-o'rinni olib, 2-bosqichga chiqdi.

FIFA 17-jahon chempionatining final qismida 32 o'rindan 4 tasini Osiyo qit'asi mamlakatlariga ajratgan edi. Yaponiya va Janubiy Koreya mezbon mamlakatlar sifatida qatnashishi kafolatlanganligi uchun, Osiyoning qolgan mamlakatlari yana ikki o'rin uchun kurash olib borishdi. 2001 yil avgust-oktyabr oylarida O'zbekiston futbol terma jamoasi saralash o'yinlarining 2-bosqichida "B" guruhda Xitoy, BAA, Qatar va Ummon bilan bahs olib bordi ([68] va [69]).

2001 yil 17 avgust. BAA – O'zbekiston – 4:1.
 26 avgust. O'zbekiston – Qatar – 2:1.
 8 sentyabr. O'zbekiston – Ummon – 5:0.
 15 sentyabr. Xitoy – O'zbekiston – 2:0.
 23 sentyabr. O'zbekiston – BAA – 0:1.
 28 sentyabr. Qatar – O'zbekiston – 2:2.
 13 oktyabr. Ummon – O'zbekiston – 4:2.
 19 oktyabr. O'zbekiston – Xitoy – 1:0.

“B” GURUHI

Jamoa nomi	O'yinlar	Yutuqlar	Duranglar	Mag'lubiyatlar	To'plar nisbati	Ochko-lar
Xitoy	8	6	1	1	13 – 2	19
BAA	8	3	2	3	10 – 11	10
O'zbekiston	8	3	1	4	13 – 14	10
Qatar	8	2	3	3	10 – 10	9
Ummon	8	1	3	4	7 – 16	5

Hozir keltirilgan o'yin natijalaridan bittasini ozroq tahlil etay. 2001 yil 28 sentyabr kuni Qatar – O'zbekiston uchrashuvida O'zbekiston terma jamoasining bosh murabbiyi Vladimir Salkov katta xatoga yo'l qo'ydi. Bu haqda [70]-maqoladan iqtibos keltiray.

“O'tgan haftada jamoamiz navbatdagi turda Doxada Qatar termasiga qarshi maydonga tushishdi. 2:1 hisobida g'alabaga erishayotgan vaqtimizda, ming afsuski, so'nggi daqiqalardagina yutuqni qo'ldan chiqarib qo'ydik. Barchamiz bosh murabbiy Salkovning qilayotgan ishlariga hayronmiz. Uchrashuvning 74-daqiqasida termamiz “yuragi”, o'zining eng zo'r o'yinlaridan birini o'tkazgan sardorimiz Qosimovni Akopyansga almashtirishini hech ham tushunmadik.

Mirjalolning o'yindan chiqishi jamoa harakatlarida katta “salbiy” o'zgarishlarga olib keldi. Yurtdoshlarimiz shundan so'ng deyarli mezbonlar darvozasiga xavf sola olishmadi. Akopyans esa qo'pol bo'lsa ham “o'lganni ustiga tepgan” qilib o'yin qoidasini buzdi ... Oxiri nima bilan yakunlangani hammamizga ma'lum.” [70]

Xuddi mana shu ikki ochko keyingi bosqichga chiqish uchun yetmadi. Keyingi bosqichga “B” guruhidan BAA chiqdi.

2001 yil 13 oktyabr kuni O'zbekiston terma jamoasi Ummon terma jamoasiga 4:2 hisobi bilan yutqazgach, Vladimir Salkov bosh murabbiy vazifasidan iste'fo berdi [71].

“A” guruhida 1-o’rinni Saudiya Arabistoni, 2-o’rinni esa Eron terma jamoasi egalladi. Pley-off o’yinida BAA hamda Eron terma jamoalari uchrashdi va 3:0 hisobi bilan Eron terma jamoasi g’alaba qozondi (“Sport” gazetasi, 2001 yil 2 noyabr).

2002 yilgi 17-jahon chempionatining yana bir yo’llanmasi taqdiri Osiyodagi Eron va Yevropadagi Irlandiya terma jamoalari o’rtasidagi uchrashuvda hal bo’ldi. Bu o’yinda irlandiyaliklar g’alaba qozonib, 17-jahon chempionatida ishtirok etishdi.

Ma’lumki, 2002 yil 29 sentyabr – 14 oktyabr kunlari Janubiy Koreyada 14-Osiyo o’yinlari, jumladan futbol bo’yicha xalqaro uchrashuvlar bo’ldi. Pusan shahrida “D” guruhida O’zbekiston terma jamoasi Yaponiya, Bahrayn va Falastin terma jamoalari bilan bahs olib bordi [72].

2002 yil 28 sentyabr. O’zbekiston – Bahrayn – 0:3.

1 oktyabr. O’zbekiston – Falastin - 2:0.

5 oktyabr. O’zbekiston – Yaponiya – 0:1.

Futbolchilarimiz o’z guruhidan chiqa olmay, odatdagidek musobaqalarni erta tark etishdi.

2002 yil dekabr oyida O’zbekiston futbol terma jamoasiga bosh murabbiy etib “Traktor” jamoasining murabbiyi Ravshan Haydarov tayinlandi.

O’zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiylari va ular erishgan natijalarga doir ma’lumotlar ham qiziqarlidir.

O’ZBEKISTON TERMASI TARIXIDAGI BOSH MURABBIYLAR [73]

Murabbiylar	Yil	O’	G’	D	M	T-N
Rustam Akramov	1992-1994	18	13	3	2	46-16
Aleksandr Ivankov	1995	4	0	1	3	4-7
Bahodir Ibrohimov	1996	8	2	0	6	10-17
Rustam Mirsodiqov	1997	12	5	3	4	29-21
Ubiraja Veyga da Silva (Braziliya)	1997-1998	11	5	4	2	34-10
Mahmud Rahimov	1999	7	6	0	1	24-4
Viktor Borisov (v.b.)	2000	1	1	0	0	8-1
Pavel Sadirin (Rossiya)	2000	1	0	0	1	0-2
Yuriy Sarkisyan	2000	6	1	1	4	7-20
Vladimir Salkov (Rossiya)	2001	20	11	3	6	41-25
Leonid Ostroushko (Rossiya v. b.)	2001	1	1	0	0	1-0
Ravshan Haydarov	2002-2004	23	13	5	5	44-26
Xayns-Yurgen Gede (Germaniya)	2005	3	0	1	2	3-5
Ravshan Haydarov (v.b.)	2005	2	0	1	1	1-4
Bob Xougton (Angliya)	2005	4	2	2	0	5-3
Valeriy Nepomnyashiy (Rossiya)	2006	5	4	2	1	15-4

2003 yil o’yinlariga doir bitta faktni keltirib o’tay. Olimpiada-2004 ning saralash o’yinlari 2-bosqichida 2003 yil 3 may kun Toshkentda O’zbekiston Olimpiya terma jamoasi Eron Olimpiya terma jamoasi bilan o’ynadi.

O'yin 1:3 hisobi bilan Eron foydasiga hal bo'ldi. O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi Olimpiya-2004 o'yinlari finaliga chiqa olmadi va bosh murabbiy Viktor Jalilov iste'foga chiqarildi [74].

O'zbekiston futbol terma jamoasi 2004 yilgi futbol bo'yicha 13-Osiyo chempionatining saralash o'yinlaridan o'tib, 2004 yil iyul oyida Xitoyda o'tgan final bosqichida ishtirok etdi. "C" guruhidagi o'yin natijalarini [75] dan keltiramiz.

2004 yil 18 iyul. Saudiya Arabistoni – Turkmaniston – 2:2; Iroq – O'zbekiston – 0:1.
22 iyul. O'zbekiston – Saudiya Arabistoni – 1:0; Turkmaniston – Iroq – 2:3.
26 iyul. O'zbekiston – Turkmaniston – 1:0; Saudiya Arabistoni – Iroq – 1:2.

"C" GURUHI

Jamo nomi	O'yin- lar	Yutuq- lar	Durang- lar	Mag'lu- biyatlar	To'plar nisbati	Ochko- lar
O'zbekiston	3	3	0	0	3 – 0	9
Iroq	3	2	0	1	5 – 4	6
Turkmaniston	3	0	1	2	4 – 6	1
Saudiya Arabistoni	3	0	1	2	3 – 5	1

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston futbol terma jamoasi qiziqarli va mahoratli o'yini hisobiga emas, balki terma jamoamizning eng mohir o'yinchisi Mirjalol Qosimovning asosan standart vaziyatlarda yaxshi o'yini tufayli faqat bittadan to'p kiritish hisobiga chorak finalga yo'l oldi. Bu g'alabalarda terma jamoamiz boshqa futbolchilarining ham hissasi bor, albatta.

O'zbekiston terma jamoasi chorak finalda Bahrayn terma jamoasi bilan bahs olib bordi. Shu o'yinni tahlil etishdan oldin futbol taktikasiga doir bitta muhim fakti keltirib o'tsam.

"Futbolda taktikaning asosiy uch ko'rinishi mavjud:

- 1) O'yinchilar joylashuvi;
- 2) Jamoaning hujumda yoki himoyadagi harakati;
- 3) Standart vaziyatlar." [76]

Qizig'i shundaki, hozirgi zamon futbolida muhim match taqdiri tajribali murabbiyning to'g'ri taktikasi asosida o'yin boshlanganiga qadar asosan hal etiladi: agar futbol jamoasi o'zining tajribali murabbiyi ko'rsatmalarini yaxshi bajara olsa, kerakli g'alabaga erishadi. Bahrayn terma jamoasi murabbiyi xorvatiyalik Srechko Yurchich taktikasiga doir mulohazalarni [77]-maqoladan keltirib o'tay.

"O'zbekiston matchga quyidagi tarkibda chiqdi: darvozadagi o'rinni Yevgeniy Safonov egalladi, bu birinchi kutilmagan yangilik (syurpriz) edi, chunki jamoamiz lageriga terma jamoaning asosiy darvozaboni Aleksey Polyakov yetib kelgan edi, lekin chempionatning boshlang'ich ikki matchida birorta gol o'tkazmagan Safonovni darvoza oldida qoldirishga murabbiylar qaror qilgan ko'rinishadi; Aleksey Nikolayev chap-markaziy himoyachi, Andrey Fyodorov himoya markazida, Asror Aliqulov o'ng-markaziy himoyachi bo'lib o'ynadi; tayanch yarim himoyachisi bo'lib odatdagidek Timur Kopadze ishtirok etdi, Server Jeparov ko'nikib ketgan hujum qiladigan markaziy yarim himoyachi rovida qatnashdi, metr Mirjalol Qosimov esa o'yinni boshqara turib, butun maydon bo'ylab harakat qilishi mumkin edi, albatta ko'proq maydon markazida harakat qildi; oldinda ikki hujumchi Vladimir Shishelov va Aleksandr Geynrix o'ynadi (frants. metr – o'qituvchi, ustoz, murabbiy [14, 408-b.], A.Sh.).

Ko'rib turganimizdek hech qanday syurprizlar yo'q va jarohat olgan Baxtiyor Ashurmatovni hisobga olmaganda, deyarli barcha kuchlilar tarkibda o'z o'rinlarida edi. Bahraynliklar esa bizning murabbiylarga syurpriz tayyorlashgandi. Srechko Yurchich terma jamoamiz o'yinini juda diqqat bilan o'rgangan ko'rinadi, O'zbekiston terma jamoasi markaziy yarim himoyachilar hujumda kuchlidirlar, himoyada yomon ishlab berishadi (o'ynaydi), bu mavsumda o'z klubida hujumchi rolida o'ynayotgan va, menimcha, o'ng yarim himoyachi o'rnidagi o'yindan uzoqlashgan Anvar Soliyevdir, deb to'g'ri xulosa chiqargan. Bundan tashqari himoyada bor-yo'g'i uchta himoyachi o'ynamoqda va chekka yarim himoyachilar, ayniqsa Anvar Soliyev qanotlarni himoya qilishga ulgurmaydilar va shu sababli ularni qanotlarda ajratib qo'yish bema'lol mumkin.

Shundan kelib chiqib Srechko Yurchich juda mantiqli ish tutdi. Bahrayn terma jamoasining bosh pleymeykeri Talal Yusuf maydon markazida Timur Kopadze va Server Jeparov bilan bo'ladigan kurashda o'zini ko'rsata olmasligini, ular muqarrar ravishda uni o'yindan chiqarishlarini va oqibatda Bahrayn hujumchilari Safonov darvozasiga zarba uchun snaryadlarsiz qolishlarini tushunib, xorvat murabbiyi uni chap qanotga o'tkazdi, u yerda bizning yarim himoyachimiz Anvar Soliyev unga qarshilik ko'rsatishi kerak edi. Yurchich rejasiga ko'ra mohir Talal Yusuf o'zini erkin his etishi kerak, chunki Soliyev himoyaviy harakatlarda unchalik yaxshi emas, O'zbekiston terma jamoasining taktik sxemasida (3-5-2) sof o'ng himoyachi yo'q. Agar Aliqulov Soliyevga yordamga kelgan taqdirda ham, u himoyaning o'ng markaziy zonasini (grekcha zone – mintaqa, viloyat, A.Sh.) ochiq qoldirishga majbur bo'ladi, bu esa chopqir hujumchi Muhammad Zafarga va juda o'tkir Aal Huvaylga operativ imkoniyat yaratib berardi." [77]

O'yinning 60-daqiqasida Bahrayn terma jamoasi darvozasi yaqinida jarima to'pi belgilandi (bu standart vaziyat deyiladi). Shunda M.Qosimov yolg'ondakamiga, tepadigan kabi yugurib borib, oyog'ini to'p ustidan olib o'tdi. Shu lahzada uning yonida turgan Aleksandr Geynrix to'pni darvozaning boshqa burchagiga zarb bilan tepdi. Natijada to'p darvozaga kiritildi va 1:0 hisobida O'zbekiston terma jamoasi hisobda oldinga chiqdi. 71-daqiqada Aal Hubayl hisobni tenglashtirdi, 77-daqiqada esa u ikkinchi to'pni O'zbekiston terma jamoasi darvozasiga kiritdi.

O'zbekiston terma jamoasi murabbiylari T.Kopadze o'rniga tayanch yarim himoyachisi Marat Bikmoyevni o'yinga tushirishdi. U hujum chizig'iga o'tdi va bizning jamoa 3-4-3 sxemasida o'ynay boshladi. Match tugashiga 3 daqiqa qolganida A.Geynrix uzatib bergan to'pni V.Shishelov raqib darvozasiga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Matchning asosiy vaqti 2:2 hisobi bilan tugadi.

Qo'shimcha 15 daqiqadan ikki taym davomida hisob o'zgarmadi. Afsuski, qo'shimcha taym o'rtasida bosh murabbiy R.Haydarov M.Qosimov o'rniga Koshelevni maydonga tushirdi. O'yin taqdiri penaltilar urish bilan hal etiladigan bo'ldi. O'zbekiston terma jamoasining darvozaboni Safonov raqib zarbalaridan birini qaytara oldi. Lekin Bikmoyev va Koshelev (!) to'pni 11 metrlik masofadan darvozaga kirita olmadi [64]. Agar Koshelev o'rnida M.Qosimov bo'lganida u gol kiritgan bo'lardi.

Xullas kalom, O'zbekiston terma jamoasi Bahrayndan penaltilar bo'yicha mag'lubiyatga uchradi va yarim final bosqichiga o'ta olmadi.

Ushbu o'yin tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'yin taqdiri avvalambor bosh murabbiyning boy tajribasi va to'g'ri traktikasi asosida qo'lga kiritilgan edi. Qolaversa murabbiy taktikasini to'g'ri amalga oshirgan futbolchilarning ham hissasi bor.

2006 yilgi 18-Jahon chempionatiga saralash o'yinlarining asosiy bosqichi 2005 yil fevralida boshlandi. [78]-maqoladan o'yinlar natijalarini keltirib o'tsam.

2005 yil 9 fevral. O'zbekiston – Saudiya Arabistoni – 1:1.
25 mart. Quvayt – O'zbekiston – 2:1.
30 mart. Janubiy Koreya – O'zbekiston – 2:1.
3 iyun. O'zbekiston – Janubiy Koreya – 1:1.

2005 yil 17 avgust kuni “A” guruhida qatnashayotgan jamoalarning oxirgi tur uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi: O‘zbekiston – Quvayt va Janubiy Koreya – Saudiya Arabistoni. Shu o‘yin arafasidagi jamoalar erishgan natijalar quyidagicha edi.

“A” GURUHI

Jamoa nomi	O‘yin- lar	Yutuq- lar	Durang- lar	Mag‘lu- biyatlar	To‘plar nisbati	Ochko- lar
Saudiya Arabistoni	5	3	2	0	9 – 1	11
Janubiy Koreya	5	3	1	1	9 – 4	10
Quvayt	5	1	1	3	2 – 10	4
O‘zbekiston	5	0	2	3	4 – 9	2

O‘zbekiston – Quvayt matchini alohida 8-bandda tahlil etsam. Chunki men 2005 yil 20 may kuni O‘zbekiston madaniyati va sporti, jumladan futbol muammolariga bag‘ishlangan Talabnoma loyihasini yozdim. Uni bir guruh inson huquqlari himoyachilari bilan birga muhokama qildik va 31 may kuni O‘zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldida piket o‘tkazdim. Shu tadbir va uning natijalari haqida 12-bandda bayon etishga o‘taman.

12. MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI OLDIDA 2005 YILDAGI PIKET

12.1. BIR GURUH INSON HUQUQLARI HIMOYACHILARINING O‘ZBEKISTON MADANIYATI VA SPORTI MUAMMOLARIGA DOIR TALABNOMASI

Ma‘lumki, O‘zR Prezidenti I.Karimovning 2004 yildagi farmoniga asosan O‘zR Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi O‘zR Madaniyat vazirligi tarkibiga kiritildi va bugungi kunda O‘zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi deb ataladi.

Men 2005 yil 31 may kuni O‘zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi oldida piket o‘tkazish va vazirlikka dolzarb muammolar haqida yozilgan Talabnomani topshirish tashabbusi bilan chiqdim. Shu maqsadda “Bir guruh inson huquqlari himoyachilarining O‘zRning madaniyati va sporti muammolariga doir talablari” deb ataluvchi Talabnoma (Murojijatnoma)ning loyihasini tayyorladim. Men 2005 yil 20 va 27 may kunlari Freedom House (Ozodlik Uyi) xalqaro tashkilotining Toshkentdagi vakolatxonasiga bir guruh inson huquqlari himoyachilarini taklif etdim. Yig‘ilishda Talabnoma loyihasi muhokama qilindi va 31 may kuni Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldida piket o‘tkazish haqida qaror qabul qilindi.

Odatda demokratik mamlakatlarda piket ma‘murlarni oldindan ogohlantirmasdan o‘tkaziladi (frants. pequet – 1) Kichik soqchilar otryadi; 2) Zabastovka (ish tashlash, A.Sh.) yuz bergan rayonda qorovullik qilib yuruvchi ishchi guruhi [13, 1-j., 585-b.]). Chunki fuqaroning piket qilishiga sabab – o‘zining yoki jamoatchilik ahamiyatidagi muammosi hal bo‘lmayotgan paytda muammoga davlat idoralari va ommaviy axborot vositalari e‘tiborini jalb etish uchun o‘tkazadi. Shu sababli piket o‘tkazish uchun oldindan ruxsat olish shart emas. Masalan, qonunlarda, jumladan O‘zR qonunlarida ham miting, namoyish masalalarida oldindan ruxsat olish kerakligi haqida yozilgan. Lekin piket so‘zi o‘sha moddada yo‘q. Masalan, O‘zR Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 201-moddasi “Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish” deb ataladi.

Shunday bo‘lsa-da, 2005 yil 13-14 may kunlari Andijonda bo‘lib o‘tgan qonli voqealar va yuzlab begunoh fuqarolar halok bo‘lganligini hisobga olib, men Toshkentdagi hokimiyat idoralari 31 may va 5 iyun kuni

o'tkaziladigan piket haqida yozma xabar berishni o'rinli deb topdim. Bunday yozma xabar matni ham inson huquqlari himoyachilarining 20 may kungi yig'ilishida tasdiqlandi. Shu matni keltirib o'tsam (bu matni dastlab 2004 yilda inson huquqlari himoyachisi Konstantin Stepanov tayyorlagan edi, rus tilidan o'zbek tiliga men o'girdim).

“O'zR Oliy Majlisi Senatining raisi
O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining raisi
Toshkent shahar hokimi
O'zR Ichki ishlar vazirligiga
O'zR Milliy xavfsizlik xizmatiga
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan elchixonalariga
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan ommaviy axborot vositalariga
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro tashkilotlarga

M.Sharifxo'jayevga
E.Halilovga
A.To'xtayevga

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Norxo'jayev ko'chasi, 17-uy, 9-xonadonda yashovchi
Ahmadjonov Shuhratdan

A R I Z A

Sizga ma'lum qilamanki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganiga deyarli 14 yil bo'lgan bo'lsa-da amaldorlarning beparvoligi, to'rachiligi, korrupsiyalashganligi, urug'-aymoqchiligi, bir-birini qo'llashi, qonunlar va Konstitutsiyaning buzilish jinoyatlarini mansabdor shaxslar tomonidan yashirishi natijasida madaniyat va sport sohasidagi ba'zi bir muhim muammolar hal qilinmayotir. Aniq muammolar haqida biz plakatlarimizda yozamiz.

Shu sabablarga ko'ra va har yili 5 iyun kuni Atrof-muhitni asrash xalqaro kuni sifatida nishonlanishi munosabati bilan, biz – 15 kishidan kam bo'lmagan bir guruh fuqarolar piket o'tkazishga qaror qildik:

- 1) 31 may kuni soat 10.00 dan 12.00 gacha O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldida;
- 2) 3 iyun kuni soat 10.00 dan 12.00 gacha O'zR Prezidenti Devonxonasining binosi oldida.

Biz demokratik fuqarolik jamiyati tarafdorimiz va bizning xavfsizligimizni ta'minlashingizni Sizlardan iltimos qilamiz.

Biz o'z navbatida tartibni va qonunga rioya etishni kafolatlaymiz. Bizning plakatlar siyosiy jihatdan izchil bo'ladi.

Bizning xavfsizligimizni ta'minlashingizni so'raymiz.

Piket tashabbuskori imzo Shuhrat Ahmadjonov.

2005 yil 20 may.”

Men piket o'tkazilishi haqidagi arizani Toshkent shahar hokimiyati, O'zR Ichki ishlar vazirligi, O'zR Milliy xavfsizlik xizmatiga 20 may kuni olib borib topshirdim.

Talabnomada madaniyat sohasidagi talablar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi uchun yangi bino qurib berilsin;
- 2) Mashhur o'zbek hofizi Dadaxon Hasanga kontsert zallarida va stadionlarda kontsert berishga sharoit yaratib berilsin;

3) Mashhur o'zbek hofizi, xalq artisti Sherali Jo'rayevga kontsert zallarida va stadionlarda kontsert berishga sharoit yaratib berilsin;

4) Xalqimizning mashhur va sevimli ashulachisi va kinoartisti Klara Jalilovaga O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni berilsin;

5) Xalq mablag'larini no'noq badiiy filmlarga sarflash to'xtatilsin va yaxshi filmlar ishlab chiqarishni talab qilamiz, degan talablar yozilgan edi. (Talabnomaning shu qismidagi talablar va unga qarshi qilingan tazyiqlar haqida batafsil [79]-kitobda yozganman, A.Sh., 2010 yil 14 iyul.)

Talabnoma oxirida sport sohasidagi, jumladan O'zbekiston futboliga doir talablar ham bayon etilgan edi. Talabnomaning futbolga doir matnini rus tilida yozilgan [80]-maqoladan keltiraman.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	I.Karimovga
O'zR Oliy Majlisi Senatining raisi	M.Sharifxo'jayevga
O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining raisi	E.Halilovga
Toshkent shahar hokimi	A.To'xtayevga
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan elchixonalariga	
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan ommaviy axborot vositalariga	
O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro tashkilotlarga	

.....

Bizning O'zbekiston sporti, jumladan futboli sohasidagi talablarimiz.

1. O'zbekiston Ichki ishlar vaziri bo'lib ishlayotgan militsiya general-polkovnigi Zokirjon Almatov O'zbekiston Respublikasi Futbol federatsiyasi prezidenti lavozimidan iste'fo berishini talab qilamiz.

Qisqacha izoh. 1994 yil oktyabrda Xirosima (Yaponiya) shahrida 12-Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston futbol terma jamoasi Osiyo qit'asining chempioni bo'ldi. O'sha vaqtda O'zR Bosh vaziri Abdulhoshim Mutalov O'zbekiston Futbol federatsiyasi prezidenti edi.

1995 yil dekabrda O'zbekiston Futbol federatsiyasi prezidenti etib O'zR Ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatov tayinlandi. O'sha kundan boshlab O'zbekiston futboli buhronga yuz tutdi va natijalar yildan yilga yomonlashib bordi.

1998 yilda O'zbekiston futbol terma jamoasi ozroq muvaffaqiyatlarga erishdi va uncha katta bo'lmagan yuksalish davri bo'ldi. Buning sababi - Braziliyadan ko'zga ko'ringan mutaxassis Veyga da Silvaning O'zbekiston futbol terma jamoasiga bosh murabbiy etib tayinlanishi bo'ldi. Asosan uning tinimsiz mehnati tufayli Bangkok (Tailand) shahrida o'tgan 13-Osiyo o'yinlarining birinchi bosqichida 13-Osiyo o'yinlari va O'zbekiston futboli tarixida o'ziga xos rekord o'rnatdi: mamlakatimiz terma jamoasi Mo'g'iliston terma jamoasini 15:0 (!) hisobi bilan yutdi!

Ammo O'zbekiston futbol terma jamoasini tayyorlashga braziliyalik murabbiy Veyga da Silvaga berilgan vaqtning kamligi aynan chorak final uchrashuvida ko'rindi. 1:0 hisobi deyarli ikkinchi taym oxirigacha saqlandi. Va match oxirida bizning terma jamoamiz darvozasiga yana uchta gol kiritildi va hisob 4:0 bilan Eron terma jamoasi foydasiga hal bo'ldi. Eslatib o'taman, Eron terma jamoasi futbol bo'yicha 13-Osiyo o'yinlarining chempioni bo'ldi. Veyga da Silva Braziliyaga jo'nab ketdi va O'zbekiston futbolida yana qattiq tanazzul davri davom etmoqda.

2000 yil oktyabrda Livanda futbol bo'yicha 14-Osiyo Kubogi o'yinlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston futbol terma jamoasi Yaponiya terma jamoasiga sharmandali 1:8, Saudiya Arabistoniga esa – 0:5 hisobi bilan yutqazdi!

2003 yilda olimpiadaning saralash o'yinlarida O'zbekiston olimpiya futbol terma jamoasi Toshkentda Eron terma jamoasiga 1:3, Tehrondagi javob uchrashuvida esa 0:6 (!) hisobi bilan mag'lubiyatga uchradi!

Futbolni noshud boshqarish, O'zbekiston Oliy liga futbol klublariga yetarlicha e'tibor berilmaganligi natijasida "Do'stlik" (Toshkent viloyati) va "Qo'qon-1912" (Qo'qon) kuchli futbol klublari o'yinchilari har tarafga jo'nab ketishdi. Bu klublar mavjudligi umuman barham topdi va o'z faoliyatini to'xtatdi. Natijada futbol bo'yicha O'zbekiston Oliy ligasida 2004 va 2005 yillarda faqat 14 klub qatnashmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston professional futbolining barbod bo'lishida deyarli o'n yildan beri O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidenti ham bo'lib ishlab kelayotgan hozirgi O'zbekiston ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatov katta hissa qo'shdi. Biz etikdo'z poyabzal tuzatishi, oshpaz ovqat tayyorlashi, militsiya generali Ichki ishlar vazirligidagi o'z ishi bilan chegaralanishi kerak, F U T B O L deb ataluvchi millionlab kishilarning demokratik o'yinini militsiya usullari bilan boshqarishi kerak emas, deb hisoblaymiz!

2. Braziliyalik futbol murabbiyi bilan to'rt yilga shartnoma tuzishni talab qilamiz!

O'zbek xalqi mintalitetiga (tabiatiga) Braziliyaning juda go'zal futboli naqadar mos keladi. Futbol bo'yicha Jahonning besh marta chempioni bo'lgan yagona mamlakat Braziliya ekanligini eslatib o'tishga hojat bormikan!

3. O'zbekiston oliy ligadagi har bir klubga Lotin Amerikasi va Afrikadan, birinchi navbatda Braziliyadan ko'zga ko'ringan futbol ustalaridan uchtagacha legionerni taklif etish va shartnoma tuzish maqsadida O'zbekiston oliy liga klublariga moliyaviy ta'minlashni talab qilamiz!

O'zbek futbolchilari bitta jamoada yonma-yon o'ynabgina qit'aviy va jahon darajasidagi mahoratli futbolchi bo'lishlari mumkin va kerak. Shu bilan birga jahon reytingida klub jamoalari birinchiligi darajasi oshib boradi. Faqat shu holda O'zbekiston terma jamoasi futbol bo'yicha jahon birinchiligining final bosqichiga chiqishi mumkin va ishtirokchi bo'la oladi.

4. Braziliyalik futbol murabbiyi va legionerlar bilan shartnoma tuzish mobaynida jahonda futbol qiroli deb tan olingan Pele bilan maslahatlashish o'rinli va zarurdir. Shundan so'ng uni qo'yoshli O'zbekistonga mehmonga albatta taklif etmoq kerak. Bizning mamlakatda millionlab futbol muxlislari yashashadi va aynan Pelening O'zbekistonga kelishi o'ziga xos futbol bayramiga aylanadi.

1. Ahmadjonov Shuhrat imzo

(ushbu talablar tashabbuskori, manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, Norxo'jayev ko'chasi, 17-uy, 9-xonadon);

2. Abduvosiqov Abduvali imzo

3) Varaksin Anatoliy imzo

4) Chadova Nataliya imzo

5) Volkobrun Lidiya imzo

6) Turg'unov A'zam imzo " [80]

12.2. MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI OLDIDA 2005 YILDAGI PIKET TAFSILOTLARI

Toshkentdagi inson huquqlari himoyachilari 2005 yil aprel-may oylarida ko'pgina piket o'tkazganlari sababli kuchishlalar organ xodimlari, ayniqsa militsiya zobitlari piketni barbod qilish choralari izlashardi. Ular piket o'tkaziladigan kun tongotar inson huquqi himoyachisining uyiga kelardi, ba'zilarini tuman ichki ishlar boshqarmasiga olib ketishar, ba'zilarini esa ko'chaga chiqartirmay, uy qamog'ida tutishardi. Bu holat soat 14.00-15.00 gacha davom etardi.

Men militsiya xodimlari 2005 yil 31 mayga o'tar kechasiyoq uyim oldida soqchilik qilishini va 31 may ertalab tutib olib ketishini hisobga olib, 30 may kuni uyiga bormadim. 29 yil avval Samarqandda tanishgan va bugungi kunda Toshkentda institutda dars berayotgan tanish domullanng uyiga bordim, suhbatlashdim va o'sha yerda tunab qoldim. Shu sababli men 31 may ertalab piket joyiga sog'-omon yetib bordim.

Uchastka noziri, militsiya kapitani Muqim Aliyev 2005 yil 1 iyun kuni men bilan o'tkazgan suhbatida 31 may ertalab uxlab qolgani va shu sababli uyimga kech borganligini afsus bilan gapirdi. Men unga tasalli berish uchun 31 mayga o'tar kechasi uyda bo'lmaganim, boshqa joyda to'naganim, shu sababli agar kechasidan kelib qorovullik qilganida ham meni uyda topa olmasligini aytdim. [80]

Men piket uchun plakatlar tayyorladim va ularda quyidagi talablarni yozdim.

- 1) O'zbekiston Milliy kutubxonasi uchun yangi bino qurib berilsin!
- 2) Hofiz Dadaxon Hasanga kontsert zallarida va stadionlarda kontsert berishi uchun sharoit yaratib berilsin!
- 3) Hofiz Sherali Jo'rayevga kontsert zallarida va stadionlarda kontsert berishi uchun sharoit yaratib berilsin!
- 4) Klara Jalilovaga O'zbekiston xalq artisti unvoni berilishini talab qilamiz!
- 5) Xalqimiz pullarini no'noq badiiy filmlarga sarflash to'xtatilsin!
- 6) Militsiya general-polkovniki Zokirjon Almatov O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidentligidan iste'fo bersin!
- 7) Braziliyalik futbol murabbiyi bilan bir necha yillik shartnoma tuzilsin!
- 8) O'zbekiston Oliy liga futbol klublariga Lotin Amerikasi va Afrikadan legionerlarni taklif etish uchun moliyaviy ta'minot muammosi hal etilsin!
- 9) Futbol qiroli Peleni O'zbekistonga mehmonga taklif etishlaringizni iltimos qilamiz!
- 10) Xalq sevgan Sherali hofizlar qani?
Xalq suygan mard noiblar qani?
Xalq hayronu lol, aniq javobi qani?
Haqiqiy sababin ayting, janob Prezident!

Shunday qilib, men 2005 yil 31 may kuni soat 10.00 da Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldiga kelganimda inson huquqlari himoyachilaridan birortasi kelaolmagani ma'lum bo'ldi (ularni militsiya xodimlari o'z uylaridan chiqarishmabdi).

Piketning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, bunday norozilik aksiyasini bir kishi ham o'tkazaverishi mumkin. O'zimning katta papkamdan 4 ta plakatni chiqardim: madaniyat muammolariga doir 2- va 3-plakatlarni skotch bilan birlashtirdim. Xuddi shunday sportga oid 5- hamda 6-plakatlarni birlashtirdim. So'ngra ikki qo'limda 4 ta plakatni ushlab, O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi binosi oldida turdim.

Uch daqiqadan so'ng mening oldimga ikki nafar 30 yoshlardagi baquvvat yigit keldi. Ulardan biri: "Bu yerda nima qilayapsiz? Bu yoqqa bering!" dedi va plakatlarni mening qo'limdan olib qo'ydi. Men savol berdim: "Kimsizlar?". U plakatni bukladi va sherigiga berdi. Keyin cho'ntagidan guvohnomasini chiqardi va ko'rsatdi. Men guvohnomani o'qib, o'z qog'ozchamga yozib oldim: Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi, jinoyat-qidiruv boshqarmasi xodimi, militsiya mayori Abduqahhor Abdumo'talov. Mening

oldimga yana bir necha xodim keldi. Ulardan biri – tuman ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i edi. Uning buyrug'i bilan uch nafari meni tutib, avtomobilga o'tqazib Mirobod tuman IIB sig'a olib ketishdi. O'sha kungi voqealar [80]-maqolamda batafsil yozilgan.

12.3. MENI MIROBOD TUMAN ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI RAHBARLARI VA TOSHKENT SHAHAR BOSH PSIXIATRI X. HUSANXO'JAYEV 2005 YIL 31 MAY KUNI SO'ROQ QILISHI TAFSILOTLARI

Meni 2005 yil 31 may kuni Toshkent shahar, Mirobod tuman ichki ishlar boshqarmasi (IIB) boshlig'i, militsiya podpolkovnigi Abdumajid Mullajonov kabinetiga olib kirishdi. U: “Qaranglarchi, sumkasida nimalar bor ekan?” deb buyruq berdi. Mening yonimda turgan Mirobod tuman jinoyatchilik oldini olish (profilaktika) bo'limi boshlig'i, militsiya podpolkovnigi va mayyor (famiylalarini bilmayman) sumkamdagi narsalarni chiqarib, stol ustiga qo'yishni buyurishdi. Ikkalasi mening ikki papka qog'ozlarimni ochib, matnlarni o'qiy boshlashdi. A.Mullajonov esa mening oldimga kelib, plakatlar solingan katta papkamni oldi, o'z stoli yaqiniga qaytib borib papkamni ochdi va plakatlarni o'qib ko'ra boshladi.

Ushbu kitobimda A.Mullajonovning futbolga doir bergan savollarinigina keltirib o'tsam (uning boshqa savollari va bergan javoblarim haqida batafsil [79]-kitobimda yozganman). U 6-plakatni ko'zdan kechirgach, uni ovoz chiqarib o'qidi va g'azab bilan so'radi: “Siz nega Zokirjon Almatov iste'fosini talab qilayapsiz?”

Men javob berdim: “1994 yilda 12-Osiyo o'yinlarida O'zbekiston futbol terma jamoasi Osiyo chempioni bo'lgandi. 1995 yil oktyabrida Zokirjon Almatov O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidenti etib tayinlandi. O'shandan beri o'n yilga yaqin vaqt o'tdi va bizning professional futbolimiz chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda. Axir Z.Almatovning Ichki ishlar vaziri sifatida ishlari juda ko'p-ku. Unga Futbol federatsiyasi prezidentligi nima uchun kerak? Biz – inson huquqlari himoyachilari agar u ushbu lavozimni futbol sohasidagi mutaxassis va tashkilotchi shaxsga topshirsa yaxshi bo'ladi, deb hisoblaymiz”.

Podpolkovnik A.Mullajonov: “U futbolning bosh homiysidir. U moliyaviy yordam berish orqali futbol taraqqiyotiga katta yordam qilmoqda” dedi. Shu payt tintuv o'tkazayotgan profilaktika bo'limi boshlig'i, podpolkovnik sumkam ichiga qarab: “Bular qanday kitoblar? Ko'rsatingchi!” dedi. Men sumkamdan bloknotlarimni chiqardim va unga berdim. Natijada mening e'tiborim bo'lindi va A.Mullajonovning oxirgi gapiga javob berish imkoniyatiga ega bo'lmadim.

Aslida IIV vaziri Z.Almatov futbolga moliyaviy yordamni o'z jamg'armasidan, otasidan qolgan boylik hisobidan emas, avtoritar siyosiy rejim kuchishlalar organlarga ajratgan IIVning juda katta byudjet pullaridan beradi. Bunday mablag'lar bevosita Futbol federatsiyasiga berilmog'i kerak, toki O'zbekiston professional futbolini taraqqiy ettirish uchun bu mablag'ni qanday ishlatish yaxshiroq ekanligini futbol mutaxassislari hal etishsin.

Aftidan, Mirobod tuman IIB boshlig'i A.Mullajonov va uning atrofidagi amaldorlar IIV vaziri, general-polkovnik Zokirjon Almatovning “futbolni boshqara olish qobiliyati” yo'nalishidagi lavozim (mundir) obro'sini saqlab qolishga va muallifni jiddiy jazolashga qaror qilishdi. U Mamedovni chaqirishni buyurdi (Jambul Mamedov -Mirobod tuman IIB jinoyat-qidiruv bo'limi xodimi, militsiya mayori).

J. Mamedov kelgach: “Bu hamma papkalar, disketlar va plakatlarni oling. U tushuntirish xati yozsin. Unga hech narsani qaytarib bermanglar”, deb buyruq berdi A.Mullajonov.

Meni boshqa xonaga olib chiqib, 7-8 xodimning bir soatga yaqin baqir-chaqirig'i, do'q-po'pisasi ostida men tushuntirish xatini yozdim. Shundan so'ng meni yana podpolkovnik A.Mullajonov kabinetiga olib borishdi. Uning o'ng tomonidagi stulda 55-yoshlardagi erkak kishi o'tirardi. A.Mullajonov meni chap tomondagi stulga o'tirishga taklif etdi.

Notanish erkak birinchi savolni berdi. Uning bu savoli mening esimda qolmadi, chamasi u familiyam va ismimni so'radi. Men javob berdim va undan o'zini tanitishni so'radim. U: "Husanxo'jayev Xayrulla Lutfullayevich, Toshkent shahar bosh psixiatri" dedi va mening ko'zlarimga diqqat bilan qarab turdi. Aftidan u meni qanday munosabat bildirishini aniqlamoqchi edi.

Men 1980- hamda 1981-yillarda kursdosh do'stlarimni Samarqand va Jizzaxda to'plab, O'zbekistonda yangi siyosiy partiyani tuzish masalasini muhokama qilgandik. O'shandan beri avvaliga Sovet Ittifoqi maxsus xizmat organlari (KGB – Davlat xavfsizlik qo'mitasi), 1991 yil kuzidan esa O'zbekiston maxsus xizmat organlari shunchalik ko'p va turli tazyiqlarga duchor qildiki, meni endi biror narsalar yoki tazyiqlar bilan hayratga solish qiyin.

Mirobod tuman IIB boshlig'i kabinetida Toshkent shahar bosh psixiatri (ruhshunosi) X.Husanxo'jayev bilan uchrashgach, IIB xonasida 7-8 nafar militsiya xodimlari deyarli bir soat davomida shovqin-suron qilishlari, baqirishlari, o'shqirishlari, qo'llarini paxsa qilib mening yuzim, ko'zim oldida silkitishlari sababi ayon bo'ldi: ular bosh psixiatr bilan uchrashuv oldidan meni ruhiy muvozanatdan chiqarishga bor kuchlari bilan harakat qilishgandi!

Bosh psixiatr navbatdagi savollarni bera boshladi.

- Qayerda ishlaysiz? Nimaning hisobiga tirikchilik qilayapsiz?"

- Men suratkashman, suratkashlik orqali tirikchilik qilaman.

- Sizda fotostudiya bormi? Patentingiz bormi?

- Men yakka tartibda ishlayman va Toshkent shahridagi bozorlarda odamlarni suratga tushiraman. Patent masalasiga kelsak, 2000 yil 30 avgust kuni Toshkentdagi Akmal Ikromov (hozirgi Uchtepa) tumanida yashaganimda A.Ikromov tuman hokimi nomiga yozma murojaat qilib, patent berishlarini so'ragandim. Hokim o'rinbosari rad javobini berdi, u pasportim doimiy propiska bo'lgan joyda, ya'ni Jizzaxda patent olishim va o'sha yerda soliq to'lashim kerakligini yozib berdi. Men 28 yildan beri Toshkentda yashayapman. Endi soliq to'lash uchun har oyda Jizzaxga borishim kerakmi? O'zR Soliq kodeksida fuqaro pasporti doimiy propiska bo'lgan joyda deb yozilgan emas, balki yashash joyida soliq to'lashi kerak, deb yozilgan.

- Uylanganmisiz? Bolalaringiz bormi?"

- Men 1980 yilda Moskvada uylanganman. 1980 yil oxirida o'g'lim tug'ilgan. Sharoitlar shunday bo'ldiki, 1982 yil may oyida xotinim bilan ajralishdik. U o'g'lim bilan Moskvada qoldi. Hozir yolg'iz yashayapman.

- Siz qarindoshlaringiz bilan aloqa qilayapsizmi?

- Qarindoshlar Jizzaxda va Samarqandda yashashadi. Har bir-ikki yilda borib turaman va ba'zi bir qarindoshlarni yo'qlab turaman.

- Bugungi piketda sizlarning talablaringiz nimadan iborat edi?

- Masalan, hofizlar Sherhali Jo'rayev, Dadaxon Hasanga konsert o'tkazishlari uchun sharoit yaratib berilishini so'radik. 1991 yildan beri Toshkentda Sherhali Jo'rayevning konsertlari bo'lgan emas.

Shunda mening orqamdagi divanda o'tirgan Mirobod tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, militsiya podpolkovnigi Erkin Abdullayev suhbatga qo'shildi: "Siz qushlarga doir, qushlarga doir yaqinda o'tkazgan piket haqida gapirib bering". Bosh psixiatr X.Husanxo'jayev uning savolini qo'llab-quvvatlab so'radi.

- O'shanda sizlarning talablaringiz qanday edi?

- Ha, biz 4 may kuni ekologik muammolarga bag'ishlangan piket o'tkazdik. O'shanda biz, masalan, Toshkent shahrida daraxtlarni, jumladan chinorlarni kesish to'xtatishini talab qildik. Chinor O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Qonunga asosan har bir chinorni kesish uchun O'zbekiston Vazirlar mahkamasining ruxsati kerak. Lekin shahar hokimiyatida o'tirgan va yuzlab chinorlarni kesishga buyruq berayogan amaldorlar bunday ruxsatga ega emas. 4 may kungi piketni o'tkazish maqsadlaridan biri mana shudir.

Psixiatr tirjayib:

- Qo'ysangizchi, har bir chinorni kesish uchun Vazirlar Mahkamasidan ruxsat olish? Bu endi sira to'g'ri kelmaydi, dedi.

- Chinorlar O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Qizil kitobga kiritilgan barcha narsalarni kesishdan oldin Vazirlar Mahkamasidan ruxsat olinmog'i kerak. Aks holda o'zboshimchaligi va xizmat lavozimini suiiste'mol qilgan bunday amaldorlar qonunga muvofiq jazoga tortilishi shart.

- Siz birorta partiyaga a'zomisiz?

- Ruyxatdan o'tgan birorta partiyaga a'zo emasman. Men inson huquqlari himoyachisiman.

- Siz o'z talablaringizda tashkilot nomidan imzo chekkansiz. Sizing tashkilotingiz bormi?

- Ha, men "Demokratlar davrasi" nomli nodavlat notijorat tashkilotining raisiman.

- Sizing tashkilotingiz ro'yxatdan o'tganmi?

- Yo'q, bizning tashkilot adliya bo'limida ro'yxatdan o'tmagan.

Bosh psixiatr X.Husanxo'jayev IIB boshlig'i A.Mullajonovdan so'radi:

- Ular ro'yxatdan o'tmay faoliyat olib borishlari mumkinmi?

A.Mullajonov: – Yo'q, bunga huquqi yo'q, – dedi, sungra qo'shimcha qildi – Ular horijdan mablag' olishadi va horij grantlari hisobiga faoliyat olib borishmoqda.

Men A.Mullajonov gapiga bunday javob berdim.

- Shaxsan men shu kungacha hech qanday horijdan pul yoki grant, biror dollar yordam olgan emasman.

So'ngra men X.Husanxo'jayevga murojaat qildim.

- Agar sizga davlat ro'yxatida qayd etilganlik fakti kerak bo'lsa, bizning tashkilot ro'yxatdan o'tgan emas. Shu sababli har bir inson huquqlari himoyachisi o'z nomidan imzo chekkan, deb hisoblashingiz mumkin. Bosh psixiatr e'tiroz bildira boshladi. Shunda men inson huquqlari himoyachilari yig'ilish bayonnomalari yozilgan ish daftarimni sumkamdan chiqardim va dedim:

- Bugungi piketga chiqishdan oldin biz – inson huquqlari himoyachilari 20 va 27 may kunlari yig'ilish o'tkazdik. O'sha yerda o'z talablarimizni bandma-band muhokama qildik va ovozga qo'ydik. Mana bu yerda yig'ilish bayonnomalari bor.

Bosh psixiatr X.Husanxo'jayev ish daftarimni qo'limdan oldi, varaqlab chiqdi va o'z oldiga stol ustiga qo'ydi. Shundan so'ng dedi:

- Menda boshqa savollar yo'q.

Podpolkovnik A.Mullajonov menga buyruq berdi:

- Chiqib turing!

U o'z o'rinbosari, podpolkovnik E.Abdullayevga dedi:

- U o'sha yerda kutib tursin.

Meni Mirobod tuman IIBdagi xonalardan biriga olib borishdi. U xonada soat 14.30 gacha kutishga majbur qilishdi. So'ngra ketishga ruxsat berishdi.

Men Mirobod tuman IIBdan chiqqach, bir haftadan so'ng, 2005 yil 7 iyun kuni O'zR Prezidenti I.Karimovga, O'zR Oliy Majlisi Senatining raisi M.Sharifxo'jayevga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining raisi E.Halilovga, Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsmani) S.Rashidovaga, IIV vaziri Z.Almatovga, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan ko'pgina elchixonalar, ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlar nomiga Murojaatnoma yozdim va tarqatib berdim [80].

Ko'pgina sansalorliklardan so'ng 2005 yil 23 avgust kuni Mirobod tuman IIB sining xodimi, militsiya mayori Ibrohim Parpiyev (u terrorizmga qarshi kurash bo'limining xodimi bo'lsa kerak) mening deyarli barcha narsalarim, jumladan ikki papka qog'ozlarim, plakatlarim, 21 ta kompyuter disketalarim, ish daftarimni qaytarib berdi ...

Men ushbu piket tafsilotlari haqida rus tilida maqola yozdim ([80]-ga qarang). Maqola oxirida P.S. da futbolga doir quyidagi oxirgi ma'lumotlarni keltirgan edim (lot. P.S. - postskriptum – yozilgandan so'ng [14, 514-b.]).

“2006 yil yozida Germaniyada o'tkaziladigan futbol bo'yicha Jahon chempionatining saralash o'yinlarida O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidenti, general-polkovnik Z.Almatovning “qoyilmaqom rahbarligida” O'zbekiston futbol terma jamoasining oxirgi “muvaffaqiyatlari” haqida yozish o'rinlidir:

1) 2005 yil 3 iyunda Toshkentda O'zbekiston va Janubiy Koreya terma jamoalari o'rtasida saralash o'yini bo'ldi va o'yin 1:1 hisobi bilan yakunlandi;

2) 2005 yil 8 iyun kuni Saudiya Arabistoni poytaxti – Er-Riyod shahrida O'zbekiston terma jamoasi 3:0 hisobida mag'lubiyatga uchradi!

Shunday qilib, O'zbekiston futbol terma jamoasi besh tur o'yinlardan so'ng 15 imkoniyatdan 2 ochko olib, o'z guruhida oxirgi o'rinni egallab turibdi!” [80]

13. O'ZBEKISTON – QUVAYT TERMA JAMOALARINING 2005 YILDA TOSHKENTDAGI O'YINI VA SHOIR B. RO'ZIMURODOVNING FUTBOL HAQIDAGI SHE'RI

FIFA taqvimiga asosan o'z guruhlarida 3-o'rinni olgan terma jamoalar o'zaro bahs yuritishlari belgilangan edi. Agar O'zbekiston terma jamoasi oxirgi o'yinda 2005 yil 17 avgust kuni Quvayt terma jamoasini yengsa, o'z guruhida 3-o'rinni olardi.

2005 yilda germaniyalik Xayns-Yurgen Gyode O'zbekiston terma jamoasiga bosh murabbiy edi. Terma jamoamizning o'yin natijalari juda yomon bo'lganligi uchun 2005 yil iyunida X-Yu. Gyode bilan tuzilgan shartnoma to'xtatildi va u Germaniyaga jo'nab ketdi. Bir oy davomida Ravshan Haydarov terma jamoamizning bosh murabbiyi bo'lib ishladi. 2005 yil iyul oxirida O'zbekiston futbol terma jamoasiga angliyalik 58 yoshli Bobbi Hougton bosh murabbiy etib tayinlandi [81].

2005 yil 17 avgust kuni Toshkentda 50 ming tomoshabin (ular orasida men ham bor edim) ko'z o'ngida O'zbekiston – Quvayt terma jamoalarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. O'yinning 1-taymida quvaytliklar mamlakatimiz terma jamoasi darvozasiga ikkita javobsiz to'p kiritishdi.

Birinchi taym oxirrog'ida, 41-daqiqada O'zbekiston terma jamoasi hujumchisi Aleksandr Geynrix quvaytliklar jarima maydoniga yugurib kirib bordi. To'p bir necha qadam nariroqda bo'lsa-da, Geynrix yiqilib tushdi. Shunda malayziyalik hakam 11 metrlik jarima to'pi urilishini belgiladi (mening shaxsiy fikri bo'yicha, o'sha holatda 11-metrlik jarima to'pi belgilashga sabab yo'q edi).

Ikkinchi taymda O'zbekiston terma jamoasi o'yinchisi Maksim Shatskix 62-daqiqada to'pni boshi bilan urib darvozaga kiritdi va hisob 2:2 bo'ldi.

Qizig'i shundaki, quvaytlik hujumchi Bashar Abdulaziz O'zbekiston terma jamoasi jarima maydoniga yugurib kirib yiqilib tushganida (xuddi A.Geynrixga o'xshab, lekin to'p quvaytlik futbolchi yaqinida edi) hakam 11 metrlik jarima to'pini belgilamadi, aksincha unga simulyatsiya qilganlikda ayblab, unga sariq kartochka ko'rsatdi (lot. simulatio mug'ambirlik – mug'ambirlik bilan o'zini kasallik holatiga solish [8, 9-j., 645-b.]).

Uchinchi to'pni Anvar Soliyev kiritdi va 3:2 hisobi bilan O'zbekiston terma jamoasi g'alaba qozondi.

Hozirgina yozgan ikkala penalti holatiga doir fikrlarni [82]-maqoladan keltirib o'tay.

“Robert Xougton bilan uyushtirilgan suhbatimiz yakuniga yetgach, terma jamoamiz murabbiyiga mavzuga aloqador bo'lmagan bitta savol bilan muroaat qildik:

“Kecha matbuot anjumanida sizdan Geynrix penalti ishlagan vaziyat haqida fikr so'ralganida, ancha uzoqda turganingiz bois vaziyatni yaxshi ko'ra olmaganingizni aytgandingiz. Xo'sh, kechadan buyon bu vaziyatni o'rganish uchun vaqt topa oldingizmi?

- Yo'q, hali sinchiklab tomosha qilishga fursat bo'lmadi, – ammo CNN o'sha vaziyatni namoyish etganini tasodifan ko'rib qoldim. Penalti bo'lmagan shekilli?” [82]

“Nimaga bu mavzuga uzoq to'xtalib qoldi ekan, deb o'ylayotgandirsiz, balki? Gap shundaki, biz g'olib bo'lganimiz uchun esga olmayotgan o'sha vaziyat bitta tanishimning gapiga qaraganda arab kanallarida kechasi bilan bir necha bor, sekinlashtirilgan shaklda namoyish etilibdi. Shu bilan birga Bashar Abdulaziz jarima maydonimizga yorib kirib yiqilgan vaziyat, hakamning aybini yanada kattalashtirib ko'rsatish maqsadida yana bitta mavzu o'laroq, ko'tarilibdi.” [82]

“Futboldagi ayyorliklar vatani Italiyadir, degan Quvayt bosh murabbiyi Mixay Stoykitse esa matbuot anjumanida Geynrix yiqilgan vaziyat xususida to'xtalmadi ham. Aksincha, Xougtonni tabriklab, qo'lini siqdi. Rostdan ham insofli murabbiy ekan ruminiyalik mutaxassis.” [82]

Abu Manhaq Fig'oniy taxallusi bilan hajviy g'azallar bitgan shoir Bahrom Ro'zimurodovning o'zbek futboliga bag'ishlab 2003 yildagi she'rini keltirish o'rinlidir [83].

Hech taraqqiy etmadi-da ayo do'stlar bizda pitbo'l,
Puling bo'lsa sotib olsang “Paxtakor”ga Pigu, Rao'l.

Eron bizdi kaput qildi, yutib ketdi hatto Taylon,
Toqtikani rasvo qilding Viktor, endi mayli sog' o'l.

O'yin sharhlab sasi chiqmas gahe ukam Xayrullaning,
Nistirupga achinadur sim-sim yig'lar – ro'molcha ho'l.

**Balki navbat yetib keldi endi ako Birodarg'a,
Oltmish yoshga kirg'onida o'ylab topar biron bir yo'l.**

**Kulbangdan chiq, base Fig'on, istadion sori borg'il,
Uch-to'rt do'llur bersang balkim urib berur sudya bir go'l. [83]**

Shoir B.Rozimurodov tilga olib o'tgan jurnalist, ajoyib futbol sharhlovchisi, shoir Xayrulla Hamidov tarjimai holi va 2010 yil 27 may kuni olti yilga qamalganiga doir qo'shimcha ma'lumot.

“Xayrullo Hamidov 1975 yilda (7 dekabrda, A.Sh.) Toshkent shahrida tavallud topgan. O'zbekiston Milliy Universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan.

Ijodiy faoliyatini “Turkiston” ro'znomasida boshlagan, keyinroq O'zbekiston televideniyesida sport sharhlovchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

“Futbol plyus”, “Futbol ichida, futbol atrofida” (FIFA), “Interfutbol”, “Yevrofutbol”, “Kuchli beshlik” hamda “Futbol mundial” nomli mualliflik va boshqa ko'rsatuvlari sport, xususan, futbol ishqibozlari orasida shuhrat qozongan.

So'nggi paytlarda diniy-ma'rifiy mavzudagi chiqishlari bilan tanilgan. Diniy-ma'rifiy mavzudagi “Xolislik sari” radiodasturlari butun mintaqa davlatlarida mashhur bo'lgan” [84]

“2010 yil 27 may kuni Toshkent viloyat Jinoyat ishlari bo'yicha sudi diniy-ma'rifiy dasturlari bilan O'zbekiston va mintaqada tanilgan jurnalist Xayrulla Hamidovni “Jihadchilar” diniy-ekstremistik guruhiga aloqadorlikda aybdor deb topdi va uni 6 yilga ozodlikdan mahrum qildi.

Hakam Ixtiyor Doniyorov raisligida o'tgan mahkama jarayonida Xayrulla Hamidov bilan birga “Jihadchilar” guruhiga aloqadorlikda ayblangan yana 18 sudlanuvchi ustidan hukm o'qildi.

Bu haqda O'zbekiston mustaqil huquq himoyachilari tashabbus guruhi rahbari Sur'at Ikromov ma'lum qildi:

- Xayrullaning sudiga bugun televideniye kelib kameraga olgan ekan. Bugun hukm o'qildi. Demak, to'rt kishiga olti yil umumiy tartibdagi qamoq jazosi berilgan. Shularning ichida Xayrulla ham bor. Ota-bola Qayumovlarga to'rt yil, qolgan 13 kishiga uch yilga shartli jazo berilib, hammasi o'sha kuni sud zalidan ozod qilingan. Xayrullaning familiyasi birinchi turgan u yerda. Birortasi hech qanaqa jinoyat sodir qilganini bo'yniga olmagan. Sud jarayonida hech qanaqa isbot-dalillar topilmagan” [85]

Xayrulla Hamidov shoir hamdir. U yozgan “O'zbeklarga nima bo'layapti?” nomli ajoyib she'rini va uning fotosuratini kitobim ilovasida keltirdim. (2010 yil 14 iyul, A.Sh.)

Men 2011 yilda Xayrulla Hamidovni himoya qilib uchta maqola yozgandim ([86]-[88]-maqolalarga qarang).

14. O'ZBEKISTON – BAHRAYN UCHRASHUVIDAGI G'ALABA, O'FF RAHBARIYATI FIFAgA RADDIYANOMA YOZISHI VA TERMA JAMOAMIZ 2006 YILGI JAHON CHEMPIONATI FINAL BOSQICHIDA QATNASHISHDAN MAHRUM BO'LISHI

2005 yil 3 sentyabr kuni Germaniyada 2006 yil yozida bo'ladigan 18-Jahon chempionatiga beriladigan yo'llanma uchun navbatdagi o'yin – O'zbekiston – Bahrayn terma jamoalari o'rtasida Toshkentda bo'lib

o'tdi. Terma jamoamiz angliyalik murabbiy Robert Xougton rahbarligida ancha jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. O'yinning 12-daqiqasida Mirjalol Qosimov birinchi golni kiritdi.

38-daqiqada Bahrayn himoyachisi o'z jarima maydonida o'yin qoidasini buzganligi uchun yaponiyalik hakam 11 metrlik jarima to'pi belgiladi. Jarima to'pini futbolchimiz Server Jeparov darvozaga yo'lladi. Lekin hakam buni hisoblamadi va O'zbekiston terma jamoasi tarafga erkin to'p tepilishi kerakligini ko'rsatdi. Bu bilan hakam qo'pol xatoga yo'l qo'ydi. O'yin oxir-oqibat 1:0 hisobi bilan O'zbekiston terma jamoasi foydasiga hal bo'ldi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi rahbariyati FIFAga raddiyanoma yozib, Bahraynga 3:0 hisobda mag'lubiyat yozishni talab qildi. Bu haqda O'FF terma jamoalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Alisher Nikimbayev 2005 yil 7 sentyabr kuni Toshkentda "Bunyodkor" yoshlar klubidagi matbuot anjumanida jumladan bunday dedi.

"FIFA mazkur uchrashuv yuzasidan 3:0 hisobni bizning foydamizga hal qilib bersa eng haqqoniy qaror bo'lardi." [89]

FIFA Ustavida o'yin qoidalarining buzilishi oqibatida jamoaga 3:0 hisobi bilan mag'lubiyat yozilsin, degan jumlar umuman yo'q. Faqat o'yin qaytadan o'tkazilishi haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bu bilan O'FF rahbariyati, eng avvalo O'FF prezidenti, general-polkovnik Z.Almatov FIFA Ustavini yaxshi bilmasliklarini ko'rsatdi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi rahbariyatidagi ba'zi bir mahmadanalar, masalan Alisher Nikimbayev, quyidagi talabni qo'ygan edilar. Ular bu gaplarni televideniye orqali aytishdi, buni millionlab futbol ishqibozlari, jumladan men ham ko'rgan edim.

"Xabaringiz bor, 2005 yil 10 sentyabr kuni Robotda (Marokash) FIFAning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Vitse-prezidentimiz OFK rahbariyati bilan Marokashga yo'l oladi. Ushbu yig'ilishda aynan shu masala ham ko'tariladi. Agarda bizning muammoimizni ijobiy hal qilib berishmasa, unda FIFAning kongressiga murojaat qilamiz. Bu tashkilotdan ham bir jo'yali javob olmasak, Jahon sport arbitraj sudiga arz qilishimiz mumkin. Bizning asosiy maqsadimiz 1:0 hisobini saqlab qolgan holda o'yinni penaltini qayta tepishdan boshlashni so'rashdan iborat va shuni yuqori tashkilotlardan talab qilib qolamiz." [89]

"Yaponiyalik hakam Toshimitsu Yoshida o'ta qo'pol xatoga yo'l qo'ydi. O'zbekiston avvaliga haqqoniy penaltini tepishdan mahrum qilindi. Keyin esa FIFA ularni o'yinni qayta o'tkazishga majbur qildi. Ushbu hakam nomi hozirda OFK-ning sara hakamlari ro'yxatidan o'chirilgan. U endi OFK va FIFAning muhim uchrashuvlarini boshqara olmaydi. O'zbekistonliklar avvaliga FIFAdan ularga 3:0 hisobidagi g'alaba yozilishini talab qildilar. Lekin, bu narsa reglamentda yo'q. FIFAning qaroridan keyin esa o'yinni penalti tepishdan qayta boshlanishini talab qildilar. Ammo, bu borada ham qonun jim. Agar endi O'zbekiston 3:0 yoki 4:0 hisobida g'alaba qozonsa nima bo'ladi? Menimcha, bu to'g'ri emas", – dedi bin Hammam.

FIFA prezidenti Zep Blatter esa qayta o'tkazilgan o'yinlar avval ham bo'lganini aytib, "Qaror FIFAning ijroiyo qo'mitasi tomonidan tasdiqlandi. Biz bu haqda O'zbekistonga xabar berganmiz", – dedi." [90]

Umuman, FIFAning 100 yildan ortiq tarixida biror marta g'alaba qilgan jamoa raddiya yozmagan edi. O'zbekiston terma jamoasi bahraynliklarni 1:0 hisobida yenggan bo'lsa-da, O'zbekiston futbol federatsiyasi (O'FF) rahbariyati FIFAga raddiyanoma yozdi. Albatta, ushbu Raddiyanomani yozish chog'ida O'FF prezidenti, general-polkovnik Z.Almatovdan ruxsat olishgan. Uning ruxsatisiz, uning ijozatisiz bunday raddiyanoma yozishga kimning haddi sig'ardi. General-polkovnik Zokirjon Almatov janoblari futbolda ham militsiyaviy buyruq orqali boshqarish mumkin, deb o'ylagandir. Ammo futbol – demokratik o'yindir! Unda FIFA Ustavida yozilgan qoidalargagina amal qilinadi.

Raddiyanomaning yozilishida va so'ngra uni O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida himoya qilish borasida O'zbekiston Futbol Federatsiyasi bo'lim mudiri, mahmadana Alisher Nikimbayevning ham katta hissasi bor.

Ushbu Raddiyanoma va futbol amaldorlarining savodsizlarcha harakati haqida O'zbekiston Davlat fizkultura instituti futbol kafedrasining professori, taniqli futbol mutaxassisi, futbol haqida sakkizta kitob yozgan, ulardan uchta ingliz va frantsuz tillariga tarjima qilingan, 1994 yilgi Xirosimada o'tgan 12-Osiyo o'yinlarida O'zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi bo'lib, terma jamoamiz Osiyo qit'asining chempioni bo'lishida katta hissa qo'shgan, FIFA va OFK instruktoriga hamda a'zosi Rustam Akramovich Akromovning fikrlari quyidagichadir.

“Albatta, men bunday qarorga qo'shilmayman. Aytingchi, shikoyat arizasi (raddiyanoma, A.Sh.) kimning tashabbuskorligi bilan bo'ldi? Axir Toshkent matchining komissari arbitrga (hakamga) past baho berdiku. U jazolandi. “Bahrayn o'yinchilariga texnik mag'lubiyat yozish” (jamoaning nima daxli bor?), “38-daqiqadan boshlab qaytadan o'ynalishi” haqida (bu reglamentda yo'q) – bu futbol amaldorlarining savodsizligini bekitish uchun “tutun parda”dir. Kim hammadan ko'proq “O'g'rini ushla” deb qichqirmoqda? Umuman, rasmiy e'tiroz matnining aslini kim ko'rgan, u qanday ifodalangan? Sir. Biroq, FIFA bizning futbolchilarga yanada kattaroq hisob bilan yutish imkonini berdi. O'z maydonimizda ikkita yoki uchta to'p kirita olmaslik darajasida bahraynliklar kuchli emas.” [91]

Jurnalist Timur Nizayev futbol bo'yicha bir necha maqolalar muallifi ([27]-maqolaga qarang), jumladan [89]-maqolaning muallifidir. U bu haqda va mahmadana Alisher Nikimbayev to'g'risida bunday yozgan.

“Aytganday, futboldek qudratli sport tashkilotining jarchisi sifatida negadir faqat O'zbekiston termasining bo'lim rahbari Alisher Nikimbayev so'zlamogda. Axir bu ishda u mutaxassis emasku. Katta futbolda o'ynamagan, jamoalarni mashq qildirmagan, hatto maxsus ma'lumotga (diplomga, A.Sh.) ega emas. U o'z harakatlarida ko'proq imidjmaykerga o'xshaydi. U professionallarga pand-nasihat qilayotgan futbol diletantidir (frans. dilettante havaskor – birorta san'at yo fan (yoki sport, A.Sh.) sohasi bilan shug'ullanayotgan, lekin bu sohani puxta bilish uchun zarur tayyorgarlikdan o'tmagan (bilimlarga ega bo'lmagan, A.Sh.) havaskor; fan yo san'atning (yoki sportning, A.Sh.) birorta sohasini yuzaki biladigan havaskor [7, 214-b.]). Aynan u ommaviy axborot vositalarida “Jamoamizning omadi kelmadi, xolos” deb o'jarlik bilan da'vo qilmoqda.” [89]

Men bu gaplarni 2006 yilda yozgan edim. A.Nikimbayev 2009 yil yanvar oyida jurnalistlarga bergan intervyusida bunday degandi.

“- Alisher aka, sizning mutaxassisligingiz tilga olinganda Bahrayn masalasi alohida eslanadi. O'sha voqeani yana bir bora xotirlasak, nima dedingiz?

- Men bu gapni ko'p joyda aytdim. O'sha kuni FIFAgaga yozilgan xatni men o'ylab topmagandim. Uning muallifi ham men emasdim. Men faqatgina o'sha maktubni yozganman. Ishonasizmi, yo'qmi, o'shanda men eng ko'p qarshilik ko'rsatganman. Rossiya Futbol Uyushmasiga telefon qilib, ular bilan maslahatlashganimda ham, bu ish foyda bermasligini aytib o'tishgandi. Men har qancha oyog'imni tirab turib olmay, ko'pchilik o'sha xatni yozishimiz zarurligini ta'kidlashdi. Men yuqorida aytib o'tganimdek, harbiy xizmatga borganman. Itoat nimaligini juda yaxshi bilaman. Men o'sha kuni rahbarlarga itoat qilgandim xolos. Keyin nima uchun o'sha maktubni himoya qildingiz, desangiz, shunday deyman: Men federatsiya manfaati uchun shu gaplarni gapirishga majbur edim. Men istamagandim, lekin ishlayotgan joyimdagi qoidaga bo'ysundim” [90]

Agar Alisher Nikimbayevning futbol sohasida savodi va sof vijdoni bo'lganida rahbarlarga tushuntirish xatini yozardi: unda FIFA Ustavi bandlarini ko'rsatib, bu harakatlar o'zbek futbolini uchun befoyda va turgan-bitgani zarar ekanini asoslab berardi. Shundan keyin ham buyruq o'z kuchida qolgan taqdirda, u yillar o'tib bo'lsada o'sha yozgan xat matnini jurnalistlarga berishi hamda oshkor qilishi mumkin bo'lardi. Lekin u

“Sallasini keltir, desa, kallasini keltiradigan” kishilar toifasidan bo’lganligi sababli ushbu savodsizlarcha yozilgan xat matnini tayyorladi, FIFAgga jo’natdi va o’zbek futboliga o’zbek futboliga katta zarar yetkazdi. (A.Sh., 2010 yil 10 avgust)

Oqibatda FIFA qarori bilan O’zbekiston terma jamoasining 2005 yil 3 sentyabr kuni 1:0 hisobi bilan erishgan g’alabasi bekor qilindi va 7 sentyabrda Bahrayn poytaxti – Manama shahridagi 2-o’yin o’tkazilmaydigan bo’ldi. FIFA ikkala o’yinni 4 va 8 oktyabr kunlari qaytadan o’tkazish haqida qaror qabul qildi. O’zbekiston terma jamoasi 2005 yil 4 sentyabr kuni Manamaga samolyotda borishib, 7 sentyabr o’yiniga tayyorlanishayotgan edi. FIFA qarori 4 sentyabr kuni ma’lum bo’lgan, 5 sentyabr kuni O’zbekiston terma jamoasi rahbariyati futbolchilarimizga aytdi. Futbolchilarimiz 5 sentyabr kuni Toshkentga qaytib kelishdi. [92]

Shunday qilib, 2005 yil 8 oktyabr kuni Toshkentda O’zbekiston va Bahrayn futbol terma jamoalarining takroriy uchrashuvi bo’ldi. Hisob 1:1.

2005 yil 12 oktyabr kuni Manama shahridagi javob uchrashuvida 0:0 hisobi qayd etildi. Natijada Bahrayn terma jamoasi raqib maydonida kiritgan goli hisobiga pley-off o’yinining birinchi bosqichida g’olib bo’ldi.

O’zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi Robert (Bob) Xougton O’zbekistonni tark etdi. U hozir – 2006 yil avgust oyida Hindiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi bo’lib ishlamoqda [92].

FIFA reglamenti bo’yicha 2006 yilgi Jahon chempionatiga 32 ta yo’llanmadan bittasi KONKAKAF (Markaziy Amerika)ning to’rtinchi jamoasi – Trinidad va Tobago hamda Osiyoning beshinchi jamoasi – Bahrayn o’rtasidagi uchrashuvda hal qilinishi kerak edi. Dastlabki uchrashuv 2005 yil 8 noyabr kuni Trinidad va Tobago poytaxti – Port-of-Speynda bo’ldi va 1:1 hisobi qayd etildi. Javob uchrashuvi 12 noyabr kuni Manama (Bahrayn)da bo’ldi. Trinidad va Tobago o’yinchisi Dennis Lourens 50-daqiqada gol kiritdi. O’yin 1:0 hisobi bilan yakunlandi. Trinidad va Tobago terma jamoasi 2006 yilgi 18-jahon chempionatiga yo’llanmani qo’lga kiritdi. [91]

Agar general-polkovnik Zokirjon Almatov rahbarligidagi O’zbekiston futbol federatsiyasi rahbariyati O’zbekiston-Bahrayn terma jamoalarining 2005 yil 3 sentyabr uchrashuviga doir raddiyanomani yozmaganida, O’zbekiston terma jamoasi Bahrayn to’sig’idan ham, Trinidad va Tobago to’sig’idan ham o’ta olish ehtimoli juda katta edi.

Shu bilan birga FIFA qaroriga ko’ra 2006 yilgi 18-jahon chempionatiga chiqqan har bir terma jamoaga 6 million AQSh dollari miqdorida mukofot berildi [92]. O’FF rahbariyati o’zining o’rinsiz, g’o’r, xom shikoyati bilan O’zbekiston futboliga 6 million (!) dollarlik, ya’ni 7,5 milliard so’mlik iqtisodiy zarar ham yetkazdi!

Eslaylik: Quvayt terma jamoasi rahbariyati nohaq 11-metrlik jarima to’pi belgilanganiga va 2:3 hisobida mag’lubiyatga uchraganlariga qaramay FIFAgga shikoyat yozishmagandi. Chunki bunday holda uchrashuv qaytadan o’tkazilmaydi. Faqat xatoga yo’l qo’ygan hakam jazolanadi.

O’zbekiston terma jamoasi bahraynliklar ustidan 1:0 hisobida g’alaba qozonsa-da, O’FF rahbariyati FIFAgga o’zbekistonlik futbol ishqibozlarini g’ashini keltiradigan raddiyanomani yozdi. Odatda shikoyatni faqat yutqizgan jamoa yozadi. O’zbekiston futbol federatsiyasi rahbariyati, avvalambor general-polkovnik Z.Almatov, mahmadana A.Nikimbayev va boshqalar terma jamoamiz yutsa-da shikoyat yozishdi. Bu bilan FIFA tarixida, Jahon chempionatlari tarixida shikoyat yozgan g’olib jamoa sifatida yakkayu yagona fakt bo’lib qoldi.

15. FUTBOL TERMA JAMOAMIZ BOSH MURABBIYI V.NEPOMNYASHIY HAQIDA MA’LUMOT VA JAMOANING 2006 YILDAGI AHVOLI

Rossiyalik futbol mutaxassisi Valeriy Nepomnyashiy 2006 yil 20 yanvar kuni O'zbekiston futbol terma jamoasiga bosh murabbiy bo'lib ishlash uchun ikki yillik shartnomaga imzo chekdi [95].

“Nepomnyashiyning tarjimai holidan: 1943 yil 7 avgustda tug'ilgan. To'p surgan jamoalari: SKIF (Ashxobod, 1961-1965), “Spartak” (Samarqand, 1965-1967).

Murabbiylik faoliyati – Turkmaniston sport qo'mitasi futbol maktablarining katta murabbiyi (1970-78, 1983-88), “Stroitel” (Ashxobod, 1979, 1982-1983), Kamerun milliy terma jamoasining bosh murabbiyi (1988 yilning oktyabridan 1990 yilning noyabrigacha), “Genchler birligi” (Turkiya, 1992-1993), “Ankaragyuyju” (Turkiya, 1993-1994), “Yukang” (Janubiy Koreya, 1994-1998), “Sanfrechche Xirosima” (Yaponiya, 2001-2002), “Shenyan” (Xitoy, 2000), “Shanduna” (Xitoy, 2002-2003), “Shanxay Shenxua” (Xitoy, 2004-2005).

Murabbiylikdagi muvaffaqiyatlari – Kamerun milliy terma jamoasi o'z tarixida ilk bor Jahon chempionati-90 da chorak finalgacha ko'tarildi, “Yakang” 1996 yili Janubiy Koreya Kubogini qo'lga kiritdi, “Xirosima” o'z tarixida birinchi marta mamlakat chempionatining bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Mukofotlari – Faxriy legion (Kamerun, 1990), “Janubiy Koreya futbolining rivojiga qo'shgan hissasi uchun” mukofoti laureati (1996), Xitoyning 2000 yildagi eng yaxshi murabbiyi.

Taniqli mutaxassis Valeriy Nepomnyashiy mamlakat milliy terma jamoamizda ishlash uchun ikki yillik shartnomaga (2006 yil 20 yanvar kuni, A.Sh.) imzo chekdi.” [95]

V.Nepomnyashiy 2005 yil noyabrigacha Xitoyning “Shanxay Shenxua” klubining murabbiyi edi. Bu klub Xitoy chempionatida 2-o'rinni olgach, klub rahbariyati uning bilan tuzilgan shartnomani uzaytirmaslikka, ya'ni uning javobini berib yuborishga qaror qildi.

“Xitoy chempionatining 2005 yilgi kumush medallari sovrindori – “Shanxay Shenxua” klubining e'lon qilishicha, jamoaning rossiyalik murabbiyi Valeriy Nepomnyashiy bilan shartnoma uzaytirilmaydi. Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) rasmiy saytining xabar berishicha, bo'sh (vakant) lavozim 2003 yilda “Shenxua”ni chempionlikka olib kelgan Vu Jinguyga taklif etiladi.” [96]

2006 yil 20 yanvarigacha O'zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi bo'lib ishlagan Ravshan Haydarov 2006 yil sentabridan boshlab “Paxtakor” futbol klubining bosh murabbiyi bo'lib ishlamoqda.

Ma'lumki, 2007 yil 7-29 iyul kunlari Osiyo Kubogi–2007 final bosqichi Indoneziya, Malayziya, Tailand va Vyetnamda bo'lib o'tadi. Osiyo qit'asidagi mamlakatlar futbol jamoalari 6 guruhga bo'linib, 2006 yil 22 fevraldan 15 noyabrga qadar saralash bahslarini olib bordilar. O'zbekiston terma jamoasi “F” guruhida Qatar, Gonkong va Bangladesh terma jamoalari bilan o'ynadi. O'yin natijalari quyidagicha bo'ldi (bu haqda men [97]-maqolamda ham yozgandim, bu yerda qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tay).

- 2006 yil 22 fevral. 1. O'zbekiston – Bangladesh – 5:0.
2. Gonkong – Qatar – 0:3. [98]
- 1 mart. 1. Bangladesh – Gonkong – 0:1.
2. Qatar – O'zbekiston – 2:1. [99]
- 16 avgust. 1. O'zbekiston – Gonkong – 2:2.
2. Bangladesh – Qatar – 1:4. [100]
- 6 sentabr. 1. Qatar – Bangladesh – 3:0.
2. Gonkong – O'zbekiston – 0:0. [101]
- 11 oktabr. 1. Bangladesh – O'zbekiston – 0:4.
2. Qatar – Gonkong – 2:0. [102]
- 15 noyabr. 1. O'zbekiston – Qatar – 2:0.

“F” GURUHI [103]

Jamoa nomi	O'	Yu	D	M	T-N	O
Qatar	6	5	0	1	14 – 4	15
O'zbekiston	6	3	2	1	14 – 4	11
Gonkong	6	2	2	2	5 – 7	8
Bangladesh	6	0	0	6	1 – 19	0

2006 yil 1 mart kuni Qatar – O'zbekiston matchi 2:1 hisobida Qatar foydasiga hal bo'lgandi. Kichik izoh: uchala to'pni ham qatarliklar darvozalarga kiritdilar, ya'ni o'zbekistonlik futbolchilar birorta gol ura olmadi. Qatarlik himoyachi Bilol Rajab 20-daqiqada adashib o'z mamlakati terma jamoasi darvozasiga gol urdi, buni futbolda avtogol deydilar. [89]

Shunday qilib, O'zbekiston terma jamoasi Gonkongdek bo'sh o'ynaydigan terma jamoa bilan ikki marta durang o'ynab, zo'r-bazo'r “F” guruhida 2-o'rinni oldi va Osiyo Kubogi-2007 ga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

“Zo'r-bazo'r” degan so'zimga izoh berib o'tay. Agar Gonkong terma jamoasi O'zbekiston terma jamoasi darvozasiga bitta ziyodroq to'p kiritganida, o'sha o'yin hisobidan 3 ochko olgan bo'lardi. Ya'ni Gonkongning ochkolariga yana 2 ochko qo'shildilar, O'zbekiston hisobida esa 1 ochko kamayardi. Natijada yakuniy jadvalda O'zbekiston va Gonkong terma jamoalarining to'plagan ochkolari teng – 10 tadan bo'lardi. Bunday holda Reglament bo'yicha birinchi navbatda har bir jamoaning yutuqlar soni e'tiborga olinadi. Bu borada Gonkong bitta yutuqqa ko'proq erishgan, deb Osiyo Kubogi-2007 ga yo'llanmani ular olgan bo'lardi. Demak, Gonkong O'zbekiston darvozasiga atigi yana bitta gol urganida, bizning terma jamoa final bosqichiga chiqa olmasdi.

Barcha muammo – 2007 yil 7-29 iyulda bo'lib o'tadigan final bosqichida 16 terma jamoa orasida g'olib chiqishdadir. Lekin bosh murabbiy Valeriy Nepomnyashiy rahbarligida terma jamoamiz hozirgi salbiy, bo'sh o'yini bilan final bosqichida g'olib bo'lishi u yoqda tursin, hatto o'zining to'rtligidan keyingi bosqichga chiqa olmay eson-omongina mamlakatimizga qaytib kelsa kerak.

Shuni bilganday, V.Nepomnyashiy 2006 yil 17 noyabr kuni “sog'ligi tufayli” iste'fo berdi va Moskvaga jo'nab ketdi [104]. V.Nepomnyashiy iste'fosiga o'z munosabatim haqida 18-bandda, ya'ni xulosalar qismida qisqacha yozaman.

V.Nepomnyashiy bugungi kunda – 2010 yil iyulida Rossiyaning Tomsk shahridagi “Tom” futbol jamoasining bosh murabbiyidir [105].

16. PREZIDENT I.KARIMOVNING 2006 YILGI “O'ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA”GI QARORI VA UNGA NISBATAN TANQIDIY FIKRLARIM

2006 yil 2 may kuni O'zR Prezidenti I.Karimovning “O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori e'lon qilindi. Avval Qaror matnini keltirib o'tsam.

“Mustaqillik yillarida qabul qilingan futbolni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar O'zbekiston futbol jamoalariga xalqaro maydonda sezilarli yutuqlarga erishish imkonini berdi. O'zbekiston yoshlar terma jamoasi “Paxtakor” (Toshkent), “Neftchi” (Farg'ona), “Nasaf” (Qarshi) klublari shular jumlasidandir.

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga sport inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturining amalga oshirilishi tufayli respublikada har yili zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan stadionlar soni ko'paymoqda. Eng qobiliyatli yosh sportchilarni aniqlash va kelgusida ulardan yuqori malakali futbolchilarni tarbiyalash imkonini beradigan iqtidorli sportchi yoshlarni qidirib topish va tayyorlash tizimi tobora takomillashtirilmqda.

Shu bilan birga, keyingi yillarda milliy chempionat nufuzini va maqomini oshirish, yuqori klassli futbolchilarni va sport zahirasini tayyorlashni tashkil etish va ta'minot ishlari susaydi, O'zbekiston futbol jamoalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatimiz homiylari va donorlarining faolligi pasaydi. "Do'stlik" (Toshkent viloyati) va MHSK (Markaziy harbiy sport klubi, A.Sh.) (Toshkent) futbol klublari faoliyatini to'xtatdi. Ko'p yillik tarixga ega bo'lgan "Qo'qon-1912" (Qo'qon, A.Sh.), "Surxon" (Termiz), "Zarafshon" (Navoiy) futbol jamoalari mashhurligini yo'qotmoqda.

Mazkur kamchiliklar hozirgi vaqtda yetarlicha moddiy-texnika bazasiga, mablag' bilan ta'minlash manbalariga, shuningdek, malakali xodimlarga ega bo'lmagan bir qator viloyat futbol federatsiyalari ishlarining sustligi oqibatidir. Viloyatlarda bolalar va o'smirlar jamoalari o'rtasida o'quv mashg'ulotlari jarayonining va musobaqalarning past saviyada tashkil etilayotganligi tegishli futbol federatsiyalari ishlarining sustligi, ayrim mintaqalarda esa – ularning ishdan o'zini chetga olishlari hamda bunga viloyat, shahar hokimliklari tomonidan e'tibor berilmayotgani bilan bevosita bog'liqdir.

Futbolni rivojlantirish uchun yordam ko'rsatish va zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan futbol klublarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, stadionlarni FIFA talablariga muvofiqlashtirish, O'zbekiston Futbol federatsiyasini va futbol klublarini o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga va o'z xarajatlarini o'zi qoplashga o'tkazish, jahon va Osiyo qit'asi chempionatlarida, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilishga qodir bo'lgan yuqori klassli futbolchilar tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, mamlakatimiz futbolining ommaviylik darajasini oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Futbol federatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining: faoliyat ko'rsatayotgan futbol klublarini qayta tashkil etish yo'li bilan mulkchilikning turli shakllaridagi professional futbol klublarini qayta tashkil etish to'g'risidagi; zaxira tayyorlash uchun professional futbol klublarini tashkil etish to'g'risidagi; zaxira tayyorlash uchun professional futbol klublarining o'z tuzilmasiga bolalar-o'smirlar futbol maktablarini kiritishni majburiy deb hisoblash haqidagi; futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabini tashkil etish, shuningdek, Toshkent shahrida Rossiya trenerlar oliy maktabi filialini ochish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi, O'zbekiston Futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi filiallari bilan birga tashkil qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. O'zbekiston Futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi O'zbekiston Futbol Federatsiyasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, professional futbol klublari tomonidan tashkil etilishi va u quyidagilarni ta'minlashi lozimligi ma'lumot uchun qabul qilinsin: mamlakatimiz ommaviy va professional futbolini rivojlantirishga, professional futbol klublarini tashkil etish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga har tomonlama ko'maklashish; futbol jamoalarining alohida namuna ko'rsatgan iqtidorli o'yinchilarini moddiy rag'batlantirish va taqdirlash tizimini yaratish, qobiliyatli yoshlarni futbolga jalb etish, futbolchilar yangi avlodining ishonchli zahirasini shakllantirish; tajriba almashishda hamda O'zbekiston futbolchilari, trenerlar va hakamlar tarkibining professional mahoratini oshirishda chet el futbol klublari va federatsiyalari bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Yuqori klassli futbolchilar va sport zahirasini tayyorlashning samarali metodlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar o'tkazishda ko'maklashish;

Mamlakatimiz futbolini rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy homiylarni, manfaatdor korxonalar va jamoat tashkilotlarini hamkorlik qilishga jalb etish.

3. Belgilansinki, professional futbol klubini tashkil qilish mahalliy davlat hokimiyati organlari, sport tashkilotlari, shuningdek, tijorat tuzilmalari, yuridik va jismoniy shaxslardan iborat muassislar tomonidan ularning shakllantirayotgan klublar tashkiliy va moliyaviy masalalarini hal etishdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi: Futbol bo'yicha oliy sport mahorati respublika maktabini, uni moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda, O'zbekiston Futbol Federatsiyasi tasarrufiga o'tkazilsin; bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasiga bolalar-o'smirlar futbol maktablarining ishlarini rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini yaxshilash yuzasidan takliflar kiritsin; O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston Futbol Federatsiyasi bilan birgalikda bir oy muddatda Futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabini tashkil etsin.

5. Quyidagilar belgilansin: Futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabi xo'jalik hisobi va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash asosida Futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi hamda ularning malakasini oshiradi; futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Futbol Federatsiyasi va professional klublarning buyurtmanomalari bo'yicha amalga oshiriladi; futbol bo'yicha trenerlar va hakamlar respublika maktabining ta'lim jarayonida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining kadrlar, ilmiy-metodik va resurs salohiyatidan to'liq foydalaniladi.

6. Davlat mulki qo'mitasi, Toshkent shahar hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda "Paxtakor" OAJ (ochiq aksionerlik jamiyati, A.Sh.)ning erkin sotish uchun mo'ljallangan aksiyalarning 49 foizini "Paxtakor" futbol klubi" qo'shma korxonasiga uning tomonidan stadionni hamda kompleksning boshqa sport inshootlarini rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha aniq investitsiya majburiyatlarini qabul qilgan holda belgilangan tartibda topshirish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

7. Professional klublar hamda Futbol Federatsiyasi va uning hududiy bo'linmalari 2006 yil 1 apreldan boshlab uch yil muddatga: respublikada ishlab chiqarilmaydigan, stadionlarni rekonstruktsiya qilish va futbol klublarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan chetdan keltiriladigan jihozlar, asbob-uskunalar hamda materiallar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari); soliqlar va yig'imlarning barcha turlarini to'lashdan (yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari) bo'lmaydigan mablag'larni futbolni rivojlantirishga maqsadli yo'naltirgan holda ozod qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirsin.

8. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi: O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda mamlakatda ommaviy futbol harakati rivojlanishini, eng yaxshi futbol klublari, sport maktablari, jismoniy tarbiya jamoalari, mutaxassislar va trenerlar faoliyatini muntazam ravishda va keng yoritish, rasmiy futbol o'yinlari o'tkazilishini targ'ib etsin va reklama qilsin. O'zbekiston Futbol Federatsiyasi bilan birgalikda bir oy muddatda O'zbekiston chempionati hamda O'zbekiston terma jamoalari o'yinlarini translyatsiya qilish uchun televizion huquqlarga ega bo'lish yuzasidan shartnoma tuzish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirliklar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov.
Toshkent shahri, 2006 yil 1 may." [106]

Endi ba'zi bir tanqidiy fikrlarimni yozay. Prezident I.Karimov O'zbekistonga rahbarlik qilayotganiga 17 yildan ko'proq vaqt o'tdi, mamlakatimiz mustaqillikka erishganiga ham 15 yildan oshdi. Lekin hamon O'zbekiston Rossiyaning vassal davlati bo'lib qolmoqda (lot. vassalus – vassal, vassus – xizmatkor – bo'ysungan, qaram davlat yoki shaxs [14, 124-b.]).

Hatto futbol sohasida ham Rossiya trenerlar (murabbiylar) oliy maktabi filialini Toshkentda ochmoqda. Vaholanki Rossiya rahbariyati o'z futbol terma jamoasining bosh murabbiyi etib gollandiyalik Gus Xiddinkni tayinladi. Agar Rossiya trenerlar oliy maktabida kuchli murabbiylar tayyorlash mumkin bo'lsa, nega endi ko'p yillardan beri Rossiya terma jamoasi xalqaro musobaqalarda yaxshi natijaga erisha olmadi, hatto 2006 yil yozida Germaniyada bo'lib o'tgan 18-Jahon chempionatida 32 jamoa safiga kira olmadi. Gus Xiddinkning murabbiylik salohiyatiga kelsak, yaqinda – 2006 yil 15 noyabr kuni 2008 yildagi Yevropa chempionligi final o'yinida ishtirok etishning saralash bosqichida Makedoniya terma jamoasi bilan Skopye shahrida uchrashdi. Uchrashuvda 2:0 hisobi bilan Rossiya terma jamoasi g'alaba qozondi. [107]

O'zR Prezidenti I.Karimovning 1993 yil 18 noyabrdagi va 1996 yil 17 yanvardagi futbolni rivojlantirishga doir farmonlardagi kabi bu qarorda (farmonda) ham yoshlarni tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi futbol maktablari haqida yozilgan. Oddiygina haqiqat: futbol maktablari sonini oshirish va yosh futbolchilarni tarbiyalash bilan qit'a va jahon miqyosidagi mohir futbolchilarni tayyorlab bo'lmaydi!

Hozir yozgan fikrimizni boshqacha tushuntirishim ham mumkin. Masalan, qit'a va jahon miqyosidagi fan doktorlarni, akademiklarni tayyorlash uchun o'rta maktablarni, hatto kollej va institutlar sonini oshirish, ularga ko'pgina mablag' sarflash bilan hal etib bo'lmaydi. Ilm sohasidagi kuchli olimlarni yetishtirish uchun Fanlar Akademiyasi tarkibida ilmiy-tekshirish institutlarini, hozirgi zamon uskunalari bilan jihozlangan laboratoriyalarni ochish va ularga xorijdan shu sohadagi yetuk olimlar hamda mutaxassislarni lektsiya o'qish hamda laboratoriyalarda tajribalarni amalda ko'rsatib berish uchun taklif etmoq kerak.

Fan sohasida futboldan farqli ularoq alohida qulaylik bor. Ayrim fan sohasida yaxshi mutaxassis tayyorlash uchun siz qobiliyatli mutaxassisni xorijdagi mashhur institut yoki universitet ixtiyoriga ma'lum bir muddatga (bir-ikki yilga) o'qishga yoki ishga yuborishingiz mumkin. Albatta, bu holda ham o'sha xorij muassasasiga mutaxassisni yuboruvchi tomon (davlat) minglab dollar to'lashi kerak bo'ladi. Ammo professional futbolda bunday yo'l tutishning imkoni yo'q: sizning tajribasiz futbolchingizni jahondagi mashhur futbol klubi "Futbolni o'rgansin" deb o'z klub o'yinchilari safida maydonga tushirmaydi.

Tajribasiz futbolchilardan yaxshi futbolchi tayyorlashning boshqacha yo'li bor: xorijdan tajribali murabbiy va mohir legionerlarni O'zbekistonga taklif qilibgina erishish mumkin. Ular vatanimiz futbolchilariga oliy futbol mahoratidan amalda dars berishadi va stadiondagi qizg'in o'yin davomida amalda ko'rsatishadi. Bu birdan-bir, eng asosiy yo'ldir.

O'zbekistonda professional futbolni rivojlantirishning asosiy yo'li haqida, ya'ni klublarga xorijdan murabbiylar va legionerlarni taklif etish, bu tadbirlar uchun davlat tomonidan moddiy va boshqa yordamlar berish haqida Prezident I.Karimov imzolagan uchala qarorda hech narsa yozilmagan. Qarorda oldingi farmonlardagi kabi ba'zi bir soliqlardan uch yilga ozod qilish haqida yozilgan, xolos.

Umuman aytganda, futbolni rivojlantirish to'g'risidagi Prezident farmonlari va qarorlari emas, balki "O'zbekistonda futbolni rivojlantirish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish kerak. Bunday qonun Braziliyada qabul qilingan. Bu haqda kitobimning 18-bandida sal batafsilroq yozaman.

17. OLIY LIGA FUTBOL KLUBLARIDAGI VAZIYAT

Futbol klublarimizdagi vaziyatni baholash uchun avval vatanimiz oliy ligasida 2006 yilgi chempionat yakunlarini keltirib o'tsam [108].

Jamoa nomi	O'	Yu	D	M	T-N	O
1. "Paxtakor"	30	25	2	3	84 – 12	77
2. "Neftchi"	30	23	2	5	60 – 23	71
3. "Nasaf"	30	22	4	4	63 – 33	70
4. "Mash'al"	30	18	6	6	50 – 28	60
5. "Traktor"	30	15	4	11	51 – 46	49
6. "Qizilqum"	30	14	6	10	51 – 37	48
7. "Navbahor-N"	30	13	5	12	46 – 35	44
8. "Samarqand-D"	30	12	4	14	39 – 39	40
9. "Lokomotiv"	30	10	8	12	39 – 55	38
10. "Andijon"	30	10	5	15	46 – 52	35
11. "Buxoro"	30	9	7	14	35 – 34	34
12. "Sho'rtan"	30	10	2	18	43 – 55	32
13. "To'palang"	30	9	4	17	40 – 58	31
14. "Metallurg"	30	7	7	16	36 – 45	28
15. "So'g'diyona"	30	7	3	20	23 – 48	24
16. "Xorazm"	30	0	3	27	21 – 127	3

O'zbekiston Futbol Federatsiyasining 1995-2005 yillardagi raisi, militsiya general-polkovnigi Zokirjon Almatov va futbol diletanti Alisher Nikimbayev (9-bandga qarang) oliy va 1-liga futbol klublarini iqtisodiy bo'g'ish siyosatini olib bordilar. Bu qanday amalga oshirilganligiga bitta misol keltirib o'tay.

“O'zbekiston Futbol Federatsiyasi jamoalar o'tkazgan a'zolik badallari hisobiga faoliyat ko'rsatishi kerak. 2002 yilda klublar 11-chempionatda ishtirok etishlari uchun jami bo'lib, 240 million so'm pul to'plashgandi. Jami 490 million so'm o'tgan yil [2002 yil, A.Sh.] uchun sarflandi (240 million badal + 250 million homiyar – muallif). O'FF bu pullarni o'z xodimlariga oylik maosh sifatida yoki bo'lmasa binoni ta'mirlash uchun emas, balki terma jamoalarimizning xorijiy turnirlarda qatnashishlariga sarf qildi. Ayrimlar O'FFni homiyar bilan ishlamaydi, deb ta'kidlashadi. O'z o'rnida harajat qilingan salkam 250 million so'm mablag' homiyarlardan tushganligini qayd etmoqchiman.” [109]

O'zbekiston futbol terma jamoamiz xalqaro maydonda vatanimiz obro'yini himoya qilayotganligi uchun uni mablag' bilan O'zbekiston hukumati ta'minlamog'i zarur. Axir boshqa ko'pgina sport turlarida ham shunday qilinadiku, masalan, Milliy Kurash federatsiyasiga mablag'ni hukumat beradi.

Xalqaro uchrashuvlar uchun mablag' to'plashni futbol klublari zimmasiga yuklash – bu moddiy qiyinchilikda kun ko'rayotgan klublarni ochiqdan-ochiq bo'g'ish emasmi?

Shu va shunga o'xshash usullar bilan futbol klublarini iqtisodiy bo'g'ish siyosati olib borilganligi sababli oliy liganing eng yaxshi jamoalaridan “Do'stlik” (Toshkent viloyati) va MHSK (Toshkent) (MHSK – Markaziy harbiy sport klubi) 2004 yilda o'z faoliyatini to'xtatdi va futbolchilar turli tomonga tarqalib ketdi. Shu sababli 2004 va 2005 yillarda O'zbekiston oliy ligasida bor-yo'g'i 14 jamoa ishtirok etdi.

Eslatib o'tay, “Do'stlik” futbol jamoasi – bu 40 yil ilgari tuzilgan “Politotdel” jamoasidir. U yaqinda o'zining 40 yillik to'yini nishonladi.

“Mamlakatimizning mashhur jamoalaridan biri sanalgan “Politotdel” (“Do’stlik”) jamoasi 2006 yil 17 noyabr kuni o’zining qirq yillik to’yini tantana qildi. Ushbu jamoaga mehnat qahramoni Timofey Xvan asos solgan. 1966 yili bu qishloq jamoasi sobiq Ittifoq oliy ligasiga chiqish uchun o’tish turnirida ishtirok etgandi.

Tadbir qatnashchilari Timofey Xvan qabrini ziyorat qilishdi. Tadbirga H.Jalolov, Ye.Kazakov, V.Shtern, R.Mo’minov, V.Kapuctyanskiy, R.Mo’minov, V.Lyubushin, Ya.Kaprov, Ye.Valitskiy, R.Mirsodiqov, T.Shoymardonov singari futbolimiz faxriylari tashrif buyurishdi. Tadbir vaqtida “Do’stlik” hamda “Aytbek” (Jambul) faxriylari o’rtasida o’rtoqlik uchrashuvi tashkil qilindi. Uchrashuvda mezbonlar 4:2 hisobida g’alaba qozonishdi. “Do’stlik” quyidagi tarkibda o’ynadi: Iluridze, Kaygorodov, Imamov, Soloxo, Noskov, Gambarov, A.Bozorov, R.Bozorov, O.Usmonxo’jayev, Ma’rufaliyev, Gambarov.

Mezbonlar safida Usmonxo’jayev va Noskov dublga erishdilar.

Eslatib o’tamiz, ushbu tadbir tashabbuskori Toshkent viloyati futbol federatsiyasi kotibi Shamil Yafarov bo’ldi. Uning taklifini esa marhum Timofey Xvanning o’g’illari Stanislav va Yevgeniy qo’llab-quvvatlashdi. Yakunda Stanislav va Yevgeniy Xvanlar mehmonlarni bir payola choyga taklif qilishdi. Shundan so’ng Qozog’istondan kelgan faxriy futbolchilarga homiylarning sovg’alari topshirildi.” [110]

O’zbekiston tarixida futbol jamoasi dastlab tashkil etilgan shahar Qo’qondir. Lekin Qo’qonning “Qo’qon-1912” klubi ham 2004 yilda oliy ligadagi o’z faoliyatini to’xtatgan edi. So’ngra ushbu jamoa yangi tarkibda qaytadan tuzildi va 2006 yilda 1-ligada o’ynadi. Uning hozirgi ahvoli haqida 18-bandda yozaman.

2006 yilda oliy liga jamoalar sonini yana 16 taga yetkazishdi. Lekin sun’iy ravishda qilingan ish tufayli oliy ligadagi jamoalarning o’yin saviyasi tushsa tushdiki, oshmadi. Shu bandda keltirilgan jadvaldan ko’rinib turibdiki, “Paxtakor” 30 o’yinda 77 ochko, oxirgi 16-o’rindagi “Xorazm” jamoasi esa bor-yo’g’i uch ochko oldi [108].

Futbol rivojlangan mamlakatlar chempionatlarida ikki jamoa to’plangan ochkolar bo’yicha bunday katta farqqa ega bo’lishi amri-maholdir. Mamlakat oliy ligasida 30 o’yinda 127 ta, ya’ni o’rtacha har o’yinda to’rttadan ortiq gol o’tkazib yuborgan futbol rivojlangan mamlakatlardan birortasida bormikan?!

Shunday qilib, “Do’stlik”, “MHSK”, “Qo’qon-1912” kabi kuchli futbol jamoalarini saqlab qolish uchun O’FF rahbariyati birorta chora-tadbir ko’rmadi. Ular o’rniga oliy ligaga o’tkazilgan “Xorazm” kabi jamoalar oliy liga futbol saviyasining tushishiga xizmat qildi, xolos. Axir, o’zingiz o’ylab ko’ring: 30 ta o’yinda 127 (!) ta gol o’tkazib yuborgan jamoaning o’yinini qanday baholash mumkin?

Albatta, agar “Xorazm” futbol klubiga xorijdan kuchli murabbiy taklif etilib, jamoa tarkibida Lotin Amerikasi va Afrikadan bir necha nafar legioner o’ynaganida Xorazm futboli ham keskin ko’tarilgan bo’lard. Kuhna Xorazm to’prog’ida ulg’aygan va Xorazm sha’nini himoya qila oladigan mohir futbolchilar yetishib chiqardi. Afsuski, O’zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejim bunga imkoniyat bermayotir, bermaydi ham ...

Shu yerda O’zbekiston oliy liga klublar futbolchilariga to’lanayotgan maoshlar haqida ham ozgina axborot berib o’tsam (bu haqda gazetalarda ma’lumot juda kam). Quyida Toshkent “Traktor” jamoasi darvozaboni Aziz Ashurovning javobidan iqtibos keltiraman.

“- Buni yashirishning umuman keragi yo’q, deb o’ylayman. Chunki ishqibozlar hamma vaqt jamoadagi ahvoldan xabardor bo’lishlari lozim. Masalan, bizning o’rtacha oylik ish haqimiz 100 ming so’mni tashkil qiladi. Bu ko’rsatkich qolgan jamoalarga nisbatan ancha past. Ayniqsa, siz jurnalistlar bundan xabardor bo’lasizlar, to’g’rimi?

Yaxshiyamki, Vadim Abramovdek mehnatkash murabbiyimiz bor ekan, uning sa'yi-harakatlari bilan jamoa o'z mavqeini ushlab turibdi. Vadim Karlenovich futbolchilar maoshlarini o'z vaqtida olishlari uchun pul topish maqsadida qayerlargacha borib kelmaydi deysiz. Goh o'zi topib, goh do'stlaridan olib bo'lsa ham, bizga pulimizni berib turadi. Agar u bo'lmaganda, bilmadim, klub ne ahvolga tushib qolishi mumkin edi. Asosiy homiyimiz sanalgan Toshkent Traktor Zavodining mavsum mobaynida bizga deyarli foydasi tegmadi. Aks holda, yanada yuqoriroq o'rinlar uchun harakat qilgan bo'lardik va ehtimol, sovrinli o'rinlardan birini egallashimiz mumkin edi." [111]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston oliy liga futbol jamoalarining o'yin saviyasi jahondagi futbol rivojlangan mamlakatlar futbol jamoalari saviyasi bilan taqqoslaganda juda past ekanligini ko'ramiz. 2006 yilda O'zbekiston chempionatida 77 ochko to'plab peshqadamlik qilgan eng yaxshi futbol jamoamiz bo'lmish "Paxtakor" 2006 yil dekabr oyida jahon mamalakatlari futbol klublarining reytingida 122-o'rinni egalladi [112].

"Xalqaro futbol tarixi va statistikasi federatsiyasi (IFFHS) klublarning dekabr oyin reytingini e'lon qildi. Ayni paytda ushbu ro'yxatni Ispaniyaning "Sevilya" jamoasi boshqarib bormoqda. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni esa Italiyaning "Milan" va "Roma" jamoalari band etib turishibdi.

Mamlakatimiz chempioni Toshkentning "Paxtakor" jamoasi yangi reytingda 122-pog'onadan joy egalladi. Agar o'tgan oydagi reytingga solishtiradigan bo'lsak, toshkentliklar besh pog'ona pasayishgan. Shunday bo'lsada, "Paxtakor" Osiyo qit'asida hamon birinchi jamoa bo'lib turibdi. MDH mamlakatlari jamoalari orasida esa vakillarimiz SSKA (41-o'rin), "Dinamo" Kiyev (49), "Shaxtyor" (57) va "Spartak"(93) jamoalaridan so'ng beshinchi pog'onani band etib turishibdi. Kuchli 350 jamoa orasida mamlakatimizning yana bir vakili Muborakning "Mash'al" jamoasi ham bor. Ayni paytda muborakliklar 302-pog'onadan joy egallashgan. Farg'onaning "Neftchi" jamoasi esa bu oyda kuchli 350 talikni tark etdi." [112]

Mustaqilligimizning o'tgan 15 yili davomida "Paxtakor" na jahonda, na Osiyoda FIFA taqvimiga kiruvchi birorta musobaqada yaxshi o'rinlarni egallay olmadi. Agar O'zR Prezidenti I.Karimov, O'FF rahbarlari professional futbolga o'zlarining hozirgi noto'g'ri munosabatlarini o'zgartirmasalar, aniqroq qilib aytganda O'zbekistonda demokratik siyosiy tizim o'rnatilmasa va professional futbolga demokratlarcha yondoshilmasa xalqaro musobaqalarda klublarimiz yuqori natijalarga erishishi amri maholdir.

18. BIRINCHI LIGA FUTBOL KLUBLARIDAGI VAZIYAT

Oldin O'zbekiston futbol federatsiyasi Ijroiya Qo'mitasi byurosining 2006 yil 25 oktabrdagi 1-liga futbol jamoalari bilan bog'liq qarorini keltirib o'tsam.

"2006 yil 25 oktabr kuni O'zbekiston futbol federatsiyasi Ijroiya Qo'mitasi byurosi "O'FF musobaqalarida ishtirok etuvchilar safidan chetlashtirish to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. Unga ko'ra:

1. "Futbol bo'yicha O'zbekiston nohavaskor klublar o'rtasida 2006-2007 yillardagi musobaqalar Reglamenti" 19-bob 19.21 bandini buzganligi, O'FF Ijroiya Qo'mitasi byurosining 2006 yil 9 avgustdagi 03 raqamli qarori hamda O'FF rahbariyatining 2006 yil 12 sentabrdagi 03/137 raqamli farmoyishlarini bajarmaganligi, moliyaviy tomondan beqarorligi hamda belgilangan muddatlarda badallarni to'lamaganliklari uchun "Hazorasp" (Hazorasp), "Qo'qon-1912" (Qo'qon), "Surxon" (Termiz) va "Sirdaryo" (Guliston) professional klublari O'zbekiston futbol federatsiyasi tasarrufidagi musobaqalardan chetlashtirildi.

2. Ushbu jamoalarning 2006 yilgi O'zbekiston birinchiligi 37-38 turlaridagi o'yinlarida raqiblariga texnik g'alaba taqdim etildi." [113]

Endi mamlakatimiz futbol chempionatining 1-ligasi 2006 yil yakunlarini [114]-dan keltirsam bo'ladi.

Jamoa nomi	O'	Yu	D	M	T-N	O
1. "Quruvchi" Toshkent	38	27	5	6	94 – 32	86
2. "Vobkent" (Vobkent)	38	25	5	8	95 – 53	80
3. "Mash'al-2" (Muborak)	38	23	9	6	63 – 30	78
4. "NBU-Osiyo" (Toshkent)	38	24	1	13	67 – 54	73
5. "Tsementchi" (Quvasoy)	38	21	8	9	65 – 35	71
6. OTMK (Olmaliq)	38	20	9	9	58 – 35	69
7. "G'allakor" (G'allaorol)	38	17	10	11	63 – 45	61
8. "O'zDongJu" (Andijon)	38	19	3	16	53 – 44	60
9. "Kimyogar" (Chirchiq)	38	17	5	16	69 – 64	56
10. "Sho'rchi- Lochin" (G'o'zor)	38	15	4	19	71 – 76	49
11. "Oqtapa" (Toshkent)	38	14	6	18	57 – 63	48
12. "Kosonsoy- -Zakovat" (Kosonsoy)	38	14	6	18	52 – 53	48
13. "Shahrixon" (Shahrixon)	38	14	6	18	60 – 64	45
14. "Miyonkol" (Kattaqo'rg'on)	38	14	2	22	51 – 78	44
15. "Zarafshon" (Navoiy)	38	13	3	22	42 – 76	42
16. "Shayxontohur" (Toshkent)	38	10	9	19	49 – 64	39
17. "Hazorasp" (Hazorasp)	38	16	4	18	54 – 54	46
18. "Qo'qon-1912" (Qo'qon)	38	9	3	26	58 – 89	24
19. "Surxon" (Termiz)	38	8	5	25	34 – 79	23
20. "Sirdaryo" (Guliston)	38	6	3	29	36 – 99	15

Yuqorida keltirilgan O'FF Ijroiya Qo'mitasi byurosining 2006 yil 25 oktyabr kungi qaroridan quyidagilar ayon bo'ladi: O'FF ning Mirabror Usmonov, Alisher Nikimbayev kabi rahbarlari vatanimiz shaharlarida ko'p yillar davomida tashkil topgan, ko'zga ko'ringan futbol klublarini musobaqalardan chetlashtirish orqali bu klublar faoliyatini tugatmoqda. Ya'ni o'zbek futbolini oyma-oy, yilma-yil inqirozga olib bormoqda, xarob ahvolga solmoqda.

Bunday qarorni asoslashga asosiy bahona – yana pul, mablag' masalasidir. Axir futbol klublari o'z futbolchilarini oylik maosh bilan ta'minlay olmayotgan bir sharoitda O'FFga, aniqrog'i rahbariyatida o'tirgan amaldorlariga badal ko'rinishidagi mablag'ni qayerdan olishsin?

Futbol rivojlangan mamlakatlarda futbol matchlari erkin va qiziqarli o'tadi. Shu sababli stadiona o'n minglab futbol muxlislari chipta sotib olib tomosha qiladilar va shu yo'l bilan o'z klublarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Bizda futbol o'yinlari ko'proq maynavozchilikka aylanib borayotganligi sababli muxlislar matchlarga juda kam keladi. O'zbekiston futbol klublarining moliyaviy ahvolini yaxshilash masalasini 25-bandda muhokama etishni davom ettiraman.

Yuqorida keltirilgan yakuniy jadvalga e'tibor bering: O'FF rahbariyati o'z qarori bilan "Hazorasp" futbol jamoasidan 6 ochkoni olib qo'yishgan bo'lsada, klub 46 ochko bilan 13-o'rinda bo'lishi kerak edi. Bu qarordan keyin esa mana shunday klub yopilishi, futbolchilari hamda murabbiylari ishsiz qolishlari va turli tomonga tarqalib ketishlari kerak bo'ladi.

Xuddi mana shu uslubda oliy ligadagi kuchli "Do'stlik", "MHSK", "Qo'qon-1912" klublari iqtisodiy jihatdan bo'g'ish orqali faoliyati to'xtatilgan edi. Endi 1-ligadagi yana 4 futbol klubi o'z faoliyatini O'FF qaroriga ko'ra to'xtatishga majbur bo'lmoqda. Bu beboshlik, o'zbek futboliga dushmanlik qachongacha davom etarkan???

19. 2008: KUCHISHLATAR ORGAN XODIMLARI MUXLISLARNI SHAVQATSIZ KALTAKLASHDI



Foto 8. Futbol uchrashuvini tomosha qilishga kelgan muxlislarni kaltaklashga tayyor turgan kuchishlatar organlar xodimlari. Toshkent. 2008 yil 26 mart. Muallif olgan fotosurat. [116]

Kuchishlatar organlar - Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati xodimlari futbol muxlislariga qarshi turli xildagi tazyiqlar qo'llashayotgani haqida kitobimda yozgandim. 2008 yil 26 mart kuni Toshkentda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni futbol terma jamoalari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Shu uchrashuv bo'layotgan paytda O'zbekiston maxsus xizmat organlari xodimlari bir necha futbol muxlisini shavqatsiz kaltaklashayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bu haqda 2008 yil 27 va 31 mart kunlari saytlarda ikkita maqolani rus tilida yozib, fotosurat bilan birga chop ettirdim. Shu maqolalarni o'zbek tiliga o'girib, o'quvchi e'tiboriga havola qilishni o'rinli deb hisobladim.

"Bugun – 2008 yil 26 mart kuni Toshkentdagi Markaziy armiya sport klubi (MHSK) stadionida 2010 yilda Janubiy Afrika Respublikasi (JAR)da o'tkaziladigan 19-Jahon chempionati saralash o'yinlari doirasida O'zbekiston va Saudiya Arabistoni terma jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuv bo'ldi. Match o'zbek muxlislari uchun quvonchli hisob – 3:0 bilan O'zbekiston terma jamoasi foydasiga hal bo'ldi.

Lekin match bo'layotgan vaqtda men noxush voqealar guvohi bo'ldim. FIFA o'yin boshlanish vaqtini mahalliy vaqt bilan 16.00 da qilib belgilagandi. Bugun ish kuni va ayrim muxlislar ishdan to'g'ri chiqib kelishdi. Shu sababli match boshlanishiga ayrimlar kechikishdi, ular orasida men ham bor edim.

Men taxminan 15 daqiqa kechikib, ya'ni 16.15 da keldim. Stadionning asosiy darvozasi oldida 200 nafarga yaqin muxlislar yarim doira shaklida qo'llaridagi patta (bilet) bilan turishar va futbol matchiga o'tkazishlarini iltimos qilishardi. Yopiq darvozalar oldida yuz nafardan ortiq militsiya xodimlari, oddiy militsiya formasini kiyib olgan maxsus xizmat organlari xodimlari va fuqaro kiyimidagi kuchishlalar organlar zobitlari turishardi.

Men militsiya xodimlari oldiga keldim, o'z pattamni ko'rsatdim va qo'yib yuborishini so'radim. Militsiya formasidagi xodimlar ham, kamuflyaj (maxsus) forma kiyib olgan xodimlar ham indamay menga qarab turishar va javob bermadilar. Men ikki marta so'radim, lekin ular javob bermadi. Men komandir yoki rahbarni chaqirishni so'radim. Ammo ular sukut saqlashda davom etishdi.

Shunda men o'n qadam yurdim va asosiy darvoza qarshisiga turdim. Keyin dedim: "Men mustaqil jurnalistman. Muxlislardan iltimos, orani sal ochinglar va men hozir fotosuratga olaman". Muxlislar orani ochdi.

Shu vaqtda o'ng tomonda militsiya kiyimini kiyib olgan maxsus xizmat organi xodimlari muxlislar orasidan yoshi 25-larda, bo'yi taxminan 170 sm bo'lgan, o'rtacha gavdali yigitni ushlab tortib chiqarishdi. Ikki nafar maxsus xizmat organi xodimi ikki tomondan uning qo'llarini orqasiga buradi. Ularga uchinchi maxsus xizmat organi xodimi qo'shildi va uchalasi uni kuch bilan darvoza orqali stadion tomonga olib kira boshladi (balandligi 4 metr bo'lgan temir panjara bilan stadion tribunasi orasida taxminan 4 metrlik asfaltlangan yo'lak bor).

Men fotoapparatimni asosiy darvoza tomon yo'naltirdim. Darvozaning bu tomonida va u tomonida turgan militsiya xodimlari, maxsus xizmat organi xodimlari, muxlislar, fuqaro kiyimidagilar kadrda qamrab olindi.

Shu payt pagonida birorta belgisi bo'lmagan militsiya kiyimidagi maxsus xizmat organining bir xodimi mening qarshimga kelib, ko'zini lo'q qilib turib oldi va suratga tushirib bo'lishimni kutdi. U shu holatda orqasida ro'y berayotgan barcha bemazagarchiliklarni o'z gavdasi bilan to'sishga harakat qildi. Men fotoapparat zatvorini (pardasini) ochdim, masofa va tushirish vaqti avtomatik belgilanishi uchun ozroq kutdim. Keyin tushirish tugmasini bosdim. Men bitta kadr oldim.

Shu zahoti o'sha va uning yonida turgan oddiy militsiya formasidagi spetsnaz (maxsus xizmat organi) xodimi oldimga kelishdi, ikki tomonimdan o'tib, ikkala qo'limdan ushlashdi. (Spetsnaz, ya'ni maxsus xizmat organi xodimi so'zini qisqa qilib maxsuskor deb tarjima qilsak bo'ladi. Chunki "kor" so'zi fors-tojik tilida "ish" degan ma'noni bildiradi. Axir u maxsus xizmat organida ishlab tirikchiligini o'tkazadi. O'zbek tilida paxtakor, g'allakor va shunga o'xshash so'zlar bor, A.Sh., 2010 yil 24 iyul). Chap tomonimdagi xodim ikkala qo'li bilan chap qo'limni mahkam ushlab, bir oz orqaga burab turardi. U zarur vaqtda qo'limni oxirigacha burash uchun tayyor edi. Boshqa maxsuskor chap qo'li bilan shimimni qayish o'tgan qismidan tutar, o'ng qo'li bilan menga zarba tushirishga tayyor turardi. U meni tutib borish davomida o'ng qo'li bilan uch marta boshimga unchalik kuchli bo'lmagan holda urdi. Meni darvoza ortiga olib o'tishdi va chap tomonga tutib ketishdi.

10 metrcha yurgach, men quyidagi manzarani ko'rdim: militsiya formasidagi oltitacha maxsuskor o'sha 25-yoshli yigitni tribuna devori oldida tutib turishar, urar, biqiniga tepishayotgandi. (Shu vahshiyona manzara haligacha aniq ko'z oldimda turibdi va sal batafsilroq bayon qilay. Bir maxsuskor chap qo'li bilan bechora yigitning bo'yni orqali, o'ng qo'li bilan o'ng oyog'i tagidan o'tkazib ko'tarib turardi. Xuddi shunday holda qarshi tomonda boshqa maxsuskor o'ng qo'li bilan yigit bo'ynidan va chap qo'li bilan yigitning chap oyog'i ostidan chap qo'lini o'tkazib ko'tarib turgandi. Yana ikki-uchta maxsuskor yigitning bosh va yon tomonida turishar va kim yoqasidan, kim kiyimining boshqa joyidan bir qo'llab ushlab turar hamda ikkinchi qo'li bilan yigitni urardi. Bular hammasi balandligi 7-8 metrcha keladigan tribunaning beton devoridan bor-yo'g'i 0,5 metrcha masofada turishardi. Menimcha, maxsuskorlar muxlis yigitni shu holatda oyoqlarini ko'tarib dumbasi

bilan beton devorga olib borib bir necha marta urgan. Shunday qilganda yigit badanida kaltak zarbalari izi qolmaydi. Lekin kishining ichki organlari (oshqozon, jigar, ichak va hokazolar) keskin siljishi oqibatida jiddiy shikast yetadi, ya'ni ayrim ichki qon tomirlari va ichak pardalari yorilishi hamda ichdan qon oqishi mumkin. Bunday shikastlanishni davolash qiyin va yigit umrini keskin kamaytirishi turgan gap, A.Sh., 2010 yil 24 iyul)

Yigit bechora og'riq tufayli bu vahshiylar qo'llarida butunlay osilib qolgan va o'zining aybsizligi haqida nimalardir derdi. Militsiya kiyimidagi olti nafar qo'pol maxsuskor uni nimadadir ayblab do'q urishardi va navbat bilan uning biqinlariga hamda yon tomonlariga zarba berishardi. Shu shovqin tufayli 25-yoshli bechoraning so'zlarini ajrata olmadim.

Men bu 25 yoshli muxlis so'zlarini eshitishni istardim. Lekin yonimda kelayotgan, aniqrog'i meni tutib majburlab olib ketayotgan maxsuskorlar menga savol berishar va ayblardi: "Nega siz isyon qilayapsiz? Nega odamlarni isyonga chaqirayapsiz? Siz nega suratga oldingiz?" Men zo'rg'a javob berib ulgurardim: "Men futbol tomosha qilgani keldim. Meni pattam bilan kirishga ruxsat berishmadi. Men mustaqil jurnalistman. Shu sababli fotosuratga oldim".

Men yo'l davomida yana quyidagi holatni ko'rdim: olti nafar maxsuskor boshqa bir muxlisni asfaltga yiqitib olishgandi. Uch nafari tutib turishar, kim qo'lidan, kim kiyimidan ushlab turardi. Tanasida kaltak izlarini qoldirmaslik uchun uning yon tomonidan kimdir tepar, kimdir qo'li bilan urardi. Bechora muxlis, yo'lkira va pattaga pul to'lab, militsiya kiyimidagi, aniqrog'i maxsuskor vahshiylarning o'z bilgilaricha sud (samosud) qilish ob'yektiga aylangandi. U O'zbekiston terma jamoasi matchiga kelib o'zbek maxsuskorlari tomonidan kaltaklanish va o'lasini qilib urish ob'yekti bo'lishini xayoliga ham keltirmagan.

O'zbekistondagi mavjud politsiya rejimi sharoitida bu oddiy bir holdir. Maxsuskorlar fuqarolarni kaltaklash va xurlashda mashq o'tkazish uchun har bir qulay imkoniyatdan foydalanishadi.

Men bu qo'pol-maxsuskorlarga bunday dedim: "Meni o'z rahbarlaringiz oldiga olib boring. Agar men qonunni buzgan bo'lsam, meni qonuniy qilib rasmiylashtirishsin". O'ng tomondagi maxsuskor qayishim hamda shimimni ushlagan chap qo'li bilan niqtadi va boshimga o'ng qo'li bilan urib dedi: "Biz hozir senga rahbariyatni ham, boshqasini ham ko'rsatamiz".

Yo'lda militsiya kapitani uchradi. Men unga murojaat qildim: "Nega ular meni urayapti? Rahbarga olib borishsin va qonun bo'yicha rasmiylashtirsinlar". U ularga qaradi va indamay o'tdi.

Keyin militsiya mayori uchradi. Men unga ham murojaat qildim. Lekin u ham jimgina o'z yo'lida davom etdi. Shunda chap tomonimdagi maxsuskor tirjayib dedi: "Biz maxsuskorlarmiz. Bizga birortasi g'iring deya olmaydi".

Men shu so'zlardan keyin tushundimki, maraz maxsuskor oddiy militsioner formasini kiyib olgan va fuqarolarni qonunsiz, shavqatsizlarcha kaltaklamogda. Shu holda oddiy fuqarolar barcha noma'qulchiliklarni militsionerlar qilayapti, deb o'ylashadi.

O'ng tomondagi maxsuskor so'radi: "Fotoapparatingiz qani? Bu yoqqa bering!" Chap tomonimdagi maxsuskor javobimni kutmasdan sumkamdan fotoapparatimni oldi va o'ng tomonimdagi maxsuskorga berdi. Orqamizdan fuqaro kiyimidagi bir kishi kelayotgandi. U maxsuskorlarga bir narsa dedi. Fotoapparatimni ushlab turgan maxsuskor meni qo'yib yuborib, bir oz ortda qoldi va fotoapparatimni bir narsa qildi, balkim orqa qapqog'ini ochgandir. (Men bugun fotoplyonkani yuvishga (proyavkaga) ulgurmadim. Ertaga, 27 mart kuni, yuvaman va shunda maxsuskor fotoapparatim orqa qopqog'ini ochgan-ochmaganligi ma'lum bo'ladi.) Chap tomonimdagi maxsuskor mahkam ushlab turgani sababli men orqamga qaray olmadim.

Bu payt biz 45-yoshlarda bo'lgan fuqaro kiyimidagi xodimga yaqinlashdik. Darvoza oldida ularni fotosuratga olganim haqida unga aytishdi. Men 45-yoshdagi xodimga dedim: "Men mustaqil jurnalistman va futbolni

tomosha qilish uchun keldim. Meni pattam bilan stadiona kirishimga yo'l berishmadi. Va men sharoitni fotosuratga oldim". 45-yoshlardagi xodim bir oz o'yladi va dedi: "Uni qo'yib yuboringlar". Keyin fotoapparatimni ushlab turgan maxsuslardan so'radi: "... qildimi?" (men shartli birinchi so'zni anglay olmay qoldim, chunki chap tomonimdagi maxsuskor bir narsa deyayotgandi). U javob berdi: "Ha". 45-yoshdagi xodim: "U holda fotoapparatini qaytarib bering". Shu gapdan keyingina fotoapparatimni qaytarib berishdi va qo'yib yuborishdi.

Men stadiona o'tish yo'lagiga kirdim va yo'lak orqali stadion tribunasiga ko'tarildim. Men 11-sektorda ekanligimni ko'rdim. Bu vaqtda hisob 0:0 edi. Stadion muxlislar va kuchishlalar organlar xodimlari bilan to'lgandi. Ulardan ayrimlari fuqaro kiyimida edi va tribunada o'tirardi.

Birinchi taym oxirlashayotganida hujumchi Temur Kapadze birinchi to'pni Saudiya Arabistoni terma jamoasi darvozasiga surib kiritdi. Mehmon futbolchilaridan biri to'pni tepib qaytarib chiqarishga ulgurdi. Lekin yon tomondagi hakam to'p darvoza chizig'ini kesib o'tganini ko'rdi va hisob 1:0 deb qayd etildi.

Birinchi taym oxirlarida mehmon hujumchilaridan biri ofsaytdan (o'yindan tashqari holatdan) O'zbekiston terma jamoasi darvozasiga to'p kiritdi. Yon tomondagi hakam o'zining bayroqchasini ko'tarishga ulgurdi va gol hisobga olinmadi. Jamoalar O'zbekiston terma jamoasi foydasiga 1:0 hisobida tanaffusga ketishdi.

Men tanaffus paytida pattamda ko'rsatilgan 10-sektorga borishga qaror qildim. Ko'pgina o'rindiqlarda muxlislar o'tirishardi. Bo'shlarida esa kimningdir kiyimi yotardi yoki band, deb aytishardi. Men ko'chada pattasi bilan yuzlab muxlislar turganini bilib, dedim: "Men bo'sh joylardan biriga o'tiraman. Agar o'rindiq egasi kelib, 11-sektor pattasini ko'rsatsa bo'shatib beraman". Ammo ayrimlar bunga ko'nmasdi. Shunda men ochiqchasiga dedim: "Bu yerda ko'pgina kuchishlalar organlar xodimlari pattasiz o'rindiqlarni egallab olishgan. Men esa pattam bilan tik turibman. Bu qanday bemazagarchilik?" Mening shu so'zlarimdan keyin o'tirganlardan biri bo'sh o'rindiqqa taklif qildi. Men o'tirdim va ikkinchi taymni o'tirib, ba'zan turib tomosha qildim.

Ikkinchi taymda O'zbekiston terma jamoasi o'yinchilari tezkor hujum uyushtirishdi va Maksim Shatskix ("Dinamo" Kiyev futbolchisi) ikkinchi chiroyli golni kiritdi. Hisob 2:0 bo'ldi.

Bir oz vaqt o'tgach Saudiya Arabistoni himoyachisi jarima maydonchasida M.Shatskix oyog'i ostiga o'zini tashladi. Hakam shu holatda o'yin qoidasi buzilgan deb topdi, sariq kartochka ko'rsatdi va Saudiya Arabistoni terma jamoasi darvozasi tomonga 11 metrlik jarima to'pini belgiladi. Penaltidan uchinchi to'p kiritildi.

Mehmon o'yinchilarning yaxshi o'yinini ta'kidlashim o'rinlidir. Ayniqsa mehmon hujumchisi zarbasi esda qoldi. Match oxirrog'ida hujumchilardan biri bizning darvozamizga orqasi bilan turgan bo'lsada, qaychi uslubida o'zining ustidan oshirib to'pni tepdi. Bu O'zbekiston terma jamoasi darvozaboni Ignatiy Nesterov uchun bir oz kutilmagan zarba edi. To'p avvaliga darvozaning chap ustuniga urildi, keyin o'ng ustuniga urildi va jarima maydonchasiga qaytib tushdi. Shunda himoyachilarimizdan biri to'pni tepib darvozamizdan uzoqlashtirdi.

Shunday qilib, muhim match O'zbekiston futbol terma jamoasi foydasiga 3:0 hisobi bilan yakunlandi.

Muxlislar bir oz yaxshi kayfiyatda stadiondan chiqib metro bekati tomon yurishdi. Men M.Ulug'bek metro bekati kiraverishda ikki nafar futbol muxlisi bilan suhbatlashdim.

Aytishim o'rinliki, men 2007 yilda o'zbek tilida quyidagi kitobni yozdim: "O'zbekiston futboli: inqiroz sabablari va 2010 yilgi 19-Jahon chempionatida qatnashishga erishish yo'li". Ushbu kitobning barcha 19 paragrafi www.turonzamin.org saytida 2006.15.11 dan 2007.07.01 gacha chop etilgandi. Shuningdek alohida kitob ko'rinishida "Turonzamin" sahifasining "DO'K kitoblari" ruknida chop etilgandi.

Perronda turgan holda suhbatlashish davomida, bu muxlislarga yarim betlik o'zbek tilidagi Murojaatnomamni berishga qaror qildim. Unda quyidagicha yozilgandi.

“Men inson huquqlari himoyachisi Shuhrat Ahmadjonov bo'laman. Kaminaning “Sherali Jo'rayevdek hofiz va shoir yuz yillarda bir marta tug'iladi” (www.turonzamin.org saytida 2008 yil 8 martdan bandma-band chop etilmoqda), “O'zbekiston futboli: inqiroz sabablari va 2010 yilgi 19-Jahon chempionatida qatnashishga erishish yo'li” va “Birlik”chilar, askarlar tobutlari va Orol dengizi muammolari” nomli kitoblar www.uzbekcongress.org saytining “DO'K kitoblari” ruknida, 120 dan ortiq maqolasi shu saytning www.turonzamin.org sahifasida chop etilgan.

www.uzbekcongress.org saytida o'zbek tilidagi maqolalar chop etilgan sanalar: 2005 yilda – 9 iyul, 3 va 12 sentyabr, 6 noyabr; 2006 yilda – 1, 7, 15, 25 yanvar, 14, 18, 23 fevral, 25 va 27 mart, 12, 15, 17, 20, 29 aprel, 13, 16, 23, 26, 30 may, 4, 15 iyun, 21 iyul, 1, 4, 6, 7, 9, 11, 12, 15, 19, 23, 24, 26, 28, 29 avgust, 1 (2 ta maqola), 5, 6 (2 ta maqola), 9, 13, 15 sentyabr, 16, 21, 25, 26, 30 oktyabr, 1, 13, 14, 15, 29 noyabr, 4, 5, 13, 17 dekabr; 2007 yilda – 2, 8, 11, 14, 18, 29, 30, 31 yanvar, 1 (2 ta maqola), 9, 12, 21 fevral, 12, 16, 20, 23 mart, 12, 13, 14, 15 aprel, 1, 5, 7, 8, 12, 19 may, 5 (ketma-ket 3 ta maqola), 14, 19 iyun, 7, 8, 23 iyul, 10 (2 ta maqola), 16 avgust, 13 oktyabr, 30 noyabr; 2008 yilda – 24 yanvar. (2006 yil 7 avgustgacha chop etilgan maqolalar Arxiv da joylashtirilgan, unga Bosh sahifadagi Arxiv orqali kirish mumkin).

www.uzbekcongress.org saytida rus tilidagi maqolalar chop etilgan sanalar: 2005 yilda – mart oyida; 2006 yilda – 10 fevral, 8-15 mart, 10 fevral, 7 aprel, 17 sentyabr; 2007 yilda – 30 mart (2 ta maqola), 26 aprel, 18 may, 29 iyun, 23 va 25 avgust, 18, 22 dekabr; 2008 yilda - 1 yanvar. _

Shuningdek kaminaning 20 dan ortiq rus tilidagi maqolasi www.centrasia.ru saytida chop etilgan. Uning sanalari: 2004 yilda – 25 avgust, 27 oktyabr, 14 dekabr; 2005 yilda – 23-25 fevral, 21 va 23 aprel, 5, 20, 30 may, 12 iyun, 31 iyul, 20 avgust, 7 sentyabr, 11 oktyabr; 2007 yilda – 30 iyun, 29 iyul, 25 avgust, 24 sentyabr, 4 oktyabr, 5 noyabr, 22 dekabr.

Shu Internet-saytlarni o'qishni tavsiya qilaman. Bu Internet-saytlarni www.google.ru yoki www.proxify.com kalit-saytlar orqali ochib o'qishingiz mumkin.

Inson huquqlariga doir muammolar bo'lsa, kamina elektron pochtaga murojaat qilishingiz mumkin: shuhrat1954@yahoo.com (xat yozar bo'lsangiz, kaminaning ushbu pochtaga maxsus xizmat organlari nazorat qilishini hisobga oling).

Shuhrat AHMADJONOV imzo”

Murojaatnoma varag'ining orqa tomonida “Ozodlik”, “Bi-bi-si” va “Amerika ovozi” radiolarining ishlash vaqti hamda radio to'lqinlari yozilgandi.

(Bu matn [115]- va [116]-maqolada chop etilmagan. Uni shu yerda keltirib o'tsam.

“Ozodlik” radiosi o'zbek tilidagi dasturlarini har kuni:

soat 7.00-8.00 da 9460 kHz (31 m), 9855 kHz (31 m), 15550 kHz (19 m),

soat 8.00-9.00 da 9855 kHz (31 m), 12110 kHz (25 m), 17770 kHz (19 m),

soat 19.00-20.00 da 11715 kHz (25 m), 13645 kHz (19 m), 15120 kHz (19 m),

soat 20.00-20.30 da 864 kilogerts o'rta to'lqinda,

soat 21.00-22.00 da 5840 kHz (49 m), 7550 kHz (41 m), 9595 kHz (31 m), 12150 kHz (25 m) qisqa to'lqinlarda eshitishingizni tavsiya qilaman.

“Ozodlik” radiosining Internetdagi veb-sayti: www.ozodlik.org

“Bi-bi-si” radiosi o‘zbek xizmati dasturlarini har kuni:
soat 18.00-18.30 da 119156, 137656, 15330 (19 m) kHz,
soat 21.00-21.30 da 9615 kHz (31 m), 12015 kHz (25 m), 12085 kHz (25 m), 17630 kHz (16 m) qisqa to‘lqinlarda, Toshkent va qo‘shni viloyatlarda 67 megagerts ultraqisqa va 11.88 kilogerts o‘rta to‘lqinlarda eshitishingizni tavsiya qilaman.

“Bi-bi-si” radiosining Internetdagi veb-sayti: www.bbc.co.uk/uzbek/

“Amerika ovozi” radiosi o‘zbek tilidagi dasturlarini har kuni:
soat 20.00-20.30 da 15265 kHz (19 m), 11595 kHz (25 m), 9670 kHz (31 m), 7280 kHz (41 m) qisqa to‘lqinlarda, 801 kilogerts o‘rta to‘lqinda, Farg‘ona vodiysi bo‘ylab 71-72 megagerts ultraqisqa to‘lqinlarda eshitishingizni tavsiya qilaman.

“Amerika ovozi” radiosining Internetdagi veb-sayti: www.amerikaovozi.org

Shuhrat AHMADJONOV imzo”)

Futbol haqidagi kitobimni o‘qishlari uchun men ularga bir donadan Murojaatnomamni berishga qaror qildim. Varaqni yigitlarga berganimdan orqa tomondan harbiy forma kiygan, slavyan avlodidan bo‘lgan, mayor unvonidagi kishi kelib, unga ham bir dona varaq berishimni talab qildi. Men unga ham berdim. Shu zahoti u meni tutdi (pasportimni ko‘rsatishni talab qildi, 2010 yil 24 iyul, A.Sh.) va boshqa harbiylarni chaqirdi. Men (pasportimni berdim, 2010 yil 24 iyul, A.Sh.) ulardan o‘z ismi-shariflarini aytishni so‘radim. Ikkinchi marta so‘raganimdan keyin mayor dedi: Amin Alimdjano‘v. Yana bir mayor keldi va u o‘zini Qodir Bahodirov deb tanishtirdi. Q.Bahodirov Murojaatnoma nusxasini muxlislardan birining qo‘lidan oldi. Men va harbiylar familiyalarimizni aniqlashtirganimizga qadar metro poyezdi keldi va ikkala muxlis jo‘nab ketdi.

A.Alimjanov chaqirdi va oldimizga fuqaro kiyimidagi yarim kal erkak keldi. U o‘zi bilan Murojaatnomalardan birini olib ketdi. Yonimizga podpolkovnik keldi va meni M.Ulug‘bek metro bekatidagi militsiya xonasiga olib borishga buyruq berdi.

Militsiya xonasida podpolkovnik menga ko‘p savol berdi. Men undan o‘z ismi sharifini aytishni so‘radim. U o‘z ismi sharifini aytishni rad qildi. Xonaga fuqaro kiyimida 50 yoshlardagi baquvvat kishi kirdi. U mening pasportim bilan tanishdi. Men uning kimligini so‘radim. U: “Metropolitan qo‘riqlash xizmati bo‘limining xodimi” dedi va xonadan chiqib ketdi.

Podpolkovnik telefon orqali qayergadir qo‘ng‘iroq qildi (u aytgan so‘zlar orasida “birinchi bo‘lim” degan so‘zlar ham bor edi). U men haqimda xabar berib, Murojaatnomam matnini va pasportimdagi men haqidagi ma‘lumotlarni telefon orqali o‘qib berdi.

Keyin podpolkovnik militsiya serjantiga ikki nafar xolis guvohni olib kelish haqida buyruq berdi.

Bir oz vaqt o‘tgach xonaga ikki xolisni boshlab serjant keldi. Ular o‘z ismi sharifini va yashash manzilini aytishdi. Podpolkovnik menga sumkamdagi narsalarni ko‘rsatish haqida buyruq berdi. Men sumkamni stol ustiga qo‘ydim va dedim: “Siz o‘z ismi sharifingizni aytmaganingizga qadar men sizning savollaringizga javob bermayman va sumkadagi narsalarimni ko‘rsatmayman. Xohlasangiz, o‘zingiz ochishingiz va ko‘rishingiz mumkin”.

Lekin podpolkovnik bunga jazm etmadi va boyagi xodimga yana telefon qildi. Telefonda ancha suhbatlashganidan keyin u tomondagi kishi meni qo‘yib yuborish kerakligi haqida aytdi. Shundan keyingina u pasportimni qaytarib berdi va tortishuvni davom ettirdi. Shunda men: “Sizlar nima sababdan meni tutdilaringiz? Mening yoshim 54 dan ortiq. Sizlar meni tutib yarim soatdan ortiq asabimga tegib

toliqtirdilaring. Bugungi rejalarimni barbod qildilaring. Alloh sizlarni va bolalaringizni jazolasin, omin!” deb duoibad qildim va ikki kaftimni yuzim oldidan o’tkazdim.

O’zbekiston kuchishlalar organlarining bunday xodimlari bilan hozircha, faqat Allohdan ularni jazolash haqida so’rashdan boshqacha usulda kurashish yo’li yo’q.

O’zbekistondagi politsiyaviy rejim mana shunaqadir.

Shuhrat AHMADJONOV

2008 yil 26 mart. Toshkent, soat 23.40” [115]

2008 yil 31 mart kuni bu maqolaning davomini fotosurat bilan birgalikda ikkita saytda chop ettirdim ([116]-ga qarang). Shu maqola matnini ham o’zbek tilida keltirib o’tsam.

“Men 2008 yil 27 mart kuni www.turonzamin.org saytida: Шухрат Ахмаджонов: варварство спецназовцев в милицейской форме во время футбольного матча в Ташкенте (Shuhrat Ahmadjonov: Toshkentda futbol uchrashuvi paytida militsiya formasini kiygan maxsus bo’linmaning yovuzliklari) maqolamni chop ettirgandim. Shu maqola www.centrasia.ru saytida: Шухрат Ахмаджонов: Ташкент. Спецназ варварски «футболил» болельщиков (Shuhrat Ahmadjonov: Toshkent. Maxsus bo’linma muxlislarni yovuzlarcha “futbol” qilmoqda) degan nom bilan chop etilgandi.

Maqolada qo’llarida pattasi bo’lishiga qaramay kuchishlalar organlar xodimlari muxlislar, jumladan menga ham, stadiongacha kirishni taqiqlab qo’yishgani va men stadion asosiy darvozasi oldidagi vaziyatni fotosuratga olganim haqida yozgandim. Suratni tushirgan zahotim maxsuskor xodimlar meni tutishib, temir darvoza ortiga kuch bilan olib o’tishgandi.

Men bugun fotoplyonkani yuvdim. Yaxshiyam maxsuskor fotoapparat orqa qopqog’ini ochmagan va u yerdagi kadr kuydirilmagan ekan. Men shu suratni Internet-sayt orqali siz – o’quvchilarga taqdim etmoqdaman. Bu fotosuratda bugungi O’zbekiston yaxshi tasvirlab ko’rsatilgan.

Suratga qisqacha izoh. Chap chetda ikki nafar muxlisning qo’li va boshi ko’ringan. Ular yonida ikki nafar maxsuskor turibdi. Ular pogonlarida aniqlovchi tasmalar yoki yulduzchalar yo’q. Ularning g’azabli, dushmanlarcha qarashiga e’tibor bering! Mening hisobimcha, aynan shu ikkalasi fotosuratga olganimga bir necha soniya o’tib meni ikki tomonimdan tutishdi va kuch bilan darvoza tomonga olib ketishdi.

Maxsuskorlar yonida ikki nafar militsiya kapitani turibdi. Ular qarashiga e’tibor bering: ular qarashida ozroq bo’lsada insoniylik bor.

Kadrga faqat har xil forma kiygan kuchishlalar organlar xodimlari kirgan. Yon-atrofdagi fuqaro kiyimidagi ko’pgina kuchishlalar organlar, jumladan maxsus xizmat organlar xodimlari yurgandi.

2008 yil 29 mart kuni Toshkent bozorlaridan birida taxminan 19-yoshlardagi aravakash yigit orqamdan kelib, yelkamni turtdi. U gung ekan. U meni stadion oldida, kuchishlalar organlar kuch bilan stadion darvozasi ortiga kiritib ketishganini ko’rgani haqida qo’li va barmoqlari bilan imo-ishora qilib tushuntirdi. Unga va uning yonida turgan aravakash do’stiga men jurnalist hamda inson huquqlari himoyachisi ekanligim, Internet-saytlarga maqola yozganligimni tushuntirishga harakat qildim.

O’sha kuni uni ham militsiya xodimlari (maxsuskorlar bo’lsa kerak) tutishgani va kaltaklashgani haqida gapirdi. Uni maxsuschilar qanday qilib boshiga va tanasiga zarbalar berishganini qo’llarini silkitib ko’rsatib berdi. Undan keyin uning 3000 (uch ming) so’m pulini “qandaydir sabab” bilan olib qo’yishgan (u buni uchta barmog’i bilan ko’rsatdi).

Men ularga www.turonzamin.org saytida 2008 yil 27 mart kuni chop etilgan maqolamni ko'rsatdim (afsuski, www.centrasia.ru saytida chop etilgan maqolamni ochish imkoni bo'lmadi, aniqrog'i o'zbek maxsuskorlari ochish va o'qishga imkon bermayotir).

Men bir bo'lak qog'ozda "Familiyang?" deb yozdim va unga ko'rsatib, familiyasini yozib berishni so'radim. U ismi va familiyasini, shuningdek "3000", ya'ni olib qo'yishgan pul miqdorini yozdi. Lekin shu payt mening orqamda turgan kimdir aravakash yigitlarga qarata qo'li bilan qandaydir imo-ishoralar qildi. Va 19-yoshli aravakash shosha-pisha varaqchadagi o'z ismi va familiyasini o'chira (ustidan chizib tashlay) boshladi.

Umuman olganda, mening ortimdan fuqaro kiyimidagi kishilar doimo kuzatib yurishadi. Kuzatuvchilar orasida bozordagi tartibni nazorat qilayotgan, sotuvchilarga joylarni taqsimlayotgan va ulardan soliq yig'ayotgan bozor xodimlari ham bor. Meni kuzatish kerakligi haqida kuchishlar organlar xodimlari tomonidan ularga buyruq berilgan bo'lsa kerak.

Men sumkamdan o'zbek tilidagi yarim betlik Murojaatnomani oldim. U yerda Internet-saytlarda chop etilgan 4 ta kitobim va 140 ga yaqin maqolalarim hamda sanasi yozilgan. Men Murojaatnomamni unga berdim va bo'sh vaqtda Internet-kafeda maqolalarni o'qishni maslahat berdim.

Men bu yerda ataylab bozor nomini va yosh aravakash familiyasini yozmadim. Chunki u viloyatdan Toshkentga kelgan. Militsiya xodimlari mushohada qilib uni topishlari va Toshkent shahrida pasport propiskasini talab qilish orqali uni 30 kunga maxsus hibsonaga qamashlari mumkin. Pasport propiskasi Sovet imperiyasining sarqiti ekanligi, bu asosda O'zbekiston fuqarolari asossiz tazyiq qilinayotgani haqida quyidagi maqolamda yozgandim: АХМАДЖОНОВ Ш. Пережиток советской империи: паспортная прописка в Узбекистане (O'zbekistondagi pasport propiskasi – Sovet imperiyasining sarqitidir). - <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1102976760> (www.centrasia.ru 2004.14.12 01:26).

Men militsiya xodimlari viloyatlardan kelgan yosh fuqarolarni to'xtatgani, ularga turli xil savollar berib qiynashgani, ularni militsiya bo'limiga olib ketishgani, ba'zan esa maxsus hibsonaga qamashganining ko'p marta guvohi bo'lganman. Ayrim yoshlar maxsus hibsonaga qamalmaslik va uyiga (ijaradagi xonasiga) bemalol ketish uchun pul sarf-xarajat qilishga (pora berishga) majbur bo'lardi.

Men ushbu aravakash so'zlariga ishondim va u qo'llari hamda barmoqlari bilan har xil harakatlar qilib gapirib bergani, shuningdek bir parcha qog'ozga yozib bergani bo'yicha sizlarga yetkazdim.

Mana shunday: O'zbekistonda kuchishlar organlardan hatto gung, soqov odamlarga ham tinchlik yo'q ...

Qadrdon O'zbekistonimiz bugungi kunda mana shunday ahvoldadir" [116]

Bu maqolalar qanday natija berdi, degan savolga qisqacha javob berib o'tay. Men Toshkent bozorlarida suratkashlik (fotograflik) bilan tirikchilik qilardim. Dastlabki maqola 2008 yil 27 mart kuni saytlarda chop etilgach, 28 yoki 29 mart kuni ertalab Toshkentdagi Qo'lyiq bozori meva-cheva, sabzavotlar saqlanadigan katta omborlarida o'tirganlarga "Suratga tushasizlarmi?" deb o'tib borayotgandim. Shu omborlardan birida o'tirgan fuqaro kiyimidagi 35 yoshlardagi erkak mendan: "Futbol haqidagi maqolani siz yozganmidingiz?" deb so'radi. Men: "Ha. Maqolamni o'qingizmi?" deb javob berdim. U "Ha" dedi va yonidagi sherigiga qarab: "Futboldagi voqea kechagi yig'ilishda qattiq muhokama bo'lgandi. Bunga sababchi shu kishining maqolasidir" degan ma'noda gapirdi (u aytgan so'zlar aniq yodimda qolmagan, ma'nosi shunday edi).

Ishqilib, bu maqola anchagina shov-shuvga sabab bo'ldi. Birinchidan, Osiyo Futbol Konfederatsiyasi bilan kelishilgan holda keyingi xalqaro futbol matchlari kunduzi emas, kechroq o'tkaziladigan bo'ldi.

Ikkinchidan, oddiy militsionerlar formasini kiyib olgan va muxlislarni nohaq kaltaklagan maxsus xizmat organlari xodimlari bevosita futbol stadionidan uzoqlashtirildi. Ya'ni stadionga kiraverishda va ichkarida asosan militsionerlar xizmat olib boradigan bo'lishdi.

Uchinchidan, kamuflyaj, ya'ni maxsus sovutlar kiygan, dubinka va boshqa kaltaklash vositalari bilan qurollangan xodimlar ham stadionga kiraverish joyida hamda ichkarida turmaydigan bo'lishdi. Ular stadionga yaqin panaroq joyda turishar va faqat favqulodda hodisa ro'y bersagina kelib aralashishiga ruxsat beriladigan bo'ldi.

Shunday qilib, yuqorida tilga olib o'tilgan maqolalarim tufayli O'zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejimning haqiqiy basharasi yana bir marta ochib berildi va oddiy militsionerlar formasini kiyib olgan maxsus xizmat organlari xodimlari tomonidan futbol muxlislarning shavqatsiz kaltaklanish hollarini jiddiy kamaytirdi.

20. AYRIM HAKAMLAR FUTBOLNI MAYNAVOZCHILIKKA AYLANTIRMOQDA

Kitobimning 9.1-bandida 1995 yil 15 avgustida Buxoroda "Nurafshon" (Buxoro) va "Yangiyer" (Yangiyer) jamoalari o'rtasidagi uchrashuv vaqtida Toshkentdan kelgan hakam Sayfitdin Ermatovning yo'l qo'ygan xatolari tufayli nohush voqealar ro'y bergani, futbol muxlislari qattiq norozi bo'lganlari va tartibbuzarliklar kelib chiqqani haqida yozgandim.

O'zbekistonda ayrim hakamlar qandaydir kimsalarning ko'rsatmalari yoki moddiy manfaat yo'lida futbol uchrashuvlarida adolatsiz hakamlik qilmoqda. Buni aniq ko'rish uchun birinchi liganing 2006 yildagi shaxmatka jadvalini keltiray. Bunda har bir jamoa o'z maydonida erishgan o'yin natijasi yozilgan. Jamoaning mehmondagi natijasini xuddi shu raqamdagi jamoa katagiga qarab bilib olish mumkin.

Men oliy liga shaxmatkasini gazetalarda topa olmadim. Buni o'zim tuzib chiqishim uchun oliy ligadagi 16 jamoa har turda 8 tadan o'yin o'tkazishini va ikki davra davomida 30 tur uchrashuvlari bo'lganligini hisobga olsak, jami 240 o'yin natijalarini aniqlashtirib chiqib, jadval kataklariga yozishim talab qilinadi. Hozircha bunga men vaqt topa olmadim va 1-liga shaxmatkasini keltirish hamda tahlili bilan chegaralanmoqdaman.

Jadvalga izoh: "Hazorasp", "Qo'qon-1912", "Surxon", "Sirdaryo" jamoalari O'FFga badal pullarini vaqtida bermagani uchun birinchilikdan chetlashtirilgan. Shuningdek, ulardan 6 tadan ochko olib tashlangan. "Oqtapa" va "Kosonsoy-Zakovat"dan esa 3 tadan ochko olib tashlangan. Shu sababli jadvalda tegishli kataklarga "+:-" va "-:+" belgilari qo'yilgan ([114]-maqolada 3 ochko "Oqtapa"dan emas, "Shahrixon" jamoasidan olib tashlanganligi haqida yozilgan).

BIRINCHI LIGA-2006 SHAXMATKASI [117]

Jamoa nomi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1. Quruvchi		3:2	2:0	5:0	0:0	2:0	2:1	3:1	4:0	2:1
2. Vobkent	3:2		2:3	4:2	3:1	4:1	1:0	1:0	2:1	3:0
3. Mash'al-2	1:4	1:0		3:0	2:0	2:1	0:0	2:1	0:0	7:0
4. NBU-Osiyo	3:2	4:3	3:1		4:0	1:2	0:0	2:3	1:4	1:0
5. Tsementchi	1:0	2:2	0:0	3:0		0:0	3:0	2:0	2:0	3:1
6. OTMK	0:0	0:0	0:2	2:1	1:1		3:1	1:0	4:2	3:1
7. G'allakor	1:0	4:0	2:1	3:1	0:3	2:4		3:2	1:1	4:0
8. O'z-Dong Ju	2:1	1:3	0:1	3:0	2:1	1:0	2:0		1:0	2:1
9. Kimyogar	1:3	1:2	3:1	2:1	2:2	1:3	2:4	0:1		6:3
10. Sho'rchi-Lochin	0:0	5:1	1:0	2:4	3:1	1:0	2:2	2:1	2:1	
11. Oqtapa	1:5	1:1	1:2	-:+	1:2	0:2	0:0	1:1	2:4	1:0

12. Kosonsoy-Zakovat	0:1	0:3	-:+	0:3	1:0	1:2	1:0	3:0	2:1	1:0
13. Shahrixon	2:2	2:2	0:2	0:1	0:1	0:0	1:2	2:1	3:4	3:0
14. Miyonkol	2:5	1:4	1:4	0:3	2:1	0:1	2:1	1:0	1:0	5:1
15. Zarafshon	1:3	1:3	0:0	1:0	0:3	2:1	1:1	3:2	3:1	2:0
16. Shayxontohur	0:1	2:3	0:0	0:1	1:1	1:0	1:1	0:1	2:3	3:2
17. Hazorasp	2:1	2:1	0:1	0:2	2:1	1:0	4:2	1:0	2:0	3:1
18. Qo'qon-1912	2:7	2:4	0:0	3:2	1:2	1:3	2:2	2:1	2:4	3:1
19. Surxon	0:2	3:0	0:0	1:3	0:1	1:1	0:1	1:2	0:1	5:1
20. Sirdaryo	0:6	0:4	1:2	2:4	3:2	0:2	0:4	2:0	1:5	2:2

Jadvalning davomi

Jamoa nomi	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
1. Quruvchi	1:0	1:1	3:0	6:0	3:2	2:0	+:-	4:0	4:1	2:1
2. Vobkent	2:0	3:3	6:1	2:1	1:0	4:1	4:0	2:0	4:1	6:1
3. Mash'al-2	3:0	2:0	1:1	4:1	0:0	3:1	3:2	5:2	+:-	4:1
4. NBU-Osiyo	2:0	2:1	1:0	1:0	4:2	5:0	1:0	3:2	1:0	+:-
5. Tsementchi	3:1	1:0	4:0	3:0	4:1	2:2	4:0	+:-	5:0	+:-
6. OTMK	2:1	4:1	0:0	3:0	2:0	2:2	1:1	3:1	2:0	2:0
7. G'allakor	1:3	1:1	2:0	0:0	2:1	3:0	1:0	3:1	5:0	3:0
8. O'z-Dong Ju	4:2	1:1	2:0	3:0	4:0	1:1	2:1	+:-	+:-	5:0
9. Kimyogar	2:0	4:0	1:4	1:0	3:0	1:0	+:-	5:3	1:1	1:1
10. Sho'rchi-Lochin	1:1	5:0	4:2	4:0	4:0	4:0	4:1	6:2	3:1	3:0
11. Oqtepa		1:0	2:0	3:2	3:0	2:1	1:1	2:1	5:0	6:3
12. Kosonsoy-Zakovat	1:1		3:2	0:1	3:1	3:2	2:2	4:1	4:1	2:0
13. Shahrixon	2:1	1:0		1:2	1:2	3:2	2:1	3:2	6:1	2:0
14. Miyonkol	1:2	1:1	4:1		2:1	1:4	0:4	4:1	4:0	1:3
15. Zarafshon	4:2	0:2	1:4	1:2		0:3	3:2	+:-	+:-	5:1
16. Shayxontohur	2:3	1:1	0:0	2:1	2:0		2:2	1:2	7:0	+:-
17. Hazorasp	1:3	2:1	2:0	0:4	3:0	-:+		3:2	1:3	4:0
18. Qo'qon-1912	3:1	3:2	1:2	3:0	5:2	1:2	0:1		1:1	2:0
19. Surxon	1:2	0:2	1:5	2:1	0:1	2:0	2:1	1:0		3:1
20. Sirdaryo	2:1	0:3	0:4	2:3	0:1	4:1	1:2	3:1	1:1	

Jadvalda keltirilgan ba'zi bir o'yinlar natijalariga e'tibor bering. Masalan, "Quruvchi" o'z maydonida "NBU Osiyo"ni 5:0 hisobi bilan yenggan. Lekin "NBU-Osiyo" maydonida mehmonda bo'lganida "Quruvchi" 2:3 hisobi bilan mag'lubiyatga uchrashmoqda. Bu ikki uchrashuvdagi to'plar nisbati 7:3, ya'ni deyarli 2,5 marta farq qilmoqda. "NBU-Osiyo" esa "Tsementchi"ni o'z maydonida 4:0 hisobi bilan yenggach, mehmonda unga 0:3 hisobi bilan yutqazgan. Farq yettita to'p, ya'ni bu ikki uchrashuv orasida "NBU-Osiyo" 7 marta (!) yomonroq o'ynamoqda. Bu o'yin natijasiga hakamlar aralashmagan, deb aytish mumkinmi?!

Jadvalning o'rtarog'idan misol. "Sho'rchi-Lochin" o'z maydonida "Miyonkol" ustidan 4:0 bilan g'alaba qozongan, mehmonda esa 1:5 hisobi bilan mag'lubiyatga uchragan. O'z navbatida "Miyonkol" "Qo'qon-1912"ni 4:1 ga yutib, mehmonda unga 0:3 natija bilan mag'lub bo'lmoqda.

Jadvalda bu va bunga o'xshash oddiy futbol talablariga mos kelmaydigan natijalar juda ko'p. Bu faktlar shundan dalolatki, o'yinlarning natijalariga bevosita hakamlar aralashgan va ko'pgina hollarda tegishli jamoa foydasiga hakamlik qilgan. Albatta, bu futbol emas, bu turgan-bitgani maynavozchilikdir.

Muxlislar bu nohaqlikni ko'rib, albatta, xafa bo'ladi, hushtak chalib shovqin-suron qiladi. Ba'zan esa o'yin tugagach to's-to'polon ham qilishadi. Ba'zilar gazetalariga xatlar yozishadi. Ulardan ayrimlarigina gazetalarda chop etiladi. Shunday ikkita xatni keltirib o'tay.

“Aytish mumkinki, joriy mavsumda 1-liga bahslari o'tgan yillardagiga nisbatan ancha qiziqarli kechmoqda. Xususan, jamoalarning qariyb bir xil saviyada o'yin namoyish etishayotgani turnir jadvalidagi peshqadam va autsayderlar orasidagi farqni unchalik ham katta emasligiga sabab bo'lmoqda.

Biroq, ayrim hakamlarning “kirdikor”lari barcha-barchaning ensasini qotirishda davom etmoqda. Jumladan, 17-turdagi “Hazorasp” – “Kosonsoy-Zakovat” SK uchrashuvida poytaxtlik Abduhamit Rasulov boshchiligidagi hakamlar brigadasi ko'plab qo'pol xatolarga yo'l qo'yishdiki, ularni sanab adog'iga yetolmaysiz. Yana bir diqqatni jalb etadigan jihat shundan iboratki, uchrashuv nazoratchisi, buxorolik Ibrohim Sharipovning qanday qilib hakamlarga bunday yuqori, ya'ni 8,5 balldan qo'yganiga hayron qolmoqdamiz.

Mazkur fikrlar ham aynan ushbu o'yindagi taassurotlardir.

Otabek Mahmudov (“Kosonsoy-Zakovat” SK o'ynovchi murabbiyi):

- Avvalambor aytishim kerakki, bugun jamoamiz juda mazmunli va g'alabaga loyiq o'yin ko'rsatdi. Biroq, uchrashuvni boshqargan hakamlarning g'ayritabiyy “harakat”lari natijasida sun'iy ravishda mag'lubiyatga uhradik. Shaxsan men umrim davomida bunday “hakamlik”ning guvohi bo'lmagandim. Ishonsangiz, ayrim futbolchilarimiz bunday adolatsizlikdan yig'lashdi ham. Eng yomoni, hakam nafaqat bu uchrashuvga bizning ziyonimizga ishladi, balki futbolchilarimizga ko'rsatgan 6 ta “sarig”i bilan kelgusi uchrashuvlarimizga ham “salbiy” ta'sirini ko'rsatib qo'ydi.

O'ylaymanki, bu kabi noxolisliklar tez orada barham topadi, bo'lmasa futbolimiz rivojlanishdan to'xtaydi. O'ylab ko'ring, yaxshi niyat bilan minglab kilometr yo'l bosib kelsagu ayovsiz “kaltaklansak”. Undan ko'ra Xorazmgga kelmasak ham bo'lar ekan... 3:0 hisobida mag'lubiyat yozilardi. Mablag'dan ham iqtisod qilgan bo'lardik ... Xullas, uchrashuvda hakamlar mezbonlar xohlagan stsenariy asosida “rejisser”lik qilishdi. Bilasizmi, mazkur o'yinda mezbonlar muxlislari ham, o'yingohdagi ichki ishlar bo'limi xodimlari ham adolatsizlikdan jig'ibiyron bo'lishib, hatto bizga muxlislik qilishdi.

Zafar Samatov (“Hazorasp” muxlisi):

- To'g'risini aytsam, bugun o'yingohga chiroyli futbol ko'raman, deb tashrif buyurgandim. Ammo o'yinni boshqargan hakamlar bizning jamoamizga ochiq-oydin yon bosishib (ayniqsa, ikkinchi bo'limda), mehmonlarni umuman “yanchib” tashlashdi. Haqiqat yuzasidan aytadigan bo'lsam, bugun kosonsoyliklar g'alaba qozonsalar adolatdan bo'lar edi. Shu o'rinda men hazorasplik o'nlab muxlislar nomidan mehmonlardan kechirim so'rayman. Biz ularning oldida xijolatdamiz.

Mana shunaqa gaplar. Endu bo'yog'iga o'zingiz baho bering!” [118]

“Shu narsa bizni tashvishga solayapti. Stadionning yopilishi haqidagi gaplar esa “Oqtepa” bilan bo'lgan o'yinga taalluqli. O'shanda uchrashuvni boshqargan Azamat Jalilov hamda Bahrom Norsafarovlarning yordami bilan mehmonlar g'alaba qozonishdi. Shuningdek, uchrashuv nazoratchisi Farhod Sulstonov ham ularning orasida bor edi.

Bosh hakam maydonda aql bovar qilmaydigan ishlarni amalga oshirdi. Biz har bir uchrashuvdan keyin futbolchilar bilan suhbatlashamiz. Ular esa hakamlarga nima deyishganini birma-bir gapirib berishadi. “Oqtepa” bilan bo'lgan o'sha o'yinda darvozamiz tomon jarima to'pi belgilandi. Hakam to'pning to'g'ri darvoza tarafga tepilishini ko'rsatdi. Bunday vaziyatda u hushtak chalganidan keyin futbolchi jarima to'pini

tepishi kerak. Lekin toshkentlik o'yinchi hakamning hushtak chalishini kutmasdan darvozamizni ishg'ol etdi. Hakam uning golini inobatga oldi. Darvozamizga kiritilgan boshqa to'plar esa o'yindan tashqari holatdan yo'llangan edi.

Nima, Azamat Jalilov g'allaorollik ishqibozlar futbolning "F" harfini ham tushunmaydi, deb o'ylayaptimi? Bu hakam g'allaorollik muxlislarning ustidan kulyaptimi? O'sha kuni uning hurmacha qiliqlariga chidab tura olmagan mahalliy ishqibozlar qo'llariga tushgan narsalarni hakamlarga ota boshlashdi ...

Bunday hakamlar bor ekan, futbolimizda o'sish bo'lmasligi aniq. To'g'risi, tumanimizda futboldan boshqa ovunadigan narsamiz yo'q. Futbolimiz rahbarlaridan bunday hakamlarga nisbatan jazo qo'llashni so'raymiz.

Uzoqboy UMAROV, Jabbor USMONOV, Sharof TOYLOQOV, G'allaorol tumani." [119]

Ko'pchilik futbol muxlislari, ishqibozlari bunday hakamlarning maynavozchiliklariga norozilik belgisi sifatida umuman stadionlarga bormaydi. Shu sababli ko'pchilik matchlarga juda kam sonidagi, aniqrog'i bir necha yuz nafar tomoshabinlar stadionlarga kelishadi. Mana shunday qilib o'zbek futboli kundan kunga inqiroz sari bormoqda. Axir muxlislarsiz futbol – futbol emasku.

Endi hakam nuqtai nazaridan ham muammoga bir e'tibor beraylik. Faraz qilaylik, hakam telefon orqali yuqoridan berilgan ko'rsatmani bajarmay, adolatli hakamlik qildi, deylik. Ertaga unga nisbatan nohaqlik qilishib, hakamlikdan chetlatishsa va tazyiqqa olishsa, u o'zini qanday himoya qilishi mumkin?

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari erkin emasligi, so'z erkinligi yo'qligi deyarli hammaga ma'lum. Shu sharoitda u o'zini himoya qilib o'sha qonunbuzar rahbar haqida yozgan maqolasini gazetada chop etish uchun birorta muharrirning jur'ati yetarmikan?!

Biz yana aylanib oshkoralik, so'z erkinligi, matbuot erkinligi kabi demokratik erkinliklarning O'zbekistonda yo'qligi va bu barcha sohalarning, jumladan futbolning rivojlanishiga ham xalaqit berayotganligini ko'rmoqdamiz.

Futboldagi adolatsiz hakamlik masalasini suddagi adolatsiz mahkama bilan taqqoslashimiz mumkin. O'zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejim sharoitida sud mahkamalarida poraxo'rlik, korruptsiya avj olib, qanchalik adolatsiz sudlar bo'layotgan bo'lsa, futboldagi hakamlik masalalari atrofida ham taxminan shu darajada poraxo'rlik, korruptsiya rivojlangan va shu darajada adolatsizlik ro'y bermoqda.

Avvalambor, "O'zbekistonda futbolni rivojlantirish to'g'risida"gi qonun qabul qilinmog'i va shu qonun talablari asosida hakamlar oshkoralik sharoitida tanlab olinmog'lari lozim. So'ngra ularga ham o'z muammolari haqida erkin ayta olish va matbuotda maqolalar chop eta olish, radio va televideniya gapira olish imkoniyatini yaratib bermoq kerak. Faqat shunday oshkoralik, demokratiya sharoitidagina adolatli hakamlik bo'ladi va muxlislari haqqoniy, qiziqarli futbol matchlarini tomosha qilishlari mumkin bo'ladi.

21. REFERI R.ERMATOV – 19-JAHON CHEMPIONATIDA

Bu gaplarning to'g'riligini yaqinda - 2010 yil 11 iyundan 11 iyulgacha Janubiy Afrika Respublikasida o'tgan futbol bo'yicha 19-Jahon chempionatida ko'rdik. Ko'pchilik futbol ishqibozlariga ma'lumki, o'zbekistonlik 32 yoshli Ravshan Ermatov ushbu chempionatda beshta bahsga, jumladan, chempionatning ochilish uchrashuvi bo'lmish Janubiy Afrika va Meksika o'rtasidagi uchrashuvga hakamlik qildi. Unga chiziq hakamlari o'zbekistonlik Rafael Ilyosov va qirg'izistonlik (O'shdan) o'zbek Bahodir Qo'chqorov yordamchi bo'ldi.

"Ravshan Ermatov 2008 yilda klublar o'rtasidagi jahon chempionatining final bahsini ham boshqargan edi. Ermatov, shuningdek, 2008 va 2009 yillarda Osiyoning eng zo'r hakami, deb topilgan" [120]

Bu fakt o'tgan yillar davomida hatto Osiyo qit'asi va Jahon birinchiligi miqyosida adolatli hakamlik qila oladigan kadrlar Vatanimizda o'sib yetganligidan dalolat bermoqda.

Ravshan Ermatovning quyidagi gaplari e'tiborga molikdir.

“Xudoga shukur bizlar ochilish o'yinidagi o'yinni yakunlovchi hushtakni chalgandan keyin ko'zimizdan yosh oqqan edi. Bu baxt yoshlari edi. Bizga ishonchsizlik bilan qaragan odamlarning fikrini o'zgartira oldik biz. O'zbekistonda futbol borligini, O'zbekistonda bu ishni eplay oladigan odamlar borligini bizlar butun dunyoga ko'rsatdik. O'yindan oldin bizga “Bu o'yinni to'rt milliarddan ortiq odam tomosha qiladi” deb aytishgan edi. Bu to'rt milliarddan oshiq odam o'yinni ko'rayapti degani. Biz to'rt milliarddan oshiq odamga bunga O'zbekiston dostoyniy (munosib, A.Sh.) ekanligini ko'rsata oldik. O'zbekistonda dostoyniy odamlar borligini, O'zbekistonga unaqa fikr bilan qaramaslik kerakligini, O'zbekistonga hurmat bilan qarash kerakligini biz ko'rsata oldik” [121]

“Nimaga desangiz hakam bo'lish juda og'ir ish. Juda katta sabr, juda katta mehnatni talab qiladi. Ba'zida yaxshi kunlar ham bo'ladi, yomon kunlar ham bo'ladi. Bitta xato qilsangiz, hamma sizdan yuz o'giradigan darajaga kelib qoladi. Lekin shunaqa paytda mehnat qilishni to'xtatish kerak emas. Kuchli xarakterga ega bo'lish kerakda. Shundagina yutuqqa erishish mumkin. Konechno (albatta, A.Sh.) Xudo qo'llasa hech gap emas. Har bitta kasb egasiga kerak bo'lganday omad kerak hakamlikda ham. Hakam o'zining kasbini sevishi kerak. Uni yurakdan qilish kerak. Maydonga chiqib kimgadir o'zini ko'rsatish uchun emas, yurakdan qilish kerak. Menimcha, hamma kasbda ham shuku. Yurakdan qilsangiz, o'sish bo'ladi, oldingizda imkoniyatlar ochiladi” [121]

Endigi vazifa – Vatanimizdagi futbol uchrashuvlarida adolatli hakamlikni ta'minlashdir. Buning uchun 32 yoshli jahon miqyosida hakamlik obro'siga ega bo'lgan Ravshan Ermatov rahbarligida qobiliyatli yoshlarni futbol hakamligiga jalb qilish va ular mahoratining o'sishiga har tomonlama yordam berishdir. Xuddi FIFAdagi kabi O'zbekiston oliy va birinchi ligasidagi uchrashuvlar hakamlar hayyatida adolatli muhokama etilishi, xatolarga aniq baho berilishi, adolatli talantli yoshlarni hakamlik borasida qo'llab-quvvatlash, yoshlarga va O'zbekistonda hakamlik qilayotganlarga hakamlik sohasida dars berish uchun R.Ermatov orqali FIFAdan ham mashhur referilar lektsiyalari hamda amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va shunga o'xshash amaliy ishlarni qilmoq kerak.

Eng muhimi – bu amaliy ishlar oshkora qilinishi, ommaviy axborot vositalari orqali futbol muxlislariga axborot berib borilishi kerak. Shunday qilganimizda hakamlik sohasidagi adolatsizlikning jiddiy kamayishiga va o'zbek futbolining o'sishiga yordam bergan bo'lamiz. Bu ishlar Vatanimizdagi bugungi politsiyaviy siyosiy rejim sharoitida qay darajada amalga oshishini esa vaqt ko'rsatadi. (2010 yil 18 iyul, A.Sh.)

22. FUTBOLCHILAR TRANSFERLARI OSHKORALIGI

Mamlakatimiz futbolida ko'p yillardan beri futbolchilarning klubdan klubga o'tishi, xorij klubiga sotish kabi masalalar millionlab futbol muxlislariga oshkora aytilmayotir (bu fikrlar 2006 yilda yozilgandi, A.Sh.). Transfer ishlari jahonda ko'pgina hollarda oshkora olib boriladi. Futbol muxlisleri futbolchi qaysidir jamoaga qancha pul evaziga o'tgani, O'zbekiston chempionatidagi eng qimmatli futbolchi kim ekanligi va shunga o'xshash ma'lumotlarni bilishga haqlidir.

Bu ma'lumotlarni sir saqlash orqali O'FF rahbarlari futbol atrofidagi amaldorlarning tanish-bilishchilikka, o'z mansabini suiiste'mol qilishlariga, poraxo'rlik, korrupsiya avj olishiga sharoit yaratib bermoqda va bundan o'zlari ham manfaatdor bo'lmoqda. Shu sababli ham bu masalalar gazetalarda juda kam yoritilmoqda, radiolarda aytilmaydi, televideniye ko'rsatuvlarida bu haqda so'z yuritilmaydi.

Men O'zbekiston futbolchilarining transferlari oshkoraligi haqidagi band nomini maqola mundarijasiga 2006 yil iyul o'rtasida kiritdim (frants. transfert – o'tkazish < lot. transferre - o'tkazib qo'ymoq, olib o'tmoq [14,

644-b.]). 2006 yil 1 avgust kuni bu masalaga doir [122]-maqola gazetada chop etildi. Shu maqoladan iqtibos keltiray.

“Yurtimizda ham davralar oralig’ida transfert bozorida xaridlar qizigandan qizib ketdi. Aksariyat klublar o’z tarkiblarini kuchaytirish uchun boshqa jamoalarning o’yinchilarini qo’lga kiritishga harakat qildilar. Qaysi futbolchilar o’z jamoalarini o’zgartirganini muxlislar yaxshi biladilar. Shuning uchun bu mavzuga alohida to’xtalib o’tirmaymiz. Faqat transferlar chog’ida tartib-qoida buzulishi qanday oqibatlarga olib kelishini eslatib o’tmoqchimiz.

Kuni kecha “Qizilqum” o’yinchisi Shavkat Mullajonovning “Buxoro” klubiga ketib qolganiga taalluqli masala mamlakat futbol federatsiyasida ko’rib chiqildi. O’FF rasmiy saytining aytishicha, bu o’yinchi zarafshonliklar bilan tuzilgan shartnomasi tugamay turib buxoroliklar tarkibiga qo’shib olgan edi. Uning shartnomasi esa 5 avgust kuni o’z nihoyasiga yetardi. Sodda qilib aytganda, Mullajonov o’zboshimchalik qilgani uchun O’FF muhokamasiga yo’liqdi. To’g’ri, har qanday o’yinchi shartnoma muddati tugashi arafasida yangi jamoa izlashga haqli. Biroq “Qizilqum”ustoz Igor Shkvirinning aytishicha, Mullajonov uyiga ketish uchun javob so’ragan va uyiga bormasdan Buxoroga yo’l olgan. Holbuki unga zarafshonliklar shartnomani uzaytirishni taklif qilishgan ekan. Oxir-oqibatda Mullajonov baribir “Qizilqum”ga qaytdi.

“Andijon” klubining bir nechta o’yinchilari ham o’zaro shartnoma borligiga qaramay, “Navbahor” safiga qo’shib olgandilar. Namanganliklarga ustozlik qilayotgan Rustam Mirsodiqov o’zining sobiq shogirdlari Ma’mur Ikromov, Odil Isaboyev va Hikmat Hoshimovni “Navbahor”ga ko’chib o’tishga ko’ndirgan edi. Shu bois andijonliklar O’FFga shikoyat xatini yozgandilar. Lekin taqdirning o’zi hamma narsani joy-joyiga qo’ydi. Rustam Mirsodiqov “Navbahor” bosh murabbiyi lavozimini tark etdi. Oqibatda birinchi davrani andijonliklar safida o’tkazgan Ikromov va Hoshimov “Andijon”ga qaytishga majbur bo’ldilar.

Transferlar chog’ida tartib-qoidaning buzilishi hech qaysi mamlakatda jazosiz qolmaydi. Yurtimizda ham qoidabuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko’riladi. Bu borada musobaqalar Reglamenti o’ziga xos dastak vazifasini o’taydi.

Reglamentda aytilishicha, boshqa klubga amaldagi shartnoma orqali bog’langan futbolchi bilan (xuddi “Chelsi” – Eshli Koul voqeasiga o’xshab) bevosita yoki bilvosita aloqa qilish quyidagicha jazolanadi:

- ogohlantirish;
- 1000000 so’mgacha jarima;
- yangi futbolchilarni qayd etishni 12 oygacha taqiqlash.

Ayrim jamoalar boshqa klub bilan amaldagi shartnomaga ega bo’lgan o’yinchini shtatga kiritib oladilar, uni o’quv-mashg’ulot yig’iniga jalb etadilar, shuningdek jamoa safida chet el safariga olib boradilar. Bunday hollarda ham o’sha jamoa ogohlantirish; 1 million so’mgacha jarima; 1,5 million so’mgacha jarima yoki yangi futbolchilarni 12 oygacha taqiqlash bilan jazolanadi.

Davralar yoki mavsumlar oralig’ida ba’zi futbolchilar o’zi o’ynayotgan klub bilan tuzilgan shartnomasi tugamay turib boshqa klubga o’tishga urinishlarini ko’p ko’rganmiz. Bunday paytda o’sha o’yinchiga egalik qilayotgan klub milliy federatsiyaning intizom qo’mitasiga murojaat qilishi tayin. Intizom qo’mitasi esa o’sha futbolchining boshqa klubga o’tishini taqiqlab qo’yishi hech gap emas. Agar boshqa klubga o’tishni taqiqlash haqidagi qaror chiqqanidan keyin o’sha futbolchi 10 kunlik muhlat ichida amaldagi shartnoma bilan bog’liq bo’lgan klubga qaytishdan bosh tortsa, 12 oyga diskvalifikatsiya qilinadi.

Shartnomasini tugatmay ketib qoladigan futbolchilarning aksariyati o’z klubida ish haqi va boshqa mukofot pullarini berish paysalga solinayotganini ro’kach qiladi. Lekin bunday muammoni boshqa jamoaga o’tib ketish bilan hal etib bo’lmaydi. Buning uchun milliy federatsiyaga arz qilishdan yaxshiroq yo’l yo’q. Agar futbolchi mutasaddilarga murojaat qilsa, muammo tezroq bartaraf etilishi mumkin. Chunki Reglamentda

aytilganidek, ish haqi va pul mukofotlari bo'yicha futbolchilar, murabbiylar va klubning boshqa ishchilari bilan shartnomaga asosan hisob-kitob qilish muddatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar qo'llaniladi:

- ogohlantirish;
- 1000000 so'mgacha jarima;
- 1500000 so'mgacha jarima;
- yangi futbolchilarni qayd etishni taqiqlash;
- uch ochko olib tashlash (chempionatda, birinchilikda).

Ko'rib turganingizdek, Reglamentda hamma narsa inobatga olingan. Shu bois birorta futbolchini og'irib olish uchun boshqa bir jamoani laqillatishga urinadigan yoki qarzlari ko'payib ketdi degan bahona bilan o'z jamoasini tark etadigan bebosh futbolchilar jazosiz qolmaydi. Ayrim klublar ishni imi-jimida bitirishga harakat qilishlarini muxlislar yaxshi biladilar. Lekin o'sha o'yinchi bilan shartnomaga ega bo'lgan va uni sotish orqali avvalgi xarajatlarini qoplaydigan pulga ega bo'lishni o'ylab yurgan ikkinchi jamoa jabr ko'rib qolmasligi kerak. Reglament aynan shunday nohush hollarning oldini olish uchun tuzib chiqilgan. Unga amal qilmaydigan klub yoki futbolchiga esa jazo muqarrar." [122]

Birinchidan, Musobaqalar Reglamentining to'liq matni futbolga doir gazetalarda chop etilsa yaxshi bo'lardi. Bu oshkoralik sari birinchi qadam bo'lardi.

Ikkinchidan, Reglamentni yaxshilash, oshkoralikni oshirish, futbolchilar haq-huquqlarini himoya qilish uchun unga qo'shimcha moddalar kiritmoq kerak. Buning uchun esa futbol mutaxassislari, futbolchilar va muxlislar o'rtasida muhokama etib, taklif-mulohazalarni gazeta-jurnallarda chop etish va o'rganmoq kerak. So'ngra O'FFda muhokama etib Reglamentga qo'shmoq kerak. Bu demokratiyani, so'z erkinligini talab etadi. O'zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejim bunday oddiy masalalarda ham, ya'ni FUTBOL deb ataluvchi demokratik sport o'yinida erkin muhokama va oshkoralikka yo'l bermaydi-da!

Ushbu bandeda futbol kundun-kunga rivojlanayotgan Rossiya, Ukrainada va Angliyaning "Chelsi", Ispaniyaning "Barselona" klublarida to'p surayotgan eng serdaromad futbolchilarga 2006 yilda to'lanayotgan oylik maoshlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tsam (1 yevro = 1,3 dollar).

"Rossiyaning serdaromad o'yinchilari:

1. Andrey ARSHAVIN ("Zenit" hujumchisi) – oyiga 250 ming yevro.
2. Fotih TEKKE ("Zenit" hujumchisi) – oyiga 180 ming yevro.
3. Dmitriy LOSKOV ("Lokomotiv" yarim himoyachisi) – oyiga 160 ming yevro.
4. Sergey IGNASHEVICH (TsSKA yarim himoyachisi) – oyiga 160 ming yevro.
5. Yegor TITOV ("Spartak" yarim himoyachisi) – oyiga 145 ming yevro.

Ukrainaning serdaromad o'yinchilari:

1. MATUZALEM ("Shaxter" yarim himoyachisi) – oyiga 150 ming yevro.
2. Elano BLUMER ("Shaxter" yarim himoyachisi) – oyiga 130 ming yevro.
3. JADSON ("Shaxter" yarim himoyachisi) – oyiga 125 ming yevro.
4. Diogo RINKON ("Dinamo" yarim himoyachisi) – oyiga 120 ming yevro.
5. RODOLFO ("Dinamo"himoyachisi) – oyiga 100 ming yevro.

Dunyoda eng yuqori haq oladigan futbolchilar:

1. Andrey SHEVCHENKO ("Chelsi" hujumchisi) – oyiga 1 million yevro.
2. Mixael BALLAK ("Chelsi" yarim himoyachisi) – oyiga 1 million yevro.
3. RONALDINYO ("Barselona" yarim himoyachisi) – oyiga 950 ming yevro.
4. Frenk LEMPARD ("Chelsi" yarim himoyachisi) – oyiga 760 ming yevro.
5. Jon TERRI ("Chelsi" himoyachisi) – oyiga 660 ming yevro.

Izoh: bunga reklamalardan keladigan pullar ham kiritilgan.” [1123]

“Frans Futbol” jurnali keltirgan dunyoning eng badavlat futbolchilari ro'yxatining yuqori o'nligi quyidagilardan iborat (raqamlar million yevroda ko'rsatilgan).

1. Ronaldinyo	Barselona	23.
2. Devid Bekxem	Real	18.
3. Ronaldo	Real	17,4
4. Ueyn Runi	Manchester Yunayted	16,1.
5. Kristian Vyeri	Monako	16.
6. Zinedin Zidan	Real	15.
7. Aleksandro Del Pyero	Yuventus	11,5.
8. Frenk Lempard	Chelsi	9,8.
9. Tyerri Anri	Arsenal	9,8.
10. Djon Terri	Chelsi	9,7.” [124]

Zamonamizning yorqin futbol yulduzi, eng badavlat futbolchisi, braziliyalik mashhur Ronaldinyo haqida ma'lumot ham berib o'tay. Men 2002 yilda Yaponiyada bo'lib o'tgan 17-jahon chempionatida Braziliya terma jamoasi safida o'ynagan Ronaldinyoning Angliya terma jamoasi darvozasiga urgan ajoyib golini eslayman: darvozadan 35 metrlik masofada, yon chiziq yaqinida hakam angliyaliklar darvozasi tomonga jarima to'pi belgilagandi. Shunda ko'pchilik Ronaldinyo to'pni jarima maydoniga jamoadoshlariga tashlab berishini kutib turgandi. Lekin u to'pni shunday qoyilmaqom qilib tepdiki, to'p to'g'ri borib darvozaning yuqori burchagiga kirdi! Buni darvozabon ham kutmagan edi.)

“RONALDINYO

Tug'ilgan sanasi: 21.03.1980.

Ampluasi: markaziy va chap qanot hujumkor yarim himoyachisi.

Bo'yi: 180 sm.

Og'irligi: 73 kg.

Jamoda 2003 yildan.

Portu- Alegre shahri futbol maktabi tarbiyalanuvchisi.

Transfer qiymati: 70 million yevro.

Maoshi: 6,2 million yevro.

Shartnoma muddati: 2010 yilgacha (ikkala tomon xohishi bilan yana 4 yilga uzaytirilishi mumkin).

Chekinish narxi: 200 million yevro.” [125]

Rossiyaning NTV telekanali, “Segodnya” ko'rsatuvida 2006 yil 5 dekabr kuni berilgan ma'lumotga ko'ra Ronaldinyo 2006 yilda 33 million dollar ishlabdi. Mana shunday katta miqdorda pul to'lab, rivojlangan davlatlar o'z futbolini yanada taraqqiy ettirmoqdalar va o'zlarining millionlab, hatto jahondagi milliardlab futbol muxlislariga, jumladan menga ham olam-olam quvonch baxsh etmoqda.

23. LOTIN AMERIKASI HAMDA AFRIKADAN MOHIR LEGIONERLARNI FUTBOL KLUBLARIMIZGA TAKLIF ETISH QAY AHVOLDA?

Ma'lumki, har qanday terma jamoa o'yin darajasini asosan o'sha mamlakat oliy ligasi klublarining o'yin darajasi belgilab beradi. Terma jamoa o'yin mahoratini oshirish, uni Osiyo qit'asining oldingi saflariga, so'ngra Jahon darajasiga olib chiqish uchun avvalambor oliy liga futbol klublarining o'yin darajasini keskin oshirmoq lozim.

Buning asosiy yo'li – O'zbekiston oliy liga futbol klublariga Lotin Amerikasi va Afrikadan mohir futbolchi (legioner)larni taklif etish, ular bilan shartnoma tuzish va chempionatimizda o'ynatishdir.

Ochig'ini aytish kerak: Lotin Amerikasi va Afrikadan legionerlarni taklif etish yomon ahvolda. Legionerlarga oid dastlabki ma'lumot 1998 yil kuzida, O'zbekiston terma jamoasiga braziliyalik Veyga da Silva bosh murabbiy bo'lgan paytda "O'zbekiston futboli" gazetasida qisqacha ma'lumot berilgan edi. V.da Silva Braziliyadan mohir futbolchini taklif etgandi ([127]-maqolada "Paxtakor" klubi tarkibida braziliyalik Fabiano Anderson o'ynaganligi haqida yozilgan). U Toshkentga kelib, "Paxtakor" tarkibida 1-2 ta o'yinda ishtirok ham etgandi. O'zbekiston Futbol Federatsiyasi rahbariyati braziliyalik futbolchi bilan shartnoma ochish chora-tadbirlarini qilmadi. Va u Yer sharining narigi tomonidan – Braziliyadan katta xarajatlar bilan kelib, O'zbekiston futbol rahbariyati e'tiborsizligi sababli o'z yurtiga qaytib ketishga majbur bo'ldi.

Quyidagi ma'lumot 2003 yil bahorida "Surxon" (Termez) futbol klubiga kelgan braziliyalik ikki nafar futbolchi haqidadir.

"2003 yil 4-5 aprel kunlari Termiz shahrida Buyuk alloma Al Hakim at-Termiziy xotirasi va Prezident sovrini uchun o'tkazilgan o'zbek kurashi bo'yicha 6-xalqaro turnirga braziliyalik polvonlar bilan birga ikki nafar futbolchi – Xulio Sezar Kalisto va Silvio Sezar Gaviollilar ham tashrif buyurishdi. Biz kurash ayni qizigan payti Braziliyadan aynan "Surxon" jamoasida o'ynash uchun kelgan mehmon futbolchilar bilan suhbatlashdik.

- Xulio Sezar va Silvio Sezar shu paytgacha qaysi jamoada o'ynashgan?

- Biz bir necha mavsumdan beri Braziliyaning mashhur shaharlaridan biri – San-Paulaning mamlakat oliy divizionida qatnashuvchi "San-Paulo" jamoasida faoliyat ko'rsatib kelayotgandik. Rahbarlarimiz "O'zbekistonning futbol jamoasiga kim boradi", deb so'rashganida ikkimiz birinchilar qatori rozi bo'ldik.

- Sizlar maydonning qaysi chizig'ida harakat qilaszlar?

- Men – hujumchiman, – deydi Xulio Sezar. – Do'stim Silvio esa hamisha yarim himoyada o'ynab kelgan. O'ylaymizki, har ikkimiz ham bizni xushnudlik bilan qabul qilgan "Surxon" jamoasi yutuqlariga hissamizni qo'shamiz.

- Malol kelmasa aytinglarchi, sizlar qancha muddatga kelgansizlar?

- Biz "Surxon" jamoasi rahbarlari bilan hozircha olti oylik muddatga shartnoma tuzdik. Shartnomada "Surxon" futbolchilari qayerda yotishsa, yotishga, qanday ovqat yeyishsa biz ham o'shani iste'mol qilishga roziligimizni ko'rsatganmiz. Mehnat haqimiz ham uncha baland emas. Agar jamoadagi sharoitlar, umuman chempionatingiz bizga yoqsa va bizning o'yinlarimiz ham muxlislarni qanoatlantirsa, shartnoma muddatini uzaytirishimiz mumkin. Aks holda ..." [126]

Ushbu ikki legionerning keyingi taqdiri noma'lumdir. Men 2003 yil oxirrog'ida oliy liga jamoalari futbolchilari qatnashgan o'yinlar soni va natijalari jadvaliga qaraganimda, ulardan biri "Surxon" jamoasi tarkibida bitta o'yindagina ishtirok etganligi haqidagi fakti o'qidim. Fikrimcha, muammo yana moliyaviy masalaga borib taqalgan, ya'ni ularga tegishli miqdorda pul to'lanmaganligi sababli jamoadan ketishga majbur bo'lishgan.

Oqibatda "Surxon" (Termez) klubi oliy ligani tark etib, 1-ligaga tushib ketdi. Bugungi kunda "Surxon" 2006 yilgi futbol mavsumi va futbol rahbariyatining sanksiyalari natijasida 1-ligadagi 20 jamoa orasida 19-o'rinni (!) egallab, 1-ligadan ham quvildi (1-ligadagi o'yinlarga doir yakuniy jadvalni 18-bandda keltirgandim) [128].

Mana sizga braziliyalik legionerlarga sovuq munosabat va uning salbiy oqibatlari. Axir, braziliyaliklarga sharoit yaratib berilganida, "Surxon" O'zbekiston oliy ligasining ko'zga ko'ringan, faol jamoalaridan biriga aylangan bo'lardi. Afsuski, ularga "Surxon" tarkibida o'ynash uchun sharoit yaratib berilmadi va aks hol ro'y berdi ...

Hozirgi zamon futboldan kam ma'lumotga ega bo'lganlar: "Muallif legionerlarga haddin tashqari ko'p ahamiyat berayotir" deyishlari mumkin. Ularga javob sifatida Rossiyaning TsSKA (Центральный спортивный клуб армии – Markaziy harbiy sport klubi) tarkibida to'p surayotgan braziliyalik legioner Daniel Karvalyu haqida ma'lumot beray.

Ma'lumki, Karvalyuning braziliyacha ajoyib o'yini tufayli 2005 yilda Rossiya tarixida 1-marta TsSKA UEFA kubogini qo'lga kiritdi: TsSKA final o'yinida Portugaliya poytaxti – Lissabonda "Sporting" jamoasini 3:1 hisobi bilan mag'lubiyatga uchratdi.

"Mutaxassislar ta'rif berganidek, Braziliya chindan ham futbol yulduzlarini ishlab chiqaradigan ulkan fabrika. Ta'bir joiz bo'lsa, bu yurt aholisining tomirida futbol qoni oqadi, deyish mumkin. Hozir qaysi bir mamlakatning ichki chempionatiga nazar tashlamang, albatta unda ishtirok etadigan jamoalarning safida braziliyalik o'yinchi borligiga guvoh bo'lasiz. Ayni paytda Rossiya premier-ligasida afsonaviy Pelening o'nlab vatandoshlari to'p surishmoqda.

Bugungi (2006 yilgi, A.Sh.) "Lokomotiv"ni Limasiz, "Krilya Sovetov" Souzasiz, "Saturn"ni Jeder va Jansiz, "Rubin"ni Ronisiz va nihoyat UEFA Kubogida zafar quchib Rossiya futboli tarixida yangi sahifa ochgan TsSKAni Daniel Karvalyu hamda Vagner Lavlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Quyida UEFA Kubogi musobaqasining hal qiluvchi o'yinida qahramonlik ko'rsatgan Karvalyu haqida qisqacha hikoya qilmoqchimiz.

Esingizda bo'lsa, yarim final bahsining javob uchrashuvida armiyachilarning braziliyalik himoyachisi Karvalyu "Parma" darvozasiga ikkita gol urib TsSKAni finalda o'ynashi uchun yo'l ochib bergandi...

To'g'risini aytganda, finalda armiyachilarga "Sporting" raqib bo'lishi ma'lum bo'lganidan so'ng ko'pchilik o'z maydonida to'p surish imkonini qo'lga kiritgan lissabonliklarning zafar quchishiga shubha qilmayotgandi. Ammo o'z darvozalaridan birinchi bo'lib to'p olib chiqqan moskvaliklar tanaffusdan keyin butunlay boshqacha o'yin namoyish etdilar. Buni qarangki, Rikardu qo'riqlayotgan darvozaga kiritilgan uch golga birinchi bo'limda qo'pol xatoga yo'l qo'ygan qahramonimiz assistentlik qildi." [127]

"Ma'lumot uchun. Daniel da Silva Karvalyu. 1983 yil, 1 mart kuni Pelotas shahrida tug'ilgan. Bo'yi: 180 sm, vazni: 79 kg. Ampluasi: yarim himoyachi. To'p surgan jamoalari: "Internasional" (2001-2004). TsSKA bilan 2004 yilning 1 fevralida shartnoma imzolagan (shartnoma 2008 yilgacha tuzilgan, A.Sh.). Erishgan yutuqlari: Rio-Grande-do-Sul shtatining chempioni – 2002. O'smirlar o'rtasida jahon chempioni – 2003. Rossiya Superkubogining sohibi – 2004. UEFA Kubogining g'olibi – 2005." [127]

O'zbekiston oliy liga jamoalarida to'p surayotgan olis xorijiy mamlakatlardan kelgan legionerlar soni haqida ham, ularning har biri haqida ham axborot juda kam edi. Quyidagi ma'lumot 2006 yil 15 avgustida gazetada chop etildi.

"O'tgan hafta o'rtalarida "Lokomotiv" (Toshkent, A.Sh.) klubi lagerida ikki nafar legioner paydo bo'ldi. Ulardan birinchisi braziliyalik Everton bo'lib, yarim himoya amplusida to'p suradi. U Braziliyaning "Parana" jamoasidan transfer qilindi. Bu haqda "Lokomotiv" klubi texnik direktori Ravshan Usmonxo'jayev O'FFga ma'lum qildi.

Everton milliy chempionatimiz uchun braziliyalik dastlabki o'yinchi emas. Uning vatandoshlari bungacha "Paxtakor" (Fabiano Anderson) va "Surxon" jamoalarida ham o'z vaqtida to'p surishgan. Ravshan Usmonxo'jayevning xabar berishicha, tez orada jamoa tarkibiga nigeriyalik ikkinchi legioner ham kelib qo'shiladi. JAR (Janubiy Afrika Respublikasi, A.Sh.) chempionatida "Benoni Premer Yunayted" jamoasi sharafini himoya qilgan Obinna Okofor yaqin kunlarda temiryo'lichilar libosini kiysa, ushbu mavsum (2006 yilda, A.Sh.) yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan nigeriyalik uchinchi futbolchiga aylanadi. Eslatib o'tamiz,

hozirda nigeriyalik Uche Ixeroume “Paxtakor”da, Patrik Agbo esa “Navbahor-N” safida to’p surishmoqda.” [128]

Men O’zbekistondagi legionerlar haqidagi ma’lumotlar juda kam ekanligi haqida ushbu tahliliy maqolada yozib, saytimizga jo’natgandim. Maqola 2006 yil 15 noyabrdan beri chop etilishi davomida shu haftada [129]-maqolada statistik ma’lumotlar bosildi (ota-bobolarimiz aytganidek “Tanqid – kelajakning mevasidir”).

Quyida O’zbekiston oliy liga o’yinlarida 2006 yilda qatnashgan legionerlar ko’rsatkichini keltirib o’taman. Bunda 1 – futbolchi; 2 – jamoa nomi; 3 – tug’ilgan sanasi; 4 – o’tkazgan o’yini; 5 – umumiy daqiqasi; 6 – goli (- o’tkazib yuborgan goli); 7 – ogohlantirish + chetlatish (* – ikkita jamoada o’ynagan futbolchilar).

1	2	3	4	5	6	7
1. Ixeroume Uche (Nigeriya)	“Paxtakor”	14.04.1987	24	1280	17	3 + 1
2. Belix Maksim (Turkmaniston)	“Paxtakor”	16.06.1984	3	225	-	-
3. Urazov Dayanqilich* (Turkmaniston)	“Neftchi”, “So’g’diyona-2004”	15.12.1978	5 12	174 788	2 2	- -
4. Saparov Rustam (Turkmaniston)	“Nasaf”	10.04.1978	25	2171	2	4 + 2
5. Alikperov Vitaliy (Turkmaniston)	“Nasaf”	01.08.1978	25	2144	15	8
6. Nosirov Mekan (Turkmaniston)	“Nasaf”	16.04.1982	13	864	1	3
7. Ereshov Zafar (Turkmaniston)	“Nasaf”	28.06.1979	2	130	-	1
8. Butenko Pavel (Rossiya)	“Mash’al”	14.12.1977	21	1890	-19	-
9. Ostap Anatoliy (Moldova)	“Mash’al”	22.11.1979	7	477	-	2
10. Dotsenko Valeriy (Ukraina)	“Mash’al”	23.12.1978	1	38	-	-
11. Iskandarov Rustam (Turkmaniston)	“Traktor”	23.07.1975	12	921	-19	1
12. Bogdasaryan Arsen (Turkmaniston)	“Traktor”	11.03.1977	6	321	-	-
13. Portrimba Sergey (Moldova)	“Qizilqum-Oltin”	11.03.1978	15	1151	-	2
14. Gushile Dumitru (Moldova)	“Qizilqum-Oltin”	03.06.1978	8	261	1	3
15. Otayev Davlatmurod (Turkmaniston)	“Navbahor-N”	16.03.1983	27	2002	3	8
16. Mirzoyev Arif (Turkmaniston)	“Navbahor-N”	13.01.1980	26	2211	17	4 + 1
17. Hojiyev Didar (Turkmaniston)	“Navbahor-N”	01.12.1980	23	1911	2	3
18. Hamroyev Murod* (Turkmaniston)	“Navbahor-N” “Samarqand-Dinamo”	15.05.1983	14 13	1111 973	- 2	4 3

19. Agbo Patrik (Nigeriya)	“Navbahor-N”	10.05.1981	13	930	5	5
20. Kavalkante Everton (Braziliya)	“Lokomotiv”	13.07.1982	10	839	5	2 + 1
21. Melikov Grigoriy (Rossiya)	“Lokomotiv”	11.05.1976	6	540	-9	-
22. Okafor Obinna (Nigeriya)	“Lokomotiv”	13.07.1981	3	108	-	-
23. Borovik Boris (Turkmaniston)	“Andijon- Uzdeuavto”	20.08.1979	7	608	-	3 + 1
24. Matus Pavel (Turkmaniston)	“Buxoro”	26.05.1982	30	2700	-34	2
25. Kashensev Nikolay (Rossiya)	“Buxoro”	19.07.1974	29	2539	1	8
26. Xo’jaahmedov Baxtiyor (Turkmaniston)	“Buxoro”	14.02.1985	26	2066	1	7
27. Shumara Andrey (Qozog’iston)	“Buxoro”	13.11.1982	8	691	-	1
28. Gevorkyan Artur (Turkmaniston)	“Sho’rtan”	22.11.1984	14	1254	7	1
29. Bozorov Farhod (Turkmaniston)	“Sho’rtan”	30.01.1980	9	810	-14	-
30. Muxadov Azat (Turkmaniston)	“Sho’rtan”	21.02.1982	7	462	-	1
31. Durdiyev Shoxrat (Turkmaniston)	“Sho’rtan”	23.06.1982	1	18	-	-
32. Qambarov Aziz* (Turkmaniston)	“Sug’diyona- 2004”	12.08.1979	3	69	-	-

Demak, 2006 yilgi futbol mavsumida O‘zbekiston oliy ligasida jami 32 nafar legioner qatnashgan ekan. Turkmaniston – 20. Nigeriya, Moldova va Rossiya – 3 nafardan. Braziliya, Ukraina va Qozog’iston – 1 nafardan. Ulardan faqat 4 nafari uzoq xorij mamlakatlar fuqarosidir. Qolgan 28 nafari sobiq Sovet Ittifoqi hududida tug‘ilib voyaga yetgan fuqarolardir.

Legionerlar masalasida mamlakatimizdagi ahvolni uzoq xorij mamlakatlari bilan emas, “Yon qo‘shnimiz – jon qo‘shnimiz” – Qozog’istondagi ahvol bilan taqqoslay.

“Qozog’iston superligasi legionerlari:

Rossiya – 17. Moldaviya – 12. O‘zbekiston – 10. Turkmaniston – 6. Gruzziya, Bolgariya, Serbiya va Chernogoriya, Braziliya, Ukraina – 3 nafardan. Armaniston, Qirg’iziston – 2 nafardan. Belorussiya, Litva, Ruminiya, Chexiya, Bosniya, Nigeriya, Marokko – 1 nafardan. Jami 71 nafar.

2006 yilgi chempionatda superliganing 16 ta jamoasini 71 legioner himoya qilmoqda. Ulardan faqat 17 nafari uzoq xorij mamlakatlar vakillaridir, qolganlarning hammasi qachonlardir Sovet Ittifoqi hududida tug‘ilishgan va yashashgan.” [130]

Bu ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, o‘z chempionatida qatnashayotgan legionerlar umumiy soni jihatidan hatto Qozog’iston ham O‘zbekistondan oldinda ekan.

Eslatib o'taman:

“O'zbekiston chempionatida xorijliklarga belgilangan kvotalar salmoqli – 5 nafar o'yinchi, biroq hech qaysi jamoa bundan to'liq foydalanmaydi (lot. kvota – qism, hissa – umumiy ishda ishtirok etuvchilarning har biriga to'g'ri keladigan hissa, qism, pay [2, 4-j., 533-b.])” [131]

Ma'lumki, Osiyo qit'asidagi eng kuchli futbol jamoalaridan biri Yaponiya terma jamoasidir. Bunga asosiy sabablardan biri – uning chempionatida uzoq xorijdan, avvalambor Braziliyadan kelgan legionerlar, shuningdek xorijlik murabbiylar futbol klublarida ishlayotganligidadir. Buni tasdiqlash niyatida Yaponiya chempionatining so'nggi turiga doir qiziqarli ma'lumotni keltirib o'tsam.

“So'nggi turda o'tgan yilgi chempion – “Gamba Osaka”ni 3:2 hisobda mag'lub etgan “Urava Reds” jamoasi o'z tarixida birinchi marta Yaponiya chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

62 ming muxlis ko'z o'ngida kechgan uchrashuvda dastlab hisobni 21-daqiqada “Gamba”ning braziliyalik legioneri Magnu Alvesh ochdi. Ammo 27-daqiqada Robson Ponte, keyinroq 44- va 59-daqiqalarda braziliyalik Vashingtonning gollari “Urava” g'alabasini ta'minladi. 78-daqiqada Yamaguchi kiritgan gol hech nimani hal qilmadi.

Biz bu g'alaba uchun uch yil mehnat qildik, – deydi “Urava”ning germaniyalik murabbiyi Gvido Buxvald. Shuningdek, bizni butun chempionat davomida qo'llab turgan muxlislarga o'z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

“Gamba”ning mag'lubiyatidan unumli foydalanib, “Serezo Osaka”ni 3:1 hisobda mag'lub etgan “Kawasaki Frontale” jamoasi ikkinchi o'rinni egalladi.” [132]

Yevropa futbol terma jamoalarining kuchli o'yin ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri – ularda ichki chempionat kuchli klublarga tayangan holda yuqori saviyada o'tishidadir. Ulardagi klub jamoalari safida jahonning turli mamlakatlaridan kelgan juda mohir futbolchilar (legionerlar) to'p surishadi.

Shu yerda kuchli chempionatlardagi legionerlar soni haqidagi jadvalni keltirib o'tsam. Mening ixtiyorimda 1999 yil bahoriga oid ma'lumot bor, 2006 yilga doir faktlarni topa olmadim. Umid qilamanki, futbol sohasidagi jurnalistlarimiz ushbu maqola Internet-saytda chop etilgach bunday muhim ma'lumotni to'plab chop etishar.

KUCHLI CHEMPIONATLARDAGI LEGIONERLAR [133]

Davlat	Soni	Eng yuqorisi	Eng pastkisi	Terma jamoa o'yinchilari
Angliya	232	“Arsenal” (17)	“Aston Villa” (4)	158
Germaniya	186	“Gerta” (15)	“Boxum” va “Nyurenberg” (6)	86
Ispaniya	191	“Deportivo” (21)	“Atletik” (6)	104
Italiya	162	“Udineze” (17)	“Pyachensa” (0)	97
Fransiya	95	“Strasburg” (11)	“Lion”, “Monpelye” va “Oser” (2)	44
Rossiya	100	“Alaniya” (12)	“Rotor” va “Saturn” (0)	45

Ta'kidlash lozimki, 2006 yilgi 18-Jahon chempionatida Italiya terma jamoasi chempion bo'lishining asosiy sabablaridan biri – oxirgi 10 yildan ortiq vaqt mobaynida Italiya chempionati jahondagi eng kuchli chempionatlardan biri edi. Italiyada jahonning ko'pgina futbol yulduzlari legioner sifatida to'p surishgandi.

Davrimizning mashhur futbol yulduzi Diyego Armando Maradona ko'p yillar davomida Italiyada o'ynagani va Italiya futboli saviyasini ko'tarishga xizmat qilganini eslatib o'tish yetarlidir.

Demak, O'zbekistondagi professional futbolni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri oliy liga futbol jamoalariga Lotin Amerikasi va Afrikadan mohir futbolchilar (legionerlar)ni taklif etish, shartnoma tuzish va mamlakatimiz futbol maydonlarida o'ynatishdir.

Unutmaylik: hatto bulbul ham ajoyib sayraydigan bulbullardan sayrashni o'rganar ekan. Agar siz bulbul polaponini uyasidan ajratib olib alohida boqsangiz, u hech qachon odatdagi bulbulday yaxshi sayray olmaydi. Men bu fikrni 1997 yil 21 yanvarda O'zR Prezidenti I.Karimov nomiga yo'llagan xatimda ham bayon etgan edim, bu xat haqida kitobimning 9.3-bandida yozgandim.

Xullas kalom, o'zbek futbolchilari qit'a va jahon miqyosidagi futbol yulduzi bo'lib yetishishlari uchun ular safiga futbolning "sayroqi bulbullari"ni, ya'ni Lotin Amerikasi va Afrikadan, ayniqsa Braziliyadan mohir futbolchi-legionerlarni oliy liga (iloji bo'lsa birinchi ligada ham) jamoalari tarkibiga kiritmog'imiz kerak.

24. 2007-2011 YILLARDA OSIYO TERMA JAMOALARI VA KLUBLARI ISHTIROKIDA O'TKAZILADIGAN XALQARO MUSOBAQALAR

24.1. OLIMPIADA SARALASH MUSOBAQASI

Ma'lumki, 2008 yilda Pekinda 29-Jahon Olimpiada (yozgi o'yinlari, jumladan futbol bo'yicha) musobaqalari bo'lib o'tadi. Futbol bo'yicha har bir qit'aga FIFA tomonidan ma'lum bir miqdorda o'rin ajratilgan. Osiyo qit'asiga odatdagidek 4 ta o'rin, ya'ni Pekin olimpiadasiga qit'amizdan eng kuchli 4 mamlakat futbol terma jamoasi borish huquqiga egadir. Osiyo futbol konfederatsiyasining ijroqo'mi 2006 yil 15 iyulida Olimpiada bahslarining saralash o'yinlari tizimini aniqladi. U quyidagichadir.

“Birinchi bosqichda 20 terma jamoa o'nta juftlikka bo'linib, uy-safar tizimida ikki o'yinda ishtirok etadi. Ularning natijalariga ko'ra, g'oliblar ikkinchi bosqichga yo'l olishadi. Bu yerda birinchi bosqich g'oliblariga yana 14 jamoa qo'shiladi. Mazkur bosqichda jamoalar 6 guruh (4 tadan)ga bo'linadi va uchinchi bosqichga guruhdagi eng yaxshi ikki jamoa yo'l oladi. Nihoyat uchinchi bosqichda 2008 yil Pekinda o'tadigan Olimpiada o'yinlarida ishtirok etadigan Osiyo jamoalari aniqlanadi. Olimpiada bahslariga 4 tadan terma jamoani ichiga olgan 3 ta guruh g'oliblarigina yo'l olishadi.” [134]

“Birinchi bosqich (uyida va safarda)

O'yinlar 2007 yil 7-14 fevral kunlari bo'lib o'tadi.

1-savat: O'zbekiston, Indoneziya, Tailand, Falastin, Gonkong, Qirg'iziston, Myanma, Singapur, Turkmaniston, Hindiston.

2-savat: Xitoy Taypeyi, Iordaniya, Bangladesh, Vyetnam, Tojikiston, Pokiston, Yaman, Maldiv orollari, Afg'oniston, Avstraliya.

Ikkinchi bosqich (oltita guruh, har bir guruhda to'rttadan jamoa)

O'yinlar 2007 yil 28 fevral, 14 mart, 28 mart, 18 aprel, 16 may va 6 iyun kunlari o'tkaziladi.

1-savat: Iroq, Janubiy Koreya, Yaponiya, Bahrayn, Eron, Ummon.

2-savat: Quvayt, BAA, Saudiya Arabistoni, Livan, Malayziya, KXDR.

3-savat: Suriya, Qatar, 1-4-guruhlarning g'oliblari.

4-savat: 5-10-guruhlarning g'oliblari.

Bu bosqichda o'z guruhlarida 1- va 2-o'rinlarni egallagan jamoalar keyingi bosqichga yo'l oladilar.

3-bosqich (uchta guruh, to'rttadan jamoa)

O'yinlar 2007 yil 12 sentabr, 17 oktabr, 31 oktabr, 21 noyabr va 5 dekabr kunlari bo'lib o'tadi.

Guruhlarning g'oliblari Olimpiadaga yo'llanma oladilar.” [135]

24.2. TERMA JAMOALAR MIQYOSIDAGI MUSOBAQALAR

“2006 yil 19 dekabr kuni Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida kelasi yilda Tailand, Malayziya,, Indoneziya va Vyetnam yashil maydonlarida bo'lib o'tadigan Osiyo Kubogi-2007 final qismi bahslarining guruh bosqichiga qur'a tashlandi. Qur'a natijalari:

A guruhi: Tailand, Avstraliya, Ummon, Iroq;

B guruhi: Vyetnam, Yaponiya, Qatar, Birlashgan Arab Amirligi;

C guruhi: Malayziya, Eron, O'zbekiston, Xitoy;

D guruhi: Indoneziya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Bahrayn.

Osiyo Kubogi-2007 bahslari futbolchilarimiz uchun 2007 yil 11 iyul kuni Eronga qarshi uchrashuv bilan boshlanadi. Uch kundan so'ng mezbonlarga qarshi maydonga chiqqan futbolchilarimiz guruh bosqichini 18 iyul kuni Xitoy termasiga qarshi bahs bilan yakunlashadi.

Guruhlarda birinchi va ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar chorak final yo'llanmasiga ega bo'lishadi. Chorak final uchrashuvlari 21-22 iyul kunlari bo'lib o'tadi. Har bir chorak final uchrashuvi to'rt mezbon davlatdan bittasida o'tkaziladi. Yarim final bahslari 25 iyul kuni Malayziya va Vyetnamda bo'lib o'tadi. Final uchrashuvi 29 iyul kuni Indoneziya poytaxti – Jakartada bo'lib o'tadi.” [136]

“Osiyo kubogi-2007: Oldin qabul qilingan tizimda o'tkaziladi.

Osiyo kubogi-2011: Osiyo kubogi-2007 da birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni olgan va tashkilotchi mamlakat termalari avtomatik ravishda final bosqichiga yo'l olishadi.

OFK (Osiyo Futbol Konfederatsiyasi, A.Sh.) chaqiruv kubogi rivojlanmagan va rivojlanayotgan davlatlar guruhiga kiruvchi 17 ta jamoa uchun Osiyo kubogi saralash bosqichining bir qismi vazifasini o'taydi.

2008 va 2010 yildagi OFK chaqiruv kubogi g'oliblari Osiyo kubogi-2011 ga to'g'ridan-to'g'ri yo'l olishadi. Mabodo, shu ikki musobaqada ham bitta jamoa g'olib chiqsa, unda ikkinchi yo'llanmaga 2010 yilgi musobaqada ikkinchi o'rinni olgan terma ega bo'ladi.

OFK chaqiruv kubogi-2008: Xitoy Taypeyi, Pokiston, Shri-Lanka, Tojikiston va Filippin mamlakatlari musobaqani qabul qilish xohishini bildirishgan. Bangladesh arizasi esa u yerda chaqiruv kubogi-2006 o'tkazilgani uchun qabul qilinmadi.” [137]

“AFC (Osiyo Futbol Konfederatsiyasi, A.Sh.) Prezidenti Kubogi va Chaqiruv Kubogi musobaqalari tashkiliy qo'mitasi Chaqiruv Kubogi-2008 musobaqalari Xitoy Taypeyida bo'lib o'tishini e'lon qildi. Osiyoning futbol rivojlanayotgan davlatlari ishtirok etadigan bu musobaqa ikkinchi marta bo'lib o'tadi. Ilk Chaqiruv Kubogi bahslari Bangladesh davlatida bo'lib o'tgan va unda Tojikiston terma jamoasi g'alaba qozongandi.

Tashkilot prezidenti Bin Xammam AFC vakillari qit'amizda Osiyo kubogidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan bu musobaqada ishtirok etuvchi davlatlarda futbolning rivojlanishi diqqat bilan kuzatishlarini ma'lum qildi.

- Biz musobaqada ishtirok etuvchi jamoalarning sonini emas, sifatini ko'tarish niyatidamiz. Agar zarur bo'lsa, biz musobaqaga bo'lgan qiziqishni orttirish uchun unda ishtirok etuvchi jamoalar sonini kamaytirish yo'lini o'ylab qo'yganmiz, – deydi AFC prezidenti.

Osiyoning “futbol rivojlanayotgan” davlatlari qatoriga Falastin, Bruney, Afg'oniston, Sharqiy Timor, Butan, Laos, Tojikiston, Filippin, Qirg'iziston, Kambodja, Nepal, Xitoy Taypeyi, Pokiston, Guam, Shri-Lanka, Makao va Mo'g'ulistonlar kiradi. Chaqiruv Kubogi-2008 g'olibi avtomatik ravishda Osiyo kubogi-2011 bahslariga yo'llanmani qo'lga kiritadi.” [138]

“Tsyurixda o'tkazilgan yig'ilishda FIFA ijroiya qo'mitasi navbatdagi jahon chempionatining final bosqichi 2010 yilning 11 iyundan 11 iyuligacha o'tkazilishini belgiladi.

Janubiy Afrika Respublikasida o'tkaziladigan mundialda Yevropaga 13 o'rin ajratildi, Afrikaga esa – 6 (mezbenni qo'shgan holda).

Osiyo 4,5 o'ringa ega bo'ldi. Bu qit'aning beshinchi jamoasi Okeaniya g'olibi bilan pley-offda uchrashadi. “Bu sxema ham o'zgarishi va Okeaniya chempioni Osiyoning saralash turnirida o'ynashi mumkin”, – dedi FIFA vakili Andreas Xeren.

Janubiy Amerikadan mundialga 4 jamoa to'g'ridan-to'g'ri yo'l oladi, yana bir jamoa esa KONKAKAF vakili bilan pley-offda to'qnash keladi. KONKAKAFga 3,5 ta o'rin berildi.

2014 yilgi jahon chempionatining mezboni esa 2007 yilning noyabr oyida e'lon qilinadi. Bu huquqni qo'lga kiritish uchun hozircha Braziliya asosiy da'vogar bo'lib turibdi. Shuningdek ijroiya qo'mita Britaniya mustamlakasi sanaladigan Gibraltarni FIFA a'zolari qatoriga kiritish taklifini rad etdi.” [139]

24.3. KLUBLAR O'RTASIDAGI MUSOBAQALAR

“Osiyo Chempionlar Ligasi-2007: Avstraliya klublari ham musobaqaga qo'yilishi munosabati bilan Vetnam va Tailand bittadan jamoa bilan qatnashadi.

OFK prezidenti kubogi: Musobaqani o'tkazishga Xitoy Taypeyi, Qirg'iziston va Tojikiston mamlakatlari da'vogar. Pokiston arizasi u yerga prezident kubogi-2007 o'tkazilishi bois qabul qilinmadi, Nepal esa zayavka (ariza, A.Sh.) berish muddatiga amal qilmagan.” [137]

24.4. O'SMIRLAR O'RTASIDAGI MUSOBAQALAR

“Yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati: Yoshlar terma jamoalari o'rtasidagi Osiyo Chempionati buyog'iga FIFAning yosh chegaralanganini bildiruvchi siyosatiga muvofiq, Osiyo chempionati (19 yoshgacha), deb yuritiladi.

Osiyo chempionati – 17 yoshgacha: Osiyo chempionati (17 yoshgacha) buyog'iga FIFAning yosh chegaralanganini bildiruvchi siyosatiga muvofiq, Osiyo chempionati (16 yoshgacha), deb yuritiladi.

Har ikki musobaqa quyidagi tizimda o'tkaziladi:

1. G'arb va Markaz/Janub hududlari jamoalari aralash holda 4 guruh (6 tadan jamoa)ga bo'linib, bir davrali (markazlashgan) tizimda kurash olib borishadi. Guruhda 1- va 2-o'rinni olgan termalar final bosqichiga yo'llanma olishadi.

2. ASEAN va Sharq hududlari jamoalari aralash holda 3 guruh (6 tadan jamoa) va 1 guruh (3 ta jamoa)ga bo'linadi. 6 tadan jamoa joylashgan 3 guruh musobaqalari bir davrali (markazlashgan) tizimda tashkil qilinadi. 6 ta jamoali guruhlardan 1- va 2-o'rin sohiblari, 3 ta jamoali guruhdan esa g'olib jamoa chempionat final qismiga yo'llanma oladi.

3. Tashkilotchi mamlakat jamoasi saralash bosqichida ishtirok etmaydi.” [137]

24.5. FUTZAL

Rostini aytsam, futzal, ya'ni zalda – kichik futbol maydonchasida o'tkaziladigan futbol matchlariga men deyarli qiziqmayman. Bu xuddi bilyard o'yinini kichik bilyard stolida o'ynagandek gap. Chunki futzalda o'lchamlari kichikroq bo'lgan darvozaga futbolchilar ko'p gol urishadi, yirik hisoblar qayd etiladi. Ammo o'sha futbolchilar haqiqiy, katta futbol maydonida o'ynaganlarida o'zlarining futzaldagi mahoratini ko'rsata olmay qoladilar.

Kitobimni o'qiyotganlar orasida futzal musobaqalariga qiziquvchilar bo'lishi mumkinligini hisobga olib, bu haqda ham ma'lumot berib o'tay.

“Futzal bo'yicha Osiyo chempionati-2007: Yaponiya tashkilotchi mamlakat sifatida tasdiqlangan.

Futzal bo'yicha Osiyo klublari chempionati: Musobaqaga Osiyo chempionati-2006 reytingiga muvofiq, 8 ta kuchli mamlakatlar chempionlari taklif qilinadi. Turnir 2006 yil to'rtinchi choragiga mo'ljallangan. Tizim qatnashuvchi jamoalar soni tasdiqlangandan so'ng ishlab chiqiladi.” [137]

Eslatma: “Futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish: O'yin zayavkasiga (arizasiga, A.Sh.) kiritiladigan futbolchilar soni 20 tadan 23 taga ko'paytiriladi”. [137]

25. PROFESSIONAL FUTBOLIMIZNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MABLAG'NI QAYERDAN OLSAK BO'LADI?

O'zbekiston tabiiy zahiralarga boy mamlakatlardan biridir. Mamlakatimizda 2002 yilda aniqlangan konlar soni 1000 dan oshdi. Ulardan 51 tasi asl metallar, 44 tasi rangli, nodir va radioaktiv metallar, 175 tasi yonilg'i-energetika xom ashyosi, 21 tasi tog'-kimyo xom ashyosi, 30 tasi kon-ruda xom ashyosi, 487 tasi qurilish materiallari, 28 tasi qimmatbaho chaqnoq toshlar, 251 tasi yer osti suvlari konlaridir [140]. Shu boyliklardan faqat bittasiga – oltin konlari, aniqrog'i qazib olinayotgan oltin miqdori va uni sotishdan kelayotgan foyda summasiga to'xtalib o'tsam.

“O'zbekiston Davlat Geologiya qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 41 ta oltin koni ochilgan, ulardan aslida 33 tasi oltin rudasi konlaridir. O'zbekistonda tasdiqlangan oltin zahiralari miqdori 2,1 ming tonnani tashkil etadi. Ammo oxirgi yillarda yangi konlarni qidirib topish amalga oshirilmayotir, ulardan faqat to'qqiztasi oltin rudasi konlari faol ishlatilish bosqichidadir.

Davlatning ikkita kon-metallurgiya kombinatlari: Navoiy (yiliga 57 tonna) va Olmaliq (18 tonna) asosiy oltin ishlab chiqaruvchilar bo'lib, ular “Zarafshon-Nyumont” va yana bir qo'shma korxonada “Omontoytau Goldfildz” (kapitalning 50 foizi Buyuk Britaniyaning Oxus Gold ga tegishli, ishlab chiqarish hajmi yiliga besh tonnaga yaqin) bilan birgalikda mamlakatda 87 tonna oltin ishlab chiqarishni ta'minlashmoqda.” [141]

Agar jahonda oltinning 1 troysk unsiyasi = 28,35 grammi deb qabul qilinganligini va bu birlikdagi tilla 2006 yil 23 noyabr kuni London birjasida 631,8 dollar bo'lganligini e'tiborga olsak [142], 87 tonna oltinimizni sotish natijasida O'zbekiston xazinasiga bir yilning o'zida deyarli 1 milliard 939 million dollar valyuta kelganligini bilib olamiz.

O'zbekistonda har yili 1,0-1,2 million tonna paxta tolasi yetishtirilmoqda. Agar 2006 yil sentabrda Toshkentda 1 tonna paxta tolasi 1046,21 dollardan sotilganligini e'tiborga olsak [143], u holda jahon bozorida 1,2 million tonna paxta tolamizni sotish evaziga respublikamiz rahbariyati har yili 1 milliard 255 million dollardan ziyod valyuta ishlash imkoniyati borligi ma'lum bo'ladi. Paxta tolasining bir qismi yurtimizdagi kombinatlarda ipga aylantirilib, so'ngra xorijga sotilayotganligini e'tiborga olsak, paxtadan olinayotgan foyda yanada ko'proq ekanligi ko'rinadi.

Biz oltin, mis, marmar, gaz, neft mahsulotlari, paxta, pilla, qorako'l va boshqa boyliklarimizni turli mamlakatlarga yildan-yilga kattaroq miqyosda sotmoqdamiz. Bunga qo'shimcha ravishda xorijiy ishbilarmonlarga va korporatsiyalarga katta hamda o'rtacha korxonalarimizning ma'lum bir qismini sotib ham bo'ldik. Bu ham kamlik qilganidek O'zbekiston rahbariyati boshqa davlatlardan milliard-milliard dollarlab qarz olmoqda.

Xo'sh, shuncha valyuta qayerga sarf bo'lmoqda? Bu valyutaning kattagina qismi bevosita Prezident I.Karimovga bo'ysunuvchi kuchishlalar organlar bo'lmish Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi (millitsiya), Mudofaa vazirligi, Bojxona boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, prokuratura organlari rahbarlari va xodimlariga, shuningdek joylarda hokimiyat tizimidagi yuqori mansabdor amaldorlarga ishlatilmoqda. Shu sababli 27 million kishi yashaydigan O'zbekistonda bir guruh amaldorlar rosa boyimoqdalar, qo'sha-qo'sha ko'pqavatli imoratlar qurmoqdalar. Millionlab oddiy fuqarolar esa uchma-uch yashab, hatto mardikorlik bilan kun kechirmoqdalar.

Xuddi mana shu milliardlab sovurilayotgan valyuta hisobidan hukumat professional futbolni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlamog'i lozim.

Birinchidan, O'zbekiston terma jamoasining barcha xalqaro uchrashuvlariga ketadigan xarajatlarni O'zbekiston hukumati byudjet hisobidan ta'minlamog'i kerak. Shunda zo'rg'a faoliyat olib borayotgan oliy va 1-liga futbol jamoalaridan olinayotgan badal pulini keskin kamaytirish imkoniyati bo'ladi.

Ikkinchidan, hukumat oliy ligadagi har bir klubga yiliga 1 million dollardan, 1-ligadagi har bir klubga 0,5 million dollardan iqtisodiy yordam berishi kerak. Bu valyutani klub rahbarlari uzoq xorijdan taklif etiladigan 3 nafargacha legionerga shartnoma asosida oylik to'lashga, klub futbolchilariga hamda rahbarlariga muntazam oylik haqlarini berishga ishlatmog'i lozim. Albatta, homiylardan kelayotgan mablag'lar ham, stadionga o'yinlarni tomosha qilishga kelgan muxlislarning chipta pullari ham jamoa o'yini saviyasini oshirish va futbol klubini rivojlantirish uchun ishlatiladi.

O'zbekistondagi ba'zi bir davlat rahbarlari "FIFA Ustaviga ko'ra O'FF davlatga bo'g'liq bo'lmagan, mustaqil tashkilot" degan bahonani aytishlari mumkin. Bu holda turli tashkilot va firmalarga O'FFga xayriya qilishga qonuniy ruxsat berilmog'i, bu xayriya miqdoridagi pul davlatga to'lanishi kerak bo'lgan soliqdan kamaytirilishi kabi mexanizmni ishga solsa bo'ladi. Bunday qonuniy yo'llar yetarlicha topiladi. Masalan, O'zbekistondagi yoshlarning "Kamolot" harakati faoliyati uchun davlat aylanma yo'llar bilan kattagina mablag' berayotgani ko'pchilikka ma'lum.

Sport sohasidan misol keltirar bo'lsak, Xalqaro Milliy Kurash Federatsiyasiga O'zbekiston davlati yetarlicha yordam berayotir va bu to'g'ri ishdir. Xuddi shunday professional futbol ham davlat tomonidan moddiy jihatdan salmoqli qo'llab-quvvatlanmog'i kerak.

Ayrim amaldorlar “Xorijda futbol homiylar yordamida taraqqiy etayotir” deyishlari mumkin. Aslida futbol rivojlangan davlatlarda homiylar bergan mablag’ umumiy daromadlarning taxminan 8 foizdan 25 foizgacha taskil etadi. Bunga doir Yevropadagi yetakchi birinchiliklarning 2006/2007 yil mavsumida oladigan daromadlar jadvalini keltirib o’tsam (raqamlar million yevroda berilgan) [144].

Davlat	Liga	Imidj	Chipta	Tele.	Homiy	Jami
1. Angliya	Premer liga	340	620	560	165	2000
2. Germaniya	Bundesliga	310	230	417	350	1350
3. Italiya	“A” seriya	160	120	480	150	1200
4. Ispaniya	Premero	230	290	300	90	1100
5. Frantsiya	Oliy liga	90	130	597	130	980

Agar 2006 yil 11 dekabr kuni 1 yevro = 1,3 dollar bo’lganligini hisobga olsak, Angliya premier ligasida jami 2 milliard yevro yoki 2,6 milliard dollar miqdorida mablag’ sarflanganligi ma’lum bo’ladi.

Shunday qilib, Prezident I.Karimovning uchta farmonida yozilgan quruq so’zlar bilan emas, balki O’zR Oliy Majlisi davlat byudjetini qabul qilayotganida “O’zbekiston futbolini rivojlantirish uchun” degan satr bilan markazlashgan holda amaliy, iqtisodiy yordam berish yo’li bilangina O’zbekiston professional futbolini Osiyo qit’asi va jahon darajasiga olib chiqish mumkin.

26. FUTBOL DEMOKRATIK SPORT O’YINIDIR: XULOSALAR

1. O’zbekiston Mustaqillikka erishganidan buyon 15 yildan ko’proq vaqt o’tdi. Shu yillar davomida mamlakatimizdagi avtoritar, politsiyaviy siyosiy rejim Prezident I.Karimov rahbarligida Vatanimiz professional futboliga nisbatan ataylab noto’g’ri siyosat olib bordi.

Ayniqsa klublarni iqtisodiy bo’g’ish uslubi qo’llanilganligi sababli vatanimiz professional futbolni tushkunlikka yuz tutdi, inqiroz darajasiga borib qoldi. Buning oqibatida oxirgi 15 yil davomida FIFA taqvimiga kiruvchi musobaqalarda na terma jamoalar miqyosida, na klublar miqyosida birorta muvaffaqiyatga erisha olmadik.

2. Rejim o’zining xudbin (egoistic) qiziqishlari va manfaatlaridangina kelib chiqib militsiya general-polkovnigi Zokirjon Almatovni 1995-2005 yillarda O’zbekiston Futbol Federatsiyasiga prezident etib tayinladi. U orqali, uning futbolni militsiyaviy boshqaruvi orqali vatanimiz professional futbolni rivojlanishiga qattiq zarba berildi. Bugungi kunda terma jamoamiz Gonkongdek bo’sh o’ynaydigan terma jamoa bilan ikki marta durang o’ynash darajasida (10-bandga qarang) futbolimiz tushkun ahvolga olib kelindi.

3. O’zbekiston professional futbolining tushkunlikka yuz tutishida, 2006 yil yozida Germaniyada bo’lib o’tgan futbol bo’yicha 18-Jahon chempionatida terma jamoamiz qatnashish imkoniyatidan mahrum qilganlardan biri Z.Almatov bo’lsa, yana biri Raddiyanomani himoya qilgan O’zbekiston terma jamoalar bilan ishlash bo’limi rahbari, futbol diletanti, mahmadana Alisher Nikimbayevdir (18-bandga qarang).

Z.Almatov O’FF prezidentligidan 2005 yilda ketdi. Bugungi kunda ham O’FF rahbariyatida ishlayotgan A.Nikimbayev o’zi yo’l qo’ygan qo’pol xatolari uchun rahbarlik lavozimidan iste’fo berishi kerak, deb hisoblayman.

4. O’zbekistondagi politsiyaviy siyosiy rejimning mamlakatimiz professional futbolini rivojlantirish istagi, xohishi yo’q. Agar futbol klublarimiz va terma jamoamiz yaxshi o’ynab, ketma-ket g’alabalar qozona boshlasa, stadionlarga o’n minglab futbol muxlislari, ishqibozlari kelishadi. Bu esa rejim tayanib turgan va davlatni boshqarayotgan kuchishlalar organlarga ortiqcha tashvish, qo’rquv olib keladi.

5. Umuman olganda, O’zbekiston Rossiyaning vassal, bo’ysunuvchi, qaram mamlakatiga aylanib bormoqda. O’zR Prezidenti I.Karimov va uning yuqori mansabli amaldorlari 2005-2006 yillarda Rossiyaga juda

serqatnov bo'lib qolganligi ham bunga misoldir. Ular Rossiyada mardikorlikda ishlashga majbur bo'layotgan 1 milliondan ortiq o'zbekistonliklar masalasini, shuningdek ulardan yuzlab vatandoshlarimizni Rossiyaning o'ta millatchilari (skinxedlari) tomonidan urib o'ldirilayotganligi muammosini hal etishga jiddiy harakat qilganlari yo'q.

Ular ko'p yillardan buyon O'zbekistonning yer osti va usti boyliklarini, katta va o'rtacha korxonalarni arzon narxlarda sotish bilan shug'ullanmoqdalar. 2000-2006 yillarda O'zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi etib rossiyalik Pavel Sadirin (2000), Vladimir Salkov (2001), Leonid Ostroushko (2001), Valeriy Nepomnyashiy (2006) tayinlandi (11-bandga qarang). Ular rahbarligida terma jamoamiz birorta ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatga erisha olgani yo'q.

Bu ro'yxatga qarab, O'zbekiston rahbariyati Kremldagi Rossiya rahbarlari bilan kelishgan holda terma jamoamizga bosh murabbiy etib rossiyalik murabbiylarni tayinlamoqda, degan fikr paydo bo'ladi.

6. Hozirgi zamon futbolida bosh murabbiy har bir o'yinda qo'llayotgan taktika jamoaning g'alabaga erishishida muhim o'rin tutadi. Shunday taktik usullardan biri – zahiradagi futbolchilardan oqilona foydalana bilishdir. 2006 yil yozida Germaniyada bo'lib o'tgan 18-Jahon chempionatida bu usuldan yaxshi foydalana olgan murabbiylar haqida ma'lumot e'tiborga molikdir.

“Yakuniga yetgan JCh-2006 da 32 terma jamoaning teng yarmi, ya'ni 16 ta terma jamoa zahiradan yuz foiz foydalandi. Yarim finalga yetib kelgan terma jamoalardan Yurgen Klinsmann (Germaniya terma jamoasi bosh murabbiyi, A.Sh.), Luis Felipe Skolari (Portugaliya t. j. b. m., A.Sh.) va Marchello Lippi (Italiya t.j.b.m., A.Sh.) zahira o'yinchilaridan oqilona foydalana bildilar. Ayniqsa bu borada jahon chempionlarining ustozlari Marchello Lippining oldiga tushadigani topilmadi. Uning zahiradan tushirgan futbolchilari beshta gol kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Argentinaliklar ustozlari Xose Pekerman va avstraliyaliklar murabbiyi Guus Xiddink ham topqirlikda italiyalik hamkasbidan qolishmadi. Ammo ularning “sehrli tayoqchalari” raqiblar darvozasini uch martadan ishg'ol eta oldilar.” [145]

7. JCh-2006da qatnashgan 32 terma jamoaga qaysi mamlakat fuqarolari bosh murabbiy bo'lib, Jahon chempionatining final qismi – mundialga olib chiqqanligi to'g'risidagi ma'lumot ham qiziqarlidir.

Braziliyalik murabbiylar Karlos Alberto Pareyra (63 yoshda) Braziliya, Luis Felipe Skolari (57 yoshda) Portugaliya, Ziko (53 yoshda) Yaponiya va Pakita Saudiya Arabistoni terma jamoasini 18-Jahon chempionatiga olib chiqa olishdi va mundialda ularga bosh murabbiylik qilishdi. Taqqoslash uchun gollandiyalik murabbiylar ham 4 mamlakat – Gollandiya, Trinidad va Tabago, Avstraliya hamda Janubiy Koreya; frantsiyalik murabbiylar 3 mamlakat – Frantsiya, Kot-Divuar va Tunis; argentinaliklar – Argentina va Meksika; germaniyaliklar – Germaniya va Togo; xorvatiyaliklar – Xorvatiya va Eron; serbiya va chernogoriyaliklar – Serbiya va Chernogoriya hamda Gana; shvetsiyaliklar – Shvetsiya hamda Angliya terma jamoalariga bosh murabbiy bo'lib xizmat qildi. (Mundialda qatnashgan qolgan mamlakatlar terma jamoalarining bosh murabbiylari turli mamlakat fuqarosi edi.) [146]

8. Jahon mamlakatlari futbol federatsiyasi rahbarlaridan ayrimlari 2010 yildagi 19-Jahon chempionatiga tayyorgarlikni hozirdan boshlab yubordilar. Bu borada birinchi muhim qadam – terma jamoa bosh murabbiyini to'g'ri tanlay bilishdadir. Mana bu xabar JCh-2010 mezboni bo'lmish Janubiy Afrika Respublikasidan keldi. Ular o'z terma jamoasi bosh murabbiyi etib braziliyalik Parreyrani tayinladilar.

“Braziliya terma jamoasining sobiq ustozlari Karlos Alberto Parreyra JAR Futbol Federatsiyasi bilan shartnoma tuzdi. U endi 4 yil mobaynida shu mamlakat terma jamoasiga bosh murabbiy bo'lib ishlaydi. Ma'lumki, 2010 yilgi jahon chempionati aynan Janubiy Afrika Respublikasida o'tkaziladi. Afrikaliklar bu mundialga Parreyra boshchiligida tayyorgarlik ko'radilar.” [147]

9. 18-Jahon chempionati tugagach, 2006 yil kuzida Rossiya futbol terma jamoasi bosh murabbiyi etib gollandiyalik Gus Hiddink tayinlandi. U yevropalik bo'lganligi uchun rus xalqi mintalitetiga (tabiatiga) mos keladi. Mening fikrimcha, G.Hiddink rahbarligida Rossiya terma jamoasi 2008 yilgi Yevropa birinchiligining final o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritadi va final bosqichida ham ijobiy natijalarga erishadi. Shu murabbiy rahbarligida Rossiya terma jamoasi 2010 yilgi 19-Jahon chempionati finaliga beriladigan yo'llanmalardan biriga bemalol erisha oladi, deb hisoblayman.

10. O'zbek xalqi, Markaziy Osiyo xalqlari mintaliteti (tabiati)ga braziliyaliklar tabiati mos keladi. Shu sababli rossiyalik V.Nepomnyashiy 2006 yil 17 noyabrda iste'fo berganidan so'ng, endi bu mansabga o'zbekistonlik murabbiylarni tayinlashdek behuda, samarasiz almashtirishlarga O'FF rahbariyati chek qo'ymog'i va Braziliyadan yaxshi futbol murabbiyini O'zbekistonga taklif qilmog'i kerak. Uning bilan kamida 2007-2008 yillarga, hatto 2010 yilgacha shartnoma tuzish va O'zbekiston futbol terma jamoamizning bosh murabbiylik lavozimini unga topshirmoqlik ma'qul ish bo'lardi.

Misol sifatida braziliyalik murabbiy Luis Felipe Skolari va u rahbarlik qilgan terma jamoalar erishgan muvaffaqiyatlar haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tay. U 1948 yil 9 noyabrda tug'ilgan. U "Aymar", "Kashias", "Novu Amburgu", "Juventude", "Alagoano" jamoalarida to'p surgan. "Alagoano", "Juventude", "Al-Shabab" (Saudiya Arabistoni), "Al-Ali" (Saudiya Arabistoni), "Al-Kadissi" (Quvayt), "Dzyubiro Ivata" (Yaponiya), "Gremio", "Kuritiba", "Krusiuma", "Palmeyras", "Kruzeyro", Braziliya terma jamoasi, Portugaliya terma jamoasining bosh murabbiyi bo'lgan.

Bugungi kunda – 2006 yil 28 noyabrda ham Portugaliya terma jamoasining bosh murabbiyidir. Uning rahbarligida 2002 yilda Braziliya terma jamoasi Yaponiya va Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan 17-Jahon chempionatida g'olib bo'lgandi va tarixda Braziliya beshinchi marta Oltin kubokni qo'lga kiritgandi. U 2002 yilda Portugaliya terma jamoasining bosh murabbiyi bo'lgach, portugaliyaliklar 2004 yilda Yevropa chempionati finalida faqat Gretsiya terma jamoasiga yutqazib, kumush medal sovrindori bo'lishdi [148].

Uning rahbarligida Portugaliya terma jamoasi 2006 yilda Germaniyada bo'lib o'tgan 18-Jahon chempionatida chorak finalgacha yetib bordi [149]. Bu marralar Portugaliyadik mamlakat terma jamoasi uchun juda katta muvaffaqiyatlardir.

11. Kitobimning 24.2 bandida yozganimdek, Osiyo Kubogi-2007 bahslari 2007 yil 11 iyuldan 29 iyulgacha bo'lib o'tadi. O'zbekiston terma jamoasi dastlab "C" guruhida Eron, Xitoy va Malayziya terma jamoalari bilan o'ynaydi. Agar terma jamoamizga Rauf Inileev yoki shunga o'xshash o'zbekistonlik mutaxassis bosh murabbiy etib tayinlansa, Eron va Xitoy terma jamoalari guruhda 1-2-o'rinni egallashlari, vatanimiz futbolchilari esa odatdagidek o'z guruhidan nariga o'ta olmay Toshkentga qaytib kelish ehtimoli juda kattadir.

12. V.Nepomnyashiy va unga o'xshash xalqaro tajribaga ega bo'lgan murabbiylarga terma jamoaga bosh murabbiy bo'lgan davrdagi maoshi miqdorini saqlab qolgan holda O'zbekiston oliy ligasidagi birorta futbol klubiga bosh murabbiy bo'lishini taklif qilmoq kerak edi. U rahbarlik qilayotgan jamoa braziliyalik murabbiy rahbarlik qilayotgan mamlakatimiz oliy liga futbol jamoasi bilan futbol maydonida bellashsin. Shunda haqiqiy ahvolni ko'ramiz va murabbiylar darajasini taqqoslash imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday bahsdan V.Nepomnyashiydek murabbiylarga ham foydali bo'ladi. Shunaqangi sport tortishuvlari vatanimiz futbol taraqqiyotiga katta xizmat qilgan bo'lardi.

Jahon chempionatida terma jamoaga murabbiy bo'lib qatnashgan braziliyalik murabbiylar ham turli futbol klublarida bosh murabbiy bo'lib ishlamoqdalar. Bunga ham bitta misol keltiraylik.

"Yaponiya terma jamoasi sobiq bosh murabbiyi Ziko Turkiyaning "Fenerbaxche"sigam bosh murabbiy etib tayinlandi. Ziko bilan turklar ikki yilga shartnoma tuzishdi." [150]

13. Braziliyadagi kabi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonunni vatanimizda qabul qilinishi uchun kurashmog‘imiz kerak.

Prezident I.Karimovning 1993, 1996 va 2006 yillardagi farmonlari bilan professional futbolni rivojlantirib bo‘lmaydi. Chunki birorta amaldorni professional futbolga qarshi qilgan nojuya ishlari uchun sudga berish imkoniyati yo‘q. Futbol to‘g‘risidagi qonun bo‘lsa, A.Nikimbayev va unga o‘xshagan amaldorlarni qonunning ma‘lum bir moddasini buzganlikda ayblab, sudga berish va futbol diletantlarini yuqori amal kursisidan chetlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Eslatib o‘taman: O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o‘tgan 15 yil davomida “Milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, “Militsiya to‘g‘risida” va shunga o‘xshash o‘nlab zarur qonunlar mamlakatimizning qo‘lbola parlamenti tomonidan qabul qilingan emas. Shu holatdan kelib chiqib, futbol to‘g‘risidagi juda muhim qonunni ham yaqin-orada Oliy Majlis tomonidan qabul qilinishiga mavjud rejim yo‘l bermasa kerak.

14. Lotin Amerikasi va Afrikadan mohir futbolchilarni O‘zbekiston oliy ligasi (ilojini topsak 1-ligaga ham) klublariga taklif etish, shartnomalar tuzish va matchlarda maydonda o‘ynatish kerak. Legionerlar huquqlari ham “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonunda himoya qilingan bo‘lishi kerak.

Oddiy haqiqatni unutmaylik: klublar o‘yinlar darajasini oshirmay turib, terma jamoa o‘yin darajasini oshirib bo‘lmaydi.

15. “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib O‘zbekiston Futbol Federatsiyasi Ustavi ham demokratlashtirilishi va O‘FF prezidentini muqobil nomzodlar ishtirokida yashirin ovoz berish yo‘li bilan erkin, demokratik tarzda saylanmog‘i kerak.

Shu yerda futbol muxlisi Farhod Murotovning murabbiy sayloviga doir mana bu gaplarini keltirib o‘tsam.

“Shu o‘rinda murabbiylar bilan bog‘liq bir qiziq voqeani aytib bersam. Bir mavsum yakunida “Jar”da yig‘ilish bo‘lib o‘tgandi. O‘shanda, termamiz bosh murabbiysiz qolgandi. Ovoz berish yo‘li bilan murabbiyni tanlagandik. O‘zbekistonning taniqli futbolchisi Birodar Abduraimov eng ko‘p ovoz olgandi. Ammo kutilmaganda Abduraimovning o‘rniga Haydarov tayinlandi. Buni qanday tushunish mumkin?” [150]

Albatta, murabbiyning saylanishi yoki tayinlanishi kabi masalalar qonunda o‘z aksini topadi va muxlislarni bunday aldash hollariga yo‘l qo‘yilmaydi.

16. Men o‘z maqolalarimda O‘zbekiston davlati Prezident I.Karimov rahbarligidagi kuchishlalar organlar tomonidan boshqarilayotganligi haqida ko‘p marta yozgan edim. Ushbu kitobda ham bu haqda yozib, 1995 yilda O‘zR Ichki ishlar vaziri, militsiya general-polkovnigi Zokirjon Almatovning O‘zbekiston Futbol Federatsiyasi prezidenti etib tayinlanishi va u 2005 yilgacha uni boshqargani, “Do‘stlik” (Toshkent viloyati), MHSK (Toshkent) va “Qo‘qon-1912” (Qo‘qon) futbol jamoalarini iqtisodiy jihatdan bo‘g‘ib, ularni oliy ligadan chiqarib yuborish orqali tarqatgani va shu kabi usullar bilan o‘zbek professional futbolini inqiroz darajasiga olib borgani haqida yozdim.

2005 yilda Z.Almatov o‘rniga senator Mirabrор Usmonovning O‘FF prezidenti etib tayinlanishi bilan bu nojuya ishlar davom ettirilmog‘da. O‘zbekistondagi politsiyaviy rejim birorta shahardagi atoqli futbol klubini tugatishni rejalashtirsa, quyidagi usulni qo‘llamoqda: hokimiyat va homiylar tomonidan klubga berilayotgan mablag‘ keskin kamaytiriladi (birorta hokim o‘zicha futbol klubi hisobiga mablag‘ o‘tkazsa, unga qarshi davlat mablag‘ini talon-taroj qilganlikda ayblab jinoiy ish ochiladi, yoki birorta ishbilarmon shunday ish qilsa “Sen shunchalar boyib qoldingmi” deya uning biznesiga zarba berilishi va hatto qamab yuborishi hech gap emas).

Klub hisobiga yetarlicha mablag' kelib tushmagach, klub rahbariyati na futbolchilarga, na murabbiylarga oylik ish haqi, na O'FFga badalni bera olmaydi. Jamoa bosh murabbiylari ba'zan jamoa o'yinchilari mahoratini oshirish va navbatdagi o'yinlarga tayyorlash o'rniga hokimlikka borib, idorama-idora ovorai-sarson bo'lib yurib, futbol uchun pul so'rashga majbur bo'lmoqda.

Klubni iqtisodiy bo'g'ishning yakuniy bosqichida O'FF prezidenti Mirabror Usmonov asosiy rolni o'ynamoqda. U badal pullarini to'lolmagan har qanday klubni oliy hamda 1-ligadan chiqarib tashlashga tayyordir va shunday qilmoqda. Bunga yorqin misol – M.Usmonov rahbarligida 2006 yil 25 oktyabr kuni “Qo'qon-1912” (Qo'qon), “Hazorasp” (Hazorasp), “Surxon” (Termiz) va “Sirdaryo” (Guliston) jamoalarini 1-liga birinchiligidan chetlashtirish haqida qabul qilingan O'FFning qaroridir.

M.Usmonov bunday qaror orqali mahalliychilikka ham yo'l qo'ymoqda. U kuchishlalar organlar ko'rsatmasini bajara borib, sun'iy ravishda O'zbekiston oliy va 1-ligasidagi turli viloyatlar futbol klublari sonini kamaytirmoqda va Toshkent shahri hamda viloyati futbol klublari sonini ko'paytirmoqda.

“Qo'qon-1912” jamoasi masalasiga alohida to'xtalib o'tsam.

17. Ma'lumki, Qo'qon O'zbekiston tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy shaharlardan biridir. Tariximizga nazar solib, Qo'qon xonligining bo'lganligi, 1917 yil 26 noyabrda Qo'qonda 4-Favqulodda Turkiston o'lkasi musulmonlari qurultoyi “Yashasin Turkiston Muxtoriyati!” deb boshlanuvchi Deklaratsiyani qabul qilgani va Turkiston Muxtoriyati tuzilgani, 1918 yil 19 fevraligacha faoliyat olib borgani va u rus bolsheviklari hamda arman dashnoqlari tomonidan qonga botirilganini eslaylik. [151, 125-b. va 149-b.]

1989 yil yozida Sovet Ittifoqining maxsus qo'shinlari Qo'qondagi bosh maydonga yig'ilgan qurolsiz xalqni, yoshu qarini ayovsiz o'qqa tutganini ham eslaylik. 1992 yilda Prezident I.Karimov rahbarligidagi hukumat O'zbekiston Mustaqilligi uchun kurashganlar xotirasiga Qo'qondagi xiyobonda haykal o'rnatish haqida qaror qabul qilgandi. Bu haqda xiyobonda katta xarsang toshga yozib qo'yilgandi (buni men 1994 yil yozida Qo'qonga borganimda ko'rgan edim). Lekin va'daboz sobiq kommunist rahbarlar bunday haykalni Qo'qonda o'rnatmadi.

Shu va shunga o'xshash Qo'qon tarixiga oid faktlarni hisobga olib, rejim rahbariyati “Qo'qon-1912” professional futbol jamoasini umuman tugatish bo'yicha yashirin rejani ishlab chiqdi va uni bosqichma-bosqich amalga oshirdi. Avvaliga ular “Qo'qon-1912”ni 2004 yilda oliy ligadan chiqib ketishiga va klub futbolchilarining ko'pchiligi tarqalib ketishiga erishdi. 2006 yil 25 oktabrida esa M.Usmonov rahbarligida O'FF “Qo'qon-1912”ni 1-ligadan ham haydab chiqardi (22-bandga yoki [114]-ga qarang).

Eslatib o'taman: birinchi o'zbek futbol jamoasi aynan Qo'qon shahrida 1912 yilda tashkil etilgandi. Shunday tarixiy shaharda “Badal pulini vaqtida to'lamadi” degan bahona bilan tarixiy futbol klubini tugatish – bu o'zbek professional futboliga qarshi qilingan qip-qizil jinoyatku!

M.Usmonov O'FF prezidenti sifatida “Qo'qon-1912” futbol klubini himoya qilishi, hamtovog'i (ya'ni bir tovoqdan osh yegan) bo'lmish Prezident I.Karimovga shaxsan yozma murojaat qilib, yordam so'rab bo'lsada uni 1-ligada saqlab qolishi, so'ngra yaxshi jamoaviy o'yini orqali oliy ligaga qaytadan chiqishi uchun sharoitlar yaratib berishi kerak edi. Lekin u shafqatsizlarcha bu klubni 1-ligadan o'chirib tashlashga doir qaror qabul qilinishiga erishdi.

Shu yerda bitta taqqoslash keltiray. Tasavvur qiling, Toshkentning atoqli “Paxtakor” futbol klubi badal pulini to'lolmay avvaliga 1-ligaga tushirildi, so'ngra esa uni 1-ligadan ham quvib yuborishdi. Buni hatto tasavvur qilish qiyin.

Sovet Ittifoqi davrida bunday vaziyat yuzaga kelganida, respublika hukumat rahbarlari darajasida yordam berilgan va tegishli chora-tadbirlar ko'rilgan. Masalan, SSSR davrida "Paxtakor" oliy ligadan 1-ligaga tushib ketgan hollarda bu masala bilan rahmatli Sharof Rashidovich Rashidov shaxsan shug'ullangani, kerakli mutaxassislarni, murabbiylarni taklif etgani, suhbatlashgani va klubga har tomonlama yordam bergani tarixdan ma'lumdir.

2006 yilda "Paxtakor" klubi tashkil etilganining 50 yilligi Toshkentda nishonlandi. Yana 6 yil o'tgach – 2012 yilda o'zbek futboli 100 yoshga to'ladi. Tabiiyki, mamlakatimizda futbol bayrami doirasida xalqaro uchrashuvlar tashkil etiladi. Shunda Qo'qonda professional futbol klubi O'FF rahbariyati tomonidan moliyaviy bahonada tugatilganligini qanday izohlaymiz?

Qissadan hissa shuki, O'FF prezidenti M.Usmonov ushbu yuqori lavozimga munosib emas va o'zbek professional futboliga yetkazayotgan katta ziyoni uchun u o'z lavozimidan ist'efo berishi maqsadga muvofiqdir, deb hisoblayman. Uning o'rniga futbol jonkuyarlaridan bo'lgan mutaxassislardan biri muqobil saylov yo'li bilan saylanishi ma'quldir.

18. Senator M.Usmonov o'z xohishi bo'yicha O'FF prezidentligidan iste'foga chiqqach yoki erkin saylovda mag'lub bo'lgach, O'zbekiston professional futboliga qanday yordam berishi mumkin? Shu yerda M.Usmonov va unga o'xshagan ayrim boylarga o'rnak sifatida rossiyalik milliarder, gubernator Roman Abramovich haqida, u sotib olgan Londonning "Chelsi" futbol klubi, uni yangi marralarga olib chiqqani haqida ma'lumot berib o'tsam.

Roman Abramovich Rossiyadagi Saratov shahrida 1966 yil 24 oktyabr kuni tug'ilgan. U juda yosh bo'lganida uning ayasi qon zaharlanishi tufayli vafot etgan. Otasi qurilishda ishchi bo'lib ishlagan va ish joyidagi ko'ngilsiz voqea sababli halok bo'lgan. Oqibatda Roman ota-onasidan yetim bo'lib qolganida bor-yo'g'i 2,5 yoshda edi. Uning bolalik yillari amakisining uyida – Rossiya shimolida joylashgan Komi Respublikasida o'tdi. U Uxta (Komi Respublikasi) shahri Industrial institutida o'qigan, armiyada xizmat qilgan. Keyinroq bir yil o'qib Moskva davlat Yuridik akademiyasining huquqshunoslik diplomini olgan [152].

U o'qishni tugatgach, rezinali o'yinchoqlar sotish orqali o'z biznesini boshladi. Shu vaqtda u taniqli biznesmen Boris Berezovskiy bilan yaqinlashib, katta biznes olamiga kirib bordi. Ular Rossiya neftini sotish masalalarida katta foyda ko'rishdi. R.Abramovichning "Sibneft", "Aeroflot" kampaniyalarida kattagina ulushi bor edi.

B.Berezovskiy Rossiyadan ketish arafasida R.Abramovich o'z ulushini ajratib oldi. U o'z boyligini neft, alyuminiy sotish va "Aeroflot" uchqichlarida yo'lovchilar hamda yuk tashish biznesida to'pladi.

R.Abramovich 1999 yil kuzidagi parlament saylovlarida o'z nomzodini Chukotka saylov okrugida qo'ydi va deputat etib saylandi. U 2001 yilda Chukotka avtonom viloyati gubernatorligi saylovlarida qatnashib, deyarli 100 foiz ovoz olib, gubernator etib saylandi. R.Abramovich Anadir (Chukotka markazi) shahrida o'z pasportini ro'yxatdan (propiska) o'tkazdi. Natijada u davlatga soliqlarni Chukotkada to'lab, uni Chukotka iqtisodiyotiga ishlata boshladi.

Qisqacha uning oilasi haqida. U 1987 yilda 1-marta o'zidan uch yosh kattaroq bo'lgan Olga ismli ayolga uylangan edi. 1989 yilda ajralishib, so'ngra styuardessa bo'lib ishlagan Irinaga uylandi. Hozir uning 5 nafar farzandi bor. Irina va farzandlari Londonda yashashadi, Londondagi maktablarda ta'lim olishmoqda. [152]

Endi Chukotka avtonom viloyati haqida qisqacha ma'lumot. U 1930 yil 10 dekabr kuni tashkil topgan. Maydoni – 737,7 ming kvadrat kilometr [153, 39-b.] (taqqoslash uchun: Buyuk Britaniyaning umumiy maydoni 244,9 ming kvadrat km. [153, 111-b.], ya'ni hududi bo'yicha Chukotka Buyuk Britaniyadan uch marta kattaroqdir); aholisi – 83,1 ming kishi (1999 yil); markazi – Anadir (13,0 ming kishi (1999 yil)); ma'muriy bo'linishi – 8 tuman va okrugga bo'ysunuvchi bitta shahar [152, 39-b.].

Agar “Yer yuzining narigi cheti” degan gap o’rinli bo’lsa, Chukotka xuddi mana shunday joydir. Qishda bu joylarda 60 (!) darajagacha sovuq bo’ladi. Chukotkada Rossiya fuqarolari kirish uchun ham tegishli idoralardan ruxsatnoma olishlari kerak, chunki bunda yuzlab chaqirim yerda birorta odamni uchratmasligingiz mumkin. Chukotkani AQShning Alyaska shtatidan 24 kilometr keladigan Bering bug’ozi ajratib turadi.

R.Abramovich “Sibneft” kompaniyasini Chukotkaga olib bordi. U u yerda ikkita xayriya jamg’armasini tuzib, uning dasturlaridan biri asosida chukotkalik har bir bolani ta’tilda issiq o’lkalarga yo’llanma (putyevka) bilan ta’minladi. U Chukotkaga jami 770 million funt-sterling (1 f.s. = AQSh dollari) ishlatdi. Shuningdek 500 ming funt-sterling ichki investitsiyalar jalb qila bildi. Natijada Chukotkada 18 ta yangi maktab qurildi va yana 18 ta maktab jiddiy ta’mirlandi, maktablar yangi kompyuterlar, televizorlar, darsliklar bilan ta’minlandi; maktab o’quvchilariga bepul ovqat berish va profilaktika qilish yo’lga qo’yildi. Maktablarda chukcha va inuitlar tili hamda madaniyatidan dars berish qaytadan yo’lga qo’yildi.

O’lkada 28 ta kasalxona va tibbiyot markazlari qurildi. Chukotka markazi – Anadir shahrida kinoteatr, mehmonxona, muzey, supermarket va madaniyat markazi, hatto Myunxendagi (Germaniya) yaxshi restoranga o’xshash restoran qurilib ishga tushirildi. Agar R.Abramovich gubernator bo’lguniga qadar bolalar o’limi bo’yicha Chukotka Rossiyadagi 88 ma’muriy hududdan eng yomon o’nlikka kirgan bo’lsa, hozir bu ko’rsatkich bo’yicha eng yaxshi o’nlikka kiradi. Shu olti yil ichida Chukotkada o’rtacha umr uzoqligi uch yilga uzaydi, bolalar tug’ilishi 50 foizga oshdi. [152]

U bug’uchilik xo’jaliklarini qaytadan tikladi. 1980-yillar oxirida Chukotkada 500 mingga yaqin shimol bug’usi bo’lgan bo’lsa, 2001 yilga kelib 96 mingta qolgandi (ishsizlik va oziq-ovqat yomon ta’minlanganligidan bug’ularning kattagina qismi so’yib iste’mol qilingandi). Abramovich subsidiyalar ajratdi, bu subsidiyalar hisobidan chukchalarga oylik va ov miltiqlari berildi. Natijada bugungi kunda shimol bug’ulari soni 200 mingtaga yetdi. [152]

Endi kitobimning asosiy mavzusi – futbolga qaytay. 2003 yilga kelib Londonning “Chelsi” futbol klubi qarzga botib qolgandi. R.Abramovich 140 million funt-sterlingga “Chelsi” klubini sotib oldi [152]. Bilgan odamlarning aytishicha, “Chelsi” klubining qarzlari to’lashga va juda qimmat narxlarda mohir futbolchilar, murabbiylarni sotib olishga R.Abramovich taxminan 500 million (!) funt-sterling sarf qildi!

Natijada “Chelsi” klubi 50(!) yillik tanaffusdan so’ng – 2004 va 2005 yillarda Angliya chempioni bo’la oldi (2010 yilda futbol sohasida Angliyaning ham chempioni bo’ldi, ham Kubogini qo’lga kiritdi, A.Sh.).

R.Abramovich 2005 yilda “Sibneft” kompaniyasini “Gazprom” nomli Rossiya davlat gaz gigantiga sotdi. Bugungi kunda (2006 yilda) uning umumiy boyligi 10,8 milliard funtni tashkil etadi (bu Buyuk Britaniyadagi po’lat magnati bo’lmish Lakshmi Mittaladan so’ng ikkinchi boy odamdir).

U o’zining milliardlab funt mablag’ining asosiy qismini Rossiya iqtisodiyotiga, aniqrog’i qora metallurgiya, dorihunoslik (farmatsevtika) va oziq-ovqat sanoatiga, shuningdek ko’chmas mulk hamda nashriyot biznesiga sarf qilgan. U yoshlarning musiqa, ilmiy va sport maktablari foydasiga, shuningdek bir necha yahudiy xayriya jamg’armalariga hadyalar qilgan va qilmoqda. [152]

Aytmoqchidek, R.Abramovich 2006 yil dekabrda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashib, unga Chukotka gubernatorligi vazifasidan o’z xohishi bo’yicha ozod etishini so’rab ariza berdi (to’g’rida, Chukotkadek sovuq o’lkada olti yil (!) ishlab berganiga rahmat aytmoq lozim).

Milliarder Roman Abramovich haqida ushbu bandeda keltirilgan qissadan hissa. O’zbekiston xalqiniki bo’lgan tabiiy zahiralarni – oltin, kumush, gaz, neft, marmar va hokazo boyluklarini sotib millioner, milliarder bo’lgan birorta boy fuqaro vatanimizning cho’l tumanlaridan biriga borib, 5-6 yil hokim bo’lib ishlab, o’z hisobidan 18 ta maktab, kasalxonalar va hokazolar qurib bera oladimi? Shuningdek, bir qism mablag’ini vatanimiz

professional futbol klublaridan biriga sarf etib, jahon mamlakatlaridan mohir futbolchilar va murabbiylarni taklif qilib, ularga yetarlicha oylik to'lab, klubni Osiyo va jahon miqyosiga ko'tarishga xizmat qila oladimi?

Bir so'z bilan aytganda, M.Usmonov va unga o'xshash boy yurtdoshlarimiz O'zbekistonda Roman Abramovich jasoratini takrorlay oladimi?..

19. O'FF da demokratik saylovlar bo'lib o'tsa, mahmadana A.Nikimbayev o'z mansabidan ketish ehtimoli kattadir. Agar u ham o'zbek futbolini rivojlantirishga chindan yordan bermoqchi bo'lsa, oliy yoki 1-ligadagi birorta o'rtamiyona futbol klubini O'zbekiston, Osiyo qit'asida ko'zga ko'ringan klubga aylantirishga harakat qilsin. Mana shunaqa amaliy ishlar jarayonida kimning kim ekanligi aniq bo'ladi-qoladi.

20. Yuqorida yozilgan bandlardagi ishlarni faqat O'zbekistonda demokratik siyosiy tizim o'rnatish jarayonida amalga oshirish mumkin. Aniqroq qilib aytganda, O'zbekiston futbolini rivojlantirish va jahon miqyosiga olib chiqish uchun vatanimizda demokratik siyosiy tizimga o'tmog'imiz zarur. Bitta misol. Ko'pchilikka ma'lumki, oxirgi yillarda Ukrainada demokratiya uchun, demokratik davlat tizimini o'rnatish uchun qattiq kurashlar olib borildi. Hatto 2004 yil dekabrda Ukrainada prezidentlik saylovi qaytadan o'tkazildi. Unda demokratlar nomzodi V.Yushenko g'alaba qozonib, Ukraina Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Sobiq Sovet Ittifoqi o'rnida paydo bo'lgan 15 mustaqil davlatlar orasida faqat Ukraina futbol terma jamoasi 18-jahon chempionatida qatnashdi. Hatto u chorak finalga chiqdi va bo'lajak jahon chempioni Italiya terma jamoasidan mag'lubiyatga uchradi.

Demak, futbol – demokratik sport o'yinidir. U erkin, jahon talablari darajasida rivojlanishi uchun O'zbekiston deb atalmish Vatanimizda demokratik siyosiy tizim o'rnatmog'imiz kerak bo'ladi. Ushbu 14-xulosani o'zbek futbol muxlisining sakkiz qatorli she'ri bilan tugatsam.

Oldinga yurishni ko'zlab san termam,
Endi JChlarga chiqqaning ko'ray,
Eronu-turklardan mening nimam kam,
To qachon ularga havas-la yuray?
Xohla arablarday to'p surgin makkor,
O'zingning qo'lingda, chorasin qidir,
Xohla xalqqa suyan, o'lmas xalqing bor
Baribir JChga chiqqin, baribir!!! [154]

21. Demokratik davlatlarda professional futbolga moliyaviy munosabat quyidagichadir. Demokratiya sharoitida fuqarolar erkin harakat qilib, o'zlari ham boyiydi va me'yordagi soliqlarni to'lash orqali davlatni ham boyitadi. Deputatlar Parlamentga erkin va raqobat asosida saylanganlari bois har bir deputat fuqarolarning talab-istaklarini inobatga olishga majbur (aks holda deputatlikka saylanmay qolishi mumkin). Shu sababli ular kelgusi yilgi davlat byudjeti muhokama qilinayotganidayoq sport taraqqiyotiga, jumladan professional futbolni u yoki bu darajada davlat tomonidan qullab-quvvatlanishiga imkoniyat yaratib beradi. Bu-birinchidan.

Ikkinchidan, demokratiya sharoitida o'z mehnati va ishbilarmonligi bilan boyigan fuqarolar ko'payadi. Ular ham professional futbol klublarini sotib olib, futbolga homiylik qila boshlaydi. Bu borada ushbu bandning 9-xulosasida rossiyalik milliarder Roman Abramovich Angliyaning "Chelsi" futbol klubi aktsiya paketlarining katta qismini sotib olib, uni jahonda mashhur klublardan biriga aylantira olgani haqida yozgandim.

Uchinchidan, demokratik siyosiy tizim sharoitida mehnat qilgan har bir fuqaro erkin boyiydi va yaxshi turmush kechira boshlaydi. Shu sababli fuqarolar, ayniqsa o'smirlar, yoshlar o'z ota-onalari bergan pulga futbol matchlarini stadionlarda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu yo'l bilan ular professional futbolni

mablag' bilan ta'minlashga o'z hissalarini qo'shadi. Pirovardida, millionlab futbol muxlislari, ishqibozlarining bunday ulushi katta mablag'ni tashkil etadi.

22. O'zbekiston tabiiy zahiralari jihatidan jahondagi boy mamlakatlardan biridir. O'zbekistondagi politsiyaviy rejim Vatanimiz boyligini sotishdan kelayotgan milliard-milliard dollar pullarning katta qismini bir hovuch amaldorlar va ularning qarindosh-urug'lari boyishiga, qo'sha-qo'sha imoratlar, ko'pqavatli uylar qurilishiga ishlatmoqda.

Aslida O'zbekiston xalqiga tegishli bo'lgan bu boyligining bir qismini professional futbolni rivojlantirish uchun ishlatmog'imiz o'rindir. Fikrimcha, O'zbekiston hukumati yiliga oliy ligadagi har bir klubga 1 million dollardan, 1-liga klublarining har biriga esa 0,5 million dollardan yordam puli bermog'i kerak. Shunda oliy ligadagi 16 jamoa va 1-ligadagi 20 jamoaga bir yilda jami 26 million dollar sarflangan bo'ladi.

Bu valyutaga har bir klub rahbariyati jamoa murabbiylari bilan kelishgan holda Afrikadan va Lotin Amerikasidan 3 nafargacha legioner taklif etib, shartnoma to'zish, shuningdek klub futbolchilari va murabbiylari oyligini kamida ikki marta oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lum bir yillar o'tib, O'zbekiston futbol klublari jamoalarining o'yin saviyasi ko'tarilib, har bir o'yinga stadionlarga 10 minglab muxlislar kira boshlashsa va klub kattagina daromad qila boshlasa, hukumatning bunday yordamiga hojat qolmas. Lekin yaqin yillarda har bir klubga hukumat jiddiy moliyaviy yordam berish chorasini ko'rmog'i zarur.

23. Mamlakatimiz futbol terma jamoasining xalqaro o'yinlar xarajatlari O'zbekiston hukumati tomonidan qoplanmog'i shart. Shunda futbol klublaridan olinayotgan badal pullari miqdorini keskin kamaytirishga imkoniyat paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda katta miqdordagi badal pulini yig'ish orqali klublarni iqtisodiy bo'g'ishga chek qo'yiladi.

24. Ma'lumki, Osiyo qit'asidagi futbol terma jamoalarining o'yin saviyasi boshqa qit'alardagi terma jamoalar o'yinidan juda orqada qolgan. Afrika Futbol Federatsiyasi Afrika kubogi musobaqalarini har 2 yilda bir marta o'tkazish orqali Afrika terma jamoalar o'yini saviyasini keskin oshira oldi.

O'zbekiston Futbol Federatsiyasi rahbariyati Osiyo kubogi musobaqalarini har 4 yilda emas, balki har ikki yilda bir marta o'tkazish taklifi bilan chiqsa yaxshi bo'lardi. Shunda Osiyo futboli ham tezroq taraqqiy etgan bo'lardi.

25. Ma'lumki, navbatdagi 19-jahon chempionati 2010 yil 11 iyun – 11 iyul kunlari Janubiy Afrika Respublikasi (JAR)da bo'ladi. Kitobim Muqaddimasida 2006 yil yozida 18-Jahon chempionatiga marg'ilonlik ikki nafar vatandoshimiz – Akrom Ma'rufjonov hamda Musajon Homidov velosipedda 6500 chaqirim yo'l bosib Germaniyaga borishgani haqida yozgandim.

2010 yil JAR da bo'ladigan 19-jahon chempionatiga O'zbekistondan velosipedda kamida 10 nafar futbol muxlislari borishini O'FF va O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi mutasaddilari birgalikda tashkil etmoqlari ma'quldir. Ularga jiddiy yordam berilmog'i, uyali telefon, Yer sun'iy yo'ldoshi (sputnik) orqali aloqa qila oladigan apparatura va shunga o'xshash narsalar bilan ta'minlanmoqlari kerak bo'ladi. Safarga ketayotganlar orasida foto va videotasvirga oluvchi muxlis (jurnalist) ham bo'lishi o'rindir.

Ular O'zbekistondan JAR ga velosipedda borishlariga qadar mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari bu tarixiy safarni yoritmoqlari kerak. Yo'ldagi voqealar, uchrashuvlar videotasvirga olinmog'i, zamonaviy axborot vositalari orqali Vatanimizga uzatib berilmog'i, bular televideniye yangiliklarida ko'rsatilmog'i, radiolarda aytilmog'i, keyinchalik hujjatli film yaratilmog'i kerak.

Axir ular O'zbekiston deb atalmish yurtdan borayotgan o'ziga xos tinchlik elchilaridir. Bu bilan ular Afrikadagi ko'pgina mamlakatlarga O'zbekistonimiz haqida axborot berishadi va do'stona aloqalar

o'rnatishga xizmat qilishadi. Shu sababli bu safar davlat ahamiyatidagi masala deb qaralmog'i o'rinlidir. Bu ishni tashkiliy ravishda amalga oshirish jarayonida, bu haqda jahonda mashhur bo'lgan Ginnesning rekordlarni qayd etish qo'mitasiga ham xabar berish mumkin. Ular O'zbekistondan Janubiy Afrika Respublikasiga velosipedda qilingan safarga doir axborotni Ginnesning Rekordlar kitobining navbatdagi nashriga kiritishlari mumkin. Bu jonajon O'zbekistonimizni jahonga tanitishning yana bir ijobiy yo'lidir.

Mendagi ma'lumotlarga ko'ra, 2010 yilda Janubiy Afrika Respublikasiga velosipedda bunday safar uyushtirilmadi (2010 yil 21 iyul, A.Sh.).

26. Men [155]-maqolamda www.turonzamin.org saytimizda alohida "FUTBOL" sahifasini ochishni taklif qilgan edim. Bugungi kunda saytimizda "SPORT" sahifasi ochilgan. Buning uchun rahmat.

Shu yerda bitta muhim taqqoslashni keltirib o'tsam. Jahonda milliardlab, jumladan O'zbekistonda millionlab futbol muxlislari bor. Agar sportning futboldan boshqa barcha turlaridagi muxlislar sonini qo'shganimizda ham futbol muxlislari soniga yetmaydi. Axir bitta futbol matchiga o'n minglab, hatto 100 mingdan ortiq futbol muxlislari kelishadi. Boshqa birorta sport o'yini, jumladan na hokkey, na boks bunchalik ko'p muxlis to'play olmaydi. Shundan kelib chiqib saytimizda alohida "FUTBOL" sahifasi bo'lmog'i kerak, deb hisoblayman.

Hozir yozilgan fikrni asoslash uchun "Sport" va futbolga doir gazetalar adadini o'zaro taqqoslay.

O'zbekistonda "Sport" gazetasi 1932 yil 2 iyundan chop etilmoqda va uning hajmi 2 taboq (uning adadi gazetada yozilmagan ekan). "O'zbekiston futboli" gazetasi Toshkentda 1993 yil 21 iyuldan haftada bir marta chop etilmoqda, uning adadi 2184 ta (2006 yil 13 oktabr soni).

"Futbol Ekspres" gazetasi Andijon shahrida 1996 yil 6 maydan haftada ikki marta chop etilmoqda, uning adadi 21250 dona (2006 yil 14 noyabr soni).

"Inter FUTBOL" gazetasi Kosonsoy shahrida 2001 yil sentabr oyidan haftada ikki marta chop etilmoqda, uning adadi 13000 nusxadir (2006 yil 8-15 avgust).

Futbolga doir gazetalarning narxi 200 so'mdan 260 so'mgacha bo'lishiga qaramay, Toshkentda gazeta sotuvga chiqarilgan kunning o'zida ko'pincha sotib bo'linadi. Ya'ni umumiy "Sport" gazetasining adadi kam bo'lib, haftada bir marta chop etilishi, futbolga doir bir necha gazetalar haftada ikki martadan bir necha marta ko'proq sonda chop etilsada, futbol muxlislarining ko'pligi va o'ta qiziqishi bois tezdin xarid qilinadi.

Fikrimcha, ushbu 26-xulosada yozilganlardan kelib chiqib, saytimizda alohida "FUTBOL" sahifasi bo'lmog'i o'rinlidir, ya'ni sahifani "SPORT" deb emas, "FUTBOL" deb nomlaylik. Qolaversa, boshqa sport turlariga doir tanqidiy maqolalar yozadigan kishilarni hozircha ko'rmayapman.

27. Men [156]-maqolamda yozgan muhim fikrlaridan birini bu yerda kengroq qilib yozishni lozim topdim.

DO'Kning rahbarlari va faollari siyosiy, ilmiy, adabiy, she'riyat, jurnalistika va shunga o'xshash o'zlari uchun yaqin, aziz bo'lgan sohasidan, ya'ni tor fikrlash doirasidan chiqishlari, millionlar o'yini bo'lmish futbol haqida ham maqolalar, xabarlar, she'rlar, latifalar va hokazolar yozmoqlari kerak. Ularni saytimizning FUTBOL sahifasida tez-tez chop etib borishsa yaxshi bo'lardi. DO'K faollaridan bo'lmish birorta futbol muxlisi shu sahifani olib borishni yo'lga qo'ysa, uni O'zbekiston hamda jahon futboliga doir yangi hamda qiziqarli axborotlar bilan boyita olsa va shu yo'l bilan vatanimiz futbol muxlislari bilan aloqalar o'rnata olsa yaxshi bo'lardi.

Tan olish kerakki, ba'zi bir safdoshlarimizni futbol unchalik qiziqitirmaydi.

Shuni unutmaylikki, sizni futbol qanchalik qiziqtirmasa, futbol muxlisini, ishqibozini ham siz xorijda yoki O'zbekistonda yashab yozayotgan boshqa sohalarga doir maqolangiz, xabarlaringiz, she'ringiz, kitoblaringiz shunchalik qiziqtirmaydi.

Buni oddiyroq tushuntirish ham mumkin. Ko'pchilik odamlar, jumladan men ham murabboni yaxshi ko'raman. Lekin baliq oviga boradigan bo'lsam, baliq tutish uchun murabboni emas, balki baliq yaxshi ko'radigan narsani – chuvalchangni olib boraman (murabbo, chuvalchang va baliq ovi to'g'risidagi bu gapni dastlab yozgan kishi – insonlarning o'zaro munosabatlariga doir bir necha mashhur kitoblarning muallifi AQShlik Deyl Karnegidir (Dale Carnegie)).

Shunday qilganimizdagina DO'K hozirgi kundagi ming kishiga yaqin tashkilotdan o'n minglab, yuz minglab tarafdorlari bo'lgan kuchli siyosiy tashkilotga, xalq harakatiga aylanadi.

28. Demak, O'zbekistonda demokratik siyosiy tizim bo'lsagina o'zbek futbolini jahon darajasiga olib chiqish mumkin. Vatanimizda demokratik siyosiy tizim o'rnatish uchun esa millionlab fuqarolarning, jumladan millionlab futbol muxlislarining qo'llab-quvvatlashlariga erishmog'imiz kerak bo'ladi.

Demokratik o'yin bo'lmish futbol va O'zbekistonda demokratik siyosiy tizimni o'rnatish – bu o'zaro uzviy, mustahkam, chambarchas bog'liqdir. Shu sababli O'zbekistonda demokratik siyosiy tizim o'rnatish orqali o'zbek futbolini Osiyo va jahon darajasiga olib chiqish maqsadi ham demokratik tashkilot dasturiga kiritilmog'i kerak. Va shu yo'nalishda ham faollarimiz, rahbarlarimiz jiddiy faoliyat olib bormoqlari zarurdir.

29. Xullas kalom, demokratlar bir tomondan, millionlab futbol muxislari, ishqibozlari ikkinchi tomondan o'ziga xos bitim tuzmoqlari kerak: millionlab futbol muxislari kuch ishlatmasdan, saylovlar yo'li bilan demokratik tashkilotning hokimiyat tepasiga kelishiga chin dildan, futbolga ishqibozlik qilgandek harakat qiladi va yordam beradi.

Demokratlar esa davlat tepasiga kelgach “O'zbekistonda professional futbolni rivojlantirish to'g'risida”gi qonunni qabul qilishga, korrupsiyani chegaralab, tekinxo'r amaldorlar va ularning qarindosh-urug'lari jig'ildoniga ketayotgan milliardlab dollar valyutaning bir qismini professional futbolni rivojlantirishga, jumladan jahonda taniqli futbol murabbiylaridan birini Braziliyadan taklif etishga, futbol klublariga ko'pgina legionerlar olib kelishga va futbol klublariga valyuta bilan yordam berishga va'da beradi hamda va'dasini amalga oshiradi.

Bu yo'l bilan O'zbekiston futbol klublari birinchi bosqichda Osiyo qit'asining yetakchi klublari safiga olib chiqiladi. Shu bilan birga demokratlar davlat tepasiga kelgan taqdirda 2010 yilda Janubiy Afrika Respublikasida bo'ladigan futbol bo'yicha 19-jahon chempionatiga (endi 2014 yilda Braziliyada bo'ladigan 20-Jahon chempionatiga, 2010.17.07, A.Sh.) O'zbekiston terma jamoasini olib chiqish vazifasini o'z zimmasiga oladi.

30. Shunday qilib, futbol – millionlab fuqarolarning demokratik sport o'yinidir.

U O'zbekistondagidek avtoritar, politsiyaviy siyosiy rejim bilan chiqisha olmaydi, erkin rivojlanish imkoniyatiga ega emas.

Unga demokratik erkinlik, shart-sharoitlar kerak.

Bunga esa demokratlar va millionlab futbol muxislari qo'lni-qo'lga berib, maqsadlarni mushtarak aylab, birga-birga harakat qilibgina erishmoqlari mumkin va kerak.

Aslida biz – demokratlar O'zbekistonning alohida-alohida sohalariga doir keyingi 15 yillik faktlarni keltirib, tahliliy maqolalar, kitoblarni yozsak yaxshi bo'lardi. Ushbu tahliliy kitob shu yo'nalishdagi dastlabki qadamdir.

27. ISPANIYA MILLIY TERMA JAMOASI 2010 YILDAGI 19-JAHON VA 2012 YILDAGI YEVROPA CHEMPIONATI G'OLIBI BO'LISH SIRI NIMADA?

27.1. ISPANIYA MILLIY TERMA JAMOASI MUVAFFAQIYATLARI

Ma'lumki, 2010 jil 11 iyul kuni final o'yin bilan tugagan 19-Jahon chempionatida Ispaniya milliy terma jamoasi Hollandiya milliy terma jamoasini 1:0 hisobi bilan yengib, o'z tarixida birinchi marta Jahon chempioni bo'ldi.

2012 yil 1 iyul kuni Kiyev shahrida Futbol bo'yicha Yevropa chempionati final o'yinida Ispaniya terma jamoasi Italiya terma jamoasini 4:0 (!) hisobi bilan g'alaba qozondi va Yevropa chempioni ham bo'ldi. (2012.01.10)

Bunday tarixiy g'alabalar siri nimada, degan savolga javob beray.

Men 1966 yildagi 8-Jahon chempionatini rahmatli Rustam akam bilan birga televizor orqali ayrim o'yinlarini tomosha qilgandim (u paytlar men 12 yoshli o'spirin edim). O'sha chempionatda Sovet Ittifoqi milliy terma jamoasi o'z tarixida eng yuqori - sharafli 4-o'rinni olgandi. Mana o'shandan beri 19 tasidan 12 ta Jahon chempionatini tomosha qildim va zavq oldim.

Men ko'p yillardan buyon Braziliya milliy terma jamoasiga muhlislik qilmoqdaman. 19-Jahon chempionatida Braziliya va Hollandiya milliy terma jamoalari chorak finalda uchrashishdi. Hollandiya terma jamoasi qo'pol o'yin namoyish qilib, 2:1 hisobida g'alaba qozondi.

Ular shunday qo'pollik bilan finalda ham g'alaba qozonmoqchi edi. Britaniyalik hakam Hovard Vebb final o'yini davomida 13 marotaba sariq kartochka ko'rsatdi, ulardan aksar qismini Hollandiya milliy terma jamoa o'yinchilarini qo'pol o'yini uchun "mukofotladi". Hatto o'yinning 108-daqiqasida hollandiyalik Jonni Heyting ikkinchi marta sariq kartochkaga "sazovor" bo'lib, maydonni tark etdi.

Finalda ispaniyaliklar chiroyli futbol o'yinini namoyish etib, 116-daqiqada Hollandiya milliy terma jamoasi darvozasiga azhoyib gol urishdi. Darvozaga to'pni ispaniyalik Andres In'esta kiritdi. [141]

"Qizig'i, ikkala terma jamoa ham ilgari Jahon chempioni unvonini egallamagan. Ammo gollandlar finalga uchinchi marotaba chiqqan bo'lsa, ispanlar bu jahon chempionatiga qadar hatto yarim finalda ham ishtirok etmagan"

27.2. ISPANIYA FUTBOL CHEMPIONATINING 2009-2010 YIL NATIJASI

Ispaniya futbol chempionatining 2009-2010 yil yakuniy jadvalini [157]-dan keltiraman.

O'rni	Jamoa nomi	O'yinlar soni	Ochko
1	Барселона	38	99
2	Реал	38	96
3	Валенсия	38	71
4	Севилья	38	63
5	Майорка	38	62
6	Хетафе	38	58

7	Вильярреал	38	56
8	Атлетик	38	54
9	Атлетико	38	47
10	Депортиво	38	47
11	Эспаньол	38	44
12	Осасуна	38	43
13	Альмерия	38	42
14	Сарагоса	38	41
15	Спортинг	38	40
16	Расинг	38	39
17	Малага	38	37
18	Вальядолид	38	36
19	Тенерифе	38	36
20	Херес	38	34 [157]

Chempionat natijasida 2- va 19-(pastdan 2-) o'rinni olgan jamoalardagi legionerlar masalasiga e'tibor berib, tahlil etay.

27.3. REAL (MADRID) JAMOASI

Real (Madrid) futbol jamoasining 2009-10 yildagi futbolchilari ro'yxati, ulardan har biri qaysi mamlakatdan kelgani va tug'ilgan yili haqidagi ma'lumotni keltiray [158].

Raqami	Ismi-sharifi	Futbolchi vatani	M	U	P U	O'G	PO'	O	MCh
Darvozabonlar									
25	Dudek Yeji (1973)	<i>Polsha</i>	0	0	0	0	0	0	0
1	Kasilyas Iker (1981)	<i>Ispaniya</i>	38	0	0	35	2	0	0
Himoyachilar									
18	Albiol Raul (1985)	<i>Ispaniya</i>	33	0	0	0	0	6	1
2	Arbeloa Alvaro (1983)	<i>Ispaniya</i>	30	2	0	0	0	10	0
19	Garay Esekel (1986)	<i>Argentina</i>	20	1	0	0	0	6	0
12	Marselo (1988)	<i>Braziliya</i>	35	4	0	0	0	5	0
21	Metselder Kristof (1980)	<i>Germaniya</i>	2	0	0	0	0	0	0
3	Kepler Laveran Lima Fereyra Pepe (1983)	<i>Portugaliya</i>	10	1	0	0	0	1	0
4	Ramos Serxio (1986)	<i>Ispaniya</i>	33	4	0	0	0	13	1
Yarim himoyachilar									
5	Gago Fernando (1986)	<i>Argentina</i>	18	0	0	0	0	4	0
24	Granero Esteban (1987)	<i>Ispaniya</i>	31	3	0	0	0	3	0
14	Guti (1976)	<i>Ispaniya</i>	26	2	0	0	0	5	0
10	Diarra Lassana (1985)	<i>Frantsiya</i>	23	1	0	0	0	9	1
6	Diarra Maxamadu	<i>Mali</i>	15	0	0	0	0	2	0

	(1981)								
15	Drente Royston (1987)	<i>Gollandiya</i>	8	0	0	0	0	2	0
8	Kaka (Santos Leyte Rikardo Ijekson, 1982)	<i>Braziliya</i>	25	8	2	0	0	3	0
28	Markos Alonso (1990)	<i>Ispaniya</i>	1	0	0	0	0	0	0
2	Torres Migel (1986)	<i>Ispaniya</i>	0	0	0	0	0	0	0
30	Moskuera Pedro (1988)	<i>Ispaniya</i>	1	0	0	0	0	0	0
22	Xabi Alonso (1981)	<i>Ispaniya</i>	34	3	1	0	0	12	0
23	van der Vart Rafael (1983)	<i>Gollandiya</i>	26	6	0	0	0	1	0
Hujumchilar									
11	Benzema Karim (1987)	<i>Frantsiya</i>	27	8	0	0	0	0	0
20	Iguain Gonsalo (1987)	<i>Argentina</i>	32	27	0	0	0	3	0
9	Krishtianu Ronaldu (1985)	<i>Portugaliya</i>	29	26	4	0	0	4	2
7	Raul (1977)	<i>Ispaniya</i>	30	5	0	0	0	1	0
36	Xuanfran Fuertes (1988)	<i>Ispaniya</i>	1	0	0	0	0	0	0
17	van Nistelroy Rud (1976)	<i>Gollandiya</i>	1	1	0	0	0	0	0
	Jami: 27			102	7	35	2	9 0	5

M- Matchlar; U-Urilgan gollar; PU-Penaltidan urilgan gollar; O'G-O'tkazib yuborgan gollari; PO'-Penaltidan o'tkazgan gollari; O-Ogohlantirishlar; MCh-Maydondan chetlashtirishlar.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, Real (Madrid) futbol klubida 2009-2010 yilgi futbol mavsumida 27 futbolchidan 15 nafari legioner bo'lgan. Ya'ni Gollandiya va Argentinadan 3 nafardan, Braziliya, Portugaliya va Frantsiyadan 2 nafardan, Germaniya, Polsha va Malidan 1 nafardan legioner qatnashgandi.

27.4. TENERIFE (TENERIFE) JAMOASI

Endi Ispaniya futbol chempionati 2009-2010 yillardagi natijasida 19-(pastdan 2-) o'rinni olgan jamoadagi legionerlar masalasiga e'tibor beraylik.

Raqami	Ismi-sharifi	Futbolchi vatani	M	U	P U	O'G	PO'	O	MCh
Darvozabonlar									
13	Aragoneses Serxio (1977)	<i>Ispaniya</i>	38	0	0	74	5	3	0
1	Luis Garsia (1979)	<i>Ispaniya</i>	0	0	0	0	0	0	0
Himoyachilar									
26	Aytor Nunyes (1987)	<i>Ispaniya</i>	5	0	0	0	0	0	0
2	Bertran Mark (1982)	<i>Ispaniya</i>	21	1	0	0	0	5	1
4	Karlos Bellvis	<i>Ispaniya</i>	15	0	0	0	0	5	0

	(1985)								
24	Kulebras Xose (1979)	Ispaniya	18	1	0	0	0	3	1
19	Luna Eseyel (1986)	<i>Argentina</i>	23	1	0	0	0	12	2
5	Manolo (Martines Manuel Lara, 1980)	Ispaniya	30	0	0	0	0	4	0
4	Sisilia Pablo (1981)	Ispaniya	34	0	0	0	0	5	0
3	Ektor (1985)	Ispaniya	11	0	0	0	0	2	0
Yarim himoyachilar									
10	Ayosi (1985)	Ispaniya	25	2	1	0	0	5	0
21	Alfaro (1986)	Ispaniya	36	7	1	0	0	7	0
14	Kome Daniel (1980)	<i>Kamerun</i>	29	0	0	0	0	5	0
23	Mikel Alonso (1980)	Ispaniya	28	1	0	0	0	5	0
27	Omar (1988)	Ispaniya	23	0	0	0	0	1	0
8	Rikardinyo (1983)	Ispaniya	29	2	0	0	0	9	0
20	Richi (Rikardo Peres, 1982)	Ispaniya	22	1	0	0	0	2	0
15	Roman (1983)	<i>Argentina</i>	24	5	0	0	0	8	0
17	Xuanlo (1984)	Ispaniya	32	4	0	0	0	4	0
Hujumchilar									
9	Anxel (1987)	Ispaniya	23	1	0	0	0	1	0
22	Dinei (1987)	<i>Braziliya</i>	23	0	0	0	0	1	0
7	Nino (Martines Modesto Xuan Fransisko, 1980)	Ispaniya	38	14	0	0	0	3	0
11	Saysar Gaiska (1980)	Ispaniya	4	0	0	0	0	0	0
	Jami: 23			40	2	74	5	9	4

M- Matchlar; U-Urilgan gollar; PU-Penaltidan urilgan gollar; O’G-O’tkazib yuborgan gollari; PO’- Penaltidan o’tkazgan gollari; O-Ogohlantirishlar; MCh-Maydondan chetlashtirishlar.

Ushbu jadvaldan ko’rinib turibdiki, Tenerife (Tenerife) futbol klubida 2009-2010 yilgi futbol mavsumida 23 futbolchidan 4 nafari legioner bo’lgan. Ya’ni Argentinadan 2 nafar, Braziliya va Kamerundan 1 nafardan legioner qatnashgan. Jamoa tarkibida legionerlar kam bo’lganligi sababli ham Tenerife (Tenerife) 20 jamoa orasida 19-o’rinni olgan.

Ispaniya futbol chempionatida 20 ta jamoa tarkibida 4 tadan 15 nafargacha dunyoning ko’zga ko’ringan futbolchilari legioner bo’lib o’ynamoqda. Shu sababli Ispaniya terma jamoasi 19-Jahon va 2012 yilgi Yevropa chempioni bo’ldi.

Agar O’zbekiston futbol terma jamoasi Jahon chempionatiga chiqishini xohlasak, biz ham oliy ligadagi kamida 16 ta futbol jamoasiga kamida 3 nafdandan kuchli legioner-futbolchilari jalb qilmog’imiz kerak. “Paxtakor” va “Bunyodkor” kabi ikkita jamoaga legionerlarni olib kelish juda kamlik qiladi. Buni avvalambor boboylar Prezident Islom Karimov va O’FF rahbari Mirabror Usmonov tushunmog’i hamda amaliy ishlar qilmog’i kerak. (2012.02.10)

ILOVA.



Xayrulla HAMIDOV

O'zbeklarga nima bo'layapti?

**Borgan sari gunoh to'lyapti,
Holimizga hamma kulyapti,
Butun dunyo turibdi hayron,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Bir paytlar muallim bo'lgan,
Yetmish minglab hadislar bilgan,
Buxoriyni tarbiya qilgan,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**To'g'ri yo'lni kulib ko'rsatgan,
Haqiqatning o'rnin o'rnatgan
Navoiyga harf o'rgatgan,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Tinmas ko'cha-kuyda yallalar,
Qayda qoldi go'zal pallalar?
Termiziyga aytgan allalar,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Elim sochgan davri hurlikda,
Bugun esa tamom xo'rlikda,
Peshqadamdir poraxo'rlikda,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Sulton bo'lgan, uyрак qo'lida,
Hukm qilgan saroy to'rida,
Xizmat qilar Qozoq yerida,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Zahar isi kelar bolidan,
Haromi ko'p topgan molidan,
Turkman hatto kular holidan,
O'zbeklarga nima bo'lyapti?**

**Yigitlari topib “dugona”,
Xohlaganda qilar janona,
Qizlariga hayo begona,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Shoirlari mansab talashar,
Peshvolarni maqtab talashar,
Mo‘minlari mazhab talashar,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Otilgandek misli palaxmon,
Vatangado hoida hamon,
Rus yerida xor-u sargardon,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Farzlariga amal qilmaydi,
Sunnatlarni pisand ilmaydi,
Haqqin talab qilish bilmaydi,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Bugun hayron Ibn Sinolar,
Mavloni o‘tkazib dunyolar,
Topolmas qalbiga davolar,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Mo‘minligi davodan tashkil,
Hayoti kayf-safodan tashkil,
Ehsonlari riyodan tashkil,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Qodiriyni sotgani yetmay,
Behbudiyni otgani yetmay,
Bugun qo‘ymas yaxshini tutmay,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Yoqmas birov haq so‘z gapirsa,
Tag‘in haqni izlab lof ura,
Din, degan “din” so‘ziga tupursa,
O‘zbeklarga nima bo‘lyapti?**

**Chetdan kelgan har qanday odam,
Hayron bo‘lar tashlasa qadam,
Hamma uchun tunda yoqqan sham,**

O'zbeklarga nima bo'lyapti?

Qayon borsam xalqim qilar to'y,
Mijozicha aytilgandek – qo'y,
Xayrulloni o'ylatar bir o'y,
O'zbeklarga nima bo'lyapti? [153]

She'r muallifi X.Hamidov haqida 12-paragraf oxirida ma'lumot keltirganman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Futbol bo'yicha jahon chempionlari ro'yxatida yangi mamlakat. -

http://www.bbc.co.uk/uzbek/sport/2010/07/100712_cy_worldcup_final.shtml (www.bbc.co.uk/uzbek/sport/
www.bbc.co.uk/uzbek/ 12 июл 2010 - 10:40 GMT).

2. БОРОХОВ Э. Энциклопедия афоризмов (Мысль в слове) (Aforizmlar entsiklopediyasi (So'zdagi fikr)) / Худож. Ю.Д.Федичкин. – М.: ООО «Фирма «Издательство АСТ», 1999. – 720 с.
Berdyayev Nikolay Aleksandrovich (1874-1948) – rus faylasufi.

3. АХМАДЖОНОВ Ш. Kirish so'zi (Bunda men Andijon fojiasiga doir 2006 yil oktyabr-noyabr oylarida www.turonzamin.org saytida chop ettirgan beshta tahliliy maqolamni kiril alfbosida berdim). - <http://yangidunyo.com/wp-content/uploads/2010/05/andkiril7.pdf> (www.yangidunyo.com 2010.11.05);
АХМАДЖОНОВ Ш. Андижон фожиасига доир. - <http://yangidunyo.com/?p=1209#more-1209> (www.yangidunyo.com 2012.14.05).

4. SYUVIL S. Sirli o'limlar. - <http://yangidunyo.com/?p=11446#more-11446> (www.yangidunyo.com 2010.13.5, o'zbek tilida kiril alifbosida).

5. СЮВИЛ С. Таинственные смерти (Sirli o'limlar). - <http://yangidunyo.com/?p=11486#more-11486> (www.yangidunyo.com 2010.15.5, rus tilida).

6. АХМАДЖОНОВ Ш. Қирғизистондаги қирғин сабаблари (Причина трагедии в Кыргызстане). 1-қисм (Часть 1). - <http://turonzamin.org/2010/06/29/sabab/#more-11415> (www.turonzamin.org 2010.29.06, в латинице).

2-қисм (Часть 2). - <http://turonzamin.org/2010/07/03/shuhrat-ahmadjonov-8/#more-11512> (www.turonzamin.org 2010.03.07, в латинице).

3-қисм (Часть 3). - <http://turonzamin.org/2011/05/09/shuhrat-ahmadjonov-13/#more-14902> (www.turonzamin.org 2011.09.05, в латинице).

1-қисм (Часть 1). - <http://yangidunyo.com/?p=12713#more-12713> (www.yangidunyo.com 2010.30.06, в кириллице).

2-қисм (Часть 2). - <http://yangidunyo.com/?p=12765#more-12765> (www.yangidunyo.com 2010.03.07, в кириллице).

3-қисм (Часть 3). - <http://yangidunyo.com/?p=18714> (www.yangidunyo.com 2011.09.05, в кириллице).

7. АНМАДЖОНОВ Ш. 20 iyun – Xalqaro Qochqinlar kuni. - <http://yangidunyo.com/wp-content/uploads/2010/07/qochqinlar-kuni.pdf> (www.yangidunyo.com 2010.09.07).

8. АНМАДЖОНОВ Ш. Qochqinlar kuni va qochqinning kundaligi. - <http://turonzamin.org/2010/07/09/shuhrat-4/#more-11587> (www.turonzamin.org 2010.09.07).

9. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 12 jildli. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006.
10. Germaniyaga velosipedda borgan o'zbeklar yoxud ularga hatto Oliver Kan ham tan berganligi haqida. – “O'zbekiston futboli”, 2006 yil 11 iyul, 9-b.
11. “Bi-bi-si” radiosi O'zbek shu'basining 2006 yil 21 iyun soat 7.00 dagi eshittirishida aytilgan fakt.
12. RIZAYEV S. Velosipedda Germaniya zabt etildi, endi navbat Janubiy Afrika Respublikasiga. – “O'zbekiston futboli”, 2006 yil 25 iyul, 6-b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. /Z.M.Ma'rufov tahriri ostida/. – M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981.
14. Большой словарь иностранных слов (Xorijiy so'zlarning katta lug'ati). – M.: ЮНБЕС, 1998.–784 с.
15. O'zbek Sovet Entsiklopediyasi. 14 jildli. – T.: O'zSE bosh redaksiyasi, 1971-1980.
16. История футбола (Futbol tarixi). – <http://sokol-saratov.narod.ru/whist.htm> 06.-8.2002; СМИРНОВ А. Футбольная энциклопедия (Futbol entsiklopediyasi).
17. Millionlar o'yini. Uning dunyoga kelishi va rivojlanish yo'li. – “O'zbekiston futboli”, 2003 yil 21-27 yanvar.
18. G'ULOMOV Sh. FIFAning yangi islohotlari. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 13 iyun, 20-b.
19. Чемпионат мира по футболу (Futbol bo'yicha jahon chempionati). - http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A7%D0%B5%D0%BC%D0%BF%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B0%D1%82_%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%B0_%D0%BF%D0%BE_%D1%84%D1%83%D1%82%D0%B1%D0%BE%D0%BB%D1%83_2010 (www.ru.wikipedia.org/wiki/ Материал из Википедии — свободной энциклопедии).
20. Кубок мира ФИФА (трофей) (FIFAning Jahon kubogi (o'lja)). - [http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%83%D0%B1%D0%BE%D0%BA_%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%B0_%D0%A4%D0%98%D0%A4%D0%90_\(%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%B7\)](http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%83%D0%B1%D0%BE%D0%BA_%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%B0_%D0%A4%D0%98%D0%A4%D0%90_(%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%B7)) (www.ru.wikipedia.org/wiki/ Материал из Википедии — свободной энциклопедии).
21. Чемпионат мира по футболу 2010 (Futbol bo'yicha jahon chempionati 2010). - http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A7%D0%B5%D0%BC%D0%BF%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B0%D1%82_%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%B0_%D0%BF%D0%BE_%D1%84%D1%83%D1%82%D0%B1%D0%BE%D0%BB%D1%83_2010 (www.ru.wikipedia.org/wiki/ Материал из Википедии — свободной энциклопедии).
22. Pele. - <http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%B5%D0%BB%D0%B5> (www.ru.wikipedia.org/wiki/ Материал из Википедии — свободной энциклопедии).
23. Брито, Валдемар де. - http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B0%D0%BB%D0%B4%D0%B5%D0%BC%D0%B0%D1%80_%D0%B4%D0%B5_%D0%91%D1%80%D0%B8%D1%82%D0%BE (Материал из Википедии — свободной энциклопедии.)
24. Бразилия. – <http://www.grazer-oleg.narod.ru/Countries/Brazil.htm>

25. Эдсон Арантес до Насименто – Пеле (Бразилия). – Источник: Футбольная Энциклопедия. А.Смирнов, 2000.
<http://www.grazer-oleg.narod.ru/sudamericana/Players/Pele.htm> (www.grazer-oleg.narod.ru).
26. SHUHRATOV Sh. Pele – futbol qiroli. – “Sport”, 2001 yil 9 noyabr.
27. NIYOZOV N. Pele haqida 17 fakt. – “Sport”, 2002 yil 6 noyabr.
28. Mening ismim Edson, Pele emas! – “O‘zbekiston futboli”, 2006 yil 7 fevral, 7-b.
29. Pele qo‘shiq ham aytyapti. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 30 iyun.
30. Список ФИФА – 100 (FIFAning 100 futbolchi ro‘uxati). - http://go-football.org/football_stars.php (www.go-football.org Sayt “Мой футбол”).
31. ТЮРИКОВ В., ШАГУЛЯМОВ Р. Независимая Республика Узбекистан: Памятные события и даты (1991-1998) (Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi: Unutilmas voqealar va sanalar (1991-1998)). В 2 томах. – Т.: Узбекистон, 1997-1998.
32. ESHMATOV O. Alisher Nikimbayev: “Osiyo o‘yinlarida terma jamoa oldiga finalda qatnashish vazifasi qo‘yilgan”. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 14-21 iyul.
33. Qur’a 19 dekabr kuni bo‘ladi. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 18-25 iyul, 16-b.
34. RAHIMOV O., PARPIYEV B. Osiyo chempionati tarixidan. – “O‘zbekiston futboli”, 2004 yil 6 iyul.
35. Алматов Закир (Закиржон) Алматович. – www.centrasia.ru Раздел Персоны.
36. И.Каримов на прощание наградил З.Алматова орденом (I.Karimov xayrlashuv oldidan Z.Almatovni orden bilan mukofotladi). – www.centrasia.ru 22:50 23.12.2005
37. НИЗАЕВ Т. Нарыв прорвался. С заседания дисциплинарного комитета Республиканской федерации футбола (Yara yorildi. Respublika futbol federatsiyasi tartib-intizom qo‘mitasi yig‘ilishidan). – «Правда Востока», 24 августа 1995 г.
38. O‘zbekiston futbol federatsiyasida. – “Xalq so‘zi”, 1995 yil 26 avgust; “O‘zbekiston futboli”, 1995 yil 30 avgust.
39. O‘zR Prezidenti I.Karimovning farmonlari. – “Xalq so‘zi”, 1995 yil 11 noyabr; “O‘zbekiston futboli”, 1995 yil 22 noyabr.
40. O‘zR FFning yangi bosh kotibi. – “O‘zbekiston futboli”, 1995 yil 2 noyabr.
41. Mamlakat obro‘sga mas‘ulmiz. – “O‘zbekiston futboli”, 1996 yil 24 yanvar.
42. YUNUSOV O. “G‘alabamizni Parij teleminorasida nishonlasak”. – “O‘zbekiston futboli”, 1995 yil 20 dekabr.
43. SINDAROV Sh. Amunikening javobsiz qolgan to‘pi. – “O‘zbekiston futboli”, 1995 yil 22 noyabr.
44. Musobaqa jadvali. – “O‘zbekiston futboli”, 1996 yil 11 va 18 dekabr.

45. ИКРОМОМ С. ИГНПУ - Продолжается суд над Ю.Касимовым, застрелившим своего отца - замначальника Ташкентского ОБИРа (О'ИМТ – O'z otasi – Toshkent XChKF bo'limi boshlig'i o'rinbosarini otib tashlagan Yu.Qosimov ustidan sud davom etmoqda). Surat Ikromov - <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1100330460> (www.centrasia.ru 13.11.2004).
46. Mr. Mansur Qasimov versus Uzbekistan. Human Rigths Committee. Ninety-sixth session. Communication No. 1378/2005. CCPR/C/96/D/1378/2005. (Janob Mansur Qosimov O'zbekistonga qarshi. Inson huquqlari qo'mitasi. Aloqa raqami 1378/2005. CCPR/C/96/D/1378/2005. - http://www.worldcourts.com/hrc/eng/decisions/2009.07.30_Kasimov_v_Uzbekistan.htm (www.worldcourts.com/hrc/ 30.07.2009).
47. НИКИМБАЕВ А. Все дальше от Хиросимы (Xirosimadan borgan sari yiroqda). – «Молодеж Узбекистана», 3 января 1997 г.
48. So'nggi ustunga. – “O'zbekiston futboli”, 1995 yil 22 noyabr.
49. 1997 yilda Respublikamizda ro'y bergan eng muhim voqealar solnomasi. – “O'zbekiston futboli”, 1997 yil 31 dekabr.
50. “A” guruhi, “B” guruhi. – “O'zbekiston futboli”, 1997 yil 29 oktyabr.
51. HAMIDOV X., MADALIYEV A. Xayriyat-e ... – “O'zbekiston futboli”, 1997 yil 29 oktyabr.
52. ESHMATOV O., HAMIDOV X. Vega da Silva: “Braziliya – dunyoda eng kuchli, O'zbekiston esa Osiyoda!” - “O'zbekiston futboli”, 1997 yil 26 noyabr.
53. IMOMXO'JAYEV A. “Qo'llaring dastxat yozishdan toliqmasin, Mirjalol!” - “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 30 sentyabr.
54. MUSULMONOV R. Chempionlik muborak, “Paxtakor”! – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 11 noyabr.
55. Braziliyadan taklif etilgan murabbiy ... – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 11 noyabr (1-bet).
56. Qosimov: Futbolda qiziq voqealar ko'p. - <http://www.fcbunyodkor.com/uz/news/club/4335> (www.fcbunyodkor.com 04.07.2010).
57. Musobaqa yakunlari. – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 23 dekabr.
58. 13-Osiyo o'yinlari. Turkmaniston epladi, Qozog'iston yo'q. – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 23 dekabr.
59. BERDIQULOV A. Eron – Xitoy: finalga arzirli o'yin. – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 23 dekabr.
60. АХМАДЖОНОВ Ш. Власти Узбекистана хотят вновь применить карательную психиатрию (O'zbekiston hokimiyati yana jazolovchi psixiatriyani qo'llamoqchi). – www.centrasia.ru 00:58 12.06.2005.
61. G'alabani yana qancha kutamiz? (O'zbekiston – Eron – 0:4). – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 23 dekabr.
62. MUSULMONOV R. Viktor Borisov: “Imkoniyatni oldindan baholay bilish kerak”. - “O'zbekiston futboli”, 1999 yil 27 yanvar.
63. RTVELADZE G., HAMIDOV X. Yigitlarga e'tirozim yo'q ... – “O'zbekiston futboli”, 1998 yil 23 dekabr.

64. 1994 yil 17 oktyabr. Toshkent qo'nalg'asi. – “O'zbekiston futboli”, 1994 yil 19 oktyabr.
65. O'zbekiston kuchli ellik sari yaqinlashmoqda. – “O'zbekiston futboli”, 1999 yil 29 dekabr.
66. 2000 yil muhim sanalar solnomasi. – “O'zbekiston futboli”, 2000 yil 27 dekabr.
67. Germaniya tayyorgarlikka nuqta qo'ydi. – “O'zbekiston futboli”, 2001 yil 4 aprel.
68. SHUHRATOV Sh. Eron: sharq tomon yana bir qadam. – “Sport”, 2001 yil 17 oktyabr.
69. Xitoyni hisobga olmaganda an'ana davom etmoqda. – “Sport”, 2001 yil 24 oktyabr.
70. AHMEDOV N. Imkoniyatlar bor! Hammasi raqiblarga va o'zimizga bog'liq. – “Sport”, 2001 yil 5 oktyabr.
71. AHMEDOV N. Matbuot anjumani. – “Sport”, 2001 yil 17 oktyabr.
72. 14-Osiyo o'yinlari (Pusan, J.Koreya) kundaligi. – “Sport”, 2002 yil 9 oktyabr.
73. ABDUHAMIDOV A. Nepomnyashiy faoliyatiga munosabatlar. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 21-28 noyabr, 93 (365)-son, 4-5-b.
74. NIZOMOV F. Iroq Pekinga yo'l oladi. – “O'zbekiston futboli”, 2004 yil 27 iyul.
75. SHUHRATOV Sh. Mag'lubiyat uchun kim javobgar? – “O'zbekiston futboli”, 2003 yil 6 may.
76. Millionlar o'yini. Uning dunyoga kelishi va rivojlanish yo'li. – “O'zbekiston futboli”, 2003 yil 28 yanvar – 3 fevral.
77. УТЕЕВ Р. Наша сборная вылетает в четвертьфинале чемпионата Азии (Bizning termamiz Osiyo chempionati chorak finalidan haydaldi). – www. 31.07.2004.
78. Koreya bor alamini Quvaytdan oldi. – “O'zbekiston futboli”, 2005 yil 10 iyul.
79. АХМАДЖОНОВ Ш. Шерали Жўраевдек ҳофиз ва шоир юз йилларда бир марта туғилади. Китобнинг тuzатилган ва тўлдирилган 3-нашри.
<http://www.uzbekcongress.org/ddkitob/sherkiril.htm> (Kitobning tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashri kiril va lotin alifbosida www.turonzamin.org saytining “DO'K kitoblari” ruknida 2009 yil 1 mart kuni chop etilgan;
<http://yangidunyo.com/wp-content/uploads/2009/03/sherali-joraev.pdf> (www.yangidunyo.com «Янги Дунё» кутубхонаси» бўлими, 2009 йил 16 март);
<http://www.himoyachi.ucoz.ru/news/2009-03-17-892> (www.himoyachi.ucoz.ru 2009 йил 17 март).
<http://media1.yangidunyo.com/2012/03/SHERkitobINTERkir12.pdf> (www.media1.yangidunyo.com 2012.30.03, кирил алифбосида);
http://www.muvozanat.info/index.php?option=com_content&view=article&id=199:shuhrat-axmadjonovning-sherali-joraev-xaqidagi-kitobi-ikkinchi-qism-sherali-joraev-tavalludining-65-yilligi-oldidan&catid=4:-3&Itemid=5 (www.muvozanat.info 2012.10.04, лотин алифбосида).
80. АХМАДЖОНОВ Ш. Требования группа правозащитников по проблемам культуры и спорта РУз (Bir guruh inson huquqlari himoyachilarining O'zR madaniyati va sporti muammolariga oid Talabnomasi). – www.centrasia.ru 20.50 30.05.2005
81. Узбекскую футбольную сборную возглавил англичанин Бобби Хофтон (O'zbek futbol terma jamoasiga ingliz Bobbi Hofton rahbarlik qila boshladi). – www.centrasia.ru 08:28 26.07.2005

82. MUSTAFOYEV Sh. Penalti omadmid yoki haqiqat? – “Inter FUTBOL”, 2005 yil 23-30 avgust,3-b.
83. ABU MANHAQ FIG’ONIY. Unutmag’ay mani ulus ... “Devoni Fig’oniy”dan namunalar. – “Mohiyat”, 2003 yil 13 iyun.
84. Taniqli jurnalist Xayrullo Hamidovga qo’yilayotgan ayblovlar tafsilotlari ma’lum bo’lgan. - http://www.bbc.co.uk/uzbek/uzbekistan/2010/05/100504_cy_hamidov_case_details.shtml (www.bbc.co.uk/uzbek/ 2010 yil 4 may).
85. Xayrulla Hamidov 6 yilga qamaldi. – www.ozodlik.org 2010.27.05. <http://yangidunyo.com/?p=11764#more-11764> (www.yangidunyo.com 2010.27.05).
86. АХМАДЖОНОВ Ш. Хайрулла Хамидовдек махбусларга озодлик! (Свободу узникам как Хайрулла Хамидов!) – <http://yangidunyo.com/?p=21657> (www.yangidunyo.com 2011.31.08); <http://uzxalqharakati.com/archives/2076> (www.uzxalqharakati.com 2011.31.08); <http://andijonadolat.org/?p=5490> (www.andijonadolat.org 2011.31.08); http://muvozanat.info/index.php?option=com_content&view=article&id=2260:2011-08-31-21-37-17&catid=31:general&Itemid=18 (www.muvozanat.info 2011.31.08); <http://himoyachi.at.ua/news/2011-08-28-2390> (www.himoyachi.at.ua 2011.31.08); http://muxlis.at.ua/load/khar_khil/khajrulla_amidov_khakida_khudoga_ammassin_ajtib_beraman/18-1-0-1844 (www.muxlis.at.ua 2011.01.09); [http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:1tkxGgGmMgJ:my.mail.ru/community/kodirmavlonov/journal+%D0%A5%D0%B0%D0%B9%D1%80%D1%83%D0%BB%D0%BB%D0%B0+%D2%B2%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%B4%D0%B5%D0%BA+%D0%BC%D0%B0%D2%B3%D0%B1%D1%83%D1%81%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B0+%D0%BE%D0%B7%D0%BE%D0%B4%D0%BB%D0%B8%D0%BA!+\(2-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D0%BE%D0%BB%D0%B0\)&cd=18&hl=ru&ct=clnk&gl=uz&lr=lang_en%7Clang_ru](http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:1tkxGgGmMgJ:my.mail.ru/community/kodirmavlonov/journal+%D0%A5%D0%B0%D0%B9%D1%80%D1%83%D0%BB%D0%BB%D0%B0+%D2%B2%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D0%B2%D0%B4%D0%B5%D0%BA+%D0%BC%D0%B0%D2%B3%D0%B1%D1%83%D1%81%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B0+%D0%BE%D0%B7%D0%BE%D0%B4%D0%BB%D0%B8%D0%BA!+(2-%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D0%BE%D0%BB%D0%B0)&cd=18&hl=ru&ct=clnk&gl=uz&lr=lang_en%7Clang_ru) (www.webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:1tkxGgGmMgJ:my.mail.ru/community/kodirmavlonov/ 01.09.2011).
87. АХМАДЖОНОВ Ш. Хайрулла Хамидовдек махбусларга озодлик! (2-мақола) (Свободу узникам как Хайрулла Хамидов! (Статья 2)). – <http://uzxalqharakati.com/archives/2433> (www.uzxalqharakati.com 2011.12.09); <http://andijonadolat.org/?p=5685> (www.andijonadolat.org 2011.12.09); http://muvozanat.info/index.php?option=com_content&view=article&id=2300:2011-09-12-14-13-39&catid=31:general&Itemid=18 (www.muvozanat.info 2011.12.09); http://welcomebackuz.com/news/khajrulla_amidovdek_ma_buslarga_ozodlik_2_ma_ola/2011-09-12-5659#comments (www.welcomebackuz.com 2011.12.09, 18:01); <http://yangidunyo.com/?p=21789> (www.yangidunyo.com 2011.12.09, 18:01).
88. АХМАДЖОНОВ Ш. Хайрулла Хамидовдек махбусларга озодлик! (3-мақола) (Свободу узникам как Хайрулла Хамидов! (Статья 3)). - http://muvozanat.info/index.php?option=com_content&view=article&id=2349:2011-09-25-12-09-04&catid=31:general&Itemid=18 (www.muvozanat.info 25.09.2011); <http://yangidunyo.com/?p=21874> (www.yangidunyo.com 2011.26.09); <http://forumuzbekistan.forum2x2.ru/t276-topic?highlight=%D0%A5%D0%B0%D0%B9%D1%80%D1%83%D0%BB%D0%BB%D0%B0+%D2%B2%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D0%B2+++%D0%A5%D0%BE%D0%B8%D0%BD+%D0%B1%D1%9E%D0%BB%D0%BE%D0%BB%D0%BC>

[%D0%B0%D0%B4%D0%B8%D0%BC+++%D0%BA%D0%B5%D1%87%D0%B8%D1%80%D0%B8%D0%BD%D0%B3+++%D0%BE%D0%BD%D0%B0](#)
(www.forumuzbekistan.forum2x2.ru Сайт «Форум_Узбекистана», страница «Диктатор Каримовнинг очик жамиятга қарши жиноятлари/Преступления диктатуры Каримова против гражданского общества», 2011.25.09).

89. Yaponiyalik hakam penaltini hisoblamadi, FIFA esa uch ochkoni tortib oldi. – “O’zbekiston futboli”, 2005 yil 10 sentyabr.
90. Bin Hamam: “FIFA O’zbekistonni ikki bor “jazo”ladi”. – “Inter FUTBOL”, 2005 yil 13-20 sentyabr.
91. НИЗАЕВ Т. Прощай, Германия-2006, Здравствуй, ЮАР-2010! (Xayr, Germaniya-2006, Assalom JAR-2010!). – «Правда Востока», 21 октября 2005 г., с.7.
92. BOBOXONOV J. Xougtonning jamoasi mag’lub bo’ldi. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 25 iyul-1avgust, 18-b.
93. O’zbekiston alamini Trinidad oldi. – “Inter FUTBOL”, 2005 yil 18-25 noyabr.
94. MUSTAFOYEV Sh. Robert Hougton: “Bahrayn biz uchun o’tib bo’lmas to’siq emas”. - “Inter FUTBOL”, 2005 yil 23-30 avgust.
95. Valeriy Nepomnyashiy 2+2 shartnomasiga imzo chekdi. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 24 yanvar, 2-b.
96. Валерий Непомнящий уволен из Китайского «Шанхай Шэньчуа» (Valeriy Nepomnyashiy Xitoyning “Shanxay Shenchua”sidan haydaldi). – www.rambler.ru/db/news 12:05 11.11.2005
97. AHMADJONOV Sh. Futbol: O’zbekiston – Qatar – 2:0. – www.turonzamin.org 2006.15.11.
98. Qatar ham yirik hisobda yutdi. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 24 fevral.
99. NAZAROV B. Bangladesh yana yutqazdi. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 3 mart, 5-b.
100. OCh-2007. Saralash. “F” guruhi. Ishimiz nimaga yurishmayapti?! Yoxud bunga kim aybdor ... – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 18 avgust, 68-69-son, 2-b.
101. OCh-2007. Saralash. “F” guruhi. Yana xavotirdamiz ... - “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 8 sentabr, 75-76 (867)-son, 2-3-b.
102. OCh-2007. Saralash. “F” guruhi. Bir bo’lim kifoya qildi. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 13 oktabr, 82-84 (875)-son, 2-b.
103. O’zbekiston – to’rtinchi final qutlug’ bo’lsin!!! – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 17 noyabr, 2-3-b.
104. MUSTAFOYEV Sh. Nepomnyashiy keldi-yu ketdi ... Nega? – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 21-28 noyabr, 93 (365)-son, 2-3-b.
105. Футболисты «Насаф» отправились в Томск (“Nasaf” futbolchilari Tomskka jo’nashdi). - <http://www.fcnasaf.uz/ru/index.php> (www.fcnasaf.uz 2010 yil 2 iyul).
106. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori. – “Xalq so’zi”, 83 (3882)-son, 2006 yil 2 may.

107. EURO-2008. “F” guruhi. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 17 noyabr, 99-100 (888)-son, 11-b.
108. Oliy liga. 30-tur. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 14 noyabr, 90 (638)-son, 7-b.
109. AHMEDOV N. Alisher NIKIMBAYEV: “Musobaqa badali terma jamoalar manfaatini ko’zlab oshirildi”. - “O’zbekiston futboli”, 2003 yil 18 fevral.
110. Uchinchi taym. “Politotdel” 40 yilligini nishonladi. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 24 noyabr, 93(641)-son, 7-b.
111. NAZAROV B. Aziz Ashurov: “Bizga homiyilar deyarli yordam berishmadi”. - “Futbol Ekspres”, 2006 yil 24 noyabr, 93(641)-son, 7-b.
112. “Paxtakor” Osiyoda birinchi. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 8-15 dekabr, 98(370)-son, 7-b.
113. Jazo qat’iy, shikoyatga o’rin yo’q!!! -“O’zbekiston futboli”, 2006 yil 3 noyabr, 85-89 (879)-son,3-b.
114. Birinchi liga. 38-turdan keyingi vaziyat. – “O’zbekiston futboli”, 2006 yil 3 noyabr, 85-89 (879)-son, 7-b.
115. Шухрат Ахмаджонов: Ташкент. Спецназ варварски «футболил» болельщиков. - <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1206566280> (www.centrasia.ru 27.03.2008 00:18). <http://www.birdamlik.info/?p=1911#more-1911> (www.birdamlik.info 27.03.2008).
АХМАДЖОНОВ Ш. Шухрат Ахмаджонов: варварство спецназовцев в милицейской форме во время футбольного матча в Ташкенте. - <http://turonzamin.org/2008/03/27/1-639/#more-3776> (www.turonzamin.org 27.03.2008).
116. Ш.Ахмаджонов: Как Ташкентский спецназ "отфутболил" болельщиков. Ч. 2 (фото). - <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1206943380> (www.centrasia.ru 31.03.2008 10:03).
АХМАДЖОНОВ Ш. Шухрат Ахмаджонов: Сегодняшний Узбекистан. Фотоприложение к статье от 27 марта 2008 года. - <http://turonzamin.org/2008/03/31/1-652/#more-3793> (www.turonzamin.org 31.03.2008).
117. SHIRINOV B. Kim qancha to’p kiritdi? – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 28-5 dekabr, 95 (367)-son, 8-9-b.
118. Hazoraspeda hakamlar “spektakl” namoyish qilishdi. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 4-11 iyul, 53 (325)-son, 12-b.
119. Hakamlarga jazo berilishini so’raymiz. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 1 avgust, 61(609)-son, 14-b.
120. O’zbek referesi Jahon chempionatining ilk uchrashuviga hakamlik qiladi. - <http://www.ozodlik.org/content/article/2063364.html> (www.ozodlik.org 06.06.2010).
121. BASIRA. Ravshan Ermatov hakamlik mas’uliyati, o’zbek futboli va O’sh voqealari haqida. - <http://www.ozodlik.org/content/article/2099899.html> (www.ozodlik.org 14.07.2010).
122. SODIQOV Sh. Eshli Koul voqeasi yoki transferlar tartibi xususida. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 1 avgust, 61(609)-son, 13-14-b.
123. O’yinchilarga qayerda yaxshi to’lashadi: Rossiyadami yoki Ukrainada? – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 14 noyabr, 90 (638)-son, 25-b.
124. Dunyoning eng badavlat futbolchilari. – “Erudit SPORT”, 2006 yil 7 sentabr, 282-son, 25-b.

125. “Barselonalik millionerlar”. – “Erudit SPORT”, 2006 yil 7 sentabr, 282-son, 25-b.
126. HABIBULLAYEV Sh., NORMATOV U. “Surxon” tarkibida braziliyalik futbolchilar yoxud haqiqatga aylangan mish-mish. – “O’zbekiston futboli”, 2003 yil 8 aprel.
127. G’ULOMOV J. Rossiyada baxtini topgan braziliyalik. – “Futbol Ekspres”, 2005 yil 24 may, 40(485)-son, 22-23-b.
128. “Lokomotiv”da Afrika va Braziliyalik legionerlar. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 8-15 avgust, 63 (335)-son, 4-b.
129. SHIRINOV B. Kim qanday ko’rsatkichga ega? – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 12-19 dekabr, 99 (371)-son, 12-15-b.
130. «Пахтакор on-line», 19 июля 2006 года, номер 19.
131. AHMEDOV A. O’zbekistonga sayohat. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 12-19 dekabr, 99 (371)-son, 8-10-b.
132. Yaponiya chempionati. – “Erudit SPORT”, 2006 yil 7 dekabr, 295-son, 6-b.
133. Yevropada nima gap?! Kuchli chempionatlardagi legionerlar. – “O’zbekiston futboli”, 1999 yil 3 mart, 11-b.
134. Olimpiyachilarimiz Pekingacha ancha yo’lni bosib o’tishlari kerak. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 25-1-avgust, 59 (331)-son, 4-b.
135. O’zbekiston Olimpiya terma jamoasi saralashni birinchi bosqichdan boshlaydi. – “Futbol Ekspres”, 2005 yil 25 iyul, 59(607)-son, 9-b.
136. Osiyo Kubogiga qur’a tashlandi. – “Erudit SPORT”, 2006 yil 21 dekabr, 297-son, 7-b.
137. XO’JA ABDURAHMON. O’yla, izla, top! – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 25 iyul -1 avgust, 59 (331)-son, 16-17-b.
138. Chaqiruv Kubogi-2008 Xitoy Taupeyida bo’lib o’tadi. – “Erudit SPORT”, 2006 yil 30 noyabr, 294-son, 6-b.
139. JCh-2010 o’tkaziladigan kunlar tasdiqlandi. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 12 dekabr, 98(646)-son, 26-b.
140. Богатств недр Узбекистана (O’zbekiston yer osti boyliklari) – «Бизнес-вестник Востока», 18 июля 2002 г., номер 29 (547), с. 10.
141. ХОЛМАТОВ В. «Эксперт» > Безоговорочная капитуляция. Американцы не смогли полюбовно уйти из золотой отрасли Узбекистана (“Эксперт” > So’zsiz taslim bo’lish. Amerikaliklar O’zbekiston oltin sohasidan do’stlarcha ketishni uddalay olmadilar). – www.centrasia.ru 09:56 16.10. 2006.
142. Рынок драгметаллов: платина снижается, золото растет (Qimmatbaho metallar bozori: platina arzonlashmoqda, oltin qimmatlashmoqda). – www.point.ru 10:33 23.11.2006

143. В Узбекистане проведены первые биржевые торги по продаже хлопко-волокна за СКВ (O'zbekistonda paxta tolasini valyutaga sotish bo'yicha dastlabki birjaviy savdolar o'tkazildi). – 03.10.2005 21:47 www.regnum.ru
144. Angliya ligasi – eng boy. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 5-12 dekabr, 97(369)-son, 28-b.
145. Bashoratlar hamma vaqt ham oqlanavermaydi yoki Italiyaning 4-g'alabasi. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 25 iyul, 59(607)-son, 16-18-b.
146. Jahon chempionati-2006. – “O'zbekiston futboli”, 2006 yil 9 iyun, 2-14-b.
147. Parreyra afrikaliklar bilan shartnoma tuzdi. – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 1 avgust, 61(609)-son, 28-b.
148. Луис Фелипе Сколари (Luis Felipe Skolari). – www.euro04.ru 03.11.2006
149. Луис Фелипе Сколари отказался вторично возглавить сборную Бразилии (Luis Felipe Skolari Braziliya terma jamoasini ikkinchi marta boshqarishni rad etdi). – www.eurosport.ru 15.09.2006.
150. ABDULLAYEV Sh. Qisqa satrlarda. – “Inter FUTBOL”, 2006 yil 7-14 iyul, 54(326)-son, 7-b.
151. A'ZAMXO'JAYEV S. Turkiston muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2000.- 168 b.
152. ДЭВИД СМИТ. Внутри тайного мира империи Романа (Roman imperiyasining sirli dunyosi ichida). – “The Observer”, Великобритания, 25.12.2006; www.inosmi.ru 25.12.2006.
153. Атлас мира (Jahon atlas). – М.: Федеральная служба геодезии и картографии России: Издательский дом ОНИКС, 2000. – 448 с.
154. Muxlislar o'n ikkinchi o'yinchi ... – “Futbol Ekspres”, 2006 yil 28 noyabr, 94 (642)-son, 10-11-b.
155. ABDIYEV A. 2002 yil, 11-mavsum “xaltasidan”. – “Sport”, 2002 yil 20 dekabr.
156. AHMADJONOV Sh. Saytimizda futbol sahifasini ochsak. – www.turonzamin.org Sport shifasi, 2006 yil 14 noyabr.
157. Европа. Чемпионат Испании. 2009-10. - <http://stats.sportbox.ru/club.php?sp=fb&club=1249040334&turnir=327>
158. Реал. - <http://stats.sportbox.ru/club.php?sp=fb&club=1125056054&turnir=327> (www.stats.sportbox.ru).
159. Tenerife. - <http://stats.sportbox.ru/club.php?sp=fb&club=1249040307&turnir=327> (www.stats.sportbox.ru).
160. HAMIDOV X. O'zbeklarga nima bo'layapti? She'r. - http://muxlis.at.ua/publ/hayrulla_hamidov_quoto39zbeklarga_nima_bo39lyaptiquot/2-1-0-97 (www.muxlis.at.ua 23.01.2010).

E-mail: jiz54@mail.ru , tohir1953@mail.ru , ergash1955@yahoo.com ,

2007 yil 6 yanvar. Toshkent shahri.

2010 yil 21 iyul. AQSh, Boysi shahri.

2010 yil 3 oktyabr. AQSh, Washington shahri.